

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
OILA HUQUQI**

TOSHKENT -2005

QALBIMNING ARDOFI

**Qalbimning ardog‘i-oilam mening,
Hayotning sabog‘i-oilam mening,
Bu dunyo chorbog‘i-oilam mening,
Ko‘zimning qarog‘i-oilam mening.**

**Umrim bahorida g‘unchadek tugib,
Yurakda ardoqlab, qalbimda tutib,
Gohida shod bo‘lib, gohi qon yutib,
Asragan gavharim, oilam mening.**

**Tantana, to‘ylardan senga chopaman,
Sayohat, soylardan senga chopaman,
Tengsiz saroylardan senga chopaman
Vatanda vatanim, oilam mening.**

**Sening a'zolaring tanda jonimdir,
Birisi shahzoda, biri xonimdir,
Shoduman o‘tmagay sensiz onimdir
Allohim asrasin, oilam mening**

Toshkent shahri, Muattar Hamroyeva

O‘zbekiston Respublikasining Oila huquqi darsligi respublika Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan 2002 yilda tasdiqlangan dastur asosida yozildi. Darslik rahbariy adabiyotlar, Prezident asarlari, Farmonlari va Farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi va ular asosida qabul qilingan normativ aktlar va me'yoriy hujjatlar asosida yozildi.

Oilaga oid islom huquqida ifoda etilgan qoidalarga ham alohida e'tibor berildi.

Kitobda oila huquqining umumiy qismiga oid nazariy muammolar, oila, oila huquqi tushunchasi va predmeti, metodi, oila qonunchiligi tarixi, oilaviy-huquqiy munosabatlari, oila va fuqarolik huquqining nisbati yoritib berildi.

Oilaviy-huquqining maxsus qismiga oid asosiy masalalar: nikoh, er va xotinning huquqiy munosabatlari, ota-onalar va bolalarining huquq va majburiyatları, aliment majburiyatları, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarini joylashtirish shakllari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirokidagi oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilinadi.

Oila huquqining yangi institutlari xususan, nikoh shartnomasi, aliment kelishuvi, sun'iy bolani vujudga kelish tufayli otalik va onalikni belgilash masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Kitob Oila huquqi fani bo'yicha o'zbek tilida birinchi ilk bor nashr etilgan darslik hisoblanadi.

Umuman ushbu asar bu borada dastlabki harakat hisoblanib, oliv o'quv yurtlari talabalari, magistrlar, aspirantlar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, shuningdek sud, prokuratura, FHDYO, advokatlar va boshqa huquqni muhofaza qilish organlari xodimlariga, respublika aholisining huquqiy savodxonligi va madaniyatini oshirishga mo'ljallangan.

I Bo‘lim Umumiy qoidalar.
I Mavzu. Oila tushunchasi va uning asosiy vazifalari
1-§. Oila tushunchasi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994 yildan boshlab, har yili 15 may kunini Xalqaro Oila kuni sifatida nishonlashga qaror qildi.

1993 yildan buyon Venada, Qohirada, Kopengagenda va Pekinda hamda qator boshqa Xalqaro anjumanlar kun tartibiga oila masalasi ataylab kiritilishida ham ma'no bor.

Har yili belgilanayotgan va amalga oshirilayotgan xayrli ishlarning barchasida oila va uning mustahkamligi muammosi umuminsoniy vazifa ekanligi e'tirof etilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 16-moddasida shunday deyiladi:

"1.Balog‘atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklashsiz nikohdan o‘tish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o‘tayotganda ham, nikohda bo‘lgan vaqtida ham va nikoh bekor qilinayotganida ham bir xil huquqlardan foydalanadilar.

2.Nikoh, nikohdan o‘tayotgan ikkala tomonning xohishi va batamom roziligi bilangina tuzilishi mumkin.

3.Oila jamiyatning tabiiy va asosiy xujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga egadir"¹.

Hozir yer yuzida 6,2 milliard kishi istiqomat qilmoqda. Ularning 43 foizi shaharda, qolGANI qishloqlarda yashaydi².

O‘zbekiston Respublikasida 25 milliondan ortiq aholi yashasa ular 4 million 800 ming oiladan iborat.

Aholining 98 foizi oilalarda, qolganlari esa yolg‘izlikda yashaydilar.

Har yili 350-400 ming bola tug‘ilmoqda. Yiliga o‘rtta hisobda 170 ming yosh oila vujudga kelmoqda.

Mamlakatimizda 5 milliondan ortiq reproduktiv ayollar (bola tug‘ish yoshidagi ayollar) mavjud.

Aholining o‘rtta yoshi 70. Ayollar 72 yosh, erkaklar 68 yosh.

Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqyelik ekanligi hyech kimda shubha tug‘dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy hujayrasi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning bahtiyorligi va farovonligi pirovard natijada jamiyatning barqarorligi, gullab-yashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a'zolarini, ayniqsa o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyasi asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga molikdir.

¹ Inson huquqlari to‘g‘risida xalqaro bill. –T.: Adolat, 1992, 14-bet.

² "Xalq so‘zi", 2002 yil 18 sentabr

Inson shaxsini shakllantirishda oila, shubhasiz, dastlabki bosqich vazifasini o'taydi, ya'ni oilada odamlarning bir-biri bilan, jamiyat va davlatga nisbatan munosabatiga asos solinadi.

Shu munosabat bilan "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi "Jamiyat va oila: ma'naviy va ahloqiy olam" mavzuida so'rov o'tkazdi. Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad-O'zbekiston fuqarolarining oila va oilaviy munosabatlarga qarashi, milliy qadriyatlar va mahallaning oila hayotidagi o'rni, bu borada barqaror an'analarni tiklash, aholining huquqiy savodxonligi darajasini aniqlash va o'rganishdan iborat edi. So'rovda 10 viloyat, Qoraqalpog'iston va Toshkent shahri qamrab olindi. Unda erkaklar va ayollar, shahar va qishloq aholisi ishtirok etdi.

"Zamonaviy oila jamiyat hayotida qanday asosiy vazifani o'taydi?" degan savolga so'ralganlarning 47,5 foizi oila jamiyat va davlat asosiy, deb javob berdi. So'rov ishtirokchilarining 21,2 foizi oila yosh avlodni tarbiyalash vazifasini bajaradi, degan fikr bildirdi. 11,2 foiz so'rov ishtirokchilarining fikricha, oila mamlakatda barqarorlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko'maklashadi. 7,9 foiz odamlar esa oila vazifasini nasl qoldirishda deb biladi.

Oilaning har bir inson hayotidagi ahamiyati haqida so'ralganlar quyidagi fikrlarni bildirdi: "u naslni davom ettirish, bolalar tug'ilishi va tarbiyasi uchun zarur" (63,2 foiz), "oila-inson qo'rg'oni, unga hayotda ishonch bag'ishlaydi" (28,8 foiz), "oila odam qariganda uni ta'minlash uchun zarur" (4,9 foiz). Ayni paytda poytaxtliklar-so'ralganlarning 52,6 foizi-oila ular uchun, avvalombor, hayotda ishonch bag'ishlovchi qo'rg'on ekanligini ko'proq ta'kidlashdi³.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida ta'kidlangan quyidagi so'zlar nihoyatda ramziy va teran ma'nodadir: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega".

Jamiyat va davlatning oila xususidagi g'amxo'rлиgi avvalombor, davlat yuritayotgan kuchli ijtimoiy siyosatda namoyon bo'lmoqda. Davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy islohiy chora-tadbirlarning bosh maqsadi inson, oila manfaatlarini qanoatlantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1997 yil "Inson manfaatlari yili", 1998 yil "Oila yili", 1999 yil-"Ayollar yili", 2000 yil-"Sog'lom avlod yili", 2001 yil-"Ona va bolalar yili", 2002 yil-"Qariyalarni qadrlash yili" deb e'lon qilindi. Hukumat tomonidan har yili tegishli Davlat dasturlari qabul qilinib, sobitqadamlik bilan amalga oshirilib kelinmoqda.

Mazkur tashabbuslarning o'ziga xos ramziy ma'nosi va sabablari bor.

Avvalo bu Inson manfaatlari Oila, Ayollar, Sog'lom avlod yili deb e'lon qilinib, ko'pdan-ko'p savobli ishlar amalga oshirilgan jarayon bo'ldi. Chunki Inson, Oila, Ayol, Sog'lom avlod, Ona va bola tushunchalarini bir-biridan ajralgan holda tasavvur etish qiyin.

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan ijtimoiy-siyosiy soha munosabatlarini

³ "Xalq so'zi", 2002 yil 26 sentabr

tartibga solishga qaratilgan qonunlar xalqaro huquqiy standartlarga to‘la-to‘kis mos bo‘lib, ular ruhini hayotimizga singdirish ishiga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston Sharq mamlakatlari sirasiga kiruvchi davlatdir. Ma'lumki, Sharqda qadimdan oila muqaddas maskan sanalgan. Unga bunday e'zozli munosabat bugungi kunda ham o‘zgargani yo‘q.

"Oila,-deydi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urfodatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i..."⁴

Oilani e'zozlash, uning qadr-qimmatini yuksakka ko‘tarish bizning ongimizda mustahkam jo bo‘lgan.

Mamlakatimiz aholisini tarbiyalashda milliy istiqlol g‘oyasini o‘rnii alohidadir. "Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog‘lom muhit-sog‘lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o‘zaro hurmat va ahillikni ta'minlash-milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi".⁵

2-§. O‘zbek oilasining o‘ziga xos xususiyatlari

Respublikamizda bir yuz o‘ttizga yaqin millat vakillari hamjihat yashab, O‘zbekiston mustaqilligi ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Har bir millatning oilasini o‘ziga xos xususiyatlari bor. Mamlakatimizda aholini ko‘pchilagini 85 foizini o‘zbek millati tishkil etilganligi uchun, darslik birinchi marotaba o‘zbek tilida chop etilayotganligini inobatga olib asosiy e'tiborni o‘zbek oilasining o‘ziga xos xususiyatlariga qaratishni lozim deb hisobladik.

Uzoq yillik tarixiga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi oilaga juda katta e'tibor berib kelgan.

Yer kurrasida yashovchi turli xalqlar va millatlarning har birining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgani kabi ularning oilaviy hayotida ham o‘ziga xos xususiyatlari bor.

O‘zbek oilasi serfarzandlik, bolajonlik, oilaparvarlik kabi ijobiy xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Oilaga sharqona, o‘zbekona sodiqlik, o‘tgan yetti pushtini bilish, ota-onas, qarindosh urug‘, keksalarga hurmat, yoshlarga mehribonlik, oila a'zolari, er-xotin va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi uning o‘ziga xos xususiyatlaridir. Oilalar juda katta bo‘lib jamoa asosida yashab kelganlar.

O‘zbek oilasi or-nomusli, kuchli oiladir. Shuning uchun u o‘zining milliy qiyofasini yo‘qotmagan holda butun oilaning sha'ni, obro‘sini saqlash uchun

⁴ 1998 yil-Oila yili.-1998- god Semi., -T.: O‘zbekiston, 1998, 9-10-betlar.

⁵ Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2000. 66-b.

mas'uliyat bilan ish tutadi. Er oila posboni, uning boquvchisi hisoblansa, xotin esa uning ko'rki, fayzi barokatidir. Ularning umr gulshanlari qobil farzandlaridir.

Prezidentimiz Islom Karimov o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlarini e'tirof etib shunday deydi: "Oila-jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunishimiz mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas. Oila turmush va vijdon qonunlari asosiga quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlari shakllanadi. O'zbeklarning aksariyati o'zining farovonligi to'g'risida emas, balki oilasining qarindosh-urug'lari va yaqin odamlarining qo'shnilarining omon-esonligi to'g'risida g'amxo'rlik qilishi birinchi o'ringa qo'yadi. Bu esa eng oliv darajada ma'naviy qadriyat, inson qalbining gavharidir⁶.

Serfarzandlik o'zbek oilasining alohida belgisidir. Bizda ko'p bolalik onalar soni boshqa mintaqalardagiga nisbatan ancha ziyod.

O'zbek oilasidagi bolajonlik, farzandlar tomonidan ota-onalarni hurmat qilishligi, oilalarni asosan ko'p sonli bo'lib, ularda turli avlod vakillarini birga yashashligi va birga xo'jalik yuritishlari, mehnatsevarlik, sahiy va mehmondo'stlik yaxshi xususiyatlar saqlanib qolinmoqda.

O'zbek oilasining o'ziga xos etnografik xususiyatlari: ko'p bolalik, ko'p tabaqalilik (bir necha avlod vakillarining birga yashash), avlodlar o'rtasidagi bog'liqlikning boshqa mamlakatlardagina nisbatan kuchliligi va shu kabi qator xususiyatlari unda psixologik ahamiyatini yanada orttirib yuboradi.

Vatanimiz 130 yildan ziyod qorong'ulik qa'rida yashadi, shuncha muddat fuqarolarning haq-huquqlari toptaldi, qonunsizlik avj nuqtaga yetdi. Mustamlakachilik siyosatining "sovetcha" madaniy shakli vujudga keldi: fuqarolarning haq-huquqlari qog'ozda qayd etilardi-yu, amalda uning teskarisi qilinardi.

Keyingi yetmish yil ichida "soviet davrida" o'zbek oilasining obro'si bir oz pasaydi, mavqyei tushdi. Milliy an'analarimizda ifodalangan. "Oila majlisi", "Oila o'chog'i", "Oilaviy qonunlar", "Oilaviy samimiyyat" degan ifodalar yo'qolib, turmushimizdan chiqib ketdi. Shu davrda erkaklar hurmati, xususan oila rahbari ota sha'ni va obro'si biroz pasayib qoldi.

Mamlakatda boshqa yo'nalish ham sezilmoqda. O'zbek oilalari ham juda ko'p sonli bolalar tug'ilishini xohlamay qolmoqdalar. Qishloq joylarda 5-6, shahar joylarda esa 3-4 bola to'g'ri keladi.

Endilikda mustaqillik asosida, milliy istiqlol mafkurasi asosida o'zbek oilasini obro'sini, uning nufuzini yuqori ko'tarish lozim.

3-§. Oilaning asosiy vazifalari

⁶ I.Karimov. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O'zbekiston, 1993, 47-b.

Oilaning jamiyat oldidagi asosiy vazifalaridan biri-farzand ko‘rish va tarbiyalash g‘oyat muhimdir. Aholi soni ma'lum muayyan ko‘rsatkichda bo‘lib turishi uchun har 100 oilaga 260 ta bola to‘g‘ri kelishi kerak. Aniqrog‘i, 100 oiladan 60 tasi 3 tadan 40 tasida 2 tadan bola bo‘lishi lozim. Demografik olimlar hisoblariga ko‘ra, agar har bir oila bittadan farzand ko‘rsa, sakkizinchchi avlodga kelib, ya’ni 200 yildan keyin bu xalq millat tariqasida yo‘q bo‘lib ketishi mumkin ekan⁷.

O‘zbekiston dunyoda aholisining soni juda tez ko‘payib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Oila erkak va ayolning nikohdan o‘tib, bir yostiqqa bosh qo‘ygan kunidan boshlanadi. Uning eng muhim vazifasi naslni davom ettirish, shuningdek otabobolarining eng yaxshi an'ana va udumlarini davom ettirish, turmushni mustahkamlashdan iboratdir.

Oila jamiyatning boshlang‘ich hujayrasini tashkil etib, unda aholini ko‘payishi va yosh avlodni tarbiyalash vazifalari bajariladi.

Uning muhim ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, u jamiyatning demokratik hujayrasini tashkil etib odamlar shu muqaddas koshonada tug‘ilib o‘sib jamiyat tarkibini tashkil etadi.

Ikkinchidan, oila muhim bo‘g‘in bo‘lib unda biz mehnat jarayonida sarf qilgan kuchlarimizni tiklaymiz.

Uchinchidan, oila muhim tarbiya o‘chog‘i.

Va oxiri **to‘rtinchidan**, nodir ruhiy muhitdir.

Olimlarning fikricha, odamlar hayotining birdan-bir to‘g‘ri yo‘li oilaviy hayot ekan. Yolg‘iz bo‘lib yashash har xil palakatlarga va fojalarga olib kelar ekan.

Shuning uchun Amerika Qo‘shma Shtatlarida qariyalar yolg‘iz uyda qoldirilmasdan ularni bolalari bo‘laturib qariyalar uylariga joylashtiriladi.

Italiyalik mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, hozirgi paytda har besh ovrupolikning biri uyqusizlikdan azob chekarkan. Buning asosiy sababi yolg‘izlikdir.

Ko‘pchilik odamlar oilaviy hayotda yashaydilar, oila-oila bo‘lib yashashlikni o‘zlariga ma’qul deb hisoblaydilar.

Buyuk Britaniyada yolg‘iz onalar va yolg‘iz qariyalar soni esa yildan yilga ko‘paymoqda. Ayni paytda mamlakatning 15 foiz aholisi yolg‘izlikda umr kechiradi⁸.

Islom yakkalikni, bevalikni yoqtirmas. Bu ham o‘z yo‘lida biz bilib-bilmagan bir donolik va donishmandlikdir⁹.

Islom dinidan tashqari boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchi olimlarning e’tirof etishicha dunyoda eng mustahkam oila bu islom diniga e’tiqod qiluvchilarning oilasidir.

⁷ "Oila va jamiyat" 11 (232)

⁸ "Oila va jamiyat" 1996 yil, 15-son.

⁹ "Oila va jamiyat" 1997 yil, 39-son.

San'at va ilm-fan olamida so'qqa boshlar juda ko'p. Oilaviy hayotga qaratilgan tarbiyaviy ishlar ko'paytrilishi lozim, chunki bu aholini ayrim qatlamlari bizga chetdan kirib kelgan "bo'ydoq" bo'lib yashashlikni xohlovchilarni ko'payib borishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'zbek xalqining hayot tarzida, musulmonchilikka mutlaqo to'g'ri kelmaydigan holdir.

4-§. Oila jamiyat va davlat muhofazasida

a) Oila jamiyat himoyasida.

Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasini tashkil etadi. Jamiyat katta-kichik oilalardan iborat. Bu oilalar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik mustaham bo'ladi.

Biz qurayotgan adolatli fuqarolik jamiyatida oila o'ziga xos ijtimoiy birlashmani tashkil etadi. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog'liqligida hamda ijtimoiy vazifalarda ifodalangan.

Mamlakatda har bir oila va har insonning turmush farovonligini, fuqarolar totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda.

Prezident I.Karimov bu boradagi vazifalar haqida gapirib: "Eng muhim vazifa-xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qudrini biladigan, ma'naviy sog'lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil etadi"¹⁰-degandi.

Bu adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishni maqsad qilgan ekanmiz, jamoat birlashmalari, notijorat va nodavlat tashkilotlari, jumladan, fondlarning ahamiyati, oilani muhofazasi oshib boraveradi.

Jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini kuchaytirish, ya'nii "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" tamoyilini hayotga joriy etish demakdir.

Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, ayni paytda mamlakatimizda ikki yarim mingdan ziyod jamoat birlashmalari, notijorat va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko'rsatayapti. 40 ga yaqin fondlar bor¹¹.

Bugungi kunda respublikamizda o'n mingtaga yaqin mahalla va qishloq fuqarolari yig'lnari oilalar bilan jamoatchilik asosida katta tashkiliy va ommaviy ishlarni olib bormoqdalar, oilalarni saqlab qolish va ularni mustahkamlashga, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini himoya qilishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

B) Oila davlat muhofazasida

Davlat tomonidan oilaga kun sayin g'amxo'rlik qilish, unga har taraflama moddiy yordam berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 65-moddasini 2-qismi va Oila kodeksini 4-moddasini 1-qismiga binoan Oila, onalik, otalik va bolalik davlat

¹⁰ I.Karimov. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.: O'zbekiston, 1993, 14-b.

¹¹ "Xalq so'zi", 2001 yil 17 aprel.

himoyasida.

Mamlakatimizda oilani davlat muhofazasida bo‘lishini O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish majmui kotibiyati olib boradi.

O‘tgan vaqt davomida respublikamizda ayollar va o‘sib kelayotgan yosh avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida sog‘lom oilani shakllantirish, tug‘ish yoshidagi ayollarni sog‘lomlashtirish ishlari o‘zining ijobiy samarasini berdi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi birinchi sessiyasi kun tartibida "Oila va ayollar muammolari komissiyasi" tashkil etildi.

Ushbu komissiya oila va ayollar muammolari bo‘yicha davr talablariga javob beradigan oilani saqlash va mustahkamlashga, yangi avlodni tarbiyalashga qaratilgan yangi qonunlar loyihamalarini tayyorlash vazifalarini o‘z oldiga qo‘yadi.

Oilanning davlat muhofazasida ekanligi Respublikamiz prezidentining farmonlarida o‘z aksini topmoqda. Prezidentning birinchi farmoni 1990 yil 3 mayda qabul qilingan bo‘lib, "Ko‘p bolali onalarga nafaqa miqdorini ko‘paytirish to‘g‘risida" deb nomlangan¹².

Unda ko‘p bolali onalarning moddiy ahvolini, yosh avlodning o‘sish sharoitlarini yaxshilash maqsadida onalarga to‘lanadigan oylik nafaqa ikki martaga ko‘paytirildi. Mazkur Farmon o‘zbek xalqining bolajonlik tabiatini ko‘rsatadi.

Faqat keyingi yillarda Respublika Prezidentining oilaga aloqador bir qator farmonlari qabul qilindi.

Mustaqillik yillarida 2,5 million oila birinchi marta yer uchastkalari oldilar va o‘z yer uchastkalarini kengaytirdilar. Tomorqa uchastkalarning o‘rtacha hajmi 20 sotixdan oshdi. Shaxsiy tomorqalar hajmini yanada kengaytirish va ularni 0,25 getktarga yetkazish nazarda tutilmoqda.

Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan 1998 yili "Oila yili" deb e’lon qilinishi bilan shu yili oila manfaatlari uchun barcha manbalar bo‘yicha 144,8 milliard so‘m mablag‘ ajratilib, ularning deyarli yarmi davlat budgetidan qoplandi.

Oila ishi bu oila a’zolarining shaxsiy ishi deb ularni o‘z holiga tashlab qo‘yish mumkin emas. Ayniqsa, bozor mexanizmlarini joriy etishdan oldin serfarzand, kam ta’minlangan oilalarni, bolalar, bolali yolg‘iz ayollarga davlat va jamoat yordamini ko‘rsatish lozim.

Mamlakatimizda alohida e’tibor yoshlari oilasiga qaratilingan.

Prezident Islom Karimov "Kamolot" yoshlari ijtimoiy harakati tashabbus guruhi yig‘ilishida so‘zlagan nutqida shunday dedi: "Harakat... yosh oilalarga yordam berishni o‘zining asosiy burchi deb bilishi, shu maqsadda "Yosh oila" dasturini ishlab chiqish masalasiga alohida ahamiyat qaratishi zarur."

...Harakat endigina turmush qurgan yosh oilalarga ma’lum bir imtiyozlar berilishi, aytaylik, ularga keyin bo‘lib-bo‘lib qaytarish sharti bilan imtiyozli kreditlar ajratilishi haqida o‘z takliflarini ilgari surishi va ularni amalga oshirishi

¹² "Sovet O‘zbekiston", 1990 yil 4 may.

uchun harakat qilish o‘rinli, deb bilaman. Ishonchim komilki, bu yosh oilalarga moddiy yordamgina bo‘lib qolmay, ayni paytda ularni mustahkamlashga ham xizmat qilishi muqarrar¹³.

Hozircha oila haqida alohida fan yo‘q, oilaning turli qirralarini o‘rganish bilan esa, o‘ndan ortiq fanlar shug‘ullanadi, bular: *etnografiya, aholishunoslik, demografiya, ijtimoiy geografiya, sotsiologiya, iqtisodiyot fanlari bilan statistika, psixologiya, oila pedagogikasi, tibbiyat, huquqshunoslik* hamda boshqalardan iborat.

Etnografiya-nikoh-oila munosabatlarini xalqlar turmush tarzining bir tabaqasi sifatida o‘rganadi.

Aholishunoslik-demokrafiya aholining hamda uning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish oilaning turli xil muammolari, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy jarayonlar asosida o‘rganadi.

Ijtimoiy geografiya-tadqiqotlarida aholi va oilaning hududiy tafovutlari kompleks tahlil qilinadi.

Sotsiologiya-inson hayotining ijtimoiy jihatlarini, kishilik jamiyatining barcha ijtimoiy munosabatlarni o‘rganadi.

Iqtisodiyot fani bilan statistika oila budgetini, oila ishlab chiqarish (agar u mavjud bo‘lsa) va oilaviy iste'molni, mehnat taqsimotini hamda oiladagi xo‘jalik-iqtisodiy munosabatlarni to‘dqiq etish bilan shug‘ullanadi.

Psixologyaning vazifasi asosan nikoh-oila munosabatlarida namoyon bo‘ladigan hissiyot, tasavvur, urf-odatlarni, shuningdek bu psixologik (ruhiy) hodisalarining ijtimoiy va tabiat manbalarini o‘rganishdan iborat.

Oila pedagogikasining maqsadi-oilaning bolalarga ko‘rsatadigan ta’sirini, oiladagi tarbiya qonuniyatlari va vositalarini, ota yoki onaning bolaga ta’sirini, oila bilan boshqa xil tarbiya muassasalarining o‘zaro munosabatlarini aniqlashdir.

Tibbiyat fani-nikohning fiziologik jihatlarini va uning oqibatlarini, shuningdek oilaning oila a’zolari sog‘lig‘iga ta’sirini tatbiq etadi.

Huquqshunoslik oila to‘g‘risidagi qonunlarni va oilaning ijtimoiy hayotga munosabatini o‘rganib, mavjud yoki jamiyat uchun maqsadga muvofiq bo‘lgan huquqiy qoidalarni asoslab beradi.

Hozirgi davrda oilani turli fanlar tomonidan har tomonlama ilmiy tadqiq qilish lozim. Fikrimizcha, oilaning o‘ziga xos xususiyatlarini ayniqsa oilaparvarlik, serfarzandlik, farzandlar tomonidan ota-onalarni hurmat qilishlik, oila a’zolari o‘rtasidagi inoqlikka katta e’tibor berish lozim. Bu borada dastlabki ishlar qilinmoqda. Mustaqillik yillarida bunga asos solindi. 1991 yildan boshlab, O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi, Bolalar jamg‘armasi va "Sog‘lom avlod uchun", Xalqaro xayriya jamg‘armasi organi "Oila va jamiyat" haftalik ro‘znomasi chiqa boshladi. Haftanoma oila, buva va buvi, ota va ona, o‘g‘il-qiz, nevara-evara, chevara, dubora masalalariga juda katta ahamiyat bermoqda. Uning asosiy vazifasi tuzilgan nikohni saqlab qolish, oilani mustahkamlash, otalik-onalik va bolalikni

¹³ "Xalq so‘zi", 2001 yil 25 yanvar

muhofaza qilishdan, uning kelajak taqdiriga, oila a'zolari obro'sini oshirishga qaratilgan muhim tadbir va choralarni ishlab chiqishdan iborat.

Oila masalalariga to'g'ri munosabatda bo'lib, uni mustahkamlash uchun ilmiy asoslangan takliflar berish lozim.

Endilikda bu vazifani "Respublika Oila ilmiy-amaliy Markazi" bajaradi.

Darvoqye, AQShda oila masalalarini o'rghanuvchi institatlarning o'zigina yigirmadan ziyod ekan¹⁴.

Huquq fani tizimida oila huquqini o'rni alohidadir. Chunki oila huquqini talabalar tomonidan o'rghanish faqat bilish-bildirish ahamiyatga ega bo'lmay tabiiy va hayotiy muhim ahloqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ham molik bo'lib, barkamol shaxsni va oqilona ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish vositalaridan biri hamdir.

¹⁴ "Oila va jamiyat", 1992 yil, 49-son.

II Mavzu. Oila huquqi tushunchasi, tamoyillari va tizimi

1-§. Oila huquqi tushunchasi

Oila jamiyatning tabiiy va asosiy xujayrasidir. U qancha mustahkam bo‘lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam va tez rivojlanadi. Jamiyatimiz asosi-oila moddiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanmoqda.

Oila a'zolari o‘rtasidagi munosabatlar ahloq-odob va huquqiy qoidalar bilan tartibga solinadi.

Oila huquqi huquqning mustaqil sohasi bo‘lib, nikoh, qon-qarindoshlik, bolalarning nasl-nasabini belgilash, ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan kelib chiqadigan munosabatlarni huquqiy tartibga soladi.

Oila huquqini predmeti bo‘lib, oila a'zolari o‘rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlar hisoblanadi.

Shaxsiy munosabatlarga, er-xotinning familiyasi, bolalar tarbiyasi, oila turmushi masalalarini hal qilishi, mashg‘ulot turi, kasb va turar-joy tanlash huquqlari kiradi.

Mulkiy munosabatlarga esa, er va xotinning nikoh davomida orttirgan umumiy mulklari, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiy mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulklari, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha holat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiy mulki hisoblanadi.

Ota-onas hamda bolalarning mulkiy huquq va majburiyatları, oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları kiradi.

Huquqiy-demokratik davlat, erkin adolatli fuqarolik jamiyatida mulkiy bo‘lmagan nomulkiy shaxsiy munosabatlar asosiy belgilovchi, mulkiy munosabatlar esa bo‘ysunuvchi hosila xarakterga ega. Oilaviy munosabatlar yig‘indisida mulkiy bo‘lmagan shaxsiy munosabatlarni ustun bo‘lishligining sababi, avvalo naslni davom ettirish va bolalarni tarbiyalash bilan bog‘liqidir.

Shunday qilib, oila huquqi nikoh tuzish tartibi va shartlari, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi, oilada er va xotin o‘rtasida, ota-onas bilan bolalar o‘rtasida, oilaning boshqa a'zolari o‘rtasida kelib chiqadigan shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan munosabatlarni, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish tartiblarini belgilaydigan huquqiy normalar yig‘indisidan iborat.

2-§.Oila huquqining tamoyillari (prinsiplari)

Oila huquqi mohiyatini olib berishda faqat uning tushunchasi, predmetini o‘ziga xos xususiyati va shu bilan birga uning eng muhim tamoyillarini ham inobatga olish lozim, chunki uning tamoyillari bu huquq sohasining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Oila huquqi tamoyillari deganda, ushbu huquq sohasining mohiyatini aniqlab beradigan hamda huquqiy mustahkamlanganligi sababli umummajburiy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy negiz, rahbariy qoidalar tushuniladi.

Oila huquqi tamoyillarini hisobga olmasdan uning normalarini to‘g‘ri sharhlab va qo‘llab bo‘lmaydi. Oila huquqi tamoyillari nafaqat huquqni qo‘llash amaliyoti uchun, balki shu bilan birga amaldagi oila qonunchiligining mohiyatini anglash hamda uning keyingi takomillashtirilishi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Oila huquqining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1) Oilani jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqi

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 63-modda).

A) Oila davlat himoyasida.

Oila davlat himoyasida deyilganda avvalo vujudga kelgan oilalarni saqlab qolish va ularni mustahkamlashga qaratilingan davlat tomonidan ko‘rilgan tadbir choralarni tushuniladi.

Davlatning oila xususidagi g‘amxo‘rligi avvalombor hukumat yuritayotgan kuchli ijtimoiy siyosatda namoyon bo‘lmoqda. Davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy islohiy chora-tadbirlarning bosh maqsadi inson, oila manfaatlarini qanoatlantirishdan iborat.

Oilaning davlat muhofazasida ekanligi Respublikamiz Prezidentining farmonlarida o‘z ifodasini topmoqda.

Jahonning bir guruh tadqiqotchi olimlari tomonidan respublikada oilani, onalik va bolalikni himoya qilish borasida qilinayotgan ishlar o‘rganib chiqildi. Natijalar chet ellardagi ahvol bilan taqqoslaganda, biror bir mamlakat Prezidenti elni, oilalarni ijtimoiy himoyalash borasida bizning Yurtboshimiz kabi ko‘p qaror va farmonlar qabul qilinganligi ma'lum bo‘ldi.

B) Oila jamiyat muhofazasida

Jamiyat tomonidan oila muhofaza qilinadi deyilganda, mamlakatda mavjud bo‘lgan jamiyatlar va jamg‘armalar tomonidan nodavlat notijorat tashkilotlarni oilaga ham moddiy, ham ma’naviy yordam berishlari tushuniladi. Bu qoida mustaqil Respublikaning Konstitutsiyasida belgilangan yangi qoidadir.

Mamlakatimizda jamoat tashkilotlari har xil jamg‘armalar hisobidan oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish uchun turli moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatib kelmoqda.

Mamlakatdagi jamoat tashkilotlar tarkibiga kasaba uyushmalari, jamg‘armalar, yoshlar va xotin-qizlar harakatlari, kasbiy assotsiatsiyalar, klublar va boshqalar kiradi. Hozirgi paytda mamlakatimizda respublika va xalqaro ahamiyatga molik 220dan oshiq jamoat birlashmalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Jumladan, 4 ta siyosiy partiya, 2 ta harakat, 46 jamiyat, 5 ta qo‘mita, 24 assotsiatsiya, 18 ta tarmoq kasaba uyushmalari, 35 ta jamg‘arma, 15 utsyushma, 32 ta federatsiya, 31 ta boshqa tashkilotlar mavjud. Shuningdek, respublikamizda hisob ro‘yxatiga olingan 1500 viloyat, 20 dan ortiq xorijiy davlatlarning jamoat tashkilotlari mavjud¹⁵.

Jamoat tashkilotlari o‘z maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda respublikada o‘tkazilayotgan keng ko‘lamli islohotlarga munosib hissa qo‘shib oilalarni mustahkamlashga ko‘maklashmoqda. Masalan, ekologiya va salomatlik sohasida "Ekosan", ehtiyojmand kishilarga va nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatishda "Navro‘z" jamg‘armalari, nogironlar jamiyatlari, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirishda Xotin-qizlar qo‘mitalari, mehnatkashlarning kasbiy va boshqa qonuniy manfaatlarini ifoda etishda kasaba uyushmalari, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashda "Ulug‘bek, "Umid" jamg‘armalari faoliyatini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

¹⁵ "Xalq so‘zi", 1998 yil 20 avgust.

Nima uchun mamlakatimizda oilaga jamiyat tomonidan bu qadar katta e'tibor berilmoqda? Chunki oila jamiyatning bir bo'lagi, uzviy qismi bo'lib, uning bosh bo'g'inini tashkil etadi. U qancha mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shuncha mustahkam bo'ladi.

Oila ayni vaqtida jamiyatning, avvalo, uning jamiyat manfaatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligida hamda ijtimoiy vazifalarida yaqqol aks etadi.

2) *Barcha fuqarolar-jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqyeidan qat'iy nazar qonun oldida tengligi.*

Oila huquqida barcha fuqarolar millati, irqidan qat'iy nazar teng ekanligi ifodalangan "...barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqyeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasasi 18-modda). Bu xalqlar do'stligidan kelib chiqadigan o'zgarmas qoida bo'lib oila huquqida o'z ifodasini topib odamlarni har xil millatga tegishli ekanligi yoki irqiga mansubligi oilaviy munosabatlarda hyech qanday ahamiyatga ega emasligini anglatadi.

Nikoh tuzish uchun fuqarolarni har xil millatga, dinga e'tiqod etishligi to'siq bo'lomaydi.

Bolalarni farzandlikka olishda farzandlikka olishda farzandlikka oluvchilarni bolalardan boshqa millatga tegishli ekanligi ham monelik qilolmaydi.

Hayotimizda nikoh, farzandlikka olish tufayli fuqarolarning bir oilaga birlashganligini ko'plab uchratish mumkin.

3) *Hamma oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkak teng huquqlidirlar.*

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasiga binoan, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Bu tamoyil konstitutsion qoidaga aylandi.

Jamiyatda ayol bilan erkakning teng huquqliligi mamlakatimizda erishilgan jinsidan qat'iy nazar fuqarolarni siyosiy tengligiga asoslanid.

Bu tamoyil Oila kodeksining 2-moddasida quyidagicha ifodalangan: oila munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlani tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

4) *Oilaviy munosabatlarda ishtirok etuvchilarni ma'naviy va moddiy qo'llab-quvvatlash hamda ularning o'zaro bir-biriga g'amxo'rlik qilishi.*

Bu tamoyil oilaviy munosabatlarning mazmunidan kelib chiqib ular moddiy hisob-kitoblardan holi bo'lgan bir-biriga muhabbat, hurmat kabi hissiyotlarga asoslanadi.

Er va xotin, ota-onva bolalar, bobo-buvi va nabiralar, aka-ukalar va opasingillar, farzandlikka olganlar va farzandlikka olinganlar va hokazolar o'rtasidagi munosabatlar-avvalo nikoh, qon-qarindoshlik yoki oilaviy rishtalar bilan bog'liq

bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi shaxsiy munosabatlardir.

Oilaviy munosabat ishtirokchilarining bir-biriga munosabati umum ahloqiy tamoyilga va ma'naviy me'yorlar bilan tartibga solinadi. Bu esa huquqiy demokratik davlatni muvaffaqiyat bilan qurayotgan jamiyat a'zolariga xosdir.

Oila a'zolari o‘rtasidagi munosabatlarning huquqiy tartibga solinishi mana shu tamoyillarga tayanadi va ularga to‘la mos keladi. Ba'zi hollarda qonun oila a'zolarining o‘z yaqinlariga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatini yuklaydi. Oila kodeksining 109-moddasiga binoan voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordama muhtoj o‘z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart.

Amaldagi qonunda oila a'zolarining aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv tartibi e'tirof etiladi va ushbu tartib jamiyatda o‘rnatilgan fuqarolarning o‘zaro munosabatlari qurilishiga oid ahloqiy mezonlarga mos keladi.

Zarur hollarda oila a'zosi moddiy ta'minotni sudning hal qiluv qaroriga asosan undiriladi.

Ko‘p hollarda oila a'zolarining bir-biriga aliment ta'minoti davlat va ijtimoiy fondlardan olinadigan mablag‘larga qo‘srimchadir. Bu fondlarning ko‘payishi va ular orqali fuqarolar ehtiyojlarining yanada ko‘proq qondirilishi bilan aliment majburiyatlari jamiyatda o‘z ahamiyatini yo‘qota boradi.

5) davlat tomonidan onalik, otalik va bolalikni muhofaza etish va ularning manfaatlarini har taraflama himoya qilish.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini 65-moddasini 2-qismi va Oila kodeksining 4-moddasi 1-qismiga binoan oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidadir.

Insonni dunyoga kelishligi juda katta bahtdir. U muomala layoqatiga to‘lib mustaqil ravishda o‘z xohishi bilan nikoh munosabatiga kirib oilasida bolalar tug‘ilsa unga berilgan eng ulug‘ nom, unvon bu onalik, otalik va bolalikdir.

Onalik. Demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatida onalikni himoya etishga alohida ahamiyat beriladi. Chunki ayolning asosiy vazifasi insoniyat zanjirini bardavom ettirish, onalik ham jamiyat hayotidagi muhim bir ish bo‘lib qoladi. Onalikni boshqa hyech bir vazifa bilan almashtirilishi mumkin emas.

Ayol kishi uchun dunyoda onalik baxtidan buyukroq baxt yo‘q.

Ona bo‘lish, farzand ko‘rish, alla aytish ayol uchun baxtdir.

Otalik. Oila huquqining tamoyili bo‘lgan "Onalik va bolalikni muhofaza qilinishi" jumlesi yoniga amaldagi Oila kodeksiga "Otalik" degan so‘z ham qo‘sildi. Bu mustaqillik sharofati tufayli bo‘ldi. Chunki to‘liq ma'noda "Oilaning, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishi" bilan belgilanadi.

Xotinni homiladorlik davri bo‘lajak ota uchun ham jiddiy sinovdir. Bu davrda er bo‘lajak ona va bola to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi, xotinning esonomon qutulib olishga tayyorlanib borishi uchun yaxshi shart-sharoit yaratib berishda qo‘lidan kelgancha harakat qilishi lozim. Unga tegishlicha ruhiy-iqtisodiy muhitning yaratilishi homiladorlikning sog‘lom kechishini ta'minlaydi.

Otalikning davlat tomonidan himoya qilish kafolati sifatida oilasida har bir

bola tug‘ilganda erkaklarga ish haqi saqlangan holda bir haftalik ta’til berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki oilada bolani dunyoga kelishida erkak ham ayol bilan teng ishtirok etib u ham imtyozli huquqqa ega bo‘lishi belgilansa to‘g‘ri bo‘ladi.

Bolalik. Bola, ota-onaning quvonchi, faxri, baxti, er-xotinni bir-biriga payvand qiladigan ham farzanddir.

Bolaga mehr-muhabbat tuyg‘usi onalarda juda kuchli bo‘ladi. Ona o‘z bolasini tug‘ilmasidan ancha avval sevishga va unga jonini ham berishga qodir zot. Bola paydo bo‘lganidan tug‘ilgunga qadar onasi hisobiga oziqlanadi, rivojlanadi. "Ona o‘z jonidan jon, o‘z tanidan tan ado etadi", deb bejiz aytishmagan.

Aholisining yarmidan ko‘prog‘ini 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar tashkil etadigan respublikada bolalar huquqlarini ta‘minlash alohida ahamiyatga ega.

6) Ixtiyoriy va erkin nikoh.

Nikoh tuzish ixtiyoriyidir.

Nikoh tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z rozilagini erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish ta‘qiqlanadi (Oila koyedksining 14-moddasi).

Jamiyatda nikoh erkak bilan ayol o‘rtasidagi tenglik va o‘zaro xohish asosida tuzilgan erkin ittifoq va ahdnama bo‘lib, maqsadi oila qurish, farzandlarni jamiyatning munosib kishilari qilib tarbiyalashdan iborat. Nikoh tuzishning muhim shartlaridan biri nikohlanuvchilarning ixtiyoriy va erkin ittifoqidir.

Nikohga kirishning o‘zaro rozilik sharti buzilishi faqat uning haqiqiy emas, deb tanilishigagina emas, balki g‘ayriqonuniy hatti-harakat sodir etib nikohga kirishga zo‘rlagan, aldagani va qo‘rigitgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo‘ladi.

7) Faqat yakka nikohlikni tan olish va uni mustahkamlash uchun yordam berish

ochiq adolatli huquqiy jamiyatda fuqaro faqat bir nikohda bo‘lishi mumkin. Yakka nikohlik tamoyili bizning mamlakatda mavjud bo‘lgan yuksak istiqlol mafkurasi me’yorlaridan kelib chiqadi. Bunday qoida jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi oila munosabatlarining talablariga to‘la javob beradi.

Amaldagi qonunda belgilangan yakka nikohlik hayotda mavjud bo‘lgan haqiqat bilan muvofiq bo‘lib odamlar xulq-atvoridagi qoidalarga mos keladi.

Bu qoidaning buzilishi faqat nikohni haqiqiy emas deb hisoblashdan tashqari qonunni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo‘ladi.

8) Davlat tartibi asosida nikohdan erkin ajralish

Davlat nazorati asosida nikohdan erkin ajralish (Oila kodeksining 37-moddasi).

Nikohdan ajralish er-xotinning shaxsiy huquqi, ammo nikohdan ajralish ijtimoiy manfaatga ta’sir etishligini, oilani buzilishligini hisobga olib davlat nikohdan ajralish tartibi va asoslarini belgilaydi, bunda er-xotinlarga yordam berib,

o‘ylamasdan qabul qilingan qarorni oldini olishni nazarda tutadi.

Amaldagi qonunchilik nikohdan erkin ajralish davlat tartibini belgilab yetarli darajada shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni himoya qilishni ta'minlaydi.

9) Bolalarni mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi g‘oyasi asosida tarbiyalash.

Mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy-ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o‘z maqsadlariga erishish uchun ma’naviy-ruhiy kuch-quvvat beradigan poydevor bo‘lib kelgan.

Chunki, mafkura-jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Bolalar o‘z taraqqiyot yo‘lini, ertangi kun ufqlarini o‘zining milliy g‘oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intilishlari lozim.

“Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo‘lib, ko‘p asrlik mustahkam ma’naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo‘lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali amalga oshadi.

Oiladagi sog‘lom muhit-sog‘lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligini, o‘zaro hurmat va ahillikni ta‘minlash-milliy mafkurada ko‘zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo‘ladi”¹⁶.

3-§. Oila huquqi tizimi

Ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soluvchi oila huquqi qoidalari betartib joylashtirilmasdan, ma'lum tizimga keltirilgan.

Oila huquqi-bu oila huquqi tuzilishi, uning muayyan ketma-ketlikdagi alohida institutlari va me'yorlari tarkibidir. Oila huquqi tizimi obyektiv ravishda tuzilib, oila huquqi predmetiga kiradigan ijtimoiy munosabatlarni o‘ziga xosligini aks ettiradi, hamda o‘zaro bog‘langan oilaviy-huquqiy institutlarning birligi va farqlanishida namoyon bo‘ladi.

Huquqiy institut deganda turdosh va o‘zaro bog‘liq ijtimoiy munosabatlar guruhlarini kompleks tartibga solinishini ta‘minlovchi alohidalashgan huquqiy me'yorlar yig‘indisi tushuniladi. Huquqiy institularga mazmun jihatdan turdoshlilik, tartibga solinishi bo‘yicha komplekslilik, shuningdek huquqiy alohidalilik xosdir¹⁷.

Oila huquqi tizimi qonunchilikda, avvalo Oila kodeksi kabi kodifikatsion xarakterdagi aktlarda, shuningdek oila huquqi fanida va “Oila huquqi” o‘quv kursida o‘z ifodasini topadi.

Oila huquqi tizimi o‘z ichiga **umumiyl** va **maxsus** qismlarni oladi.

Umumiyl qism, oila huquqining maxsus qismidagi barcha institutlar uchun

¹⁶ Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2000, -66 b.

¹⁷ Qarang: Alekseyev S.S. Problemo‘ teorii prava. Kurs leksiy. Sverdlovsk, 1972, T 1., str.139-140.

ahamiyatga ega bo‘lgan me'yorlardan iborat, jumladan oila huquqining asosiy qoidalari va vazifalari, oila huquqi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar doirasi va ushbu munosabatlar subyektlari va obyektlari, oila huquqi manbalari; oilaviy munosabatlarga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlarining qo‘llanilishi, shuningdek oila to‘g‘risidagi va fuqarolik qonun hujjatlarining o‘xshashlik bo‘yicha qo‘llanilishi; oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'analarning qo‘llanilishi (masalan, Oila kodeksi 1-9-moddalar).

Umumiy qismga oilaviy huquqlarni amalga oshirish va oilaviy majburiyatlarni bajarish shartlarini, oilaviy huquqlarni himoya qilish tartibi va muddatlarini o‘rnatuvchi me'yorlar kiradi (masalan, Oila kodeksi 10-11-moddalar).

Maxsus qism bir necha institatlardan tashkil topgan bo‘lib, bu institatlarning har biri ijtimoiy munosabatlarning muayyan turini tartibga soladi. Ular quyidagilardan iborat:

Nikoh (nikoh tuzish shartlari va tartibi, nikohning tugatilishi, nikohning haqiqiy emasligi);

-er va xotinning huquq va majburiyatları (er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatları, er-xotin mulkining qonuniy tartibi, er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi, er va xotinning majburiyatlar bo‘yicha javobgarligi);

-ota-oná hamda bolalarning huquq va majburiyatları (bolaning nasl-nasabini belgilash, voyaga yetmagan bolalarning huquqlari, ota-onalarning huquq va majburiyatları);

-oila a'zolarining aliment majburiyatları (ota-oná hamda bolalarning aliment huquq va majburiyatları, qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv, aliment to‘lash va undirish tartibi);

-ota-oná qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalash shakllari (ota-oná qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish, bolalarni farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat);

-oila qonunchiligini chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarga nisbatan qo‘llash.

Huquq tizimida oila huquqi huquqning boshqa sohalari bilan turli tutashda bo‘ladi. Oila huquqi huquq sohalarining shunday guruhida joylashganki, u huquqning tartibga soluvchi tizimoti guruhlaridan biri hisoblanadi. Bu guruhning barcha sohalariga muayyan munosabatlarni ijodiy tashkil etishi uchun qo‘llanilishi xosdir. Ushbu xususiyati bilan ular ijtimoiy munosabatlarni muhofaza qilish vazifasini bajaruvchi va shu sababli man etish orqali tartibga soluvchi jinoyat huquqidan farq qiladi. Shu bilan birga, tartibga soluvchi sohalar orasida oila huquqi ruxsat berish orqali tartibga soluvchi sohalar guruhiga mansub (fuqarolik, mehnat huquqlari kabi). Bu guruhning barcha sohalari singari, oila huquqi majburlash orqali tartibga soladigan (masalan, ma'muriy, moliya huquqlari) sohalardan farqlanadi, chunki bu sohalar asosan bir subyektning ikkinchisiga bo‘ysunishi va boshqaruv organlari dalolatnomalar asosida shakllanadi. Ruxsat berish orqali tartibga soluvchi huquq sohalar guruhida esa oila huquqi o‘z

predmeti va metodi bo'yicha fuqarolik huquqiga yaqindir.

Oilaviy munosabatlar boshqa ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq. Shu sababli oila huquqi u yoki bu darajada deyarli barcha huquq sohalari bilan o'zaro bog'liq. Biroq bu bog'liqlikning daraja va shakllari turlicha namoyon bo'ladi.

Konstitutsion va oila huquqi o'rtasida o'zaro bog'liqlikning o'ziga xos shakli mavjuddir. Konstitutsion huquq jamiyatda oilaviy munosabatlar qurilishining bosh va asosiy qoidalarini o'z ichiga oladi (O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 46, 63-66 moddalar). Oila huquqida ushbu qoidalar qayta ishlanadi, kengaytiriladi, rivojlantiriladi, aniqlashtiriladi.

O'zaro bog'liqlik aksariyat hollarda oila huquqi va huquqning sohalari me'yorlarining birgalikda qo'llanilishida ifodalanadi.

Ma'muriy huquq bilan oila huquqi yuridik faktlar sohasida qalin aloqadorlikda, chunki oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishi va tugatilishi asoslari sifatida ko'p hollarda boshqaruvi organlari aktlari xizmat qiladi (farzandlikka olish, vasiylik va homiylik belgilash va boshqalar). Fuqarolik jarayoni va oila huquqi me'yorlari nizolarni hal qilish, oilaviy huquqlarni himoya qilishda qo'llaniladi. Jinoyat huquqi oilaviy munosabatlarni muhofaza qilishda tatbiq etiladi. Shu sababli, oila huquqida jinoyat huquqiga havola qilishlar mavjud bo'lib, ular nikoh tuzishga to'sqinlik qiluvchi holatlarni yashirganlik uchun, farzandlikka olish siri va hokazolar uchun jinoiy javobgarlikka tortilishini nazarda tutadi.

Oila va fuqarolik huquqi me'yorlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nisbati yuqori darajadadir. Qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan hollarda o'zaro bog'liqlik bir soha normalarini ikkinchi soha munosabatlarida qo'llanilishida ifodalanadi.

Oila huquqi va huquqning boshqa sohalari me'yorlarining o'zaro bog'liqligi ularning birlashib ketishiga olib kelmaydi. Lekin bu holat oila qonunchiligidagi faqat oila huquqi normalari emas, balki u bilan bog'liq bo'lgan huquq sohalari normalarining mavjud bo'lishida ham ifodalanadi. Ayniqsa bunda fuqarolik, ma'muriy, fuqarolik jarayoni huquqi normalarining ko'pligi ko'zga tashlanadi. Bu normalar oilaviy munosabatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda sanab o'tilgan huquq sohalarining oilaviy munosabatlarni tartibga solishdagi xususiyatlarini aks ettiradi.

III Mavzu. O‘zbekiston Oila huquqining tarixi

1-§ Turkistonda islom dini yoyilgunga qadar nikoh va oila huquqiy masalalari

O‘zbek xalqi Turkistonning qadimiy xalqlaridandir. Bu jumhuriyat hududlarida o‘tkazilgan qadimshunoslik (arxeologik) tadqiqotlarida isbotlangan va tasdiqlangan¹⁸.

O‘zbek xalqining vujudga kelishi, rivojlanishi va uning ko‘payishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Xalqlar ko‘payishining birdan-bir asosi ularning nikoh va oila munosabatlarda bo‘lishidir.

Juda qadim vaqtlarda hozirgi tushunchadagi nikoh va oila munosabatlari bo‘lmagan. Dastlabki vaqtlarda guruhiy nikoh, ya’ni bir guruh ayollar bilan bir guruh erkaklar o‘rtasida umumiyl er-xotinlik, yaqin qarindoshlar o‘rtasida jinsiy aloqalar bo‘lgan.

Zardushtiylik dinining asoschisi va Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron hamda yaqin va O‘rta Sharq, ayniqsa, Xorazm xalqlari ko‘p asrlik ijodining mahsuli, bir qancha elatlarning ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-nafosat va ahloqiy-ta’limiy qarashlarining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini o‘rganishda qimmatli manba bo‘lgan "Avesto" kitobining muallifi Spitama Zaradushtra oilaviy turmush masalalarida juda qiziq ma'lumotlarni beradi.¹

“Avesto”da insoniy burch faqat axloqiy yo‘l-yo‘riqlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘libgina qolmay, balki inson oilaviy turmush, yaxshi yor va farzand to‘g‘risida ham o‘ylashi zarurligi ta’kidlanadi. O‘sha davrda erkaklar roppa-rosa 16 yoshidan uylanib, bir nechta xotin olish huquqiga ega bo‘lgan. Hamma vaqt birinchi xotin boshqalariga bosh bo‘lgan”² “Avesto”da qayd etilishicha, erkak kishi avvalo uylanish uchun moddiy va ma’naviy tomonidan to‘q va jismonan baquvvat bo‘lishi lozim. Buning uchun o‘z vaqtida ovqatlanishi zarur, aks holda erkak kishi o‘z xizmat va axloqiy burchlarini bajara olmaydi. “Yeb ichmaydigan insonning toat-ibodat qilishga kuchi bo‘lmaydi, er-xotinlik vazifasini ado etishga quvvati yetmaydi, bola tug‘dira olmaydi” (“Yasna”, 33,3-bob).

Umuman, zardushtiylikda oilaviy burch va farzand tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Bu o‘rinda “Avesto” tadqiqotchisi H.Homidovning fikrini keltirib o‘tish o‘rinlidir: “Erkak zuryod qoldirish qobiliyatiga ega bo‘lsa-yu, ammo uylanmasa, unga tamg‘a bosishar yoki beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur qilishardi. Ba’zan bunday erkakni qopga solib kaltaklashgan. “Avesto”da qarindoshlarning o‘zaro oila qurishi man etilgan. Qavm va urug‘ qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko‘p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, bir yo‘la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtiriladi”.¹

¹⁸ Ahmedov B. O‘zbek ulusi. –T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1992, 121-bet.

¹ Yo‘ldoshev J. Hasanov S. Avestoda axloqiy-ta’limiy qarashlar. T., “O‘qituvchi”, 1992, 21-bet

² Makovelskiy A.O. Avesto. Izd-vo AN Azerbaydjanskoy SSR, Baku, 1960, 80-81-betlar

¹ Homidov X. “Shohnoma”ning shuhrati. T., “O‘zbekiston”, 1991, 93-94-betlar

Patriarxal oila Markaziy Osiyo xalqlarida oilaning eng dastlabki tarixiy shakli hisoblangan. Bu oila ayni zamonda jamiyatning asosiy ishlab chiqarish jamoasi ham bo‘lgan. Shuning uchun oilaviy munosabatlarga, har bir oila a’zolarining xatti-harakatlariga alohida e’tibor berilgan. Markaziy Osiyoda patriarchal oila eramizdan oldingi birinchi ming yilliklarda vujudga kelgan. Uning eng rivojlangan davri eramizning birinchi asrlariga to‘g‘ri keladi. Oilaning bo‘linib ketishi, o‘rniga kichik-kichik oilalarning tarkib topishi eramizning birinchi ming yilligi o‘rtalaridan boshlanadi va deyarli XX asrlargacha davom etdi.²

Kichik oilalarning vujudga kelishi bilan birga nikohning shart-sharoitlari ham o‘zgarib boradi. Patriarxal oila mavjud sharoitlarda nikoh shartlari ancha qat’iy va cheklangan edi.

Nikoh-bu erkak bilan ayol o‘rtasidagi muayyan ittifoqning va bu ittifoqning jamiyat, davlat tomonidan tan olinishi va ma’qullanishining tarixiy shaklidir.

Buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning fikricha, biron ta ham xalq nikohdan holi emasdir.

Jamiyat nikoh vositasi bilan erkak va ayol o‘rtasidagi tabiiy munosabatlarni tartibga solib turadi, er-xotin, ota-onasi va farzandlar o‘rtasida axloqiy, huquqiy majburiyatlar o‘rnatadi. Nikoh jinsiy ehtirosni mahfiylik pardasiga o‘raydi, er-xotin orasidagi tabiiy munosabatga axloqiy, ma’naviy go‘zallik, andisha baxsh etadi.

Nikoh (arabcha - qo‘shilish) so‘zi o‘zbek tiliga arablardan kirib kelgan. Arab istilochilarini islam dini qoidalarini o‘rnatish maqsadida Markaziy Osiyo xalqlarining islamdan oldingi dini bilan bog‘liq bitiklarni, ma'lumotlarni yo‘q qilib yuborganlar. Bu bilan madaniyatimiz rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatganlar. Buyuk bobokalonimiz Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida bergen xabariga qaraganda, Markaziy Osiyoni fatq etgan arab lashkarboshisi Qutaybaning buyrug‘ig‘a ko‘ra Xorazm yozuvini yaxshi biladigan va uni boshqalarga o‘rgatadigan kishilar o‘ldirilgan¹.

Shuning uchun bo‘lsa kerak, ayrim tadqiqotlar islomgacha bizda erkak va ayol o‘rtasida nikoh degan tushuncha bo‘lmagan, deb e’tirof etadilar. Bu fikr haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Qadimgi grek tarixchisi Strabonning (miloddan av. 64-63-mil. 23-24 yillar) yozishicha, har bir massagetning o‘z xotini bo‘lgan¹. Ana shu tarixchining fikriga qaraganda, erkaklar va ayollar jinsiy hayotda muayyan erkinliklarga ham ega bo‘lganlar.

Umuman olganda, Markaziy Osiyoda ayollarga qadimdan katta hurmat bilan qaralgan. Ular jamiyatda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanishgan. Gerodotning “Tarix” nomli asarida vatanparvar ayol To‘maris haqida keltirilgan

² Qurang: Kislyakov N.A. Ocherki po istorii braka u narodov sredney Azii i Kazaxstana. Leningrad, 1969, 16-bet.

¹ Qurang: Beruniy. Tanlangan asarlar., I tom, T., “Fan”, 1968. 72-bet

¹ Qurang: Istoriya narodov Uzbekistana. T., “Fan”, 1950, 56-bet.

tarixiy ma'lumot bunga yorqin misol bo'la oladi. Bunga ko'ra, Turon aholisi To'maris boshchiligidagi bosqinchiligi Qayxusrov armiyasiga qaqshatqich zarba beradi.

Boshqa bir qadimgi grek tarixchisi - Elion qoldirgan ma'lumotga ko'ra, Markaziy Osiyodagi yirik qabilalardan biri bo'lgan saklarning odatlari bo'yicha uylanishni istagan har bir yigit o'zi uylanmoqchi bo'lgan qiz bilan yer osti uyida kurash tushishi shart bo'lgan. Yigit kurashda g'alaba qilgan taqdirdagina uylanish huquqiga ega bo'lgan. Aks holda o'ning o'zi qizning asiriga aylangan. Demak, bu yerda kurash o'ziga xos tarzda nikoh vazifasini bajargan.¹⁹

Markaziy Osiyo xalqlarining mashhur dostonlari - "O'g'o'znomalar", "Alpomish" va "Manas"larda nikoh bilan bog'liq odatlarda yigitning jismoniy qobiliyatlariga va uni sinab ko'rishga alohida ahamiyat berilgan. Yigitning qizga munosib yoki munosib emasligini aniqlash uchun talabgorlarning o'zaro ot poygasi, kamonda nishonni urishi, uzoqqa o'q o'zishi, kurash tushishi kabi raqobatchilik shakllaridan ham foydalanilgan. Shuningdek, bu tanlov "Qiz quvlash", "Tortishmachoq" singari ko'rinishda ham o'z ifodasini topgan, ularning qoldiqlari hozirgacha yetib kelgan. Lekin ana shu kurashlar, qiz quvlashlar chog'ida qanday so'zlar, duolar ishlatalganligi haqidagi xabarlar bizgacha yetib kelmagan yoki tarixchilar bunga e'tibor berishmagan. Lekin sug'd yozma yodgarliklaridan bu xususda ancha ma'lumotlar topish mumkin.

Eramiz boshlaridan to X-XI asarlarga qadar yozilgan ana shunday noyob sug'd yozma yodgorliklari bizgacha yetib kelgan. Panjikent yaqinidagi Mug'i tepasidagi qadimgi qasr harobasidan 80 ga yaqin sug'd hujjatlari topilgan. YII asr oxiri -YIII asr boshlariga oid bu hujjatlar Sug'd arxivida deb yuritiladi. Ular orasida tadqiqotchilar tomonidan shartli ravishda "Nov.3" (Navekat nomli shaharda tuzilgan hujjat bo'lgani uchun) deb belgilangan sug'dcha nikoh guvohnomasi, "Nov.4" deb belgilangan kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlar bayon etilgan ikki hujjat bor.²⁰ Mazkur hujjatlar qadim va ilk o'rta asrlardagi O'zbekiston xalqlarining nikoh-oila va u bilan bog'liq mulkchilik va boshqa ijtimoiy munosabatlari to'g'risida hikoya qiluvchi muhim yodgorlikdir.

2-§. Turkistonda islom dini yoyilgandan so'ng nikoh va oila munosabatlариниң одат ва шариат қоидалари билан тартибга солиниши

Islom dini Turkiston o'lkasida yoyilgandan keyin nikoh-oila huquqiy munosabatlari Qur'oni Karim¹, Shariat² va Odat³ qoidalari, shuningdek Muhammad paygambarimiz (SAV)ning hadislari bilan tartibga solingan.

¹⁹ Qarang: O'zbekiston SSR tarixi., I tom T., "Fan", 1967., 78-bet

²⁰ Bu haqda batafsil ma'lumotni M.Ishoqovning "Unutilgan podsholikdagi xatlar" nomli kitobidan olish mumkin. T. "Fan", 1992

¹ Qur'oni Karim (Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur), T., «Cho'lpox», 1992y.

² Shariat-arabcha "Shar'a"-yo'naltirmoq, qonunchilik, to'g'ri yo'l ma'nosini anglatadi. Unga Qur'on va sunna asos qilib olingan bo'lib, musulmonlarning moddiy va ma'naviy, ijtimoiy va shaxsiy hayotini tartibga soluvchi diniy huquq tizimini tashkil etadi. Shariatdagi qoidalarda nikoh oila va maishiy masalalarga alohida o'rinn beriladi.

Shariat - bu kishilar amal qilishi uchun Islom dini tarafidan buyurilgan hukmlar va nizomlardir. Shariat hukmlarini bilib olish har bir mo'min musulmon uchun farz hisoblanadi.⁴

Odat qoidalari asosan ko'chmanchi xalqlarga tatbiq etilgan.

Odat Turkiston o'lkasida ko'chmanchi xalqlar (qozoqlar, qirg'izlar)da nikoh-oila munosabatlarining asosi hisoblangan. Qozoqlarda bir xil huquqiy masalalar mazmuniga ko'ra har xil asosda hal qilinishi bo'yicha odat shariat normalaridan ajralib turgan. Odat huquqida turli tushunchalar bo'lgan. Masalan, "Baranta". Bu kelinning ota-onasiga tegishli bo'lgan chorva mollarni zo'rovonlik bilan haydab ketishdir. "Alengerlik"-qozoq xalqining odat huquqiga asosan juda og'ir amal. Alengerlik - bu beva qolgan xotinning erining aka-ukalaridan biriga, qarindoshlariga yoki urug'iga erga chiqish majburiyati. Bevalik boshlangandan keyin bir yil o'tgach, mazkur bevaga uylanish huquqiga ega bo'lgan nomzod o'z huquqidan foydalanishga kirishishi mumkin bo'lgan. Alengerlik odatini bajarishdan bosh tortgan beva bolalaridan, chorvasidan, mol-mulkidan mahrum etilib, shundan so'nggina u o'z xohishi bo'yicha erga tegishi mumkin bo'lgan. Bu qoidalari o'troq aholi o'rtaida keng tarqalmagan.

Shariat qoidalaring o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, unda islom dini qoidalari davlat huquqiy normalarida mujassamlanadi.

Musulmon huquqining hamma sohalari shu bilan birga nikoh, qon-qarindoshlik, taloq masalalarini qamrab olgan manbalardan biri "Hidoya"¹. (To'liq nomi "Hidoya fi-furu'il-fiqh"- "Fiqh sohalari bo'yicha shariat qo'llanmasi") dir.

Bu qo'llanma to'rt jildli 53 kitobdan iborat bo'lib, uning muallifi marg'ilonlik Ali ibn Abu Bakr al-Fargoniy al-Rishtoniy Burhoniddin Marg'inoniydir. U zot 1197 yilda vafot etgan bo'lib, uning mazkur asarida islomning qator masalalari bilan huquqiy va axloqiy me'yorlar, nikoh va oila masalalari bilan bog'liq bo'lgan qoidalari hamda jinoyat va jazoga oid tatbiq etish lozim bo'ladigan choralar batafsil yoritilgan. Bularidan tashqari, bu qonun-qoidalalar majmuasida mulkiy va moliyaviy munosabatlar, fuqarolik huquqiga, fuqarolik jarayoni huquqiga va boshqa masalalarga o'rinn berilgan.

Hanafiya mazhabi xulosalariga asoslangan bu asardagi qoidalari ham shu mazhab qonunlari kabi nisbatan yumshoqroq va qulayroqligi, xalqlarning mahalliy an'analari e'tiborga olinganligi sababli, u aksariyat musulmon davlatlarida keng yoyilgan, chunonchi qozi (sudya)lar, muomala munosabatlaridan kelib chiqadigan (fuqarolik, nikoh, oila) va boshqa nizoli ishlarni ko'rib hal etishda boshqa

³ Odat-odat huquqi yozilmagan qoidalari.

⁴ Ahmad Hodiy Maqsudiy. Shar'iy hukmlar to'plami. T., 1990, 2-bet.

¹ Qaralsin. Xidoya. Kommentarii muslimanskogo prava. 1893. T., I-IV. Bu asar 400 nusxada Turkiston o'lkasida ma'muriy politsiya boshqaruv xizmatchi shaxslariga mo'ljallab chiqarilgan.

(Qaralsin: Turkistanskiye vedomosti. 1893. 16(28) iyun. Xuddi shu sababli uning ruscha tarjimasi ham inglizcha tarjimasiga o'xshab to'la bo'lmagan. Bu to'g'rida kitobning alohida bo'limlarida ingliz tarjimoni tomonidan eslatib o'tiladi. Bu asar 1994 yili "O'zbekiston" nashriyoti tomonidan 10. 000 nusxada rus tilida huquqshunoslik fanlari doktori, professor A.X.Saidovning kirish maqolasi va tahriri ostida qayta nashr etildi.)

manba'lar bilan bir qatorda "Hidoya"dan ham unumli foydalanishgan¹. Shariat izohlarining to'plami "Muxtasar-ul Viqoya"² ham katta e'tiborga ega bo'lgan. "Muxtasarning sharhi" deb shuhrat topgan bu fiqhiy asar yurtdoshimiz Mansurxo'ja o'g'li Maqsudxo'ja qalamiga mansub bo'lib, qariyb yuz yil ilgari yozilgan. Bu asar Movarounnahrning turkiy-o'zbek tilida so'zlovchi xalqlari o'rtaida o'zining katta obro'si va ahamiyati bilan xizmat qilib kelmoqda. Endilikda bu asar birinchi marotaba o'zbek tiliga tarjima etildi.¹

Nikoh-oila munosabatlarini tartibga solishda XII asr davomida Turkiston hududida amalda bo'lgan diniy huquqiy tizim- shariat, musulmon huquqi normalari, hadislarning roli juda katta bo'lgan. Imom al-Buxoriyning "Al-Adab al-Mufrad" ("Adab durdonalari") nomli hadislar to'plami shular jumlasiga kiradi. Unda olti yuzta hadis ikki yuz oltmis yetti bobga jamlangan bo'lib, unda ota-onani e'zozlash, kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'lish, qo'shnichilik, insoniylik va mehr-shafqatlilik, sahiylik va baxillik, aldamchilik, chaqimchilik va mahtanchoqlik, isrofgarchilik va johillik, sharmu hayo va uyatchanlik kabi qator husni odob va go'zal xulq qoidalari yoritilgan.

Ma'rifatchi olim Rizouddin ibn Fahruddin o'tgan asrning oxirlaridan boshlab Sharq tarixi va madaniyati hamda ta'lim-tarbiyaga oid o'nlab asarlar yozgan. U musulmon qonunshunosligi - fiqhga oid asar ham yozgan. Bu borada uning "Qavodi fiqhiya" Fiqh qoidalalari" asarini (Qozon 1910) eslab o'tishning o'zi kifoya. Asrimizning boshlarida yozilgan "Oila" asarida axloq, odob, oila masalasiga ko'p e'tibor qiladi. Ma'lum bo'lishicha, u ta'lim-tarbiya sohasida anchagina bosh qotirgan; uning bu asarida ota-onaning vazifasi, muallim burchi, ayniqsa, xotinlar vazifasi keng yoritilib, bola tarbiyasida xotinlarning o'rni muhim ekanligiga muallif katta ahamiyat beradi. Uning mulohazasiga ko'ra, yaxshi xotin bolalarini ham yaxshi tarbiyalay oladi. U: "Xotinlar birinchi navbatda murabbiyidirlar, xotinning oila tebratishi murabbiylik hamiridan patir qilishu, uning tandirida o'sha patirni yopish degan so'z"²¹, - deydi.

"Oila" asari o'z vaqtida bir necha bor qayta nashr etilgan va ko'pchilikning diqqatiga sazovor bo'lgan.

Nikoh-oila munosabatlarini tartibga solishda olim Ahmadxoji Maqsudiyning 1912 yilda maktab-madrasalar talabalari va barcha mo'min-musulmonlar uchun qo'llanma sifatida chop etilgan "Shar'iy hukmlar to'plami" muhim ahamiyatga ega. U tatarcha kitobdan tarjima qilingan. Al-Hakim Termiziy ham axloq, nikoh va oila masalalariga bag'ishlab bir qator asarlarni yaratgan. Uning "Solнома", "Нажот" ("To'g'ri yo'l"), "Navodirul usul", "Kitob al-furuh" singari o'lmas asarlari shular jumlasidandir.

Bu manbalar o'z davrida nikoh-oila munosabatlarini tartibga solishga

¹ "Xalq so'zi" 1993 yil 24 avgust.

² Mirza Kozimbek tomonidan 1845 yilda Qozonda nashr etilgan. Uning qoidalari Turkiston o'lkasida qozilar tomonidan keng qo'llanilgan.

²¹ Rizouddin ibn Faxriddin. T., "Mehnat" 1991., 5-bet.

qaratilgan qoidalardan iborat bo‘lib, diniy aqidalarga asoslangan edi.

3-§. Sobiq Sovet hokimiyatining 1917 yildagi nikoh va oila masalalari bo‘yicha dekretlari

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida nikoh va oila shakllari jamiyatning moddiy sharoitiga qarab belgilanib kelgan. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etgani sari oila shakllari yanada rivojlanadi, o‘z mazmunini o‘zgartirib boradi.

Jamiyatda mavjud bo‘lgan iqtisodiy munosabatlarning mehnat taqsimotiga ta’siri nikoh-oila munosabatlarda ham namoyon bo‘ladi. Oilada erkakning bosh bo‘lishi boshqa oila azolarining huquqiy maqomiga tegishli asosda ta’sir etadi. Erkakning oiladagi hukmronligi iqtisodiy hukmronlik oqibatidir. Kishilik jamiyatni rivojlanishi bilan nikoh tuzish va oila qurish sabablari ham o‘zgarib boradi. Xususan, bu hodisalar mulkchilik shakli bilan belgilanadi.

Oktabr davlat to‘ntarishini sodir etgan ishchilar sinfi to‘ntarishning ilk kunlaridanoq sotsialistik asosdagi nikoh va oila qonunchiligi masalasida ham ma'lum o‘zgarishlar qilishga kirishdi.

Davlat to‘ntarishiga qadar Turkiston o‘lkasida nikoh va oila munosabatlari shariat va odat qoidalari bilan tartibga solingan. Shariat islom mamlakatlari uchun qo‘llanilishi majburiy qonun bo‘lgan, shariat bo‘yicha xotin-qizlarning huquqi birmuncha cheklab qo‘yilgan, oilada er boshliq bo‘lgan.

Turkiston o‘lkasida nikoh-oila munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish uchun aholi o‘troq joylarda va shaharlarda qozilik sudlari, qozoq, qirg‘iz va qoraqalpoq xalqlari o‘rtasida esa biy sudlari ish olib borgan. Qozilar shariat qoidalari yaxshi bilgan kishilar orasidan noma'lum muddatga tayinlangan.

Shariatning guvohlik masalasidagi qoidalardan biri erkaklar tomonidan berilgan guvohlikning xotinlar guvohligiga nisbatan afzal hisoblanishidir. Shariat bo‘yicha erkaklar xotinlarga qaraganda ustun turganlar, shu sababli bitta erkakning bergen guvohligi to‘la dalil, bitta ayol tomonidan berilgan guvohlik esa yarim dalil hisoblangan. Shuning uchun shariat ikki ayol tomonidan berilgan guvohlikni bitta erkak tomonidan berilgan guvohlikka barobar deb hisoblaydi. Buning o‘z sababi bo‘lib, u hadisi sharifda keltirilgan.²²

Bundan tashqari jinoyat ishlarida, qoida bo‘yicha, ayollar guvohlikka chaqirilmaganlar va ular tomonidan berilgan guvohlik e’tiborli hisoblanmagan. Xotinlar faqat oldi-sotdi, ayniqsa, oilaviy masalalardagina guvohlik berishlari mumkin edi.

Shariat har bir masalani albatta ikki guvoh bilan isbotlash lozimligini talab qiladi. Shuning uchun har bir ish bo‘yicha ikkita erkak guvoh bo‘lishi lozim. Agar fuqarolik ishlari bo‘yicha ayollar guvoh bo‘lsa, ularning soni to‘rttaga yetishi shart hisoblangan. Nima sababli guvoh ikki yoki undan ko‘p bo‘lishi lozimligi “Qur’oni Karim”ning “Baqara” surasi 2282-oyatida keltirilgan unga ko‘ra”...(adolatli)

²² Qarang: Abu Abdullohamid ibn Ismoil al-Buxoriy. Xadis 2 jild. T., Qomuslar bosh taxririyati, 1996, 161-162-betlar.

guvohlardan ikki erkak kishini, agar ikki erkak topilmasa, bir erkak va ikki ayolni-biri unutib adashsa, yana biri unga eslatadi-guvoh qilinglar²³

Davlat to‘ntarishidan so‘ng ayollarni jamiyatda va oilada go‘yo kamsitadigan bunday qoidalar asosan bekor qilinib, nikoh va oila to‘g‘risida yangi qonunlar qabul qilindi.

1917 yil dekabr oyida sovet hukumatining ikkita dekreti e’lon qilindi. Bular - “Fuqarolik nikohi, bolalar va fuqarolik holatlarini qayd etishni olib borish”²⁴ va “Nikohdan ajralish to‘g‘risida”²⁵ gi dekretlardir.

Sovet oila huquqining tarixi shulardan boshlanadi. Bularda sovet davlatidagi nikoh va oila tamoyillari ifodalanib, keyinchalik uncha o‘zgartirilmay, amaldagi huquqda to‘la ifodasini topdi.

Sovet davlatining nikoh va oila to‘g‘risidagi dastlabki dekretlarida go‘yo sovet fuqarolari, millati, irqi va dinga munosabatidan qat‘i nazar, qonun oldida teng huquqliligi o‘rnatilib, keyingi qonunlar bu prinsipning buzilmay amalga oshirilishini ta‘minlagan²⁶.

Bu qonunlarda ko‘proq Yevropa xalqlari turmush tarzi hisobga olingan bo‘lib, Sharq xalqlari turmushining o‘ziga xos jihatlari, sharqona oila tutish qoidalari aslo e’tiborga olinmagan. Biroq ular ittifoqdosh respublikalar qonunshunoslari tomonidan ko‘r- ko‘rona qabul qilinib, sharq xalqlari, jumladan, o‘zbek xalqining o‘ziga xos nikoh-oila turmush masalalariga tadbiq etilaveradi.

1917 yil 18 dekabrdagi “Fuqarolik nikohi, bolalar va fuqarolik holatlarini qayd etishni olib borish” to‘g‘risidagi dekretda: “Rossiya Respublikasi bundan so‘ng faqat fuqarolik nikohini tan oladi”, deb belgilandi. “Cherkov nikohi fuqarolik majburiy nikohi bilan nikohga o‘tuvchilarning xususiy ishi bo‘lib hisoblanadi”.

Dekret nikohni ham har qanday cheklanishlardan ozod etdi. Endi nikohlanuvchilarning nikohdan o‘tishi uchun ota-onaning yoki boshliqning roziligi talab etilmaydi, ular qaysi dinga e’tiqod qilishining ham ahamiyati yo‘q. Dekret sovet nikohining asosi - monogamiyani, ya’ni yakka nikohlilikni e’lon qildi. Dekret fuqarolik nikohi majburiy ekanligini o‘rnatib, fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etuvchi sovet organlarini nikohda turgan shaxslardan ariza qabul qilmaslik to‘g‘risida ogohlantirdi.

Nikoh to‘g‘risidagi dekret nikoh va oila sohasida erkak va ayolning to‘la teng huquqqa ega ekanligini ta’kidlab, nikohsiz tug‘ilgan bolalarni hamma masalalarda nikohda tug‘ilgan bolalarga tenglashtirib, ona va bola, uning vasiysi yoki bolaning bevosita o‘zining arizasiga ko‘ra otalikni sudda isbotlash qoidasini joriy etdi.

1917 yil 19 dekabrdagi e’lon qilingan “Nikohdan ajralish to‘g‘risida”gi dekret davlat to‘ntarishiga qadar hukm surgan nikohdan ajralish qoidalarini tugatib, er-

²³ Qur’oni karim. Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. T., “Cho‘lon” 1992., 34-bet.

²⁴ SU 1917 № 11, 160-modda

²⁵ SU 1917 № 10, 152-modda

²⁶ O‘zbekiston SSR nikoh va oila kodeksiga sharhlar. T., “O‘zbekiston”, 1975, 13-bet

xotindan ikkalasi yoki birontasining talabiga muvofiq nikohdan erkin ajralishni belgiladi. Ajralish to‘g‘risidagi ariza sud tomonidan ko‘riladi. Ikki tarafning roziligi bo‘yicha ajralish fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi (FHDYO) tomonidan rasmiylashtiriladi. Nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ariza ikkala tomondan yoki bir tomondan berilganligiga to‘la ishonch hosil qilgan sud‘yaning yolg‘iz o‘zi nikohdan ajralish to‘g‘risida ajrim chiqaradi. Dekretda nikohdan ajralishda bolalar taqdirini hal qilish masalasi ham mavjud. Sud nikohdan ajratish jarayonida voyaga yetmagan bolalarning ota-onalaridan qaysi birida qolishi, er-xotindan qaysi biri qay miqdorda bolalarni ta‘minlash va tarbiya qilishi kabi masalalarni bir yo‘la hal etadi.

Sovet davlatining nikoh va ajralish to‘g‘risidagi dekretlari Turkistonda 1918 yil yanvar oyida e’lon qilindi. Mazkur dekretlarni Turkiston hududida qo‘llash to‘g‘risida maxsus xujjat qabul qilingani yo‘q. Bu hujjatlar respublika gazetalarida e’lon qilinganligi ularni tatbiq qilish uchun asos deb hisoblanadi. RSFSR dekretlari bosib chiqarilgandan so‘ng Turkiston hukumati ularni o‘lkada amaliy tadbiq etishga qaratilgan mahsus bo‘ryuqlar chiqardi. Turkiston Xalq Komissarlari Soveti 1918 yil 26 yanvarda “Nikoh, tug‘ilish va o‘limni ro‘yxatga olish bo‘limlarini tashkil qilish to‘g‘risida” buyruq chiqardi. Buyruqda Turkiston shaharlaridagi o‘zini-o‘zi boshqaruvchi barcha organlar huzurida yaqin kelajakda nikoh, tug‘ilish va o‘limni ro‘yxatga olish bo‘limari tuzilishi ta‘kidlangan edi.

Ayni vaqtda RSFSRning “Nikohdan ajralish to‘g‘risida” gi dekretini to‘g‘ri tatbiq qilish maqsadida 1917 yil 19 dekabrda Turkiston Xalq Komissarlari Soveti va Adliya Xalq Komissarligi bir qancha buyruqlar, tushuntirishlar va farmoyishlar chiqarib, ularda markaziy hokimiyatning nikohdan ajralish tartibi to‘g‘risidagi hujjatini bat afsil izohlاب berdi. 1918 yil 11 martda qabul qilingan maxsus buyruq bilan Turkiston Xalq Komissarlari Soveti Turkiston o‘lkasidagi barcha sud organlariga “Xalq Komissarlari Sovetining nikohdan ajralish to‘g‘risidagi dekretini tezda bajarish“ni topshirdi. Buyruqda ko‘rsatilishicha, dekretga muvofiq sudlardan yoki fuqarolik holatlari dalolatnomalaridan tashqari ko‘rilgan ishlar “haqiqiy hisoblanmaydi”²⁷.

Turkiston Respublikasi Xalq Komissarlari Soveti va Adliya Xalq Komissarligi o‘z tushuntirishlari bilan, birinchidan, yangi tuzilgan, hali yetarli amaliy tajribaga ega bo‘limgan mahalliy Sovet sudlariga nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda yordam berdi, ikkinchidan, mahalliy aholi o‘rtasida nikoh va oila to‘g‘risidagi qonunlarni targ‘ib qildi.

Mazkur dekretlar sovet oila huquqining vujudga kelishiga asos solgan bo‘lsa ham, oilaviy munosabatlarning hamma masalalarini huquqiy normalar bilan tartibga solish uchun to‘la javob beraolmas edi.

²⁷ Sbornik dekretov i prikazov. SNK TASSR 23noyabrya 1917. po 1 iyulya 1918 T., 33-bet.

4-§. RSFSR (Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi) Fuqarolik holati dalolatnomalari, nikoh, oila va vasiylik huquqi haqidagi qonunlar kodeksi (1918 yil) va uning TASSR (Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi) hududida tatbiq etilishi

Turkiston o‘lkasining avtonom deb e’lon qilinishi Turkiston Sovetlari V o‘lka syezdining muhim hujjatlaridan bo‘ldi. Sovetlarning V o‘lka syezdida ishchi va soldat Sovetlari dehqon Sovetlari bilan birlashdi.

Sovetlarning V o‘lka syezdi “Rossiya federatsiyasidagi Turkiston Sovet Respublikasi to‘g‘risidagi Nizom”ni qabul qildi. Turkiston Avtonom Respublika deb e’lon qilindi. Nizomda Turkiston Sovet Respublikasi avtonom asosida boshqarilib, o‘z harakatlarida Rossiya Federatsiyasi markaziy hukumatini tan olib va u bilan o‘z ishlarini muvofiqlashtirib olib boradi, deyilgan.

Turkiston ASSRning 1918 va 1920 yillardagi Konstitutsiyalari yangi ijtimoiy va davlat tuzumining prinsiplarini ifoda etadigan asosiy hujjatlar hisoblanadi.

Mazkur Konstitutsiyaga III Butunrossiya Sovetlari syezdida qabul qilingan “Mehnatlash va eksplutatsiya qilinuvchi xalqlarning huquqlari Deklaratsiyasi” va Sovetlarning Y Butunrossiya syezdida qabul qilingan “Rossiya Federativ Sovet Sotsialistik Respublikasi Konstitutsiyasining umumiyligini qoidalari” asos qilib olingan.

Bu hujjatlarda Sovet hokimiyatining ijtimoiy va davlat tuzumi, Oktabr davlat to‘ntarishining mohiyati ifodalangan edi.

Turkistonda Sovet jamiyatni va sovet organlarining huquqiy shakllanishida Turkiston Sovetlarining YI syezdi muayyan rol o‘ynadi. 1918 yil 15 oktabrda qabul qilingan Turkiston ASSR Konstitutsiyasi siyosiy ahamiyatga ega hujjat bo‘ldi.

1918 yilgi Turkiston ASSRning Konstitutsiyasida Turkiston respublikasining o‘ziga xos xususiyatlari o‘z aksini topdi.

Turkiston ASSRning 1920 yilgi Konstitutsiyasi 1918 yilgi Konstitutsiyaning ayrim bandlariga aniqlik va tuzatishlar kiritdi.

Turkiston ASSRning huquqiy holatiga tegishli asosiy qoidalari Turkiston ASSRning mazkur Konstitutsiyasida, Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komitetining 1921 yil 11 aprelda qabul qilingan “Turkiston ASSRni tashkil etish to‘g‘risida dekreti”da ifoda etildi. U RSFSR tarkibidagi Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining huquqiy rasmiylashuvini yakunladi.

Turkiston ASSRda nikoh va oilaga oid muhim huquqiy masalalar 1918 yil 16 dekabrda qabul qilingan “Fuqarolik holati dalolatnomalari, nikoh, oila va vasiylik huquqi haqidagi RSFSR qonunlar kodeksi” asosida hal qilinadi.²⁸

1917 yilda qabul qilingan dekretlarga nisbatan bu kodeks bir qator yangi huquqiy qoidalarni belgilab, nikoh va oila qonunchiliginini ma'lum tizimga soldi. Kodeks 246 moddadan iborat bo‘lib (yuqoridagi ikki dekretda 26 modda bor edi),

²⁸ Vestnik Komissariata yustitsii Turkestanskoy respublikи . 1919, 1-son 3-20-betlar 2-soni 40-bet.

fuqarolik holati dalolatnomalari, nikoh huquqi, oila huquqi, vasiylik huquqidan iborat to‘rt bo‘lim, 17 bobni tashkil etdi. Kodeks fuqarolik holati dalolatnomalari bilan boshlansa ham, unda asosiy e’tibor nikoh va oila masalasiga qaratilgan bo‘lib, bu masalalarga 130 modda ajratilgan edi.

Kodeksda 1917 yil 18 dekabrdagi dekretning faqat davlat organlarida fuqarolik holatlari ro‘yxatidan o‘tgan nikoh yuridik kuchga ega ekanligini tan olish to‘g‘risidagi qoidasi saqlab qolinib, nikohga o‘tish shartlari masalasi yangidan ishlab chiqildi. Ular nikoh yoshiga to‘lish (qizlar uchun 16 yosh, yigitlar uchun 18 yosh), nikohga kiruvchilarning ruhiy sog‘lom bo‘lishi, yakka nikohlilik, nikohga o‘tuvchilar o‘rtasida yuqoriga yoki pastga qaragan to‘g‘ri chiziq bo‘yicha qarindoshlik bo‘lmasligi, nikoh tuzish uchun o‘zaro rozilikdan iborat. Davrning xususiyatini nazarga olib, nikoh haqiqatda o‘zaro rozilik asosida tuzilayotganligi haqida nikohga o‘tuvchilardan tilxat olingan.

Nikohni haqiqiy emas deb topish, er-xotinning huquq va majburiyatlarining kelib chiqishi asoslari, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi shaxsiy hamda aliment borasidagi huquq va majburiyatları, qarindoshlik holatida bo‘lgan shaxslarning huquq va majburiyatları singari boshqa masalalar tartibga solingan.

Kodeks oilada er va xotinning tengligiga asoslanib, ona va bola huquqini muhofaza etishga qaratilgan.

Er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarni belgilashda er-xotinning mulki alohida bo‘lingan mulk degan qoida asos qilib olindi. Bu kodeks sovet vasiychiligi prinsiplarini va shakllarini ishlab chiqdi. YUqorida bayon etilgan dekret va kodeks RSFSR qonunchiligi hisoblansa ham, boshqa sovet respublikalarining, xususan TASSRning nikoh-oila qonunchiligiga asos bo‘lib, sovet oilasi shakllanishida muayyan rol o‘ynadi.

Respublika Ichki ishlar xalq komissarligi RSFSRning ushbu kodeksi asosida va unga amal qilgan holda sovet hokimiyatining hamma joydagi mahalliy organlarida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish bo‘limlarini tuzdi.

1919 yil 15 noyabrdagi Ichki ishlar xalq Komissarligi “Turkiston Respublikasida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish bo‘limlarini tashkil etish va ularning faoliyati” to‘g‘risida maxsus qo‘llanma qabul qildi.²⁹ Unda bu organlarni tashkil etish qoidalari va ularning faoliyati belgilab qo‘yildi.

Ichki ishlar xalq komissarligining fuqarolik holati dalolatnomalarini ro‘yxatdan o‘tkazish organining 1919 yil 19 noyabr buyrug‘i bilan qo‘llanmaga to‘ldirish kiritildi. Unda respublika barcha ijroiya komitetlari (shahar) uyezd, volost, qishloqlarda fuqarolik holati dalolatnomalarini ta’sis etishi lozimligi belgilandi.

Buyruqda tuziladigan bo‘limlarning vazifalari batafsil belgilanib, respublika fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalarini ro‘yxatga olish bilan shug‘ullanuvchi sovet organlarining huquq va majburiyatları tushuntirib berildi.

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxiv F-T 30, ro‘yxat 219, 8-delo. 10-varaq.

Unda, shuningdek, Turkistonda yashovchi barcha millatlar va dindor fuqarolar e'tiboriga bundan so'ng faqat fuqarolik holati dalolatnomalarini ro'yxatga oluvchi tegishli organlarda ro'yxatga olingan dalolatnomalargina huquqiy ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatildi. Bu dalolatnomalar fuqarolarda faqat huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Ularda ko'rsatilishicha, diniy urf-odatlar bo'yicha tuzilgan dalolatnomalar majburiy huquqiy ahamiyatga ega bo'lmay, shaxslarning xususiy ishi bo'lib qoldi.

Ichki ishlar xalq komissarligi qabul qilgan mazkur bu buyrug'ining Turkistonda tatbiq etilishi o'lkaga yangi oilaviy-maishiy munosabatlar kirib kelishiga asos bo'ldi.³⁰ Sharqda sovet hokimiyati o'z oldiga islomga, shariatga va mahalliy urf-odatlarga qarshi kurashish vazifasini qo'ymadi.³¹

1922 yil 25 iyulda Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti "Turkiston Respublikasining musulmon xalq sudlari to'g'risida Nizom" qabul qildi. Unga binoan fuqarolik ishlari, (asosan nikohdan ajratish va meros ishlari masalalari)ni, shuningdek mahalliy xalqlarning urf-odatlari va axloqi bilan bog'liq ishlarni ko'rish uchun yonma-yon ravishda musulmon xalq sudlari ham tuzildi. Ularning tarkibiga bir yil muddatga bir suda, volost va shahar normasida mahalliy xalq tomonidan saylangan xalq sudyalari kiradi.

5-§. BXSR (Buxoro Xalq Sovet Respublikasida) nikoh va oila munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi

1920 yil 2 sentabrda Buxoro amirligi qulab, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi vujudga keldi.

1920 yil 6 oktabrda xalq vakillarining Birinchi Butunbuxoro qurultoyi chaqirildi. Uning ishidagi 2 mingga yaqin vakil ishtirok etdi. 1920 yil 8 oktabrda qurultoy avvalgi Buxoro amirligi o'rnida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e'lon qildi.

1921 yil 4 martda RSFSR va BXSR o'zaro do'stlikni mustahkamlash manfaatlari yo'lida "Ittifoq Shartnomasi"ni tuzib, unga muvofiq Sovet Rossiysi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi o'zaro bir-biriga yordam berib, har ikkala sovet respublikasining mustaqilligi va manfaatlarini jahon imperializmidan himoya qildi.

1920 yilgi Buxoro inqilobining birinchi bosqichi o'z mohiyatiga ko'ra antifeodal bo'lib, tabaqachilikka, zulm o'tkazish, yirik yer egalari, krepostnoylikka qarshi qaratilgan edi. Shunday qilib u burjua-demokratik inqilobi vazifasini bajardi.

BXSRning 1921 yilda qabul qilingan Asosiy Qonuni Buxoro Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi bo'lib, u xalqlarning manfaatlarini muhofaza qilishga qaratilgan edi. Mazkur Konstitutsiyada Buxoroning mahalliy va tarixiy xususiyatlari nazarga olinib, uning matniga "Mehnatlash xalq va

³⁰ Istoriya sovetskogo gosudarstva i prava Uzbekistana. 1-tom, 263-bet.

³¹ Istoriya sovetskogo gosudarstva i prava Uzbekistana. 1-tom. 79-bet.

ekspulatatsiya qilinuvchi xalqlar huquqlari Deklaratsiyasi”dagi bir qator qoidalar kiritilmadi.

Asosiy Qonunda respublikada istiqomat qiluvchi ayollarning erkaklar bilan teng huquqqa ega ekanligi, butun millatlarning tengligi va erkinligi e'lon qilindi.

Konstitutsiyada belgilanishicha, odil sudlov xalq qozi sudlari tomonidan amalga oshirilib, ular o‘z qarorlari va hukmlarini sovet qonunlariga zid bo‘lmagan holda, shariat va odat normalariga asoslanib chiqarishlari mumkin edi. Chunki shariat va odat normalari inqilob tomonidan bekor qilingan emas edi.

Sud yuritish ishlarini yanada demokratlashtirishda 1924 yil 5 yanvarda qabul qilingan “BXSR sud tuzilishi Nizomi” asosida amalga oshirildi. Shu bilan birga

BXSR hududida RSFSR-ning 1922 yilgi tahriridagi hamma kodekslari tatbiq etila boshlandi.

1924 yil 18 sentabrda xalq vakillarining Y Butunbuxoro qurultoyi chaqirildi. 1924 yil 19 sentabrda BXSR Sotsialistik Respublika deb e'lon qilindi.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasida nikoh va oila to‘g‘risidagi qonunchilik shariat normalariga asoslangan edi.

1924 yilga qadar BXSRda ayollarni huquqiy va amaliy ozod qilishga qaratilgan hyech qanday qonun qabul qilinmadni. 1924 yil 30 yanvarda Butunbuxoro MIK majlisida o‘zbek xalqining to‘y va ma'rakalarini kam mablag‘ sarflab o‘tkazish to‘g‘risida ma'ruza tinglandi.

Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Komiteti ushbu masala bo‘yicha qarorni muhokama qilib, to‘y va ma'raka odatlarini bajarish tufayli bo‘ladigan ortiqcha harajatlarni kamaytirish bo‘yicha qonun chiqarish to‘g‘risida fikrga keldi. Bu masala bo‘yicha dekret loyihasining asosiy qoidalarida shariat nuqtai nazaridan quyidagilar nazarda tutilgan edi; dindorlarning qurultoyi rasm-rusm va odat tufayli to‘yda va dafn marosimini o‘tkazish vaqtida bo‘ladigan harajatlar butunlay oshiqcha, shariatga zid deb qaror chiqardi. Bunday harajatlarning og‘irligi BXSR xalqi boshiga tushadi, ularning ko‘pchiligi esa mayda hunarmandlar va kambag‘allardan iborat, ularning iqtisodiy ahvoli juda og‘ir bo‘lib, shu tufayli ko‘pchilik nikoh tuza olmay, tug‘ilish kamayib ketdi. Nikoh tuzish tartibi, nikoh tuzish bilan bog‘liq har xil zararli odatlarni tugatish bo‘yicha tushuntirish olib borish to‘g‘risida shariat sudlariga topshiriq berildi.

1924 yil 17 aprelda Butunbuxoro Markaziy Ijroiya Komiteti maishiy jinoyatlar to‘g‘risida dekret qabul qildi. BXSR xalqlari odati hisoblangan nikoh tuzish uchun ayollarni olib qochish bilan bog‘liq quyidagi hodisalar Markaziy Ijroiya Komiteti tomonidan ijtimoiy xavfli jinoiy harakat deb tasnif etildi:

1. Ayollarning erkiga qarshi zo‘rlik qilib o‘g‘irlash.
2. Jinsiy jihatdan balog‘atga yetmagan qizlarni nikohga olish maqsadida o‘g‘irlash.
3. Ayollarning xohishiga zid ravishda nikoh rasm-rusumlarini o‘tkazish yoki nikohni qayd etdirish.

BXSRning maishiy jinoyatlar to‘g‘risidagi qonuni nikoh huquqi borasida chiqarilgan birdan-bir hujjat hisoblanadi.³²

1924 yil oktabrda O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tashkil topgandan so‘ng ham O‘zSSRni tashkil qilish Revolyutsion Komitetining 1924 yil 27 noyabrdagi qaroriga³³ asosan, sobiq Buxoro Xalq Sovet Respublikasining hududida nikoh-oila huquqiy munosabatlarida tatbiq qilinib kelgan shariat va odat normalari O‘zSSRning qonunlari qabul qilinguniga qadar o‘z kuchini saqlab qolishi qayd etildi. Sobiq Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hududida 1928 yil 1 oktabrgacha, ya’ni O‘zSSRning nikoh, oila ham vasiylik va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish haqidagi qonunlar Kodeksi tatbiq qilingunga qadar diniy marosimlar bo‘yicha tuzilgan nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish davlat organlarida qayd etilgan nikohga tenglashtirilishi belgilangan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hududida tuzilgan diniy nikohlar yozma shaklda rasmiylashtirilmagan, nikohga kiruvchilarga nikoh munosabatini tasdiqlovchi guvohnoma ham berilmagan. Zarur hollarda nikoh huquqiy munosabatini guvohlar ko‘rsatuvi bilan tasdiqlash mumkin edi. Tan olinishi lozim bo‘lgan nikohlarni isbotlaydigan yozma dalillar ham bo‘lmagan. Shuning uchun diniy odat bo‘yicha nikohdan o‘tganlar hayot bo‘lsa, SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1944 yil 8 iyul Farmonining 19-moddasiga muvofiq nikohga kirgan vaqtlarini ko‘rsatib, uni qayd etdirishlari mumkin. Agar ulardan biri vafot etgan bo‘lsa, er-xotinlik munosabatida bo‘lganlik fakti sud tomonidan tasdiqlanishi lozim (O‘zSSR GPKning 274-moddasi).

6-§. XXSR (Xorazm Xalq Sovet Respublikasi)da nikoh va oila munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi

Sovet hukumati vujudga kelgan ilk kunlardan boshlab Xiva xonligining mustaqilligini va suverenitetini tan oldi, u bilan yaxshi qo‘sni chilik munosabatlarini o‘rnatish haqida shartnoma tuzdi.

1920 yil 20 aprelda Butunxorazm quriltoyi to‘plandi. U yangi davlatning shaklini belgiladi. Quriltoy Xiva xonligi tugatilganligini bildirib, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini e’lon qildi.

1920 yil 30 aprelda- Birinchi qurultoyda qabul qilingan XXSR Konstitutsiyasi davlat hokimiyyati mehnatkash xalq qo‘liga o‘tganligini ifoda etdi.

Sovet Rossiysi XXSRni suveren davlat sifatida birinchi bo‘lib tan oldi. RSFSR va Xorazm o‘rtasidagi munosabatlar 1920 yil 13 sentabrda tuzilgan “Ittifoq shartnomasi” bilan belgilandi. Bu shartnoma ikki davlatning iqtisodiy va siyosiy hamkorligi asosini tashkil etdi.

Xorazm Xalq Sovet Respublikasining ijtimoiy va davlat tuzumi uning xalq vakillari Sovetining Butunxorazm I qurultoyi tomonidan 1920 yil 30 aprelda qabul qilingan birinchi Konstitutsiyasi (Asosiy qonuni)da mustahkamlandi. Keyinchalik

³² O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi Fond-18, 1 ro‘yxat 275-delo 357-varaq

³³ O‘zSSR Q. T., 1925 y., I-son, 2-bet.

II(1921 yil may) va III(1922 yil iyul) Butunxorazm Soveti qurultoyi tomonidan Xorazm Xalq Sovet Respublikasi Konstitutsiyasiga ayrim o‘zgartirishlar va to‘ldirishlar kiritildi. Shundan so‘ng XXSR Konstitutsiyasi 6 bo‘lim, 15 bob va 87 moddadan iborat bo‘ldi.

XXSR Konstitutsiyasiga RSFSRning 1918 yildagi Konstitutsiyasi o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. XXSR Konstitutsiyasida asosan Xorazmning o‘ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari ifoda etilgan edi.

Konstitutsiya Xorazm hududida istiqomat qiluvchi hamma fuqarolarning qonun oldida tengligi, jinslarning hamda hamma urug‘lar va millatlarning erkinligi va daxlsizligini kafolatladi.

1923 yil oktabrida Sovetlarning IY qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Unda Xorazm Xalq Soviet Respublikasi sotsialistik respublika deb e’lon qilindi.

Qurultoy Xorazm Respublikasining yangi Konstitutsiyasini qabul qildi.

Xorazm Xalq Soviet Respublikasi hududida ham, xuddi Buxoro Xalq Soviet Respublikasiga o‘xshab, nikoh-oila huquqiy munosabatlari shariat hamda odat normalari asosida hal qilindi.

1921 yil 3 iyulda Xorazm Xalq Soviet Respublikasida Xalq Komissarlari Sovetining nikoh to‘g‘risidagi 1-sonli buyrug‘i chiqdi. Unga binoan nikoh yoshi yigitlar uchun 17, qizlar uchun 16 yosh deb belgilandi. Buyruqda ko‘rsatilgan nikoh yoshiga to‘lmay turib nikoh shartnomasini tuzish, nikoh munosabatiga kirish man etiladi. Erga xotinini oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minalash majburiyati yuklatiladi. Agar qiz yoshlik vaqtida birontaga unashtirib qo‘yilgan bo‘lsa-yu nikoh yoshiga to‘lganda unga turmushga chiqishga rozi bo‘lmasa, u holda kelinning ota-onasi qiz uchun olingan qalinni qaytarishlari lozim edi. Buyruqni buzganlar esa 5 yilga qadar muddatga ozadlikdan mahrum etilishi mumkin edi.

Xorazm Respublikasida milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilgandan so‘ng ham xotin-qizlarning ahvolida uncha o‘zgarish bo‘lmadi. Qozilik sudlari, ruhoniy dindorlarning ta’siri nikoh-oila munosabatlarini tartibga soluvchi shariat normalari barqaror bo‘lib qolishini ta’minaldi.

O‘zbekiston Soviet Sotsialistik Respublikasi tashkil topgandan so‘ng ham sobiq Xorazm Xalq Soviet Respublikasi hududida shariat va odat normalari tatbiq etilib, diniy marosimlar bo‘yicha tuzilgan nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish davlat organlarida qayd etilgan nikohga tenglashtirib kelindi.

YUqorida keltirilgan holatlarni inobatga olib, quyidagi xulosaga kelish mumkin:

-hududimizda shariat va odat normalariga assoslangan patriarxal urug‘chilik munosabatlari bilan bog‘liq Sharq oilasiga xos urf-odatlar sekin-asta yemirila boshladi;

-Oktabr davlat to‘ntarishidan keyingi dastlabki davrda ayollarga erkaklar bilan teng huquq berilishi tufayli xotinlarning tashabbusi bilan nikohdan ajralish to‘g‘risidagi da’volari ko‘paya boshlagan bo‘lsa, keyinchalik bu kurash xotin-qizlar ommasining ko‘pchilik bo‘lib qalinga, qizlarni zo‘rlab erga berish, ko‘p

xotinlilikka qarshi kurashidan iborat bo‘ldi. Ayni vaqtida nikohni, albatta, FHDE organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun astoydil kurash olib borildi;

-Xorazm Respublikasida yashovchi ayollarning ahvoli juda og‘ir edi, chunki ular uzoq vaqtgacha dindorlar va qozilar ta’sirida bo‘lganlar. Nikoh-oila munosabatlari shariat normalari bilan tartibga solib kelindi.

7-§. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining nikoh va oila hamda vasiylik va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish haqidagi qonunlar kodeksi (1928 yil) va uning asosiy qoidalari va ahamiyati

SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti Sovetlarining II Sessiyasi (1924 yil 27 oktabr) Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti, Butunbuxoro Sovetlarining Y Qurultoyi va Butunxorazm Sovetlarining Y Qurultoyi iltimosini qondirib, O‘rta Osiyo respublikalarida milliy-davlat chegaralanishini o‘tkazdi. Natijada SSSR tarkibida O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi vujudga keldi.

O‘rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi o‘tkazilgandan so‘ng hamda O‘zbekiston SSR tuzilgach, bu yerda nikoh-oila munosabatlarini “RSFSR fuqarolik holatlari dalolatnomalari, nikoh, oila, vasiylik huquqi to‘g‘risidagi qonunlar kodeksi” bilan tartibga solish davom etdi. Biroq RSFSRning 1918 yildagi kodeksi faqat O‘zbekiston SSRning milliy-davlat chegaralanishigacha bo‘lgan qismi-Turkiston ASSR hududida tatbiq etildi. Chunki Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti bu haqda maxsus qaror qabul qilgan edi.³⁴ Shunday qilib bu davrda O‘zbekiston SSR hududida nikoh-oila huquqiy munosabatlari sovet oila qonunchiligi va diniy huquqiy qoidalar - shariat va odat normalari bilan tartibga solindi.

O‘zbekiston SSRning tashkil topishi va Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarining uning tarkibiga kirishi oila qonunchiligi bo‘yicha muhim muammolarni kodifikatsiyalash va unifikatsiyalash (bir xillashtirish) vazifalarini qo‘ydi. Keyinchalik sovet oila huquqi normalarini to‘g‘ri tatbiq etishga alohida e’tibor qaratildi. Nikohdan ajralish bo‘yicha keng tarqalgan kategoriyalagi ishlarni asosan ayollar tomonidan qo‘zg‘atildi.

Mahalliy xalqlar o‘rtasida nikohdan ajralish hodisasi ko‘payib ketganini nikoh va oila to‘g‘risidagi sovet qonunlari nikohdan ajralishni oson qilib qo‘yganligi tufayli oilaning axloqiy asoslariga putur yetganligidan, deb izohlash mumkin.

Nikohdan ajralish to‘g‘risida ayollar tomonidan qo‘zg‘atilgan ishlarning aksariyati ular ongingin o‘sganligini, o‘z insoniy qadr-qimmatini anglaganligini bildirsa-da, nikohdan erkin ajralishni belgilagan sotsialistik norma ayollarni tengsiz nikohdan ozod qilishda katta rol o‘ynagan bo‘lsa-da, umuman ajralish statistikasini salbiy tomonga og‘dirib yubordi. O‘sha yillarda nikohdan ajralish to‘g‘risida ayollar tomonidan qo‘zg‘atilgan ishlarning sudlar tomonidan to‘g‘ri hal qilinishiga alohida ahamiyat berilgan edi. Sud organlari oila huquqi normalarini asosan to‘g‘ri hal qilardilar. Biroq fuqarolik ishlarni hal qilishda ayollar huquqi va manfaatlarini himoya qilish bilan bog‘liq nikohdan ajralish ishi bo‘yicha yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ham ko‘zga tashlanadi. Xalq sudlari ayollarning nikohdan ajralish to‘g‘risidagi da’vo arizalarini sabablar yetarli bo‘lmaganligiga qaramay qabul qilganlar, ba’zan esa, hatto er-xotin nikohdan asossiz ajratib ham yuborilgan.

³⁴ Istorija Sovetskogo gosudarstva i prava Uzbekistana, 1-tom, T., 259-bet.

Ayrim holatlarda sudlar nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishlarni qabul qilmay, qozilik sudlariga yuborganlar, ular esa ayollarning nikohdan ajralish to‘g‘risidagi da‘volarini rad etganlar.

Ayrim sovet xalq sudlarining bunday ish tajribasi respublika Adliya Xalq Komissarligi tomonidan qattiq qoralandi. Adliya Xalq Komissarligining 1926 yil 25 fevraldagи “Ayollarni huquqiy himoya qilish to‘g‘risida”gi maxsus topshirig‘iga ko‘ra nikohdan ajralish ishlarini qozilik sudlariga yuborish man etildi.

Respublika Adliya Xalq Komissarligi sudsiga nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda ayolni nikohdan ajralishga majbur etgan har bir sababni sinchiklab o‘rganishni topshirdi.³⁵ Adliya Xalq Komissarligi bu ko‘rsatmani tushuntirib, sud faqat ayol qanday sharoitda yashaganligini aniqlashi ishning holatiga hyech qanday ta’sir etmasligini ko‘rsatdi. Agar ishda nikohdan ajralish to‘g‘risida ayolning arizasi bo‘lsa, deb ko‘rsatiladi Adliya Xalq Komissarligining 1926 yil 4 martdagi tushuntirishida, taraflarning nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishining kelib chiqishi sababidan qat‘i nazar ularni ajratish lozim.

Adliya Xalq Komissarligining 1926 yil 4 mart ko‘rsatmasiga muvofiq, sudlar nikohdan ajralish to‘g‘risida mahalliy xalq ayollarini tomonidan qo‘zg‘atilgan ishlarni albatta nikohdan ajratish bilan yakunlashlari lozim edi. Bu ayollar manfaatlarini sovet qonunlarida belgilangan tarzda himoya qilish bo‘lib, ularga nikohdan erkin ajralish bo‘yicha o‘z huquqlaridan foydalanish uchun imkoniyat yaratgan.

Nikohni qayd etish ham muhim ahamiyatga ega. Ayrim FHDYO xodimlari nikohni qayd etish vaqtida nikohdan o‘tuvchilardan ularning salomatligi va yoshlari haqida vrach ma'lumotnomasini talab etganlar. Bunday ma'lumotnomada vrachlar tomonidan nikohga o‘tuvchi shaxslarning badanlarini tekshirishni talab qildi. Bu holat mahalliy xalq, ayniqsa, ayollar o‘rtasida chuqur norozilik keltirib chiqardi, natijada nikohni yashirish, uni FHDYO organlarida qayd etishdan bosh tortish, diniy rasm-rusumlar asosida tuziladigan nikohning ko‘payishiga olib keldi.

O‘zbekiston SSR Ichki ishlar Xalq Komissarligi o‘zining 1927 yil 15 yanvardagi sirkularida bunday holatni g‘oyat nonormal holat, deb hisoblab, nikohni ro‘yxatga olish uchun faqat nikohlanuvchilarining o‘zaro roziligi va nikoh yoshiga to‘lganligi asos bo‘lishini ko‘rsatdi. Vrach tomonidan ma'lumotnomada emas, balki qishloq kengashi yoki mahalla qo‘mitasi tomonidan berilgan ma'lumotnomada nikoh yoshiga to‘lganlikni isbotlaydigan hujjat hisoblanadi.

FHDYO organlari nikohdan o‘tuvchilardan pasport va arizalaridan tashqari mahalla qo‘mitasidan nikoh haqiqatda nikohga o‘tuvchilarning xohishi bilan tuzilayotganligi, kuyov kelin uchun uning ota-onasiga an'anaviy qalinni bermaganligini tasdiqllovchi hujjatlarni talab qilgan.

³⁵ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy arxivi 904-fond, 1-ro‘yxat, 119-del, 45-varaq.

Ushbu ko'rsatma FHDYO organlarining ishni to'g'ri tashkil qilishida, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishda, aholi ko'z o'ngida nikohni davlat ro'yxatidan o'tkazishning ahamiyatini pasaytirishning oldini olishda muhim mavqyega ega bo'ldi.

Mamlakat tinch qurilish davriga, yangi iqtisodiy siyosatga o'tgach, nikoh va oila to'g'risida dastlabki qabul qilingan qonunlarga oilada ayollar va bolalar huquqini yanada kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan ayrim o'zgartirishlar kiritish lozimligi ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan yangi qonunlar ham qabul qilish ehtiyoji tug'ildi. Bularning hammasi 1926 yil 19 noyabrda qabul qilinib, 1927 yil 1 yanvardan amalga kirgan RSFSR nikoh, oila va vasiylik to'g'risidagi qonunlar kodeksida o'zining to'la ifodasini topdi. Uni qabul qilishda nikoh masalasi to'g'risida chuqur mulohazalar bildirildi va nihoyat, amaliy nikoh huquqiy oqibat keltirib chiqarishi to'g'risidagi qoida belgilandi. Kodeksda nikoh yoshi masalasiga ham ayrim o'zgartirishlar kiritildi. Ayollar uchun 18 yosh nikoh yoshi deb belgilandi. Er-xotinning mulkiy munosabatlarini tartibga solishga ham o'zgartirishlar kiritildi. 1918 yildagi kodeksda er va xotin mulki to'la bo'linganligi belgilangan edi. Shu kodeksning 150-moddasida "Nikoh er-xotinning umumiyligini vujudga keltirmaydi" degan qoida bor edi. Bu ayollarning tangsizligiga qaratilgan edi, chunki eskicha tushunchaga binoan, er-xotin mulkiga er boshliq bo'lishi lozim, degan qoida ustun bo'lib kelgan. RSFSRning 1926 yilgi kodeksining 10-moddasida esa: "Nikohga o'tgunga qadar er-xotining tegishli bo'lgan mulk ularning bo'lingan mulki sanaladi. Er-xotinning nikohdan so'ng topgan mulklari esa ularning umumiyligini hisoblanadi", -deb qayd etilgan.

Er va xotinning bir-biriga nafaqa to'lash tartibiga ham o'zgartirish kiritildi. 1918 yildagi Kodeks nikoh bekor qilingandan so'ng er yoki xotin uchun aliment undirishni ma'lum muddat bilan cheklamay, nikohdan ajralgandan so'ng umrbod undirishni belgilagan edi. RSFSRning 1926 yildagi Kodeksi umrbod aliment undirishni cheklab, nikoh bekor bo'lgandan so'ng faqat bir yil davomida aliment undirishni belgiladi.

Nikohdan ajralish tartibiga ham o'zgartirish kiritildi. 1918 yildagi Kodeksga binoan nikohdan ajralish sud tomonidan ko'rilmach, agar ajralishni ikki tomon istasa, u holda FHDYO organi orqali ham ajralish mumkin edi. RSFSRning 1926 yildagi Kodeksi ajralishning sud tartibini bekor qilib, hamma holatlarda ham ajralishni FHDYO orqali tartibga solishni belgiladi.

RSFSR nikoh va oila qonunlari ittifoqdosh respublikalar qonunlari uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Oila huquqining asosiy masalalari dastlabki vaqtdan boshlab RSFSR qonunlarida qanday hal qilingan bo'lsa, ittifoqdosh respublikalarning qonunlarida ham shunday asosda hal qilindi.

1926 yildan boshlab faqat RSFSRda emas, balki barcha ittifoqdosh respublikalarda nikoh-oila qonunchilagini yangilash jaryoni boshlandi. 1926 yili Ukrainada, 1927 yili Belorussiya va Armanistonda, 1928 yili Ozarbayjonda, 1929

yili Tojikistonda, 1930 yili Gurjistonda, 1935 yili Turkmanistonda yangi Nikoh-oila kodekslari qabul qilindi.

O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining "Nikoh va oila hamda vasiylik va fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish haqidagi qonunlar kodeksi asosan 1928 yil 7 martda II chaqiriq O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining III sessiyasida qabul qilinib, O'zbekiston SSR Markaziy Ijroya Komitetining 1928 yil 23 iyun qarori bilan 1928 yil 1 oktabrdan boshlab amalga kiritildi.

Umuman ittifoqdosh respublikalarning Nikoh-oila kodekslarida muhim tafovutlar yo'q. Bu kodekslarning asosida er-xotinning nikoh-oila munosabatlarida tengligi, bolalar va onalar manfaatlarining davlat tomonidan muhofaza qilinishi tamoyillari yotadi.

Ittifoqdosh respublikalarning Nikoh-oila kodekslarida milliy xususiyatlar va mahalliy sharoitlarni nazarda tutib belgilangan huquqiy qoidalar ham mavjud. Masalan, O'zSSRning Nikoh va oila kodeksida faqat fuqarolik holati dalolatnomalari yozish organlarida ro'yxatga olingan nikohgina er-xotinlarda huquq va majburiyatlarni vujudga keltirishi belgilandi. Bunday tartibning belgilanishi o'sha davr va sharoit uchun to'g'ri edi. Bu ko'p xotinlilikka va voyaga yetmagan qizlarning turushga berilishiga yo'l qo'ymas edi. Kodeks nikoh yoshini qizlar uchun 16, yigitlar uchun 18 yosh qilib belgiladi. Shuningdek, Nikoh-oila kodeksi bilan yuqoriga yoki pastga qaragan to'g'ri chiziq bo'yicha bo'lgan yaqin qarindoshlar o'rtasidagi, shuningdek, birga tug'ilgan va o'gay aka-ukalar bilan opa-singillar o'rtasidagi nikohlar³⁶ man etilgan.

O'zbekiston SSRning Nikoh-oila kodeksining o'ziga xos xususiyati shundan iborat ediki, unda mahalliy o'troq xalq uchun ularning familiyasi bo'lmasa, nikohga o'tish vaqtida nikohga o'tuvchilardan bittasining ota ismi bo'yicha nikohni rasmiylashtirish yoki ularning nikohgacha bo'lgan ota ismida qolish huquqi berilgan.

Nikohdan ajralish vaqtida esa er-xotinning har biriga o'z xohishi bo'yicha familiya tanlash huquqi berilgan. Er-xotin o'rtasida o'zaro kelishish bo'lmasa, u holda bu masala bo'yicha ularning har biriga nikohgacha bo'lgan familiyasi qaytariladi.

O'zSSRning Nikoh-oila kodeksiga binoan nikoh bir tarafning yoki ikki tarafning roziligidagi binoan tugatilishi mumkin edi. O'zbekiston SSR Ijroiya Komitetining 1928 yil 14 yanvar³⁷ qaroriga binoan nikohdan ajralish ma'muriy tartibda amalga oshiriladi.

Nikoh huquqida belgilangan shartlarni himoya qilishda O'zbekiston SSRning 1926 yil 1 iyuldan amalga kiritilgan Jinoyat kodeksi juda katta rol o'ynadi. Unda mahalliy maishiy jinoyatlarga bag'ishlangan maxsus bob ajratilgan

³⁶ YUqoriga yoki pastga qaragan to'g'ri chiziq bo'yicha bo'lgan qarindoshlar deb, bobo va buvi, o'g'il, qiz va nevaralar hisoblanadi, tug'ishgan aka-uka opa-singillar deb, bir ota va bir onadan tug'ilgan bolalarga va o'gay deb, otalari bir, onalari boshqa yoki onalari bir, otalari boshqa bo'lgan bolalarga aytildi. (SSSR IIXKning Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartibi to'g'risida 1927 yil nashr etilgan qo'llanmasidan).

³⁷ SU O'zSSR, 1928, 2-son, 8-modda.

edi. Kodeksda qalin to‘lash (273-modda), xotin-qizlarni jismoniy yoki ruhiy majburlash bilan erga berish (274-modda), qo‘shxotinlik (275-modda) va boshqa jinoyatlar tarkiblari ko‘rsatilgan.

Keyinchalik O‘zbekiston SSRning 1927 yil 26-27 noyabr qarori bilan Jinoyat kodeksi 274-a modda bilan to‘ldirilib, unga voyaga yetmagan yoki yosh qizlarni erga bergenlik uchun jinoiy javobgarlik belgilandi.³⁸

O‘zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1938 yil 14 iyul³⁹ qaroriga binoan respublika Nikoh-oila kodeksi bilan belgilangan nikoh yoshiga o‘zgartirish kiritilib, u erkaklar uchun ham, qizlar uchun ham 18 yosh qilib belgilandi. Respublika Oliy Soveti Prezidiumi ayni vaqtida QQASSR Oliy Soveti Prezidiumiga, oblast va okrug ijroiya komitetlariga favqulodda holatlarda ayrim iltimoslarga ko‘ra, nikoh yoshini ayollar uchun bir yilga kamaytirish huquqini berdi.

Ayollarga nisbatan nikoh yoshi ko‘tarilishining asosiy sababi ularga ma'lumot olish uchun imkoniyat yaratib berish, yosh qizlarni, ular turmushga chiqqach, eriga qaram bo‘lib qolishidan holi etish edi.

Nikoh yoshining umum fuqarolik muomalaga layoqatli yoshga (18 yosh)⁴⁰ mos kelishi ham muhim ahamiyatga ega.

Ittifoqdosh respublikalarning Nikoh-oila kodekslari qabul qilingandan so‘ng oradan ko‘p yillar o‘tdi, mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, xo‘jalik tizimi hamda ishlab chiqarish qurollari va vositalariga nisbatan mulkchilik shakli ham o‘zgardi. Bu yutuqlar mamlakat Asosiy qonuni - SSSR, ittifoqdosh va avtonom respublikalarning Konstitutsiyalarida o‘z ifodasini topdi.

SSSR Markaziy Ijroiya Komiteti va Xalq Komissarlari Sovetining 1936 yil 27 iyundagi qarorida⁴¹ ko‘p bolali onalarga davlat tomonidan beriladigan yordamni belgilash, tug‘ruqxonalar, bolalar yaslilari tarmoqlarini kengaytirish, aliment to‘lamaganligi uchun tayinlanadigan jinoiy jazoni kuchaytirish masalalari ko‘rildi. Bu qaror davlatning ona va bola to‘g‘risidagi g‘amxo‘rligini oshirish, nikoh va ajralish, oilaviy majburiyatga nisbatan mas’uliyatni kuchaytirishga qaratilgan tadbirlar jumlasiga kiradi.

Ushbu qaror hozirgi vaqtida ham amal qilayotgan bolalarning ta‘minoti uchun ota-onalardan undiriladigan aliment hissalarini belgilab berdi; tayinlangan alimentni to‘lamaganlik uchun jinoiy jazoni kuchaytirish, ajralayotgan er-xotinni albatta FHDYoga chaqirish va ularning pasportlariga nikohdan ajralganligi to‘g‘risida belgi qo‘yish, davlat organlarining ajratish bilan bog‘liq ishlarni bajarmaganligi uchun undiriladigan to‘loymi oshirishni belgiladi.

1941-1945 yillardagi Ikkinci jaxon urushi davrida bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ushbu hujjat ichida SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1944

³⁸ SU O‘zSSR, 1927, 39-son, 254-modda.

³⁹ SU O‘zSSR, 1938, 20-son, 43-modda.

⁴⁰ Boshko V.I. Ocherki sovetskogo semeynogo prav, Pererabot. i dop. V.A.Ryasensevo‘m. Kiyev, Gospolitizdat USSR, 1952. 118-119-betlar; Sverdlov G.M. Sovetskoye semeynoye pravo, M., Gosyurizdat, 1958, 112-bet.

⁴¹ SZ SSSR 1936 yil., 34-son. 309-modda.

yil 8 iyuldagi “Homilador ayollarga hamda ko‘p bolali va bolali yolg‘iz onalarga davlat nafaqasini kuchaytirish to‘g‘risida”, “Qahramon ona” faxriy unvonini belgilash va “Onalik shuhrati” ordeni hamda “Onalik medali”ni ta’sis etish to‘g‘risida” chiqargan farmonlari diqqatga sazovordir.⁴²

Bu farmon quyidagi maxsus tadbirlarni belgiladi:

a) davlat tomonidan onalarga va bolalarga beriladigan yordam puli ko‘paytirildi. Ko‘p bolali onalarga bir yo‘la to‘lanadigan yordam puli ikki bolasi bo‘lib va undan so‘ng har bola tug‘ilganda, har oylik yordam puli esa uch bolasi bo‘lib, to‘rtinchchi bola tug‘ilganida va har bir navbatdagi bola tug‘ilganda to‘lanadigan bo‘ldi;

b) bolali yolg‘iz onalarga yordam puli belgilandi;

v) onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan keng, aniq chora-tadbirlar ishlab chiqildi;

g)homilador ayollarga va bolali yolg‘iz onalarga mehnat imtiyozlari belgilandi;

d) tarixda birinchi marta ko‘p bola tug‘ib, tarbiyalagan onalarga davlat mukofotlari “Onalik medali”, “Onalik shuhrati” ordeni va “Qahramon ona” faxriy unvoni joriy qilindi.

Farmon nikoh va oila qonunchiligiga muhim o‘zgartirishlar kiritdi:

1) faqat fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ro‘yxatga olingan nikohgina qonuniy kuchga ega, degan qoida tasdiqlandi: shu tufayli amaliy nikoh munosabatlari kuchga ega, degan huquqiy norma bekor qilindi; shunday nikohda turgan shaxslarga amalda birga nikohda turgan vaqtini ko‘rsatib, nikohni qayd etdirib olish huquqi berildi;

2) nikohdan ajratish faqat sud orqali hal etilishi belgilandi; xalq sudiga er-xotinni yarashtirish majburiyati yuklatildi; nikohdan ajratishni uzil-kesil hal etish yuqori turuvchi sudga tegishli ekanligi tartibi belgilandi;

3) ish xalq sudida ko‘rilguniga qadar nikohdan ajralish to‘g‘risida xabar matbuotda albatta e’lon qilinishi lozimligi belgilandi (keyinchalik, SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1965 yil 10 dekabr Farmoni bilan bu tartib bekor qilindi) va ajralishni rasmiylashtirishda undiriladigan (50 so‘mdan 200 so‘mgacha bo‘lgan) pul miqdori belgilandi;

4) qayd etilgan nikohdan tashqari tug‘ilgan bolalarga otalikni belgilash to‘g‘risidagi qoida ham bekor qilindi, biroq bu qoida 1944 yil 8 iyul Farmoni qabul qilinguniga qadar tug‘ilgan bolalarga nisbatan tatbiq etilmaydi, chunki qonun orqaga qaytish kuchiga ega emas.

Umuman bu farmondan ko‘zda tutilgan maqsad aslida oilani mustahkamlash, ona va bolalar manfaatlarini teng himoya qilish, ko‘p bolali onalarni rag‘batlantirish, aholining o‘sishini ta’minlashdan iborat edi.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumi “Nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishlarni sudda ko‘rish tartibiga ba’zi o‘zgarishlar kiritish to‘g‘risida” 1965 yil 10 dekabrdan farmon

⁴² Vedomosti Verxovnogo Soveta SSSR. 1944 yil. 37-son

qabul qildi. Mazkur farmonga ko‘ra nikohdan ajralish masalasi rayon (shahar) xalq sudi tomonidan hal qilinishi belgilandi.

Bu o‘zgarishlar quyidagi sabablarga ko‘ra qilingan edi: ikki bosqichdan iborat bo‘lgan tartibda nikohdan ajralish ishlarini ko‘rish bir-biridan uzoq masofalarda yashovchi er-xotinlar uchun rasmiy qiyinchiliklarni keltirib chiqardi, u xalqqa yaqin turgan xalq sudiga tegishli faoliik va mustaqillikni ta’min eta olmas edi; gazetada e’lon qilish uchun pul to‘lash va boshqa sud harajatlaridan tashqari er-xotinlarni xalq sudiga, keyinchalik yuqori sudlarga borish uchun ma’lum darajada xarajatlar qilishga majbur etardi.

YUqorida keltirilgan sabablar haqiqatda barbod bo‘lgan oilani nikohdan ajralishi uchun qiyinchilik tug‘dirib, erkaklar bilan xotinlar o‘rtasida amaliy nikohni vujudga keltirib, nikohsiz tug‘ilgan bolalar soni ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

O‘sha davrda O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni) nikoh va oila munosabatlarini tartibga soladigan asosiy huquqiy manba bo‘ldi. Asosiy Qonunning 5 va 6-boqlarida, xususan, 33, 51, 64-moddalarida oila huquqiga oid asosiy prinsiplar belgilab berilgan. Unda xotin-qizlar va erkaklar teng huquqi (33-modda), oila davlat himoyasida ekanligi (51-modda) va oilaning asosiy vazifalaridan biri bolalarni tarbiyalash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishdan iboratligi (64-modda) alohida uqtirib o‘tilgan.

8-§. SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalarning nikoh va oila qonun Asoslari (1968 yil)

Oila huquqining bevosita manbai bo‘lgan “SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalarning nikoh va oila to‘g‘risidagi qonun Asoslari” 1968 yil 27 iyunda yettinchi chaqiriq SSSR Oliy Sovetining to‘rtinchi sessiyasida qabul qilinib, o‘sha yili 1 oktabrdan amalga kiritilgan.⁴³

Hayot shitob bilan olg‘a siljiydi. Mamlakatda ro‘y bergan katta ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida amaldagi qonunlarning ayrim qoidalari eskirib, zamon talablariga javob beraolmay qoldi.

Davr nikoh va oila to‘g‘risidagi qonunlarni yanada takomillashtirish, jamiyat taraqqiyotining joriy bosqichi sharoitiga muvofiqlashtirishni taqozo etardi. ”Asoslar” sovet qonunlarining tabiiy davomi, shu qonunlarning rivojlangan shaklidir.

”Asoslar” muqaddima, besh bo‘lim, 36 moddadan iborat. U nikoh va oila to‘g‘risidagi birinchi umumittifoq qonuni bo‘lib, SSR Ittifoqi va barcha ittifoqdosh respublikalar uchun umumiyl bo‘lgan muhim qoidalarni o‘z ichiga oladi.

”Asoslar” oilaning huquqiy asoslarini mustahkamlashga, fuqarolarning oila va jamiyat oldidagi mas’uliyatini oshirishga qaratilgan. U oila huquqining rivojlanishi va takomillashishida o‘ziga xos bosqich ochdi. Mazkur qonunda sovet davlatining nikoh va oila munosabatlarini tartibga solish borasidagi tajribasi, huquq sohasidagi ilmiy muvaffaqiyatlar, keyingi yillarning yuridik tajribasi va keng mehnatkashlar ommasining fikri o‘z ifodasini topdi.

”Nikoh va oila to‘g‘risidagi qonun asoslari”, tabiiyki, faqat umumiyl qoidalarni, shuningdek barcha ittifoqdosh respublikalarda bir tarzda hal etilishi talab qilingan masalalarga doir normalarni belgilab berdi.

Ittifoqdosh respublikalarning ”Asoslar”ga to‘la muvofiq ishlab chiqilgan Nikoh va oila kodekslari milliy, maishiy va boshqa mahalliy xususiyatlarni hisobga oladigan huquqiy qoidalarni yana ham batafsilroq belgilab berdi.

⁴³ Vedomosti Verxovnogo Soveta SSSR, 1968, 27-son. 241-modda.

9-§. O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining Nikoh va Oila kodeksi (1969 yil)

1969-1970 yillar davomida barcha ittifoqdosh respublikalar mazkur “Asoslar”ga muvofiq o‘zlarining Nikoh va oila kodekslarini ishlab chiqib, qabul qildilar.

O‘zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksi yettinchi chaqiriq O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining to‘rtinchi sessiyasida 1969 yil 6 iyunda tasdiqlanib, o‘sha yilning 1 oktabridan amal qila boshlagan. Unda Ittifoq Qonuni asoslarida belgilab qo‘yilgan qoidalar aynan olingan. Shu bilan birga bu sohada respublika qonunlari bilan hal qilinishi lozim bo‘lgan qoidalar ifodalangan. Respublika Nikoh va oila kodeksi muqaddima, olti bo‘lim, 25 bob, 275 moddadan iborat edi.

Kodeks Muqaddimasida yosh avlodni tarbiyalash, uning jismoniy va ma’naviy kuchlarini rivojlantirish oilaning eng muhim vazifalaridan, deb ta’kidlanadi.

O‘zbekiston SSR Nikoh va oila Kodeksining 7-moddasida “Asoslar” va kodeks normalaridan tashqari ular asosida nikoh va oila masalalariga oid boshqa qonun hujjatlarini ham qabul qilish mumkinligi nazarda tutilgan.

O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining «O‘zbekiston SSR ning vasiylik va homiylik organlari to‘g‘risida»gi, shuningdek bolalarni tarbiyaga berish (patronat) tartibi va shartlari to‘g‘risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida 1970 yil 19 yanvardagi 20-sodan qarori,⁴⁴ O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining «Mehnatkashlar deputatlari rayon, shahar Soveti ijroiya komiteti xuzuridagi grajdnlarning yoshini belgilash komissiyasi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida» 1976 yil 9 iyuldagagi 393-sodan qarori,⁴⁵ O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining «O‘zbekiston SSR xalq deputatlari rayon, shahar, shahardagi rayon Sovetlari ijroiya komitetlarining ZAGS bo‘limlari va posyolka, qishloq hamda ovul Sovetlari ijroiya komitetlari tomonidan grajdnlilik holati aktlarini qayd qilish Qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida» 1982 yil 16 dekabrdagi 803-sodan qarori,⁴⁶ O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarining yangi fuqarolik urf-odatlarini joriy etishga doir ishlarini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida» 1989 yil 26 iyuldagagi 239-sodan qarori va shunga o‘xshash bir qancha qonuniy normalar nikoh va oila kodeksi normalari asosida qabul qilingan hujjatlar hisoblanadi.

Keyinchalik O‘zbekiston Respublikasining Nikoh va oila kodeksiga O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidimining 1976 yil 22 iyun,⁴⁷ 1980 yil 29 aprel,⁴⁸ 1984 yil 24 aprel,⁴⁹ 1991 yil 14 iyun⁵⁰ farmonlari bilan tegishli

⁴⁴ O‘z SSR Q.T, 1970., 1-sodan, 7-modda.

⁴⁵ O‘z SSR Q.T, 1976., 7-sodan, 42-modda.

⁴⁶ O‘z SSR Q.T, 1982., 12-sodan, 46-modda.

⁴⁷ O‘zSSR Oliy Sovetining Vedomostlari, 1976 18-sodan, 201-modda

⁴⁸ O‘zSSR Oliy Sovetining Vedomostlari, 1980 12-sodan, 196-modda

⁴⁹ O‘zSSR Oliy Sovetining Vedomostlari, 1984 12-sodan, 180-modda

o‘zgartirishlar kiritildi. “SSSR fuqarolarining familiyasi, ismi va otasining ismini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risida”gi masala Sovet Sotsialistik Respublikalari Ittifoqining 1991 yil 3 iyul qonuni bilan belgilandi.⁵¹

Oila huquqi normalarini to‘g‘ri tatbiq etishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining dasturiy ko‘rgazmalari katta ahamiyatga ega. Chunki O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arboblari, huquqshunoslik fanlari doktorlari, professorlar F.Abdumajidov, G.P. Sarkisyans juda to‘g‘ri ta‘kidlab o‘tganlaridek, Plenum Nikoh va oila kodeksining ayrim moddalarini sudlarga tushuntirish bilan birga, nikohga o‘tish va nikohni bekor qilish, nafaqa undirish, otalikni belgilash, ota-onalik huquqidan mahrum etish va boshqa masalalar bo‘yicha ham dasturiy tushuntirishlar berdi.⁵² Respublika Oliy Sudi Plenumi qarorlari ichida nikoh-oila ishlari bo‘yicha sud tajribasiga taalluqli bo‘lgan “Nikohdan ajralish ishlari bo‘yicha sud tajribasi to‘g‘risida”gi 42-sonli 1974 yil dekabr qarori,⁵³ SSR Oliy Sudi Plenumining 1980 yil 28 noyabrdagi “Nikohni bekor qilish ishlarini ko‘rishda sudlar tomonidan qonunlarni qo‘llash tajribasi to‘g‘risida”gi, shu masala yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi chiqargan qarolarning O‘zbekiston Respublikasi sudlari tomonidan bajarilishi haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi 1989 yil 14 aprelda chiqargan 5-sonli Qarori bor.⁵⁴

⁵⁰ O‘zbekiston SSR Oliy Sovetining Axborotnomasi, 1991 8-soni, 1184, 198-modda.

⁵¹ “Xalq so‘zi”, 1991 yil 16 iyul.

⁵² O‘zbekiston Respublikasining Oliy Sudi. T., “O‘zbekiston” 1994 164-bet

⁵³ Postanovleniya Plenuma Verxovnogo Suda O‘zbekskoy SSR. 1974-1977 yil. T., 1977. 21-25-betlar.

⁵⁴ O‘zbekiston SSR Oliy Sudining Bulleteni. T., 1989. 2-soni

10-§. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Oila to‘g‘risidagi qonunlari

O‘zbekiston Respublikasi 1990 yil 20 iyunda o‘zining Mustaqillik Deklaratsiyasini qabul qildi va unda umumxalq muhokamasi asosida demokratik huquqiy davlat tuzishga qaror qilinganligi e’tirof etildi.

Mustaqillik Deklaratsiyasini amalgaga oshira borib, o‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasi 1991 yil 31 avgustda O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini va ozod suveren davlat - O‘zbekiston Respublikasi tashkil etilganligini tantanali ravishda e’lon qildi.

1 sentabr O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligi kuni deb belgilanib, 1991 yildan boshlab bu kun bayram va dam olish kuni deb e’lon qilindi. Shundan buyon respublikamizda bu bayram har yili katta tantana bilan nishonlanmoqda.

Shu kundan respublikamiz xalqlari hayotida yangi davr, yangi zamon boshlandi.

Sobiq Sovet Ittifoqi qonunlarining ko‘p qoidalari mustaqil respublikaning o‘ziga xos milliy va mahalliy sharoitiga to‘g‘ri kelmay qoldi. Shu boisdan hozirgi zamon talablariga javob bermaydigan eski qonunlarni, shu jumladan, nikoh va oila qonunlarini yangilash va yanada takomillashtirish ustida ish olib borish taqozo etildi. Mustaqil davlatning o‘ziga xos, milliy, erkin huquqiy tizimi bo‘lmog‘i lozim, unda amalgaga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy islohotlar, jamiyatni rivojlantirishga intilishlar yangi huquqiy qoidalarda o‘z aksini topishi kerak. Shu sababli uni zamon talablariga javob beradigan tarzda ishlab chiqishga yuksak mas’uliyat bilan qaralmoqda.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi hali rasmiy ravishda e’lon qilinmasdanoq nikoh va oila qonunchiligidagi qoidalarni milliy-tarixiy an’analarni hisobga olgan holda belgilash jarayoni boshlangan edi.

O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan qonuni tahririda respublika Nikoh va oila kodeksi 77¹-moddasi bilan to‘ldirilib, unda ”bolaning ismi, otasining ismi va familiyasi, ota-onaning xohishiga ko‘ra hamda milliy-tarixiy an’analarni hisobga olgan holda, bir yoki bir necha so‘zlar bilan yozilishi mumkin”ligi ukdirildi.⁵⁵

O‘zbek ismlari, ota ismi va familiyalari boshqa tillarda yozilganida, ularning asl (birlamchi) yozilishi saqlanib qoladi. O‘zbek ismlari, ota ismlari va familiyalarini yozish o‘zbek tilining talaffuz mezonlariga bo‘ysunadi.

Kodeksning 76-moddasi birinchi qismi ”Ota-onasining ixtiyorini bilan, millatidan qat‘i nazar, bolaga buvasining yoki otasining ismi familiya qilib berilishi mumkin”, degan so‘zlar bilan to‘ldirildi. Shuningdek, 70-modda ”O‘zbek milliy an’analari ko‘ra bolaning ismiga ota-onasining xohishi bilan ”xon“, ”jon“, ”bek“, ”bonu“, ”bibi“, ”oy“, ”xo‘ja“ va boshqa qo‘sishchalar qo‘shib yozilishi, ota ismi

⁵⁵ O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining Axborotnomasi. 1991 yil, 8-sod. (1184) 198- moda

esa otasining ismiga “o‘g‘li”, “qizi” so‘zlari “iy”, “zoda” qo‘sishimchalari qo‘shilgan holda yozilishi mumkin”, degan uchinchi qism bilan to‘ldirildi.

Mustaqil Respublika Konstitutsiyasing qabul qilinishi nikoh va oila qonuniga ham aniqlik kiritdi. Bundan so‘ng nikoh va oila kodeksi deyilmay, “Oila kodeksi”, deb atalmoqda. Chunki Konstitutsiyaning III bo‘lim, XIV bobi “Oila” deb nomlanib, 63-66-moddalar oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalardir. 46-moddada esa xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar, degan qoida belgilandi.

YUqorida ta’kidlanganidek, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Oilaga maxsus bob ajratilgan. Ilgarigi Konstitutsiyalarda esa nikoh va oilaga oid qoidalari har xil boblarda berilgan, bo‘lib undan foydalanishda ayrim qiyinchiliklarni keltirib chiqarardi. Shuningdek, bu bob “Jamiyat va shaxs” bo‘limida berilishi ham ayni muddao, chunki oila jamiyatning bir bo‘lagi, uning asosiy bo‘g‘inidir.

Konstitutsiyaning 63-moddasida shunday deyiladi: “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega”.

Bu moddani “Oila-otalik, onalik va bolalik davlat va jamiyat (har xil jamg‘armalar) himoyasida bo‘ladi”, deyilgan jumla bilan to‘ldirilsa, yanada katta ahamiyat kasb etardi. Chunki to‘liq, keng ma’nodagi “oila” so‘zi ilmiy ma’noda ota, ona va bolani o‘z ichiga oladi. Er-xotin o‘rtasidagi munosabatning asosida nikoh yotsa, ota-onha va bola o‘rtasidagi munosabatning asosida qon-qarindoshlik mujassamlashgan. Oilani mustahkamlash ko‘p jihatdan unda otaning obro‘yini, ahamiyatini oshirish bilan bevosita bog‘liq. Ota bo‘lish muqaddas va mas’uliyatlari vazifadir. Chunki, hayotiy tajribadan ma'lum bo‘lishicha, oilaning barcha ma'naviy va iqtisodiy tashvishlari otalarga yuklatilgan. Ota oila boshlig‘i, o‘z farzandi unib-o‘sishi, voyaga yetishi uchun birinchi mas’ul shaxs.

“Ota rozi-Xudo rozi” degan hikmat esa bag‘ri keng xalqimiz hayotida otaning mavqyei qanchalik yuksak ekanligini aks ettiradi.

Farzand tarbiyasi uchun rahmat ham, la'nat ham, avvalo, otaga yo‘naltiriladi. Barkamol oilaga hamisha irodali, iymonli ota bosh bo‘lgan.

Ayni shu holat tili, dini, tarixi, taqdiri biz bilan mushtarak bo‘lgan yon va jon qo‘srimiz Qozog‘iston Respublikasining 1993 yil 28 yanvarda qabul qilingan Konstitutsiyasing 52-moddasida o‘z ifodasini topdi. U quyidagicha belgilandi: “Oila, onalik, otalik va bolalik jamiyat va davlat himoyasidadir”. Bu ayni muddaodir.

Respublikamizda aholining ko‘p qismini bolalar va yoshlar tashkil qilgani uchun ijtimoiy muammolar ham shunga yarasha ko‘pdir. Binobarin, oila kelajagi alohida ahamiyatga ega massalalardandir. Oilaning davlat muhofazasida ekanligi Respublikamiz Prezidentining farmonlarida o‘z ifodasini topmoqda. Prezidentning 1990 yil 3 mayda qabul qilingan birinchi farmoni “Ko‘p bolali onalarga nafaqa miqdorini ko‘paytirish to‘g‘risida”⁵⁶ deb nomlangan.Unda ko‘p bolali onalarning

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, 1-son., T., “Adolat”, 1992. 13-bet.

ahvolini, yosh avlodning unib-o'sish sharoitlarini yaxshilash maqsadida onalarga to'lanadigan oylik nafaqa ikki baravar ko'paytirildi. Mazkur Farmon o'zbek xalqining bolajonlik tabiatini izhor etadi. Mustaqillik yillari davomida Respublika Prezidentining oilaga aloqador bir qator farmonlari qabul qilindi. Jumladan, uning 1994 yil 16 iyul Farmoniga⁵⁷ ko'ra bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda bolali oilalarga davlat yordamini kuchaytirish, yosh avlodni tarbiyalash muammolarini hal etishda ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash va bolalarni har tomonlama kamol toptirish maqsadida 1994 yil 1 sentabrdan boshlab bolali oilalarga ko'rsatiladigan davlat ijtimoiy yordaming amaldagi tizimi o'rniha nafaqa turlaridan iborat yagona tizim joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 23 avgustda chiqargan "Kam ta'minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashni kuchaytirishga oid tadbirlar to'g'risida"⁵⁸ gi Farmoni bilan aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalashning butunlay yangi turi-kam ta'minlangan oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan 1994 yil 1 oktabrdan⁵⁹ aholini davlat tomonidan ijtimoiy himoyalashning butunlay yangi turi-kam ta'minlangan oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam joriy etildi.

Prezidentning 1995 yil 20 noyabrda qabul qilgan "Bolali oilalarga davlat ijtimoiy yordamini kuchaytirish to'g'risida"gi⁶⁰ Farmoni ham aholini ijtimoiy himoyalashda alohida ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 4 martda "Bolali onalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" chiqarilgan Farmoniga⁶¹ binoan, onalik va bolalikni muhofaza qilish manfaatlarini ko'zlab, bolali oilalarga davlat tomonidan yordamni kuchaytirish, yosh avlodni kamol toptirish va tarbiyalash uchun sharoitlar yaratish maqsadida 1996 yil 1 apreldan boshlab 16 yoshgacha bo'lgan bolasi bor oilalarga har oylik nafaqalar miqdorlari oshirilib, ular eng kam oylik ish xaqiga nisbatan quyidagi miqdorlarda belgilandi. Bir nafar bolasi bor onalarga-40 foiz; ikki nafar bolasi bor onalarga-80 foiz; uch nafar bolasi bor onalarga-120 foiz; to'rt nafar va undan ko'p bolasi bor onalarga-150 foiz.

Bola ikki yoshga to'lgunga qadar uni parvarish qilish uchun har oylik nafaqalar miqdori ko'paytirilib, eng kam oylik ish haqining 150 foizi miqdorda belgilandi.

Respublika Prezidentining 1996 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida"⁶² gi Farmoni ham bolali oilalarni himoya qilishga qaratildi.

⁵⁷ "Xalq so'zi", 1994 yil 18 iyul.

⁵⁸ "Xalq so'zi", 1994 yil 25 avgust.

⁵⁹ "Xalq so'zi", 1994 yil 25 avgust.

⁶⁰ "Xalq so'zi", 1995 yil 21 noyabr.

⁶¹ "Xalq so'zi", 1996 yil 6 mart

⁶² "Xalq so'zi", 1996 yil 11 dekabr

Jahonning bir guruh tadqiqotchi olimlari tomonidan respublikada oilani, onalik va bolalikni himoya qilish borasida qilinayotgan ishlar o‘rganib chiqildi. Natijalar chet ellardagi ahvol bilan taqqoslanganda, biror bir mamlakat Prezidenti elni, oilalarni ijtimoiy himoyalash borasida bizning Yurtboshimiz kabi ko‘p qaror va farmonlar qabul qilmaganligi ma’lum bo‘ldi.

Oila yili bilan Oila kodeksi o‘rtasida mustahkam uyg‘unlik, bor. Oila yilida yangi Oila kodeksi qabul qilinishi esa ramziy ma’noga ega. Zero, ular bir-birini to‘ldiradigan, bir-biriga ko‘maklashadigan vositalardir.

Yangi Oila kodeksi loyihasi bordaniga paydo bo‘lgani yo‘q. Uni tayyorlash to‘g‘risida 1996 yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Fuqarolarni huquqiy himoya qilish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish” mavzusiga bag‘ishlangan Respublika yuristlari konferensiyasida ham aytib o‘tilgandi.

Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasi va olimlarning taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 5 iyul 289-f sonli farmoyishi bilan 15 a‘zodan iborat komissiya tuzildi. Uning tarkibiga davlat va jamoat arboblari, olimlar va yuqori malakali mutaxassislar jalb etildi. Komissiya o‘z tarkibidan 7 a‘zodan iborat ishchi guruhini tuzdi. Ishchi guruhni raisi etib yuridik fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademigi, professor H.R.Rahmonqulov saylandi.

Hukumat komissiyasi o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi loyihasi konsepsiyasini ishlab chiqishdan boshladi.

Konsepsiyanı yozishlik taniqli oilashunos olim yuridik fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist F.M.Otaxo‘jayevga topshirildi.

Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o‘ninch sessiyasida deputatlar Oliy Majlisning Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari F.Muhiddinovaning O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi loyihasi to‘g‘risidagi ma’ruzasini tinglab, Oila kodeksi loyihasini muhokama qildilar hamda uni birinchi o‘qishda ma‘qulladilar.

Loyihani muhokama qilishda Bosh vazir o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasining raisi D.Fulomova, “Nuroniy” jamg‘armasi Qashqadaryo viloyat kengashining raisi S.Usmonov, Samarqand tuman hokimi R.Hakimova ishtirok etishdi. Uni umumhalq muhokamasiga chiqarish uchun “Xalq so‘zi” va “Narodnoye slovo” gazetalarida e’lon qilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Loyiha 1998 yil 27 fevralda gazetalarda e’lon qilindi.

Qonun qabul qilingunga qadar keng jamoatchilik o‘rtasida, mahalliy matbuotlarda, televideniye va radio orqali muhokama etildi.

1998 yil 30 aprelda birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o‘n birinchi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi loyihasi haqida Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari F.Muhiddinova ma’ruza qildi.

Kodeks muhokama qilishda «Oila» respublika ilmiy-amaliy markazi direktori O.Musurmonova, Farg‘ona Davlat universiteti Tibbiyot markazi direktori YU. Nishonov, «Qizilqumnodirmetaloltin» konserni boshqaruvi raisi N.Kucherskiy, respublika yoshlaringin «Kamolot» jamg‘armasi raisi H.Abduraimov, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumanidagi markaziy shifoxona tug‘uriq bo‘limining bosh shifokori D. Tog‘aniyozova, Xorazm viloyati Xonqa tumani hokimi Q.Ortiqovlar ishtirok etdi.

Deputatlar O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksini (**Bundan keyin Oila kodeksi**) ikkinchi o‘qishda tasdiqladilar. U 1998 yil 1 sentabrdan amalga kirdi.

Oilani yanada mustahkamlash va uning ijtimoiy ahamiyatini oshirish uchun huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalar mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalari asosida tayyorlandi. U xalqaro normalarga va milliy mentalitetga mos ravishda ishlab chiqildi.

Oila to‘g‘risidagi qonunlarni yanada takomillashtirish bir qancha yo‘nalishlarda olib borildi.

Birinchidan, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning me'yoriy hujjatlari unga huquqiy asos qilib olindi. Chunki xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi, jamiyatning asosiy hujayrasi hisoblangan oilani mustahkamlash, nikohning barqaror bo‘lishi, otalik, onalik va bolalikni muhofaza qilish, farzand tarbiyasida va moddiy ta'minotida ota-onaning huquq va majburiyatları O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46, 63-66-moddalarida, shuningdek, maxsus qonunlarda, me'yoriy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan.

Ikkinchidan, amaldagi oila qonunlarini takomillashtirishda uzoq yillar davomida sinovdan o‘tgan, o‘zining ijobiy natijalarini bergan qoidalar saqlab qolindi.

Uchinchidan, alohida e’tiborni Sharqda vujudga kelgan va rivojlangan musulmon huquqini, shariat va odob-axloq qoidalarini tiklash istiqbollarini va uning tamoyillarini yangi Oila kodeksiga kiritishga harakat qilindi.

To‘rtinchidan, oilaviy munosabatlar mustahkam bo‘lgan, bolalar tarbiyasi yaxshi yo‘lga qo‘ylgan ayrim xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasini yaxshi o‘rganib, mamlakatimizning yangi qonunlariga olib kirish masalasi ham o‘rganildi.

Beshinchidan, ilgari mamlakatda amalda bo‘lgan “O‘zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksi” (1969 yil 6 iyun), “SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalarning nikoh va oila to‘g‘risidagi qonun Asoslari” (1968yil 27iyun) asosida yozilgandi. Ularda respublika aholisining, ayniqsa o‘zbek halqining o‘ziga xos milliy va mahalliy xususiyatlari deyarli inobatga olinmagan.

Umuman olganda, ilgari amalda bo‘lgan Kodeks mamlakatimizda vujudga keltirilayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy va huquqiy tub o‘zgarishlarga javob beraolmay qoldi. O‘zbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan Fuqarolik,

Fuqarolik protsessual kodekslarida belgilangan qoidalarga zid kelib qoldi. Shuning uchun qonunchilikda bir butun yaxlitlikni saqlash maqsadida yangi Oila kodeksini tayyorlash va uni qabul qilish zururiyati paydo bo‘ldi.

Oltinchidan, oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish tartibi va uning o‘ziga xos xususiyatlari Oila kodeksida berilishi lozim. Chunki moddiy huquqda belgilangan qoidalalar protsessual huquqiy tartib asosida amalga oshiriladi.

Umuman, Oila kodeksi mamlakatimizda bunyod etilayotgan chinakam huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati, inson manfaatlari yo‘lida xizmat qilmog‘i lozim.

Oila kodeksi yana quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘ydi:

- xalqaro huquqiy qoidalarga asoslanib, tegishli milliy qonunlar yordamida oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish;
- umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida oilalarning barqarorligini ta‘minlash tizimini barpo etish;
- mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi g‘oyat murakkab davrida oilaga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish;
- xonadonning serfayzligi, oila hayotining ravnaqi, ma’naviyatining yuksalishi, turmushining farovonligi asosan ayollarga bog‘liqdir. Shuning uchun ham ayollarning oiladagi mavqyeiga, huquqiy holatiga alohida e’tibor berish kerak. Bunda har bir oilaning o‘ziga xos xususiyatini, millatimizning o‘ziga xos jihatlarini e’tiborga olish lozim;
- sog‘lom avlodni vujudga keltirishda milliy qadriyatlаримизга, xalqимизning azалий an'analariga, islamiy axloqiy-ma'naviy aqidalarga amal qilgan holda ish yuritish joizdir;
- bo‘lajak onalarni tarbiyalashda milliy mafkura, urf-odat va an'analarni kengroq qo‘llash maqsadga muvofiq;
- sog‘lom avlod haqida bola tug‘ilmasdan oldin g‘amxo‘rlik qilish lozim;
- oila qonunlarida belgilangan nikohga o‘tish tartibi va shartlarini, oilada erxotin, ota-onalar bilan bolalar, oilaning boshqa a’zolari o‘rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolani tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga e’tiborni qaratishi;
- oila to‘g‘risidagi qonun yosh oilalarning buzilayotganligi, tirik yetimlar ko‘payayotgani, ayrim qiz-juvonlarimizning o‘z joniga qasd qilayotgani, noplak yo‘lga kirayotgani singari salbiy hodisalarning oldini olishga qaratilishi kerak edi.

Yangi kodeksni tayyorlashda unga ayrim huquqiy normalarni kiritishda quyidagi nazariy qoidalarga asoslandik.

oilaviy huquqiga xos demokratik asoslarga tobora qat’iy amal qilish;

- ayollar va erkaklarning oilada teng huquqlilagini ta‘minlash;
- oilaviy huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning shaxsiy va mulkiy huquqlari sud tomonidan himoya qilinishini yanada kengaytirish;

- otalik, onalik va bolalik huquqlarining, oilaviy huquqning tartibga solinishini takomillashtirish;
- oila a'zolarining shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarini yanada to'la va aniq belgilash;
- oila huquqiy normalari faqat katta yoshdagi shaxslargagina emas, balki kichik yoshdagi oila a'zolariga ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash;
- oila qonunlarida milliy va ma'naviy qadriyatlarga, mahalliy sharoitdan kelib chiqadigan eng yaxshi udum va an'analarga alohida e'tibor berish va boshqalar.

Shuningdek, Kodeksga bajariladigan ish tartib qoidalarini soddallashtirish bo'yicha o'zgarishlar kiritildi;

Oila kodeksi 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat.

Har bir bobdag'i yangi huquqiy qoidalar, ularning qonunchilikka kirib kelish sabablarini darslikda batafsil yoritishga harakat qilindi.

Qonun qabul qilingani hamma masala hal bo'ldi, degani emas. Qonun qabul qilinishini birinchi qadam deb tushunmoq kerak. Ikkinci, ya'ni asosiy hamda amaliy qadam fuqarolarning o'zlariga bog'liq: har qanday qonun ehtiyojga aylangandagina to'liq amal qila boshlaydi. Buning uchun, tabiiyki, oila a'zolari ularni o'qib, o'rghanmoqlari va amal qilmoqlari kerak.

IV Mavzu. Oila huquqining manbalari

1-§. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi

Oila huquqining rahbariy manbalari bo'lib, Prezident asarlari uning farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning me'yoriy hujjatlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida oilaviy-huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomalar, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari, O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom, Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to'g'risida Nizom, Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqidagi qaror, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining oila huquqi masalalariga qaratiligan dasturiy ko'rgazmalari bilan tartibga solinadi.

Oila huquqining asosiy manbai O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasidir. U o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan.

Mustaqil Respublika Konstitutsiyasining qabul qilinishi nikoh va oila qonuniga ham aniqlik kiritdi. Bundan so'ng nikoh va oila kodeksi deyilmay, "Oila kodeksi", deb atalmoqda. Chunki Konstitutsianing III bo'lim, XIV bobi "Oila" deb nomlanib, 63-66-moddalar oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan qoidalardir. 46-moddada esa xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlir, degan oila huquqini tamoyilini asosiy qonunga kiritdi.

YUqorida ta'kidlanganidek, Asosiy qonunda Oilaga maxsus bob ajratilgan. Bu bobni "Jamiyat va shaxs" bo'limida berilishi ham ayni muddao, chunki oila jamiyatning bir bo'lagi, uning asosiy bo'g'inidir.

Konstitutsianing 63-moddasida shunday deyiladi: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega".

Bu moddani "Oila-otalik, onalik va bolalik davlat va har xil nodavlat jamg'armalar himoyasida bo'ladi", deyilgan jumla bilan to'ldirilsa, yanada katta ahamiyat kasb etardi. Chunki to'liq, keng ma'nodagi "Oila" so'zi ilmiy ma'noda ota, ona va bolani o'z ichiga oladi. Er-xotin o'rtaqidagi munosabatning asosida nikoh yotsa, ota-onha va bola o'rtaqidagi munosabatning asosida qon-qarindoshlik yotadi. Chunki, bola ota qonidan paydo bo'ladi, ona qornidan tug'iladi. Oilani mustahkamlash ko'p jahatdan unda otaning obro'yini, ahamiyatini oshirish bilan bevosita bog'liq. Ota bo'lish muqaddas va mas'uliyatli vazifadir. Chunki, hayotiy tajribadan ma'lum bo'lishicha, oilaning barcha ma'naviy va iqtisodiy tashvishlari otalarga yuklatilgan. Ota oila boshlig'i, o'z farzandi unib-o'sishi, voyaga yetishi uchun birinchi mas'ul shaxs.

"Ota rozi-Xudo rozi" degan hikmat esa bag'ri keng xalqimiz hayotida otaning mavqyei qanchalik yuksak ekanligini aks ettiradi.

Farzand tarbiyasi uchun rahmat ham, la'nat ham, avvalo, otaga yo'naltiriladi.

Barkamol oilaga hamisha irodali, iymonli ota bosh bo‘lgan.

Ayni shu holat tili, dini, tarixi, taqdiri biz bilan mushtarak bo‘lgan yon va jon qo‘schnimiz Qozog‘iston Respublikasining 1993 yil 28 yanvarda qabul qilingan Konstitutsiyasining 52-moddasida o‘z ifodasini topdi. U quyidagicha belgilandi: "Oila, onalik, otalik va bolalik jamiyat va davlat himoyasidadir". Bu ayni muddaodir.

Oila huquqining asosiy tamoyillari Konstitutsiyada o‘z ifodasini topgan. Ular jumlasiga oilani jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lishligi, oilada erkak va ayolni teng huquqliligi, nikohning ixtiyoriy va teng bo‘lishligi, ota-onalar va bolalarni asosiy huquq va majburiyatlaridir.

2-§. O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi

Oila huquqining asosiy manbai butun keng qamrovli oila qonunchiligining "o‘zagi" O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksidir⁶³. U 1998 yil 30 aprelda birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining o‘n birinchi sessiyasida qabul qilinib, o‘sha yili 1 sentabrdan e’tiboran amalga kiritildi.

Oila kodeksi 8 bo‘lim, 30 bob, 238 moddadan iborat.

Amaldagi Oila kodeksi loyihasi birdaniga paydo bo‘lgani yo‘q. Uni tayyorlash to‘g‘risida 1996 yil Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Fuqarolarni huquqiy himoya qilish va aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish" mavzusiga bag‘ishlangan Respublika yuristlari konferensiyasida ham aytib o‘tilgandi.

Respublika Xotin-qizlar qo‘mitasi va olimlarning taklifiga binoan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi loyihasini ishlab chiqish uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 5 iyul 289-F sonli Farmoyishi bilan 15 a‘zodan iborat komissiya tuzildi. Uning tarkibiga davlat va jamoat arboblari, olimlar va yuqori malakali mutaxassislar jalb etildi. Komissiyaga Bosh vazir o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasining raisi Dilbar Fulomova boshehilik qildi. Komissiya o‘z tarkibidan 7 a‘zodan iborat ishchi guruhuni tuzdi. Ishchi guruhiga yuridik fanlari doktori, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiga, Respublikada xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, professor X.Rahmonqulov rahbarlik qildi. U o‘z faoliyatini Oila kodeksining konsepsiyasini ishlab chiqishdan boshladi. Konsepsiyanı tayyorlash taniqli yurist, yuridik fanlari doktori, oilashunos olim O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist F.M.Otaxo‘jayevga topshirildi va u uni muvaffaqiyatlajardi.

Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o‘ninchi sessiyasida deputatlar Oliy Majlisning Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari F.Muhiddinovaning O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi loyihasi to‘g‘risidagi ma’ruzasini tinglab, qonun loyihasini muhokama qildilar hamda uni birinchi o‘qishda ma‘qulladilar.

Loyihani muhokama qilishda Bosh vazir o‘rinbosari, O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasining raisi D.Fulomova, "Nuroniy" jamg‘armasi Qashqadaryo viloyati Kengashining raisi S.Usmonov, Samarqand tuman hokimi R.Hakimova ishtirok etishdi. Uni umumxalq muhokamasiga chiqarish uchun "Xalq so‘zi" va "Narodnoye slovo" gazetalarida e’lon qilish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Loyiha 1998 yil 27 fevralda gazetalarda e’lon qilindi.

Qonun qabul qilingunga qadar keng jamoatchilik o‘rtasida, mahalliy matbuotlarda, televideniye va radio orqali muhokama etildi.

1998 yil 30 aprelda birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning o‘n birinchi sessiyasida O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi loyihasi haqida ikkinchi marotaba Qonunchilik va sud-huquq masalalari qo‘mitasi raisining o‘rinbosari F.Muhiddinova ma’ruza qildi.

⁶³ Bundan keyin Oila kodeksi deb yuritamiz.

Kodeks muhokama qilishda "Oila" respublika ilmiy-amaliy markazi direktori O.Musurmonova, Farg'ona Davlat universiteti Tibbiyot Markazi direktori YU.Nishonov, "Qizilqumnodirmetaloltin" konserni boshqaruvi raisi N.Kucherskiy, respublika yoshlarning "Kamolot" jamg'armasi raisi H.Abduraimov, Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumanidagi markaziy shifoxona tug'uriq bo'limining bosh shifokori D.Tog'ayniyozova, Xorazm viloyati Honqa tumani hokimi Q.Ortiqovlar ishtirok etdilar.

Deputatlar O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksini ikkinchi o'qishda qabul qildilar.

Oilani yanada mustahkamlash va uning ijtimoiy ahamiyatini oshirish uchun huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalar mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi g'oyalari asosida tayyorlandi. U xalqaro normalarga va milliy mentalitetga mos ravishda ishlab chiqildi.

Oila to'g'risidagi qonunlarni yanada takomillashtirish bir qancha yo'nalishlarda olib borildi.

Birinchidan, mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Prezident farmonlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, vazirliklar va idoralarning me'yoriy hujjatlari unga huquqiy asos qilib olindi. Chunki xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligi, jamiyatning asosiy hujayrasi hisoblangan oilani mustahkamlash, nikohning barqaror bo'lishi, otalik, onalik va bolalikni muhofaza qilish, farzand tarbiyasida va moddiy ta'minotida ota-onaning huquq va majburiyatları O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46, 63-66-moddalarida, shuningdek, maxsus qonunlarda, me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

Ikkinchidan, amaldagi oila qonunlarini takomillashtirishda uzoq yillar davomida sinovdan o'tgan, o'zining ijobiy natijalarini bergen qoidalar saqlab qolindi.

Uchinchidan, alohida e'tiborni Sharqda vujudga kelgan va rivojlangan musulmon huquqini, shariat va odob-axloq qoidalarini tiklash istiqbollarini va uning tamoyillarini yangi Oila kodeksiga kiritishga harakat qilindi.

To'rtinchidan, oilaviy munosabatlar mustahkam bo'lgan, bolalar tarbiyasi yaxshi yo'lga qo'yilgan ayrim xorijiy davlatlarning qonunchilik tajribasini yaxshi o'rghanib, mamlakatimizning yangi qonunlariga olib kirish masalasi ham o'rghanildi.

Beshinchidan, ilgari mamlakatda amalda bo'lgan "O'zbekiston SSRning Nikoh va oila kodeksi" (1969 yil 6 iyun), "SSR Ittifoqi va ittifoqdosh respublikalarning nikoh va oila to'g'risidagi qonun Asoslari" (1968yil 27iyun) asosida yozilgandi. Ularda respublika aholisining, ayniqsa o'zbek halqining o'ziga xos milliy va mahalliy xususiyatlari deyarli inobatga olinmagan.

Umuman olganda, ilgari amalda bo'lgan Kodeks mamlakatimizda vujudga keltirilayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlarini chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'nnaviy va huquqiy tub o'zgarishlarga javob beraolmay qoldi. O'zbekiston Respublikasining yangi qabul qilingan Fuqarolik, Fuqarolik protsessual kodekslarida belgilangan qoidalarga zid kelib qoldi. Shuning

uchun qonunchilikda bir butun yaxlitlikni saqlash maqsadida yangi Oila kodeksini tayyorlash va uni qabul qilish zururiyati paydo bo'ldi.

Oltinchidan, oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni hal qilish tartibi va uning o'ziga xos xususiyatlari Oila kodeksida berilishi lozim. Chunki moddiy huquqda belgilangan qoidalar protsessual huquqiy tartib asosida amalga oshiriladi.

Umuman, Oila kodeksi mamlakatimizda bunyod etilayotgan chinakam huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati, inson manfaatlari yo'lida xizmat qilmog'i lozim.

Oila kodeksi yana quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'ydi:

- xalqaro huquqiy qoidalarga asoslanib, tegishli milliy qonunlar yordamida oilani mustahkamlash, bolalar manfaatini himoya qilish;
- umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida oilalarning barqarorligini ta'minlash tizimini barpo etish;
- mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi g'oyat murakkab davrida oilaga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish;
- xonadonning serfayzligi, oila hayotining ravnaqi, ma'naviyatining yuksalishi, turmushining farovonligi asosan ayollarga bog'liqdir. Shuning uchun ham ayollarning oiladagi mavqyeiga, huquqiy holatiga alohida e'tibor berish kerak. Bunda har bir oilaning o'ziga xos xususiyatini, millatimizning o'ziga xos jihatlarini e'tiborga olish lozim;
- sog'lom avlodni vujudga keltirishda milliy qadriyatlarimizga, xalqimizning azaliy an'analariga, islomiy axloqiy-ma'naviy aqidalarga amal qilgan holda ish yuritish joizdir;
- bo'lajak onalarni tarbiyalashda milliy mafkura, urf-odat va an'analarini kengroq qo'llash maqsadga muvofiq;
- sog'lom avlod haqida bola tug'ilmasdan oldin g'amxo'rlik qilish lozim;
- oila qonunlarida belgilangan nikohga o'tish tartibi va shartlarini, oilada er-xotin, ota-onalar bilan bolalar, oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolani tarbiyaga olish tufayli kelib chiqadigan huquqiy munosabatlarni tartibga solishga e'tiborni qaratishi;
- oila to'g'risidagi qonun yosh oilalarning buzilayotganligi, tirik yetimlar ko'payayotgani, ayrim qiz-juvonlarimizning o'z joniga qasd qilayotgani, noplak yo'lga kirayotgani singari salbiy hodisalarning oldini olishga qaratilishi kerak edi.
- Yangi kodeksni tayyorlashda unga ayrim huquqiy normalarni kiritishda quyidagi nazariy qoidalarga asoslandik.
- oila huquqiga xos demokratik asoslarga tobora qat'iy amal qilish;
- ayollar va erkaklarning oilada teng huquqlilagini ta'minlash;
- oilaviy huquqiy munosabatlarda ishtirok etuvchi subyektlarning shaxsiy va mulkiy huquqlari sud tomonidan himoya qilinishini yanada kengaytirish;

- otalik, onalik va bolalik huquqlarining, oilaviy huquqning tartibga solinishini takomillashtirish;
- oila a'zolarining shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarini yanada to'la va aniq belgilash;
- oila huquqiy normalari faqat katta yoshdagi shaxslargagina emas, balki kichik yoshdagi oila a'zolariga ham tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash;
- oila qonunlarida milliy va ma'naviy qadriyatlarga, mahalliy sharoitdan kelib chiqadigan eng yaxshi udum va an'analarga alohida e'tibor berish va boshqalar.

Shuningdek, Kodeksga bajariladigan ish tartib qoidalarini soddallashtirish bo'yicha o'zgarishlar kiritildi;

Kodeksdagi har bir bobdagi yangi huquqiy qoidalar, ularning qonunchilikka kirib kelish sabablarini darslikda bat afsil yoritishga harakat qilindi.

Qonun qabul qilingani hamma masala hal bo'ldi, degani emas. Qonun qabul qilinishini birinchi qadam deb tushunmoq kerak. Ikkinci, ya'ni asosiy hamda amaliy qadam fuqarolarning o'zlariga bog'liq: har qanday qonun ehtiyojga aylangandagina to'liq amal qila boshlaydi. Buning uchun, tabiiyki, oila a'zolari ularni o'qib, o'rganmoqlari va amal qilmoqlari kerak.

3-§. Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnomma

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat bo‘lganligi munosabati bilan ilgarigi davrda qabul etilgan bir qator normativ hujjatlar o‘zining dolzarbligini yo‘qotib, hozirgi kun talabiga javob bermay qoldi. Shu jumladan, Respublika FHDYO idoralarida amalda bo‘lgan Qoidalar byurokratik, qog‘ozbozlik, sansolarlik va rasmiyatchilikning manbai bo‘lib, aholining o‘rinli noroziliklarini tug‘dirdi.

Yangi Yo‘riqnomma⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi kollegiya qarori bilan 1995 yil 2 noyabrda tasdiqlanib shu yilning 10 noyabridan amalga kiritilindi.

U 19 bo‘lim 220 banddan iborat bo‘lib bir qator Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to‘g‘risidagi qoidalar yangicha hozirgi zamon talablari asoslarida hal qilindi.

4-§. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari

Yangi oila kodeksini amalga kiritish munosabati bilan uni tatbiq etishga qaratilgan bir qator masalalar vujudga keldi. Bu savollarga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari", "O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida Nizom", "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida Nizom"⁶⁵ javob berdi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari 18 bo‘lim (1.Umumi qoidalar 1-13 bandlar), (2.Tug‘ilganlikni qayd etish 14-39 bandlar), (3.Otalikni belgilash 40-62 bandlar), (4.Farzandlikka olish 63-72 bandlar), (5.Nikohni qayd etish 73-107 bandlar), (6.Nikohdan ajratish 108-122 bandlar), (7.o‘limni qayd etish 123-137 bandlar), (8.Dalolatnama yozuvlarini tiklash 138-150 bandlar), (9.Xorijiy davlatlarning vakolatli muassasalari tomonidan berilgan hujjatlarni almashtirish 151-153 bandlar), (10.Dalolatnama yozuvlarini o‘zgartirish, tuzatish va to‘ldirish 154-165 bandlar), (11.Familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish 166-184 bandlar), (12.Dalolatnama yozuvlarini bekor qilish 185-188 bandlar), (13.Fuqarolik holati dalolatnama yozuvlarini to‘ldirish 189-203 bandlar), (14.Takroriy guvohnomalar va boshqa ma'lumotlar berish 204-214 bandlar), (15.FHDYO organlari arxivi) 215-233 bandlar), (16.FHDYO organlarining hisoboti 234-243 bandlar), 17.Gerbli guvohnomalarini hisobga olish va ularni saqlash 244-249 bandlar), (18.FHDYO organlari faoliyatini tekshirish 250-252 bandlar).

⁶⁴ Fuqarolik holatlarini qayd etish tartibi to‘g‘risida Yo‘riqnomma. -T.^ "Adolat", 1995y.

⁶⁵ Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari. O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida Nizom. Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida Nizom. T.^ "Adolat", 1999y. 99 bet.

5-§.O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida Nizom 2-qism.

1-qism. Vasiylik va homiylik organlari (1.Umumiy qoidalar 1-6 bandlar). 2.Vasiylik va homiylik organlarining vazifalari 7-10 bandlar. 3.Vasiylik va homiylik organlarining alohida vazifalari A.Sudlar tomonidan bolalar tarbiyasi to‘g‘risidagi nizolarni ko‘rib chiqishda vasiylik va homiylik organlarining qatnashuvi 11-15 bandlar. B.Tug‘ilishni qayd qilishda vasiylik va homiylik organining vakolatlari 16-18 bandlar. V.Vasiylik va homiylik organlari tomonidan bolalar tarbiyasi va ular bilan ko‘rishib turish to‘g‘risida masalalarning hal etilishi 19-21 bandlar. G.Vasiylik va homiylik organining bolalarni farzandlikka olish va oilaga tarbiyaga berish bilan bog‘liq masalalardagi vakolatlari 22-29 bandlar. D.Vasiylik va homiylik organining voyaga yetmaganlarni to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilish (emansipatsiya) bo‘yicha vakolatlari 30 band. 4.Vasiylik va homiylik organining qarori hamda vasiy va homiyning hatti-harakatlari ustidan shikoyat qilish 31-33 bandlar. 5.Vasiylik va homiylik ishlarini yuritish 34-46 bandlar.

2-qism.Vasiylik va homiylik. 1.Umumiy qoidalar 1-3 bandlar. 2.Vasiylik va homiylni tanlash va vasiylikka yoki homiylikka berilishi kerak bo‘lgan shaxslarni hisobga olish 4-8 bandlar. 3.Vasiylik yoki homiylikni rasmiylashtirish uchun talab qilinadigan hujjatlar 9-10 bandlar. 4.Vasiylik va homiylikni belgilash tartibi 11-12 bandlar. 5.Vasiy va homiyning huquq hamda majburiyatları 13-21 bandlar. 6.Vasiy va homiylar faoliyatini nazorat qilish 22-23 bandlar. 7.Vasiy va homiylikning tugashi 24-26 bandlar.

6-§. Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida Nizom

Nizom 2 bo‘limdan iborat.

Birinchi bo‘lim "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka olish" deb nomlanib, 1.Umumiy qoidalar 1-4 bandlar. 2.Farzandlikka olinishi lozim bo‘lgan bolalarni va ularni farzandlikka olishni xohlagan shaxslarni hisobga olish 5-11 bandlar, 3.Farzandlikka olish uchun talab qilinadigan hujjatlar 12-14 bandlar, 4.Farzandlikka olish haqida hokimga taqdim etadigan tavsiyanomalarining tayyorlanishi 15-band 4 paragrafdan iborat. 5.Farzandlikka olishni rasmiylashtirish va uni sir saqlash 16-18 bandlar. 6.Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari 19-20 bandlar. 7.Farzandlikka olishni bekor qilish uchun asoslar va uning oqibatlari 21-25 bandlar. 8.Farzandlikka olinganlarning shaxsiy hujjatlarini saqlash tartibi 26 band. 9.Chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan bolalarni farzandlikka olish. 27-29 bandlar. Ikkinci bo‘lim "Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat deb nomlanib, 1.Umumiy qoidalar, 1-3 bandlar. 2.Oilaga tarbiyaga beriladigan bolalarni va tutingan ota-onalarni hisobga olish 4-7 bandlar. 3.Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuv 8-10 bandlar. 4.Tarbiyaga berilgan bolalarning moddiy ta’minoti 11-12 bandlar. 5.Bolalarni tarbiyaga olish

to‘g‘risidagi kelishuvning bekor qilinishi 13-14 bandlar. 6.Oilaga tarbiyaga olingan bolalarning huquqlari 15-17 bandlar. 7.Tutingan ota-onaning huquq va majburiyatları 18-20 bandlar.

7-§. Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar to‘g‘risida qoidalar

Ma'lumki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida" 2000 yil 26 sentabrdan qaror qabul qildi.

Unda voyaga yetmaganlar o‘rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, bu yo‘nalishda mas‘ul bo‘lgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadidagi masalalar o‘z ifodasini topdi.

Ushbu qarorga binoan voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiyalar haqidagi Nizom hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha komissiya tarkibi tasdiqlandi.

Bu komissiya har yarim yilda voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda huquqiy-tarbiyaviy ishlarning ahvolini muhokama etib, bu borada mutasaddi idoralar rahbarlarining hisobotlarini eshitib boradi.

8-§. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining oila huquqi masalalari bo‘yicha qarorlari

Oila huquqi qoidalarini to‘g‘ri tatbiq etishda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining dasturiy ko‘rgazmalari katta ahamiyatga ega. Chunki yuridik fanlari doktorlari, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arboblari, professorlar F.Abdumajidov, G.P.Sarkisyans juda to‘g‘ri ta‘kidlab o‘tganlaridek, Plenum ... Oila kodeksining ayrim moddalarini sudsiga tushuntirish bilan birga, nikohga o‘tish va nikohni bekor qilish, nafaqa undirish, otalikni belgilash, ota-onalik huquqididan mahrum qilish va boshqa masalalar bo‘yicha ham dasturiy tushuntirishlar berdi⁶⁶.

Respublika Oliy sudi Plenumi qarorlari ichida oila ishlari bo‘yicha sud tajribasiga taalluqli bo‘lgan "Bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida" 1998 yil 11 sentabrdagi 23 sonli qarori⁶⁷, "Sudlar tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko‘rishda qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida 1998 yil 11 sentabrdagi 22-sonli qarori⁶⁸, "Otalikni belgilash haqidagi ishlarni ko‘rishda sudlar tomonidan

⁶⁶ O‘zbekiston Respublikasining Oliy sudi. -T.: "O‘zbekiston", 1994y. 164 bet.

⁶⁷ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlarining to‘plami. 1991-1998. ikki jildli. 2-jild. T.: 1999, 110-127 betlar.

⁶⁸ YUqoridagi asar. 127-148 betlar.

qonunlarning tatbiq etilishi to‘g‘risida” 2001 yil 1 iyundagi qarori bor⁶⁹.

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi. T.: 2001 yil, 30-37 betlar.

V-Mavzu. Oilaviy-huquqiy munosabatlar

1-§. Oilaning umumiy (ijtimoiy) va maxsus (yuridik) tushunchalari

Oila jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy muassasasidir. Oilaning bu xususiyati birinchi galda uning jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqligida hamda ijtimoiy vazifalarida ifodalananadi.

Oilaning umumiy (ijtimoiy) va maxsus (yuridik) tushunchasi mavjuddir.

Ijtimoiy ma'nodagi oila deganda nikohga, qon-qarindoshlikka (yoki faqat qarindoshlikka), bolalarni tarbiyalash uchun oilaga qabul qilishga, umumiylayot, maqsad o‘zaro g‘amxo‘rlikka asoslangan shaxslar ittifoqi tushuniladi.

Oilaviy ittifoqda shaxslar o‘rtasida ahloqiy, ruhiy, jismoniy va xo‘jalik-maishiy aloqalar sodir bo‘lib, ular hayot va maqsadlarda umumiylilikni vujudga keltiradi.

Oilaviy ittifoq maxsus va shu bilan birga murakkab ijtimoiy munosabatlardan iborat.

Odatda oilaning vujudga kelishiga nikoh asos bo‘ladi. Shuning uchun oilada bola tug‘ilmagan bo‘lsa ham nikoh munosabatining o‘zi oilani tashkil etadi.

O‘zining ijtimoiy mazmuniga qarab oila, odatda, o‘zaro aloqadagi uch ijtimoiy guruhdan iborat bo‘lib, uning asosi sifatida nikoh, nikohning natijasi sifatida er-xotin munosabatlari, er-xotin munosabatlarining oqibati sifatida farzandlardan tashkil topadi. Tipik oilaviy munosabatlardan tashqari bolali yolg‘iz ona bilan uning bolasi o‘rtasidagi, boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlar, ayrim holatlarda esa tug‘ishmaganlar (farzandlikka olganlar va farzandlikka olinganlar, tarbiyaga olgan va tarbiyaga olinganlar) o‘rtasidagi munosabatlar ham oilaviy munosabatlarni tashkil etadi.

Odamlar hayotining birdan-bir to‘g‘ri yo‘li oilaviy hayotdir.

O‘zbekiston aholisining 98 foizi oilada oila a’zosi bo‘lib yashaydi. Oila muhiti, uning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti o‘lkaning kelajak taraqqiyotida hal qiluvchi omillardandir. Shuning uchun oila atroficha o‘rganish, oila haqidagi statistik ma'lumotlarni jahon andozasiga talab beradigan tarzda takomillashtirish Respublikadagi muhim vazifalardan hisoblanadi.⁷⁰

Oila-hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urfatlarimizni saqlaydigan, chin inson bo‘lib shakllanishda muhim rol o‘ynovchi tarbiya o‘chog‘idir.

Necha ming yillik tajribalar ko‘rsatishicha, oilaviy hayot odamzod turmush tarzining birdan-bir to‘g‘ri yo‘lidir. Yolg‘izlikda yashash-kemtik hayot, ruhiy-ma’naviy inqirozlarga hamrohlilikdir.

Dunyoda ko‘pchilik odamlar oilaviy hayotda yashaydilar. Biroq, masalan, har besh nafar ovrupolikdan biri uyqusizlikdan azob chekadi, buning asosiy sabablardan biri yolg‘izlikdir. Yoxud Buyuk Britaniyada yolg‘iz onalar va yolg‘iz qariyalar soni yildan-yilga ortmoqda, bu yurtning 15 foiz aholisi yolg‘izlikda umr kechirmoqda.

⁷⁰ «Ayol-oila huquq» davra suhbati materiallari.-T.:1998, 99-bet.

Ayrim mamlakatlarda uylanmaslikni afzal ko‘rvuchi bo‘ydoqlar ham ko‘plab uchraydi . Senegalda har yuz ayolga o‘rtacha 95 erkak to‘g‘ri keladi. Erkaklarning 44,4 foizi uylanmaslikni afzal ko‘rvuchi bo‘ydoqlar bo‘lib, ayni paytda turmushga chiqmagan xotin-qizlar atigi 19,3 foizni tashkil etadi. U yerda aholining 94 foizi islam diniga e’tiqod qiladi. Shariatda to‘rttagacha xotin olishga ruxsat etilsa ham, senegallik musulmon erkaklarning atigi 28,3 foizi ikkita va undan ortiq xotinga uylangan. Ayni paytda senegallik ayollardan 52,1 foizining kundoshlari bor. Qizlar yetuk yoshdagi erkaklarga turmushga chiqishni afzal ko‘radilar, shu sababli mazkur mamlakatda beva erkaklarga nisbatan beva ayollar ko‘proq.⁷¹

Yolg‘iz yashab o‘tgan buyuk odamlar oddiy oilaviy baxtga erishganlarga xavas qilishadi. Buyuk rus yozuvchisi Turgenev “Meni o‘ylovchi, qutlovchi g‘amxo‘r ayol bo‘lsa edi. Butun talant va kitoblarimdan ham voz kechardim,”⁷² degan.

Jamiyatdagi ko‘pchilik odamlar oila doirasida yashaydilar, oila-oila bo‘lib yashashni ma’qul ko‘radilar. Oila - inson uchun mehnat qobiliyatini tiklash va dam olish joyi, shuningdek, Oila, muhim tarbiyachi hamdir. Unda bolalar tarbiyasida ota-bobolar, momolardan qolgan, ming yillar mobaynida hayot sinovlaridan o‘tgan yaxshi udum, odatlar mavjud. Afsuski, hozir ayrim oilalarda bu an’analarga rioya qilinmayapti. Ota-onalarning aksariyati sharqona odatlarimizni bilishmaydi. Ba’zan farzandlarimizda sharm-hayo, andisha, uyat, or-nomus haqida tushunchaning kamligi, ayrimlaridan hayo pardasi ko‘tarilib borayotganining guvohi bo‘lish mumkin.

Millatimizga, xalqimizga yot bo‘lgan bo‘ydoqlik, oilasiz yashash yurtimiz uchun ham “begona” emas. 1979 yilgi aholi ro‘yxati natijalariga ko‘ra, 20 yoshdan 54 yoshgacha bo‘lgan fuqarolarimizning 96 minggi bo‘ydoq, ya’ni oilasiz yashagan. Shulardan 55 minggi erkaklar va 41 minggi ayollardir.⁷³

Insonning jamiyatda yolg‘izlanib qolishi yaxshi emas, albatta. Islom ham yakkalik, bevalikni ma’qullamaydi. Yakkalik faqat Tangriga yarashadi, degan gap bor. Hadisi shariflardan birida odamning uyda bir o‘zi, yolg‘iz yotishi qoralangan. Eng mustahkam oila islam diniga e’tiqod qiluvchilarning oilasidir, degan boshqa dindagi olimlar e’tirofi biz uchun qanchalik yoqimli bo‘lmasin, aholi o‘rtasida oilani mustahkamlashga oid tarbiyaviy ishlarni yanada kuchaytirish lozim.

⁷¹ “Toshkent oqshomi”, 1990 yil 30 iyul.

⁷² “Toshkent oqshomi”, 1991 yil 3 may.

⁷³ “Sovet O‘zbekistoni” 1979 yil 29 dekabr

Oilaviy hayot bir gulshanga o‘xshaydi, lekin uning ham issiq-sovuq fasllari, bahori-qishi bor. Taqdirning kuchli bo‘ronu to‘fonlari insonni tushkunlikka tushirib qo‘ymasligi lozim. Oilaviy baxtga, farovon turmushga erishish uchun sabr-toqatli bo‘lish ham taqozo etiladi.

Hayotni nikoh va oilasiz tasavvur qilish juda qiyin, buni normal hol deb bo‘lmaydi. Chunki u turmushning juda muhim qismidir. Agar ko‘pchilik insonlar muhabbatli nikohga nisbatan yolg‘izlikni afzal ko‘rsalar, ular azobda qolishlari mumkin. Shuning uchun ham atrofdagilar nikohsizlikni, befarzandlikni hyech mahal ma‘qullamaganlar. Biroq keyingi yetmish yil ichida oilaning obro‘sni biroz yo‘qotildi, milliy an‘analarda ifodalangan “oila o‘chog‘i”, ”oila kengashi”, ”oilaviy qonunlar”, ”oilaviy samimiyat” degan ifodalar turmushimizdan deyarli chiqib ketdi. Jamiyatda oila obro‘sini, uning nufuzini mustahkamlash lozim. Oilaning iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, psixologik, hatto jinsiy hayoti muammolarini ko‘rib chiqish lozim. O‘zbekistonda har bir oilada o‘rtacha 5,5 nafar a‘zo bor. Aholining tabiiy o‘sishi - ming kishiga hisoblaganda, 28,3 foizni tashkil qiladi. Bu Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo boshqa mamlakatlardagiga nisbatan ancha yuqoridir. O‘zbek oilasida ko‘pincha bir yoki ikki kishi ishlaydi. Qolgan oila a‘zolari bolalar va qariyalardir. Zotan, ishlovchilarga g‘amxo‘rlik, faollarga e’tibor o‘z tarixiga, o‘z xalqi va millatiga hurmat demakdir. Respublikamizning ba‘zi viloyatlarida homilador ayollarning 70 foizi turli kasalliklarga (asosan kamqonlik kasaliga) chalingan. O‘zbekistonda har ming chaqaloqdan 140 tasi kasal tug‘ilmoqda. Ayollar va bolalarning sog‘lig‘i ko‘p hollarda dori-darmonning boryo‘qligiga bog‘liq. Mamlakatimizda tug‘ilayotgan bolalar va ayollar sog‘lig‘ini himoya qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. Bu haqda 2002 yil 25 yanvarda Vazirlar Mahkamasi "Ayollar va o‘sib kelayotgan avlod sog‘lig‘ini mustahkamlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"⁷⁴ maxsus qaror qabul qildi.

Bu masalaga e’tibor berib Prezident Islom Karimov "Gav, bir qarashda juda oddiy bo‘lib tuyuladigan, aslida esa o‘ta muhim ahamiyatga molik bo‘lgan "sog‘lom ona-sog‘lom farzand" degan hayotiy masala xususida bormoqda. Nafaqat sog‘lom va barqaror oilani shakllantirish, balki butun jamiyatimizda sog‘lom muhit barpo etish, xalqimizning farovon turmushi va kelajagina ta‘minlash ham ushbu masalaning qanday hal etilishi bilan chambarchas bog‘liqdir"⁷⁵

O‘zbekistonda har bir oila va har bir insonning turmush farovonligi, fuqarolik totuvligini mustahkamlashga qaratilgan dasturiy maqsadlarga asoslanib ish olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov bu boradagi vazifalar haqida gapirib: “Eng muhim vazifa - xalqchil, adolatparvar jamiyatni vujudga keltirish. Bu jamiyat poydevorini, eng avvalo, boy va badavlat, mehnat qadrini biladigan, ma‘naviy sog‘lom va madaniy saviyasi baland minglab va millionlab oilalar tashkil

⁷⁴ "Xalq so‘zi" 2002 yil 26 yanvar

⁷⁵ Karimov I. O‘zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: "O‘zbekiston", 1993, 14-bet.

etadi”,⁷⁶ - degandi. Respublikada bozor mexanizmini joriy etishdan oldin insonlarni ijtimoiy himoyalash ayniqsa, har bir pensioner, barcha otaxon va onaxonlarimizning yashash sharoiti, salomatligi va kayfiyatiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatishga erishmog'imiz kerak. Davlat o'z aholisini himoya qilaolgan taqdirdagina insonparvar hisoblanadi. davlat kishilarga, ayniqsa, yordamga muhtoj bo'lganlarga, ijtimoiy nochor qatlamlarga, yetimlar, bolalar, o'quvchilar, pensionerlar va nogironlar, yolg'iz onalar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishi kerak.⁷⁷ Har bir oila, har bir mehnatkash tinch-xotirjam va to'kin-sochin yashasa, mamlakat ozod, boy bo'ladi, gullab-yashnaydi. Zotan, Prezident Islom Karimov bu borada juda katta tashkiliy va amaliy ish qilmoqda.

Davlat tomonidan oilaga doimiy g'amxo'rlik qilish, unga har taraflama moddiy yordam berish insonparvar demokratik huquqiy davlatning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Oila to'g'risida davlat g'amxo'rligini va moddiy yordamni amalga oshirishda respublikadagi demografik vaziyat, tub aholi mavqyeini albatta hisobga olish lozim. O'zbekistonda yashab turgan aholidan 3,5 milliondan ziyodi to'g'risida g'amxo'rlik qilish - Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining vazifasi. Bular kam daromadli, pensioner, nogiron, boquvchisini yo'qotgan, bir so'z bilan aytganda, davlatning doimiy yordamiga muhtoj kishilardir. Ular bunday yordamni kundalik hayotlarida his qilib turibdilar.

Oilaviy ahvolni hisobga olib, davlat tomonidan beriladigan moddiy yordamning yangi tizimi belgilandi. Oila ishi - oila a'zolarining shaxsiy ishi, deb ularni o'z holiga tashlab qo'yish mumkin emas. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida serfarzand, kam ta'minlangan oilalarga, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga, bolalar, bolali yolg'iz oilalarga davlat va jamoat yordamini kuchaytirish lozim. Har bir korxona, ishlab chiqarish muassasasi 7 foiz ish o'rnini kam ta'minlangan oila yoki ijtimoiy muhofazadagi kishilarga saqlab turishi qonun bilan belgilab qo'yilgan. Bularga armiyadan yangi kelganlar, ishga yaroqli nogironlar, tarbiya koloniylaridan ozod etilganlar, yolg'iz onalar kiradi.

Huquqiy ma'noda oila-yuridik munosabatdir. Oilaviy munosabatlardagi yuridik xarakter huquqiy normalar bilan ularning munosabatlarini tartibga solib, davlatning majburiy qoidalari bilan oila a'zolarining xulqiga ta'sir etib, oilani jamiyat xohlagan asosda rivojlantirishga yordam beradi.

Yuridik fakt sifatida qayd etilgan nikoh va yaqin qarindoshlik oilaviy-huquqiy munosabatlarning vujudga kelishida muhim huquqiy asos bo'ladi. Bu munosabatlar qayd etilgan nikohdan tashqari ham vujudga kelishi mumkin. Turmush qurmagan ayol yoki uylanmagan erkak tomonidan bolani farzandlikka olish bunga misol bo'la oladi. Yolg'iz shaxs tomonidan bolalarni doimiy tarbiyaga olganda ham oilaviy-huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

⁷⁶ Karimov I. O'zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T "O'zbekiston", 1993., 14-bet.

⁷⁷ Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li.-T., "O'zbekiston", 1992. 47-bet.

Maxsus huquqiy adabiyotlarda huquqshunos olimlar tomonidan oilaga ta'rif berilgan.⁷⁸ Bu ta'riflar asosida o'sha davrda mavjud bo'lgan tuzum va siyosat yotadi.

Shu ta'riflardan birini keltiramiz. "... v sovetskom semeynom prave pod semeyy ponimayetsya krug lits, svyazanno'x drug s drugom ukazanno'm v zakone obyemom prav i obyazannostey, vo'tekayuhix iz braka, rodstva, uso'novleniya i prinyatiya detey na vospitaniye".

Insonparvar demokratik huquqiy davlatda mavjud bo'lgan oilaga biz bergen ta'rif quyidagicha: "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy bo'g'ini bo'lib, yuridik ma'noda nikoh, qon-qarindoshlik, ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan kelib chiqadigan tegishli huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradigan shaxslar munosabatlardan iborat bo'lgan, umuminsoniy qadriyatlar va milliy sharqona an'analarga asoslangan fuqarolar ittifoqidir"⁷⁹.

2-§. Oilaviy-huquqiy munosabatlar tushunchasi va ularning turlari.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy munosabatlaridan farqi

Oilaviy-huquqiy munosabatlar jamiyatda juda keng tarqalgan munosabatlardir. Oilaviy munosabatlar muayyan hollarda axloq-odob qoidalari bilan tartibga solinadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar nikoh va oila doirasidagi aniq ijtimoiy munosabatlarni oila qonunchiligi nuqtai nazaridan tatbiq etishdir.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar davomli huquqiy munosabatlar hisoblanadi. Bu xususiyat huquqiy munosabatning maqsadlari bilan belgilanadi. Nikoh tuzishdan maqsad oila qurish bo'lib, u er-xotinning butun umri davomida birga yashashiga mo'ljallanadi. Ota-onalik huquqiy munosabati bolalarning tarbiyasi va ta'minotiga qaratiladi.

Farzandlikka olish, vasiylik, homiylik va boshqa huquqiy munosabatlar ko'p xususiyatlari bilan bir-biriga o'xshab ketadi. Bunday huquqiy munosabatlarda qo'yilgan maqsadlarga uzoq muddat davomida erishish mumkin.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar muddatsiz bo'ladi. Er-xotinning huquq va majburiyatları, nikohdan ajralish holatini hisobga olmaganda, bir umr davom etadi.

⁷⁸ Sverdlov G.M. Sovetskoye semeynoye pravo. M., Gosyurizdat, 1958., 17-bet; Tarxov V.A. Sovetskoye semeynoye pravo, 1963, 81-bet; Yurkevich N.G. Sovetsaya semya. Minsk, 1970, 72-bet; Ryasensev V.A. Semeynoye pravo. M., "Yuridicheskaya lettratura", 1971, 43-bet; Belyakova A.M. Vorobjev YE.M. Sovetskoye semeynoye pravo. 1974, 34-bet; Nechayeva A.M. Semya i zakon, M., 1980, 61-bet; Sovetskoye semeynoye pravo Pod red. Maslova V.F. i Pushkina A.A. Kiyev, 1981, 47-bet; Sovetskoye semeynoye pravo, pod red. prof. Ryasenseva V.A. M., "Yuridicheskaya literatura" 1982, 43-bet; Matveyev G.K. Sovetskoye semeynoye pravo. M."Yuridicheskaya literatura" 1985, 48-bet.

⁷⁹ Otaxo'jayev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi. T., "O'zbekiston", 1995y., 162-bet.

Ayni paytda shunday oilaviy-huquqiy munosabatlar ham mavjudki, ular ma'lum muddat bilan cheklanadi, biroq belgilangan davrgacha albatta davom etadi. Masalan, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalash majburiyatlari farzand 18 yoshga to'lganiga qadar davom etadi.

Qonunchilik oilaviy-huquqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarning maxsus turi deb hisoblaydi. Bu fikrni isbotlash uchun nikoh-oila qonunchiligin yangi davlat vujudga kelish bilan mustaqil ravishda rivojlanib kelganligini keltirish mumkin.

Amadagi qonunchilik oilaviy-huquqiy munosabatlarni huquqiy munosabatlarni maxsus alohida turi deb hisoblab uni fuqarolik-huquqiy munosabatlaridan farq qilishligini ko'rsatadi.

Bu fikrni isboti sifatida mamlakatimizda nikoh-oila qonunchiligi sovet davlatini vujudga kelgan kunlaridan boshlab uni mustaqil ravishda rivojlanganligini keltirish mumkin.

Iqtisodiy bozor munosabatlarida bo'lgan davlatlarda oilaviy-huquqiy munosabatlar maxsus nikoh-oila qonunlari bilan tartibga solinmasdan balki fuqarolik qonunlari bilan tartibga solingan. Bozor munosabatlari mavjud bo'lgan jamiyatda oilaviy munosabatlar mulkiy munosabatlar doirasiga kiritib fuqarolik huquqi bilan tartibga solingan. Buning asosiy sababi mulkiy manfaatlarni shaxsiy manfaatlardan ustun turishlidir.

Oilaviy-huquqiy munosabatlar o'zining ba'zi bir belgilar bilan fuqarolik-huquqiy munosabatlariga o'xshab ketadi. Biroq bu o'xshashlik faqat tashqi ko'rinishdadir. Mazmunan oilaviy va fuqarolik-huquqiy munosabatlar o'rtasida muhim sifat farqlari bor.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni assosini mulkiy munosabatlar tashkil etsa, oilaviy-huquqiy munosabatlarning assosini esa aksincha mulkiy bo'limgan nomulkiy shaxsiy munosabatlar tashkil etadi. Shunga muvofiq fuqarolik huquqini hamma normalari, barcha institatlari o'zini belgilangan maqsadi avvalo mulkiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilingan bo'lsa oila huquqi esa birinchi navbatda shaxsiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilingan.

Fuqarolik huquqida mulkiy munosabatlar asosan muayyan ekvivalent barobarida belgilanadigan qiymat, baho bilan ifodalanadigan xarakterga ega. Bu belgilar oilaviy huquqiy munosabatlarga taalluqli emas.

Oila va fuqarolik-huquqiy munosabatlar o'rtasidagi farqlar xususiy xarakterga ega emas. Ular bu munosabatlarni o'z tabiatini bilan belgilab ijtimoiy hayot moddiy sharoitlardan kelib chiqadi.

3-§. Oila huquqida huquq va muomala layoqati

Huquq layoqati va muomala layoqati deyilganda nimalarni tushunamiz.

Huquq layoqati deyilganda, barcha fuqarolarning fuqarolik huquq va burchlariga ega bo'lishlari tushuniladi.

Fuqarolik huquq layoqati u tug'ilgan paytdan e'tiboran vujudga keladi va vafot etilishi bilan tugaydi (FKning 17-moddasi).

Muomala layoqati-fuqarolarning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlari va burchlariga ega bo‘lishi, ularni o‘zgartirish va bekor qilishi mumkin bo‘lgan layoqatidir.

Oila qonuni huquq layoqati va muomala layoqatini ochiq ta’rifini bermaydi. Bu tushunchalarni tahlil qilish natijasida Fuqarolik kodeksida mavjud bo‘lgan huquq layoqati va muomala layoqati tushunchalaridan foydalanish mumkin. Fuqarolik muomala layoqatini o‘zgarishi oila munosabatlariga bevosita ta’sir etishi mumkin. Fuqarolik muomala layoqatini cheklash yoki undan mahrum etish oila muomala layoqatini ham cheklash yoki mahrum etishga olib kelishligi mumkin. Ko‘rsatilingan huquqiy ko‘rinish fuqarolik va oila huquqidagi bog‘liqligi shunday yaqinni ularni fuqarolik va oila huquqidagi huquq layoqati va muomala layoqati birday tushuncha deb atash ham mumkin.

Oila huquqidagi to‘la muomala layoqati xuddi fuqarolik huquqiga o‘xshab 18 yoshga to‘lish bilan paydo bo‘ladi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkin, oila huquqida ham fuqarolik huquqiga o‘xshab to‘la muomala layoqati bir vaqtda vujudga keladi. Bunday toifalarni bevosita aloqadorligi ularni bir-biriga uzzviy aloqadorligida ko‘rinadi. Yoshni kamaytirishi tufayli voyaga yetmaganni nikoh tuzishligi oila huquqida uni to‘la beixtiyor ravishda to‘la fuqarolik muomala layoqatiga ega ekanligini anglatadi.

Fuqarolik huquqida to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lishlik oila huquqida beixtiyor ravishda muomala layoqatini vujudga keltirmaydi.

Amaldagi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini 28-moddasiga binoan, o‘n olti yoshga to‘lgan voyaga yetmagan shaxs mehnat shartnomasi bo‘yicha ishlayotgan bo‘lsa yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoxud homiysining roziligidagi binoan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan bo‘lsa, u to‘la muomalaga layoqatli deb e‘lon qilinishi mumkin. Oila qonuni ushbu dalolatnoma bilan to‘la oilaviy muomala layoqatiga ega ekanligi bilan bog‘lamaydi. Bu esa oila muomala layoqatini fuqarolik huquqiy muomala layoqatidan farq qilishligini anglatmaydi. Bu o‘zbek qonunchiligidagi emansipatsiyani juda keng targ‘ib qilishligini bildiradi.

Fuqarolik huquqida ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli o‘z harakatlari uchun javob beraolmaydigan yoki ularni boshqaraolmaydigan muomalaga layoqatsiz shaxs beixtiyor ravishda oilaviy muomala layoqatini ham yo‘qotadi.

Amaldagi oila qonunlari voyaga yetmagan bolalarning roziligidagi olishni kengaytirishi holatlarini oilaviy-huquqiy munosabatlarni paydo bo‘lishi, o‘zgarishi yoki bekor bo‘lishi (farzandlikka olish, ota-onalar huquqlarini tiklash va boshqalarda) jiddiy kengaytirib yubordi. Bunday rozilikni oilaviy huquqiy dalolatnoma deb tushunmoq lozim. Hamma holatlarda bolani roziligi to‘g‘risida so‘z ketsa ular qisman muomala layoqatini borligi to‘g‘risida gap ketadi.

Fuqarolik huquq layoqatini cheklash oilaviy huquq layoqatini ham cheklashga bevosita ta’sir etadi. Bunday shaxslar vasiy, homiy, farzandlikka oluvchi bo‘laolmaydilar. Mantiqan ular nikoh shartnomasini va aliment kelishuvini tuzish huquqiga ega bo‘lmasligi kerak, chunki fuqarolik qonunlari ularga o‘z

mulklarini tasarruf etishga ruxsat bermaydi. Biroq nikoh shartnomalari nafaqat oilani moddiy holatini yomonlashuvi aksincha uni mustahkamlashga qaratilishi mumkin. Chunki oila qonunchiligi qisman muomalaga layoqatsizlarga bunday cheklashni belgilamaydi. Ular bunday shartnomalarни tuzishlari mumkin.

Fuqarolarda oila huquq va majburiyatlariga ega bo‘lish layoqati tug‘ilish Bilan vujudga kelsa (masalan, ota-onalar va bolalar, aka-uka yoki opa-singillar va boshqalar o‘rtasidagi aliment majburiyatları) ayrim holatlarda esa fuqarolarni ma‘lum yoshga to‘lishlari Bilan vujudga keladi.

Masalan, nikoh huquq layoqati.

Shunday holatlarda huquq layoqati Bilan bir yo‘li muomala layoqati ham vujudga keladi.

Oila huquqida muomala layoqati ya’ni o‘z harakatlari Bilan oilaviy huquq va majburiyatları paydo bo‘lishligi ma‘lum yoshga to‘lish Bilan vujudga keladi. Qoida bo‘yicha bunday yosh voyaga yetish yoshi hisoblanadi. Biroq ayrim huquqlarga ega bo‘lish ertaroq ham vujudga kelishligi mumkin. Masalan, oila qonunchiligi farzandlikka olinayotgan bola o‘n yoshga to‘lgan bo‘lsa, farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilishligini belgilaydi.

Ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘ylgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi (FKning 30-moddasi). Masalan, muomalaga layoqatsiz shaxs Bilan tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi. Muomalaga layoqatsiz shaxs vasiy, homiy va farzandlikka bola olaolmaydi. Shaxsni muomalaga layoqatsiz deb topilganda oila doirasida unga tegishli bo‘lgan shaxsiy va mulkiy huquqlar vasiy va homiylar tomonidan amalga oshiriladi.

4-§. Oila huquqiy munosabatlarining subyektlari va obyektlari

Oilaviy-huquqiy munosabatlarining subyektlari faqat fuqarolar bo‘ladi. Bu holat oila huquqini fuqarolik huquqidan farqini ko‘rsatadi, chunki fuqarolik huquqini subyekti bo‘lib faqatgina fuqarolar bo‘lmadan shuningdek yuridik shaxslar va davlat uning alohida subyekti bo‘lishi ham mumkin. Demak, fuqarolar va yuridik shaxslar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar hatto ular Oila kodeksi bilan tartibga solinsa ham u oilaviy huquqiy munosabat bo‘lolmaydi. Masalan, fuqarolar va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari bilan bog‘liq (tug‘ilganlik; nikoh tuzish ; nikohdan ajralish; o‘lim va boshqalar) FHDYO organlari o‘rtasida vujudga keladigan huquqiy munosabatlar. Bu ma’muriy huquqiy munosabatlar turiga kiradi.

Oilaviy huquqiy munosabatlarda obyektlar bo‘lib moddiy bo‘lmagan shaxsiy xayr, harakat va ashyolar bo‘lishligi mumkin.

Oilaviy huquqiy munosabatlarda moddiy bo‘lmagan shaxsiy xayr: familiya, ism, kasb, mashg‘ulot va boshqalar bo‘ladi.

Bolani tarbiyalash esa harakat doirasiga kiradi. U uzoq muddat davom etuvchi earayon bo‘lib hisoblanadi. Harakat doirasiga: er-xotinning birgalikdagi

umumiy mulkini boshqarishi, ota-onalar va bolalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishga qaratilingan faoliyatni tushunish mumkin.

Huquqiy munosabatni obyekti sifatida ashyo yoki mulkni predmeti (masalan, er-xotinni umumiy birgalikdagi mulki doirasiga kiruvchi ashylar), yoki pul summasi turida (masalan, aliment majburiyatlarida ailment to‘lovlari) sifatida qatnashadi.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarda obyekt sifatida bolalar qatnashishligi mumkin emas. O‘zining tashqi ko‘rinishi bo‘yicha bola obyekt bo‘lib ko‘rinsa ham ammo hamma holatda u subyekt bo‘lib qatnashadi. Chunki huquqiy munosabat bolalar tarbiyasiga qaratilinadi.

5-§. Oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlar

Huquq layoqati va muomala layoqati-bu shaxslarda oilaviy subyektiv huquq va majburiyatlarni vujudga kelishligining shart-sharoiti.

Oilaviy-huquqiy munosabatlarda subyektiv oilaviy huquq va majburiyatlar uning mazmunini tashkil etadi.

Oilaviy huquqiy munosabatlar doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar o‘zining xarakteri bo‘yicha shaxsiy va mulkiylarga bo‘linadi.

Mulkiylar doirasiga aliment huquqlar ham kiradi. Shaxsiy huquqlar iqtisodiy mazmundan mutloq ajratilgandir. Mulkiy subyektiv huquq va majburiyatlar aniq shaxslarni shaxsiyati bilan bevosita bog‘langanligi bilan xarakterlanadi. Masalan, er-xotin o‘zaro bir-biridan aliment talab etish huquqiga ega. Ulardan birini o‘limi bunday huquq va majburiyatni tugatadi (fuqarolik huquqida esa huquq va majburiyatlar boshqa shaxslarga o‘tishligi mumkin, masalan vorislarga). Bundan ikkinchi xulosa ham kelib chiqadi, u ham bo‘lsa oilaviy huquqiy munosabatlar doirasida subyektiv huquq va majburiyatlar boshqa shaxslarga o‘tkazilmaydi. Masalan, o‘zini aliment olish huquqini, bolalarni tarbiyalash majburiyatini boshqa shaxslarga o‘tkazish mumkin emaslididan bu huquqlarni boshqa shaxslarga o‘tkazish ularni o‘z vakillariga topshirish mumkinligini farqini bilish lozim. Agar ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar bolalar ustidan bo‘ladigan nazoratni bolalarni boquvchi xotinga topshirsalar, u holda boshqa shaxslarga ota-onalik huquqini o‘tkazilganligini anglatmaydi. Bu yerda gap bu shaxslarga nisbatan huquqni amalga oshirish yoki himoya qilish majburiyatini o‘tganligini anglatadi. Modomiki subyektiv oila huquqlarida qoida bo‘yicha huquqiy munosabatlarda amalga oshirilar ekan u o‘zining yuridik tabiatiga ko‘ra nisbiy huquqlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Har qanday oila huquqini subyektiga qarama-qarshi boshqa subyekt turadi. Chunki, bolaga nisbatan qaratilingan boshqa subyekt bo‘lganligi uchun ota-onalik huquqi mavjud. Er-xotin o‘rtasida qayd etilgan nikoh bo‘lganligi uchun shaxsiy huquqdan biri mavjud bo‘ladi. Nikohni tugatilishi shaxsiy oila huquqini ham tugatilganligini anglatadi. Demak, subyektiv oila huquqi bu nisbiy huquqdir.

Ayrim holatlarda oila huquqi nisbiy huquq bo‘lsa ham absolut huquq tusiga ega bo‘ladi. Masalan, Oila kodeksining 78-moddasiga binoan, ota-ona bolani

qonunga asoslanmasdan ushlab turgan har qanday shaxsdan uning qaytarilishini talab qilishga haqli.

6-§. Oilaviy-huquqiy munosabatlarni vujudga kelishi, o‘zgarishi va bekor bo‘lish asoslari

Oilaviy-huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradigan, o‘zgartiradigan va bekor qiladigan asoslar yuridik faktlardir.

Huquqdagi yuridik faktlarga xos bo‘lgan muhim asosiy xususiyatlar oila huquqidagi yuridik faktlarga ham tegishlidir. Xususan, ular o‘zlarining tabiatlari bo‘yicha hodisalar, harakatlar yoki muddatlar sifatida qatnashadilar⁸⁰.

Oila huquqidagi yuridik faktlar ijtimoiy munosabatlarga ta’siri bo‘yicha umumiy huquq nazariyasidagi yuridik faktlarga mos kelib huquqni vujudga keltirish, o‘zgartirish va bekor qilishga bo‘linadi. Biroq, oila huquqiga xarakterli bo‘lgan bir guruh yuridik faktlar borki, ular orqali oila huquqidagi subyektlar yo‘qolgan huquq va majburiyatlarni tiklaydilar. Yuridik faktlarni bu guruhi mustaqil kategoriya ajratilinib huququni tiklash yuridik faktlari deb yuritiladi. Bu yuridik faktlarni ota-onalik huquqini tiklash, farzandlikka olishni bekor qilish yoki uni haqiqiy emas deb topish, bedarak yo‘qolgan yoki o‘lgan deb e’lon qilingan shaxsni hozir bo‘lishligida qo‘llaniladi.

Oila huquqida huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi hol sifatida ko‘pincha faktiv tarkiblar, ya’ni, yuridik faktlarni yig‘indisi qo‘llaniladi. Shu bilan birga faktiv tarkib ko‘pincha aralash holda ro‘y berib unga hodisa shuningdek harakat kirishi mumkin. Masalan, bolani tug‘ilishi tufayli (hodisa) ota-onalik huquqiy munosabatini vujudga keltirsa, uni tug‘ilganligi FHDYoda ro‘yxat qilish (harakat) sodir bo‘ladi.

Oila huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi faktik yig‘indi ko‘pincha uch hatto undan ortiq faktlar yig‘indisidan iborat bo‘ladi (masalan, nikohni tuzish vaqtida). Bu faktlardan birortasini yo‘qligi faktik yig‘indini vujudga keltirish kuchini yo‘qotadi.

Oila huquqida yuridik fakt sifatida ko‘pincha holat hisoblanadi.

Holat-bu mavjud ijtimoiy aloqalardir. Ularga nikoh, qon-qarindoshlik, qayin-bo‘yinchilik va quda andachilik, farzandlikka olish, vasiylik va homiylik, bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) va boshqalar kiradi. Ammo holat hodisa va harakatlar qatori yuridik faktlarni maxsus turi emas. Holat hodisani turi sifatida ishtirok etadi. Ularni o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular davomli xarakterga egadir.

Ayrim holatlarda huquq va majburiyatni vujudga kelishligi holatni tugalishi bilan belgilanadi: masalan, nikohni tugatilishi bilan avval nikohda bo‘lgan er-xotinda moddiy ta’minot olish huquq va majburiyati vujudga keladi, bolalarni

⁸⁰ Yuridik adabiyotlarda hodisalar va harakatlar qatori muddat ko‘pincha yuridik faktlarni mustaqil turi sifatida ko‘riladi (Qaralsin, O.A.Krasavchikov, Yuridicheskiye fakto‘ v sovetskem grajdanskem prave, Gosizdat, 1958, str.169-170; V.P.Gribanov, Sroki v grajdanskem prave, Izd. "Znaniye", 1967, str.8-9).

doimiy tarbiyaga olishlikni tugatishi bilan doimiy tarbiyada bo‘lganlarga o‘z tarbiyachilariga ta’midot berish majburiyatini yuklatilishi mumkin.

Oila huquqida holat boshqa yuridik faktlardan farq qilib, qisqa muddat (darhol) ta’sir etmasdan aksincha davomliligi bilan xarakterlanadi. Masalan, qayd etilgan nikohda bo‘lishlik boshqa nikohni tuzishlikka yo‘l qo‘ymaydi, nikohda bo‘lish tug‘ilgan bolaga er-xotinni familiyasini yozish uchun asos bo‘ladi, nikohda bo‘lish er va xotindan moddiy ta’midot talab qilish uchun asos bo‘ladi va boshqalar.

Nikoh va oila doirasida huquq va majburiyatni vujudga kelishligi, o‘zgarishi va bekor bo‘lishi uchun hodisa va harakat qornun tomonidan o‘rnatalgan tartibda albatta rasmiylashtirilishi yoki tegishli organlarning qarori bo‘lishi lozim. Shunday, nikohni haqiqiy hisoblash uchun uni tuzuvchilarni o‘zaro roziligi bo‘lishligi, shuningdek FHDYO organlarida qayd etilishi lozim, farzandlikka olish to‘g‘risidagi dalolatnomani fuqarolikka oluvchi va farzandlikka olinuvchi o‘rtasida huquq va majburiyatni vujudga keltirish uchun tuman va shahar hokimining qarori bo‘lishi lozim va boshqalar. Dalolatnomani qayd ettirish yana boshqa ko‘p holatlar uchun ham zarur.

7-§. Oila huquqida qon-qarindoshlik, qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilik tushunchasi va ularning ahamiyati

Oila kodeksining uchinchi bo‘lim 9-bobi qarindoshlik, qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilikka bag‘ishlanib, o‘z ichiga uch moddani oladi. Undagi bu bob qonunchilikka butunlay yangilik bo‘lib kirdi. Uning ham o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi bor.

Qon-qarindoshlik-bu shaxslar o‘rtasidagi qon va qorin aloqasi bo‘lib, biri ikkinchisidan yoki umumiy ajdoddan kelib chiqqanligini bildiradi.

Qon-qarindoshlik oila huquqiy munosabatlarining vujudga kelishiga asos bo‘ladigan hollardan biri bo‘lgani uchun ham qonunchilikda o‘z yechimini topishi lozim edi. Bu vazifa ham bajarildi. Undan tashqari nikohdan o‘tishda uni man etadigan holatlardan biri nikoh tuzuvchilarning yaqin qarindoshlikda bo‘lishlidir. Shuning uchun unga to‘g‘ri ilmiy asoslangan tushuncha berish lozim edi, chunki hozirga qadar bu masalada chalkashliklar mavjud. Qonun bo‘yicha kimlarni qarindosh deb ataymiz va ular o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar qanday vujudga keladi, degan masalalar o‘z yechimini topdi. Endilikda bu masala bo‘yicha ham oila qonunchiligiga aniqlik kiritildi.

YAqin qon-qarindoshlik o‘z ichiga to‘g‘ri chiziq, yon, tug‘ishgan va o‘gay qarindoshlar, aka-ukalar bilan opa-singillar tushunchalarini oladi.

To‘g‘ri chiziq qarindosh bo‘lib, biri boshqasidan dunyoga kelgan shaxslar, ya’ni bobo-ota-o‘g‘il-nevara-evara-chevara-duboralar tushuniladi.

Har bir fuqaro yetti avlodini bilishligi lozim, chunki buni bilishlik o‘z avlodiga hurmat va ular o‘rtasida nikoh tuzilmaslikni anglatadi.

Yon chiziq qarindosh bo‘lib, aka-uka va opa-singillar hisoblanadi.

Umumiy ota-onaga ega bo‘lganlar tug‘ishgan qarindosh, ota bir ona boshqa yoki ona bir ota boshqalar o‘gay qarindoshlar deb tushuniladi.

Aka-uka hamda opa-singillar farzandlarining o‘zaro nikoh tuzishlari, shuningdek bolalarni emizish tufayli vujudga kelgan sut qarindoshlar, ya’ni ko‘kaldoshlarning ham nikoh tuzishlari maqsadga muvofiq emas. Bu haqda me'yoriy hujjatlarda tegishli qoidalar berilsa, foydadan holi bo‘lmaydi.

YAqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni qonun yo‘li bilan ta’qiqlash ahloqiy hamda biologik nuqtai nazarga, tibbiyot fani yutuqlari va xulosalariga asoslanadi.

Boshqa qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish qonun bilan man etilmaydi. Shuning uchun yon chiziq bo‘yicha qarindosh bo‘lgan, amakivachcha, tog‘avachcha, xolavachchalar, ammavachchalar va boshqa uzoq qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish mumkin. Ammo bu maqsadga muvofiq emas. Chunki qarindoshlik nikohi tufayli odatda jismoniy va aqlan nosog‘lom, ya’ni, nimjon, kasalmand, aqli zaif, kar-soqov, ortiq, qo‘shoq, pakana yoki nuqsonli, mayib bolalar tug‘iladi. Ular o‘sishda tengdoshlaridan orqada qoladilar. Bunday oilalarda ko‘pincha yurak, buyrak xastaligi kasalligiga yo‘liqqan go‘daklar tug‘ilishi kuzatilmogda. Biologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, nikoh qanchalik begona shaxslar bilan tuzilsa, avlod, shuncha sog‘lom bo‘ladi.

Amaldagi oila qonunchiligidagi aka-ukalar va opa-singillar farzandlarining nikohlanishi ta’qiqlanmagan, vaholanki, hozirgi zamon genetikasi yutug‘i va xulosalariga ko‘ra, bunday nikoh nomaqbuldir. Xo‘sh, genetika nima? Gen-irsiyat belgilarini nasldan-naslga o‘tkazuvchi omildir. Inson a’zosining har bir belgisi, ko‘rinishi va xususiyatlarini gen belgilaydi.

Ana shu genlar, binobarin, barcha xususiyatlar ota-onadan farzandga o‘tadi.

Biror genning o‘zgarishi natijasida kelib chiquvchi va nasldan-naslga o‘tuvchi kasalliklar irsiy kasallik hisoblanadi. Kasal gen kelgusi avlodlarning birida shu xastalikning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi. Qon-qarindoshlar nikohidan tug‘ilgan bolalarda bu xastalik genetik qonuniyatlar asosida osongina yuzaga chiqadi. Bundan ko‘rinadiki, qarindosh-urug‘lar nikohidan xasta bolalar tug‘ilishi ko‘p bo‘ladi.

Ayni chog‘da qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh aholining geografik yashash sharoitiga ham bog‘liq. Tog‘li va orol joylarida yashovchi, tashqi dunyo bilan aloqasi birmuncha cheklangan ijtimoiy guruhlarning barini, shubhasiz, qon-qarindosh deyish mumkin. Bu yerdagi barcha aholi o‘z xohishidan qat‘i nazar, zaruratdan kelib chiqqan holda, qon-qarindoshga aylangan. Olib borilgan kuzatishlar qon-qarindoshli nikohining kelgusi avlodga ta’siri oqibatlarini tasdiqladi. Avvalo, bunday nikohdan tug‘ilgan bolalar kasallikka tez chalinadi. Statistika ma’llumotlariga ko‘ra, AQShda qon-qarindoshlar nikohdan tug‘ilgan bolalarning 22,5 foizi, qarindosh bo‘limganlar nikohidan tug‘ilgan bolalarning esa 16 foizi nobud bo‘lgan.

Qarindoshlar o‘rtasida tuziladigan nikoh hatto farzandsizlikka ham olib kelmoqda. Bular hammasi tibbiyot fanining asosli xulosalaridir.

Akademik K.N.Bochkovning fikriga ko‘ra, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohga chek qo‘yilsa, aholi o‘rtasida kasalga chalinishni teng yarmiga kamaytirish mumkin.

Umuman, qarindosh-urug‘lar nikohi kelgusi avlodlar salomatligiga putur yetkazishi shubhasizdir.

Agar nikoh tuzishga monelik qiladigan hollarga to‘la rioya qilinib, oila qurilsa, u mustahkam bo‘ladi, kelajak avlod barkamolligiga, qolaversa, kelajagimiz bo‘lgan farzandlarimizning sog‘lomligini ta‘minlashga katta hissa qo‘shiladi.

Musulmon huquqi bo‘yicha, har xil oilada tug‘ilgan bolalarni bir ona emizishi tufayli sut qarindoshligi vujudga keladi.

Tug‘ruqxonalarda ona-bola yotayotgan alohida xonalar bo‘lishi lozim. Boshqa ayoldan tug‘ilgan bolani emizgan ayol o‘sha bolaga ikkinchi ona hisoblanadi. Demak, go‘dak boshqa onaning sutini emsa, u o‘sha sut bergen ayolning farzandi bilan turmush qurishi mumkin emas. Bu ham o‘z tug‘ishgan ukasi yo singlisi bilan turmush qurganday bir gap. Hozir ham ba’zilar emizgan ayolni tuqqan onasi yanglig‘ ko‘rib, uni ham "ona" deydi. Qadimda sut emishganlar aro aka-uka, opa-singillik, ya’ni ko‘kaldoshlik bo‘lib, ular o‘qaro turmush qurmaganlar. Shuning uchun bundan buyon ana shunday boshqa ayolning manziligi, nasl-nasabi o‘sha suti kam onaga rasman yozib berilishi, unga tanishtirib qo‘yilishi shart. Bu ma’naviy jihatdangina emas, balki kelajak avlodimizning qon musaffoligiga erishishi uchun ham juda zarur. Binobarin, milliy qadriyatlarimizni tiklab, me’yoriy hujjalarga tegishli o‘zgartirish kiritib bir onani emgan bolalar o‘rtasida vujudga kelgan ko‘kaldoshlik tufayli ham ularning bir-biri bilan nikohdan o‘tishini man etadigan qoida kiritilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zotan, buholat islom shariatida ham qayd etilgan.

Oila kodeksini 59-moddasiga binoan, er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayin-bo‘yinchilik va quda andachilik) o‘zaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

Qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilikni qarindoshlikdan farqini bilish kerak.

Erning qarindoshlari bilan xotinning qarindoshlari o‘rtasidagi munosabatlar quda-andachilik va qayin-bo‘yinchilik hisoblanadi.

Er-xotinning qarindoshlari bo‘lmasa, qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilik vujudga kelmaydi.

Qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilik shaxsning nasl-nasabiga yoki qarindoshligiga asoslanmasdan balki er-xotinning nikoh ittifoqi va ahdnomasiga asoslanadi.

Er va xotin qarindosh ham emas qayin-bo‘yin ham emas, quda-anda ham emas. Er va xotin o‘zaro qonuniy rasmiylashtirilgan nikohda bo‘lib, shu asosda ularning o‘rtasida alohida huquqiy munosabat bo‘lib shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilik ahloq, odob qoidalari bilan tartibga solinadi.

8-§. Fuqarolik holati dalolatnomalari

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari⁸¹ o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga, Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalariga⁸², Yo‘riqnomaga⁸³ va FHDYO organlari faoliyatiga taalluqli boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

FHDYO organlari davlat va jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, shuningdek fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida belgilanadi.

FHDYO organlari quyidagi fuqarolik holatlari dalolatnomalarini qayd etadi:

- a) tug‘ilganlik;
- b) nikoh tuzish;
- v) nikohdan ajralish;
- g) o‘lim.

Farzandlikka olish, otalikni belgilash, familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish, jinsn ni o‘zgartirish kabi voqye va faktlar yuqorida sanab o‘tilgan fuqarolik holatlari dalolatnomalarida ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish orqali aks ettiriladi.

FHDYO davlat ahamiyatiga molik hujjatlar bo‘lib, ikki nusxada tuziladi va FHDYO organlarida qayd etilgan vaqtdan boshlab 75 yil mobaynida saqlanadi.

Bu voqye va faktlar amaldagi Oila kodeksini 203-moddasiga binoan FHDYO organlari tuman va shaharlarda qayd etiladi, shaharcha, qishloq va ovullarda esa, tug‘ilish, o‘lim, nikoh tuzish, nikohdan ajralish, otalikni belgilash-fuqarolar yig‘ini raislari (oqsoqollari) tomonidan ham qayd etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yoki vaqtincha yashovchi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalari konsul tomonidan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qayd etiladi.

Amaldagi Oila kodeksini 226-moddasiga muvofiq, familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish haqidagi arizalar ariza beruvchi o‘n olti yoshga to‘lgandan keyin u yashab turgan joydagи FHDYO organi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

Familiya, ism va ota ismini o‘zgartirish to‘g‘risidagi xulosa ichki ishlar organlari tomonidan ushbu shaxs tegishli tekshiruvdan o‘tkazilgandan keyingina tuzilishi mumkin.

FHDYO organining familiya, ism va ota-onalik huquqini har qanday boshqa shaxslardan himoya qilib ularni nisbiy sifatlarini bartaraf etmaydi, chunki bolalarga nisbatan ota-onalarning huquqlari har qanday holatda ham absolut xarakterga ega bo‘lib qoladi. Ularni er-xotinni umumiy birgalikdagi mulkiga nisbatan tatbiq etib bo‘lmaydi, chunki u subyektiv oila huquqi bo‘lganligi uchun nisbiy xarakterga ega bir yo‘la har qanday boshqa mulk huquqi singari boshqa har qanday shaxslardan himoya qilinadi.

⁸¹ Keyingi o‘rinlarda matnda "FHDYO" organlari" deb yuritiladi.

⁸² Keyingi o‘rinlarda matnda "Qoidalar" deb yuritiladi

⁸³ Keyingi o‘rinlarda matnda "Yo‘riqnomma" deb yuritiladi

Mulkiy bo‘lмаган шахсији хукуqlар esa ular hamma vaqt faqat nisbiy bo‘ладilar, chunki ular faqat nikoh va oila doirasida ko‘rinadilar. Masalan, er-xotinning turar joyga bo‘lgan хукуqlari.

9-§.Oilaviy huquqlarni amalga oshirish va himoya qilish

Oilaviy subyektiv хукуqlarni amalga oshirish хукуqda amalda bo‘lgan umumiyl tamoyillar (prinsiplarni) qonunchilik, milliy istiqlol mafkurasi, ahloq normalari, jamiyat turmush qoidalari, ijtimoiy va davlat manfaatlari va boshqalarga rioya qilinishi lozim. Biroq oila huquqida ham subyektiv хукуqlarni amalga oshirishlikning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlardan biri oilaviy subyektiv хукуqlarni oila bilan aloqada bo‘lishligidir. Ularning ko‘rinishligi oilada ifoda etiladi. Amaldagi qonunchilikda oilaviy хукуqlarni amalga oshirishda subyektlar uning huquqiy oqibatlarni nazarda tutishi kerak degan umumiyl qoidalarni belgilamaydi. Ammo oila qonunining birqator normalaridan shunday mazmun kelib chiqadi. Avvalo, Oila kodeksini "Umumiyl qoidalari"dan. Ularda oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlari hamda ularni vazifalari, oila manfaatlarini davlat va jamiyat tomonidan ta‘minlash va boshqalar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Qonunda oila huquqini aniq qoidalarni amalga oshirish vaqtida oila manfaatlarini nazarda tutish belgilangan. Masalan, Oila kodeksini 28-moddasini 2-qismiga binoan, sud voyaga yetmagan bolalar manfaatlaridan va (yoki) er va xotindan birining e’tiborga loyiq manfaatini hisobga olib, jumladan, agar er yoki xotin uzsiz sabablarga ko‘ra daromad olmagan bo‘lsa yoxud er va xotinning umumiyl mol-mulkini oila manfaatlariga zarar yetkazgan holda sarflagan bo‘lsa, er va xotinning umumiyl mol-mulkidagi ulushlari tengligidan chekinishga haqlidir.

Qonunchilik ayollarni homiladorlik vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida ularni manfaatlarini himoya qilishni qo‘riqlashni belgilaydi. Ayrim vaqtarda qonun ernen ayrim subyektiv oila хукуqlarini amalga oshirishligini cheklab qo‘yishligi ham mumkin. Masalan, Oila kodeksini 39-moddasiga binoan xotinining homiladorlik vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida er-xotinining roziligesiz nikohdan ajratish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishga haqli emas.

Voyaga yetmagan bolalar oila huquqining alohida subyektlaridir. Ular ruhiy holatlari bo‘yicha o‘zlarining manfaatlarini har taraflama qo‘riqlay olmaydilar. Shuning uchun ularning хукуqlarini himoya qilish va qo‘riqlashga alohida e’tibor beriladi. Bu masala bo‘yicha har taraflama umumiyl qoida Oila kodeksini 75-moddasini 1-qismida belgilangan. Unda shunday deyiladi: "ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Bir qator moddalar bu qoidani aniq qoidalarni bilan to‘ldiradi. Shunday, Oila kodeksining 82-moddasini 1-qismiga binoan ota-ona (ulardan biri) o‘z hulq-atvorini turmush tarzini va (yoki) bola tarbiyasiga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirgan hollarda ota-onalik huquqi tiklanishi mumkin.

Subyektiv oila huquqi harakat shuningdek, harakatsizlik natijasida amalga oshirishlik va majburiyatlarini bajarishlik mumkin. Masalan, er-xotin o‘zlarini shaxsiy хукуqlarini amalga oshirishlarida (uy-joy, kasb-mashg‘ulot va

boshqalarda) ikkinchi tomondan bu huquqni amalga oshirishlikda harakatdan saqlanishini talab etadi.

Ayrim oila huquqlari faqat harakat natijasida amalga oshiriladi. Avvalo, shunday huquqlar doirasiga tarbiyalash huquqini amalga oshirishga qaratilingan aktiv va doimiy ravishda olib boriladigan birqator harakatlarni (bolani mактабга yuborish, ma'lumotini tekshirish, unga yordam berish, dam olish vaqtini tashkil etish, shu vaqtida nazorat qilib turish va boshqalar) bajarishi lozim.

Amaldagi oila qonunchiligidagi huquqini himoya qiladigan va qo'riqlaydigan bir qator tadbirklar belgilangan.

Subyektiv oilaviy huquqiy munosabatlarni qo'riqlashga qaratilgan ta'sirchan choralardan biri huquqni buzuvchilarga nisbatan jamoat ta'sirini ko'rsatishdir. Oilaviy-huquqiy munosabatlarida ishtirok etayotgan voyaga yetmaganlarni, homilador ayollarni, bolali onalarni huquq va manfaatlarini qo'riqlashda jamoat ta'siri alohida o'rinn tutadi. Bunday vositalarga aybdor shaxsni huquqini tiklash va himoya etishga qaratilingan materiallarni voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalarga topshirish va boshqalar.

Oilaviy-huquqiy tadbir-choralar bu qonunga qarshi harakatlarga va aybli hatti-harakatlarga nisbatan oila qonuni bilan belgilangan tadbirlardir. Ularga ota-onalik huquqidan mahrum qilish, ota-onalik huquqining cheklanishi, nikohni haqiqiy emas deb topish va qonun bo'yicha undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar, farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish yoki uni bekor qilish, ota-onani bolalari bilan uchrashish huquqidan mahrum qilish, bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlarning bola bilan ko'rishib turish huquqini himoya qilishdan iborat.

Oila-huquqiy kafolati bu huquq buzilishligining tegishli oqibatidir. Ular faqat qonunga qarshi aybli qilingan hulqqa nisbatan tatbiq etiladi.

Oila huquqini huquqiy himoya qilishni ta'minlashni boshqa qonuniy uslublar orqali ham erishiladi. Shunday, oila doirasidagi muhim huquq va manfaatlar jinoyat qonunlarini tegishli normalari ya'ni, oilaga, yoshlarga va ahloqqa qarshi qaratilgan jinoyatlarga, shuningdek shaxsning ozodligi, sha'ni va qadr-qimmatini qo'riqlash bilan belgilanadi.

Ularga, ayolni erga tegishiga majbur qilish yoki uning erga tegishiga to'sqinlik qilish (136-modda), ko'p xotinli bo'lism (126-modda) jinoiy ravishda homila tushurish (abort), ayolni homilasini sun'iy ravishda tushurishga majburlash (115-modda), voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash (122-modda), ota-onani moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash (123-modda), bolani almashtirib qo'yish (124-modda), farzandlikka olish sirini oshkor qilish, ayolni homiladorligi yoki yosh bolani parvarish qilayotganligini bila turib, uni ishga olishdan g'ayriqonuniy ravishda bosh tortish yoki ishdan bo'shatish (148-modda, 2-qism).

Oila huquqlari va manfaatlari mehnat va fuqarolik qonunlari bilan qo'riqlanadi. Masalan, FKning 31-moddasiga muvofiq spirtli ichimliklarni yoki giyohvandlik vositalarini suiiste'mol qilish natijasida o'z oilasini og'ir ahvolga

solib qo‘yayotgan fuqaroning muomala layoqati sud tomonidan fuqarolik protsessual qonun hujjatlarida belgilangan tartibda cheklab qo‘yilishi mumkin.

10-§. Oila huquqida da'vo muddati

Da'vo muddati-shaxs o'zining buzilgan huquqini da'vo qo'zg'atish yo'li bilan himoya qilishi mumkin bo'lган muddatdir (FKning 149-moddasasi).

Da'vo muddati o'tishi davrida shaxs buzilgan subyektiv huquqini majburlash tartibi bilan tiklashi mumkin.

Da'vo muddati sud tomonidan faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergen arizasiga muvofiq qo'llaniladi (FKning 153-moddasini 2-qismi).

Da'vo muddati fuqarolik huquqida mulkiy huquqiy munosabatlarda juda keng qo'llaniladi bu ularni barqaror bo'lishi, shartnoma intizomini mustahkamlash undan tashqari grajdanlik oborotida qatnashuvchilarni rag'batlantirish, o'zlariga tegishli bo'lган huquqlarini o'z vaqtida amalga oshirish, sudlarga ish bo'yicha obyektiv haqiqatni o'rnatishni yengillashtirish uchun yordam beradi.

Oila huquqida da'vo muddatiga bunday katta ahamiyat berilmaydi. Oila kodeksining 12-moddasini 1-qismida oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddati joriy qilinmaydi, ushbu kodeks bilan belgilangan hollar bundan mustasnadir, degan umumiy qoida belgilangan oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da'vo muddatini joriy qilmaslik qoidasi, har qanday buzilgan oilaviy-huquqiy munosabatni fuqarolik ish yuritish tartibi qoidasiga binoan tiklanishi mumkin. Bu oila huquqida uzoq muddat davom etadigan shaxsiy huquq bilan bog'liq bo'lib, ularni hamma vaqt himoya qilish tabiatidan kelib chiqadi. Shunday qilib, oila munosabatini ishtirokchilari amalda buzilgan oila huquqini himoya qilishda vaqtinchalik o'tkinchi vaqt bilan cheklanmagan. Shundaylarga nikohdan ajralish talabi; nikohni haqiqiy emas deb topish talabi, otalikni belgilash talabi nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish talabi; alimentni olish huquqi uni hamma muddat davomida undirish talabi va boshqalar kiradi.

Oila munosabatlarida da'vo muddati qat'iy aniq belgilangan holatlarda tatbiq etiladi. Xususan, buzilgan oila huquqlari OKni o'zida ko'rsatilingan bo'lishi lozim. Bunday holatlar bir qancha.

Birinchidan, bir yillik da'vo muddati OKning 24-moddasini 3-bandida ko'rsatilingan. Er (xotin) o'zining mol-mulkni tasarruf etish bo'yicha bitim tuzishi uchun xotin (er) ning notarial tartibda tasdiqlangan roziligin olishi lozim. Ko'rsatilgan bitimni tuzishga notarial tartibda tasdiqlangan roziliq olinmagan er yoki xotin mazkur bitim amalga oshirilganligini bilgan yoki bilishi lozim bo'lган kundan boshlab bir yil davomida bu bitimni sud tartibida haqiqiy emas deb topishni talab qilishga haqlidir.

Ikkinchidan, uch yillik da'vo muddati OKning 27-moddasini 9-bandiga binoan, nikohdan ajralgan er va xotinning umumiy mol-mulkni bo'lish to'g'risidagi talablariga nisbatan qo'llaniladi.

Bunda da'vo muddatini o'tishi ajralgan er yoki xotinni umumiy mol-mulkka bo'lган huquqini buzilganligini boshqasi tomonidan bilgan yoki bilishi lozim bo'lган kundan boshlanadi (OKning 12-moddasini 2-qismi).

VI Mavzu. Nikoh

1-§. Nikoh tushunchasi

Nikoh oilaning vujudga kelishida birdan-bir asos bo‘lgani bois u faqat axloq normalari bilan emas, balki maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Bu qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi 2-qismida: “Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi”. - deb yozilgan. Fikrimizcha, “tomonlar” deyilganda biz ko‘proq Fuqarolik huquqida majburiyat huquqini keltirib chiqaradigan asoslardan biri - shartnomani tuzgan shaxslarni tushunamiz. Agar unda: “Nikoh erkak bilan ayolning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqligiga asoslanadi”, deb yozilsa to‘g‘ri bo‘ladi, chunki nikoh mulkiy shartnomada xarakteridagi kelishish bo‘lmay erkak bilan ayol o‘rtasida tuziladigan, bir umrga mo‘ljallangan shaxsiy ittifoq, ahdnomadir. Shunday ifoda “Inson huquqlari va erkinliklari Deklaratsiyasi”da ham berilgan. Nikoh orqali sha’riy yo‘l bilan juft bo‘lib yashashning bir qancha foydasi bor. Birinchidan, nikoh axloqiy va jismoniy poklikni talab qiladi. Nikoh ahdi insonlarga mas’uliyat yuklaydi. Chunki oilada arning ham, ayolning xam o‘z vazifalari bor, ulardan har biri o‘z vazifasini to‘la ado etishga mas’uldir. Nikoh tufayli ota-onada o‘zidan so‘ng zurriyod qoldirib, inson nasli davom etishiga sabab bo‘ladi. Rasululloh Muhammad alayhissalom muslimonlarni oila qurib, o‘zlaridan so‘ng zurriyod qoldirishga bejiz targ‘ib etmaganlar. Respublikadagi iqtisodiy qiyinchiliklar, bozor iqtisodiyotiga o‘tishga qaramay, nikohga o‘tish, oila qurish boshqa mintaqalarga nisbatan barqaror bo‘lib turibdi. 1991 yili 286208, 1992 yili 234105, 1993 yili esa 223003 nikoh ro‘yxatga olindi. Yoshlarning nikohga ma’naviy tayyorlik darajasi oila mustaqilligining muhim garovidir. Yoshlarni oilaviy turmushga tayyorlash muhim ijtimoiy ehtiyoj ekanligini unutmaslik, oilada va maktabda bu masalaga e’tiborni kuchaytirish kerak. Prezident Islom Karimov O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi qurultoyi qatnashchilari nomiga tabriknoma yo‘llab “... oilaga mas’uliyat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor berish zarur,”⁸⁴ deb ta’kidlab o‘tdi. Yoshlar ayollar 17 yoshdan, erkaklar 18 yoshdan 30 yoshgacha nikohga o‘tib oila qurishlari maqsadga muvofiq, buning uchun ular avvalo 18 yoshgacha oila qurishga tayyor bo‘lishlari, amaldagi er-xotinning huquq va majburiyatlarini belgilaydigan huquqiy qoidalar mazmunini o‘zlashtirib, ularga qat‘iy rioya qilishlari lozim, shundagina bular tuzgan oila mustahkam va barqaror bo‘ladi. Qizlarning turmushga chiqishiga alohida e’tibor berilishi lozim. Ularni mehnatsevar, epli qilib tarbiyalash zarur. Oilan qurishda eng zarur sifatlar: erga, qayin-bo‘yinga muomala qilish, bola boqish (alla, erkalash, ovutmachoqlarni bilish), taom pishirish, saranjom-sarishtalik, mehmon kutish kabilarni qizlarimizga o‘rgatib, shu yaxshi fazilatga ega qilib uzatish zarur. Yigit va qizning nikohgacha bir-birini yaxshi bilishi oila mustaqilligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Muhabbat tuyg‘ulari strukturasini anglamaslik 38 protsent nikohning

¹“Xalq so‘zi” 1994 yil 5 aprel.

buzilib ketishiga olib keladi.⁸⁵ Nikoh to‘g‘risidagi qoidalar Oila kodeksida atroflicha ifodalangan. Nikoh tushunchasi amaldagi oila qonunchiligidan emas, faqat huquqiy adabiyotlarda berilgan. Nikoh tushunchasi musulmon huquq ilmida har taraflama ishlangan. Huquq ilmining vakillari nikohga har xil tushunchalar beradilar. Ammo bu tushunchalar shaklida farqlanib, mazmunida esa o‘z ma’nosini saqlab qoladi.⁸⁶ Bu ta’riflarda uni yuridik dalolatnomaga deb hisoblab, birinchi navbatda oilaning tabiiy-biologik tomoniga e’tibor berilib, asosiy moddiy iqtisodiy vazifasi chetlab o‘tiladi. Maxsus huquqiy adabiyotlarda huquqshunos olimlar tomonidan nikohga ta’rif berilgan.⁸⁷

Bu ta’rif asosida o‘sha davrda mavjud bo‘lgan tuzum va mafkura g‘oyalari yotadi. Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o‘tilayotgan davrda va mustaqillik va milliy istiqlol mafkura g‘oyalari asoslanib biz ham nikohga yangicha ta’rif berishga harakat qildik: bu tushuncha, nikoh yoshiga yetgan, bir-birini sevadigan va qonunga muvofiq oila qurishni istagan erkak bilan ayolning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslangan, qonuniy rasmiylashtirilgan, o‘zaro shaxsiy va mulkiy huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradigan, oilaviy turmushda tug‘ilgan bolalarni milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalari asosida munosib tarbiyalashga xizmat qiladigan, umuminsoniy qadriyatlar va sharqona an’analarga asoslangan mustahkam, bir umrga tuzilgan ittifoqi tushuniladi.⁸⁸

2-§. Nikoh tuzish tartibi

Amaldagi oila qonunchiligi nikohning tuzilish tartibiga, ya’ni uni davlatning tegishli organlari tomonidan rasmiylashtirilishiga alohida e’tibor beradi. Oila kodeksining 13-moddasiga binoan, nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida tuziladi. Shunday nikohgina huquq va majburiyatni vujudga keltiradi. Nikohning tegishli davlat organida qayd etilishi uning vujudga kelganligini isbotlovchi birdan-bir dalildir. Diniy rasm-rusumlarga binoan tuzilgan nikoh huquqiy ahamiyatga ega emas. Nikohni tegishli davlat organlarida rasmiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari»⁸⁹, bilan

⁸⁵ Mirahmedov U.M., Rahmatov B.R. Jinsiy tarbiya masalalari, T.: Ibn Sino nomidagi nashriyot, Matbaa birlashmasi, 1994, 62-bet.

⁸⁶ Xidoya. Kommentarii muslimanskogo prava. T., “Uzbekistan”, 1-tom, 1994., 121-bet. Tornau N. Musulmanskoye pravo, SPB., 1950, 147-bet.

⁸⁷ Sverdlov G.M. Sovetskoye semeynoye pravo. M., Gosyurizdat., 1958, 96-bet, Tarxov V.A. Sovetskoye semeynoye pravo, izd. Saratovskogo universiteta, 1963, 28-bet, Yurkevich N.G. Zaklyucheniye braka po sovetskomu pravu., Minsk, 1965, 8-bet., Shaxmatov V.P. Novoye sovetskoye zakonodatelstvo o brake i semye, ch.1, Tomsk, 1969, 24-bet., Oridoroga M.T., Brachnoye pravootnosheniye., Kiyev, 1971, 30-bet. Maslov V.F., Podoprigora Z.A., PushkinA.A. Deystvuvsheye zakonodatelstvo o brake i semye. Xarkov, 1972, 33-bet. Belyakova A.M., Vorajeykin YE.M.. “Sovetskoye semeynoye pravo”, M, “Yuridicheskaya literatura”, 1974, 87-bet; Posse YE.A. Faddeva T.A. Problemi semeynogo prava LGU, 1976, 5-bet. Sovetskoye semeynoye pravo. Pod redaksii prof V.A. Ryasenseva, M., “Yuridicheskaya literatura”, 1982. 45-46-betlar. Matveyev K.D. “Sovetskoye semeynoye pravo” M “Yuridicheskaya literatura”, 1985. 45-46-betlar.

⁸⁸ Otaxo‘jayev F. Nikoh va uning huquqiy tartibga solinishi., T., “O‘zbekiston”, 1995., 164-bet.

⁸⁹ Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish Qoidalari. T., “Adolat”. 1999.

tartibga solinadi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organi ariza qabul qilganida ularni nikohni qayd etish tartibi va shartlari bilan tanishtirishi, kelgusidagi er-xotin va ota-onasifatidagi huquq va majburiyatlarini ularga tushuntirishi, bir-birlarining sog'lomlik holatlaridan va oila qoidalalaridan xabardor ekanliklariga ishonch hosil qilishi kerak. Nikohga kiruvchilar nikohga to'sqinlik qiladigan holatlarni yashirganliklari uchun javobgar bo'lishlari haqida ogohlantiriladilar. Nikohni tuzish nikohlanuvchilarning fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida, ariza bergenlaridan keyin bir oy o'tgach, shaxsan ularning ishtirokida amalga oshiriladi. Bunday muddatni belgilashdan maqsad bir-birlari bilan yaxshi tanish bo'lman shaxslarning yengiltaklik qilib, shoshmashosharlik bilan nikohdan o'tishlariga yo'l qo'ymaslikdan iborat. Bir oy muddat ichida nikohga kiruvchilar nikoh tuzishga bo'lgan o'z xohishlarini yana tekshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, bu muddat davomida nikohni qayd etishga monelik qiladigan ba'zi holatlar ham aniqlanishi mumkin. Bu davrda yoshlarni nikohga o'tishga tayyorlash uchun maxsus ma'ruzalar tashkil etishi lozim. Ular axloqiy, huquqiy va tibbiy mavzularda bo'lishi, nikoh to'g'risidagi qonunni, er-xotinning huquq va majburiyatlarini tushuntirib berishga qaratilishi kerak.

Maxsus adabiyotlarda bo'lajak er-xotin sifatida bir-birlarini yarim yildan bir yilgacha bilish eng maqbul muddat deb ko'rsatiladi⁹⁰.

Oila qonunchiligidagi nikohdan o'tish uchun ariza bergandan so'ng o'tish lozim bo'lgan bir oylik muddatni zarur hollarda qisqartish huquqi berilgan. Ushbu normada, shuningdek, fuqarolik holati dalolatnamalarini qayd etish haqidagi qoidalarda qanday holat uzrli hisoblanib, belgilangan bir oylik muddatni qisqartirish uchun asos bo'lishi mumkinligi ko'rsatilmagan. Bu hol amaliyotda turlicha hal qilinishiga sabab bo'lmoqda. Fikrimizcha:

- agar nikohni qayd ettirish uchun ariza bergenlar uzoq vaqt amalda birga yashagan bo'lsalar;
- nikohni qayd ettirish uchun ariza bergenlarning er-xotinlik munosabatlaridan tug'ilgan bolalari bo'lsa yoki xotin homilador bo'lsa;
 - kuyov yoki kelinning yaqin qarindoshlaridan biri og'ir kasal bo'lsa;
 - ariza bergenlardan biri uzoq muddatga chet elga yoki kelib-ketish qiyin bo'lgan joyga xizmat safariga ketayotgan bo'lsa;
- nikohni qayd ettirish uchun ariza bergen kuyov armiya safiga chaqirilgan yoki nikohni qayd etish uchun belgilangan muddatni qisqartirishga asos bo'ladigan boshqa sabablar uzrli sabab hisoblanib, bir oylik muddatni qisqartirishga asos bo'lishi mumkin.

Qanday sabablarni uzrli deb hisoblash masalasini hal etish huquqi qonun bo'yicha fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo'limining mudiriga berilgan.

Turmushda er-xotinning uzoq muddat nikohni qayd etdirmay amalda birga yashaganligi, bolasi borligi yoki xotinning homiladorligi uzrli sabab bo'lishi

⁹⁰ Oila psixologiyasi. -T., "Sharq", 2000. 107-b.

mumkin. Chunki ko‘p vaqt birga turgan shaxslarni, ayniqsa, chol-kampirlarning bir-birlariga bo‘lgan munosabatlari va oila qurishga bo‘lgan qarorlarini sinash va tekshirishning hyech qanday zarurati yo‘q. Huquqiy rasmiylashtirilmagan erxotinlik munosabatidan homilasi yoki bolasi bo‘lgan shaxslar nikohini qayd etishni ham kechiktirib bo‘lmaydi. Lekin chet elga yoki boshqa joyga uzoq muddatga xizmat safariga ketayotganlar, yaqin qarindoshi kasal bo‘lganlar, armiya safiga chaqirilganlar nikohning qayd etilishi muddatini qisqartirishni so‘raganlarida hamma vaqt ham talabni qanoatlantirish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi.

Nikohni qayd etayotgan mansabdor shaxs uzrli sabab bo‘laoladigan holatlarni tasdiqlaydigan hujjatlarni talab qilishi lozim. Jumladan, uzoq muddat erxotin bo‘lib turganlik fakti, bir turar-joy, bir oilada turganliklari haqida berilgan ma'lumotlar, umumiylar bolalari borligi, bu haqdagi ma'lumotnomalar va bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnomasi (otaligi belgilangan hollarda), qarindoshlarining kasalligi-yaqin qarindoshlikni tasdiqlovchi hujjat va kasallik haqida vrachlarning tegishli ma'lumotnomalar, uzoq muddatga chet elga ketish va boshqa joyga xizmat safariga borish bu haqdagi tegishli hujjatlar bilan isbotlanishi kerak. Harbiy xizmatga chaqirilgan shaxs armiyaga ketgunga qadar oila quradigan bo‘lsagina nikoh tuzilishiga ruhsat berishi mumkin. Agar u armiya safidan qaytib kelgunga qadar kuttirishi uchun nikohni qayd ettirayotgan bo‘lsa, u holda nikohni qayd etish man etiladi.

Nikohni qayd etish muddatini qisqartirish yuzasidan talabnomalar kelin va kuyovning har ikkisi tomonidan ariza bilan murojaat etilgan holda topshirilishi lozim. Arizaga muddatni qisqartirishga asos bo‘ladigan hujjatlar ilova qilinishi kerak. Ariza va tegishli hujjatlarni qabul qilib olgan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi mudiri muddatni qisqartirish yoki rad etishlik, agar qisqartirish lozim bo‘lsa, necha kunga qisqartirishni aniq holatga qarab belgilaydi. Fikrimizcha, bu masalani hal qilayotgan mansabdor shaxs o‘z xulosasini yozib, imzo bilan tasdiqlashi lozim. Bunday holat mansabdor shaxslarning muddatni qisqartirishga bo‘lgan mas’uliyatini oshiradi.

Amaldagi Oila kodeksida bir oylik muddatni qisqartirish huquqi nikoh saroyi yoki baxt uyi mudiriga berilmagan, ammo ular tomonidan bu muddatni qisqartirish hollari tajribada hamon tez-tez uchrab turipti. Fikrimizcha, bunga chek qo‘yish lozim, chunki birinchi nikohni tuzish vaqtida bir oylik muddatni qisqartirish maqsadga muvofiq emas.

Nikohni qayd etish muddatini uzaytirish nikohlanuvchilarining birgalikdag‘i arizalariga binoan ko‘rib chiqiladi. Ayrim hollarda yetarli asoslar bo‘lgan taqdirda, shuningdek, FHDYO organining tashabbusi bilan uzaytirishi mumkin, lekin bu muddat uch oydan oshmasligi kerak.

Endilikda, mamlakatimiz mustaqil bo‘lganligi tufayli uning fuqarolari chet el fuqarolari bilan nikoh tuzishlari tajribada tez-tez uchrab turganligi sababli fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organining mudiriga bu huquqni berilishi alohida ahamiyatga ega. Chunki ayrim vaqtarda nikoh ahdnomasini tuzuvchilar bu munosabatning oqibatini va mas’uliyatini yetarlicha tasavvur etmay,

shoshma-shosharlik bilan nikohdan o'tishga ariza berishlari mumkin. Bu muddatni uzaytirish tufayli ularda yana bir bor o'ylab ko'rish imkoniyati paydo bo'ladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishi organiga ariza berishning o'zagina arizaga imzo chekkan shaxslar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar kelib chiqmaydi. Bunday holat fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi va ariza bergenlar o'rtasida faqat ma'muriy-huquqiy munosabatni keltirib chiqaradi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga nikohga kirish uchun ariza bergen shaxslar undan voz kechsalar, unda hyech qanday oilaviy huquqiy oqibat kelib chiqmaydi. Ma'muriy-huquqiy munosabat esa o'z navbatida tugaydi.

Alovida hollar (homiladorlik, bola tug'ilishi, bir tarafning kasalligi va boshqalar) da nikoh ariza berilgan kuni tuzilishi mumkin.

Nikoh tuzish fuqarolik holati dalolatnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi nikohni ro'yxatga olishni rad etganda, shikoyat bilan bevosita sudga yoki bo'ysunishga ko'ra yuqori turuvchi organga murojaat qilinishi mumkin.

Nikohni qayd etish nikohlanuvchi shaxslardan birining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari, birinchi nikoh esa baxt uylari, nikoh saroylari tomonidan amalga oshiriladi.

Alovida hollarda obyektiv tegishli asoslar bo'lganida nikohni qayd etish kasalxonasi yoki uyda amalga oshiriladi.

Nikohni qayd etish tantanali vaziyatda amalga oshirilishi mumkin. U faqat nikohlanuvchilarning xohishlari bilangina o'tkaziladi. Nikohlanuvchilarning istaklariga binoan nikoh ularning qarindosh-urug'lari, oshna-og'aynilari, tanishlari, jamoat tashkilotlari vakili ishtirokida qayd etiladi. Nikohni qayd etish uchun maxsus xonalar ajratiladi, u lozim darajada jihozlanadi. Nikohni qayd etishda guvohlarning soni ikki kishidan kam bo'lmasligi kerak.

Nikohga kirishni xohlovchilar ariza berish chog'ida o'z shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni, ilgari nikohda bo'lgan shaxslar esa, avvalgi nikoh tugatilganligi haqidagi hujjatlarni ham taqdim etishi lozim.

Basharti, belgilangan tartib buzilib, shuningdek, g'arazli maqsad ko'zlangan nikoh tuzilsa, u vujudga kelmagan nikoh hisoblanib, u sud tomonidan haqiqiy emas deb topiladi. U tuzilgan vaqtidan boshlab nikoh tuzuvchilarda hyech qanday huquq va majburiyatni vujudga keltirmaydi.

Oila kodeksining 217-moddasida nikoh tuzilganligini qayd etishning alovida hollari belgilangan. Tergov izolatorlarida, ozodlikdan mahrum etish tariqasidagi jazoni ijro etuvchi muassasalarda saqlanayotgan shaxslar bilan tuziladigan nikohni qayd etish ushbu muassasa jaylashgan yerdagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi, fuqaroligi bo'lмаган shaxslar bilan nikoh tuzganligini qayd etish umumiy asoslarda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida, boshqa davlat hududida o‘sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari o‘rtasida tuzilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar o‘rtasida tuzilgan nikohlar, agar respublika qonunida nazarda tutilgan nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar bo‘lmasa, O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tiraf etiladi. O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida chet el fuqarolari o‘rtasida boshqa davlat hududida o‘sha davlatning qonun hujjatlariga rioya qilingan holda tuzilgan nikohlar O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tashkil etilmasdan oldin shariat va odat qoidalariga muvofiq tuzilgan nikoh ro‘yxat qilingan nikohga tenglashtirilgan. Erkak va ayolning nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida qayd etilmasdan er-xotin bo‘lib yashashi, ular qancha vaqt birga yashaganliklari va farzandlari bor-yo‘qligidan qat’i nazar nizo kelib chiqqan hollarda oila qonunlarida belgilangan er-xotinlik huquq va majburiyatlarini vujudga keltirmaydi.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1944 yil 8 iyul Farmonida faqat ro‘yxatga olingan nikohgina huquqiy oqibat keltirib chiqarishi belgilangan. Bu farmonga binoan nikohni qayd ettirmay turib er-xotinlik munosabatlarida bo‘lib kelgan shaxslar haqiqatan ham birga turgan vaqtlarini ko‘rsatib, ro‘yxatdan o‘tishlari mumkinligi ko‘rsatilgan. Bunday hollarda ularning er-xotinlik huquq va majburiyatları o‘sha muddatdan boshlab yuzaga keladi.

Agar er-xotin bo‘lib yashagan shaxslarning nikohi bir tomonning o‘limi yoki urush davrida frontda bedarak yo‘qolganligi tufayli qayd etilishi mumkin bo‘lmasa, u holda ikkinchi taraf sudga murojaat qilib, o‘zini o‘lgan deb topilgan yoki bedarak yo‘qolgan deb e’lon qilingan shaxsning eri yoki xotini deb hisoblashni so‘rashi mumkin.

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1944 yil 10 noyabrdagi «Er-xotindan birortasining frontda o‘lishi yoki bedarak yo‘qolishi tufayli amaliy nikoh munosabatlarini tan olish tartibi haqidagi» Farmonida⁹¹ er-xotinlik munosabatlarini belgilash uchun sudga murojaat etish muddati ko‘rsatilmagan. Shuning uchun o‘lgan yoki bedarak yo‘qolgan deb topilgan shaxsning eri yoki xotini bu fakt ni tasdiqlash uchun har qachon sudga ariza bilan murojaat etishi mumkin.

Nikoh davlat va jamiyat manfaatlarini ko‘zlab, shuningdek, er bilan xotinning va bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlari hamda manfaatlarini muhofaza qilish maqsadida qayd etiladi.

Nikoh vujudga kelganligini isbotlaydigan nikohni qayd etish dalolatnomasi er va xotinning hamda nikohdan tug‘ilgan bolalarning shaxsiy va mulkiy huquqlarini qo‘riqlashni ta’minlaydi. Nikoh to‘g‘risidagi guvohnoma bola tug‘ilishini qayd etishda, aliment undirilishida, meros va pensiyaga bo‘lgan huquqlarni rasmiylashtirishda taqdim etiladi.

⁹¹ SSSR Oliy Sovetining Vedomostlari, 1944., 60-son.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari, baxt uylari, nikoh saroylari malakali xuquqshunos kadrlar bilan ta'minlanishi lozim, rahbar xodimlar huquqshunoslik bo'yicha oliy, inspektorlar esa o'rtta maxsus yuridik ma'lumotiga ega bo'lishlari kerak.

Yosh oilaning mustaqilligi to'y oqshomidan boshlanadi. Shuning uchun to'yning yaxshi o'tkazilishiga ko'p narsa bog'liq. To'y ikki yoshning boshini qovushtirish, yangi oilaning mustahkam poydevorini yaratish uchun o'tkaziladi.

Oltin halqa-nikoh to'yining majoziy belgisi, oilaviy baxt-iqbol, yorqin istiqbol ramzi sifatida ko'zlarni quvontiradi, to'y ahllarida ko'tarinki, shodiyona kayfiyat uyg'otadi. To'y-katta avlod bilan yosh avlod o'rtasidagi oltin ko'prik. Katta avlod bu ko'prikni qurishda yoshlarga yordam beradi va ularning qo'lidan tutib, hayotning mustaqil yo'liga boshlab boradi. Binobarin, to'y hayotimizning ko'rki, fayzli marosimgina bo'lib qolmay, ijtimoiy, ma'naviy, vorisiylik ahamiyatiga ega bo'lgan muhim hodisa hamdir.

To'y urf-odatimizning go'zal namunasi sifatida, kishilarga zavq-shavq beradigan, ezgu tilaklar va niyatlar asosida yoshlarga biron-bir tarbiya beradigan shaklda o'tishi kerak: uning mazmuni esa baxtli, mustahkam oila qurish, sog'lom avlodni o'stirish va tarbiyalashdan iborat.

Hozirgi to'yalarimiz o'zgacha bir zamonaviy mazmunga ega bo'lmoqdaki, uni yanada takomillashtirish, go'zallashtirish kerak. Masalan, kuyov-kelinning tabarruk va muqaddas sanalmish Mustaqillik maydoni, Xotira hiyoboni, xalqlar do'stligi ramzi bo'lgan haykallar poyiga guldstalar qo'yish singari, udumlar zamonamizning go'zal, yangi odat va an'analaridir. Zamonamiz talabiga javob beradigan ixcham, go'zal to'y namunalarini ishlab chiqish va tavsiya etish, uni takomillashtirib borish lozim. Bu ishga etnografiya, iqtisod, statistika, psixologiya, oila pedagogikasi, tibbiyot va huquqshunoslik fani vakillari jalb etilib, ular o'zbek halqining boy urf-odatlari ichidan zamonaviy nikoh to'yiga mos keladigan rasm-rusumlarni saralab, ijodiy tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikda nikoh to'yining bir butun yaxlit senariysini ishlab chiqsalar, maqsadga muvofiq bo'lur edi.

To'yni tartibli o'tkazish alohida ahamiyatga ega. To'y ham katta tarbiya vositasidir. To'y kechalarini obro'-e'tiborli, yoshi ulug' tabarruk ustozlar, o'qituvchilar, urush va mehnat veteranlari ochib berishi, kelin va kuyovga qo'sha-qo'sha to'ylar, nevara, evaralar ko'rgan otaxonlar va onaxonlar yaxshi tilak bildirishlari tantanaga yanada zavq-shavq hamda fayz bag'ishlaydi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti tobora chuqurlashib, iqtisodiy qiyinchilik bo'layotgan davrda nikoh to'yi masalasiga ham biroz ixchamlik kiritmoq lozim. Chunki o'zbek xalqi-g'ururli, or-nomusli halq, qo'li yetgani ham, yetmagani ham qarz qavola qilib bo'lsa-da odat bo'lib borayotgan dabdabali to'ylarni qilishayapti.

To'ylarni imkonli boricha spirtli ichimliksiz o'tkazmoq ma'qul.

To'y-hasham va ma'rakalarni o'tazishni tartibga keltirish to'g'risidagi Prezidentning 1998 yil 28 oktabrdagi Farmonida⁹² juda to'g'ri ko'rsatilganidek,

⁹² «Xalq so'zi» 1998 yil 29 oktbr.

keyingi vaqtarda to‘y-hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni, marhumlar xotiralariga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishda mamlakatimizning ko‘p joylarida shuhratparaslik, dabdababozlik, isrofgarchilikka yo‘l qo‘yayotgan el-yurt odatlari va an'analarini mensimay, o‘z-o‘zini ko‘z-ko‘z qilish, atrofda yashayotgan odamlarni hol-ahvolini inobatga olmay, esidan qolgan asoratlarga yopishib olgan, lavozimini suiiste'mol qilayotgan rahbarlar, manmanlikka berilib ketgan havoiy mansabdorlar, puldorlar sog‘lom turmush tarzimizga dog‘ tushirmoqdalar.

To‘y va marosimlarni o‘tkazishning maqbul tartib-qoidalarini ishlab chiqishga jiddiy e'tibor bermoq zarur.

3-§. Nikoh tuzish shartlari

Nikohdan o‘tayotgan erkak va ayol oila qurishga tayyor bo‘lishlari kerak. Buning uchun, birinchi navbatda, ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchilar farzandlarini sog‘lom, odobli, mard, irodali, g‘ururli, erkaklik mas‘uliyatini sezadigan mehnatsevar qilib tarbiyalashlari lozim.

O‘g‘il bolalar ayollar haqida keng va chuqur tasavvurga ega bo‘lishlari kerak.

Yigitlarning uy-ro‘zg‘or ishlarini, bozor-o‘char qilishni bilishlari, oilaning qadriga yetadigan vafodor, ayolmand, bolajon bo‘lishlari maqsadga muvofiq.

Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlab, ularni sog‘lom, odobli, kattalarni hurmat qiladigan, iffatli, nomusli, hayo-iboli, mehnatsevar, uy-ro‘zg‘or ishlarini olib boradigan, mehmondo‘sit uy bekasi darajasiga yetkazish baxtli turmushning kafolatidir.

O‘zbekiston Respublikasida nikohni uning ijtimoiy mohiyati va maqsadiga ko‘ra hamda oilani mustahkamlash ehtiyojini, yosh avlodning axloqi va sihat-salomatligini hisobga olib, bir qator shartlarga rioya qilgan holda tuzish zarurligi belgilandi. Bu talablar nikohdan o‘tish shartlari deb yuritiladi. Ular qo‘yidagilardan iborat:

Nikoh tuzish ixtiyoriydir.

“Nikoh tuzish uchun bo‘lajak er-xotin o‘z roziligin erkin ifoda etish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Nikoh tuzishga majbur qilish taqiqlanadi”. (Oila kodeksining 14-moddasi).

Biz qurayotgan adolatli fuqarolik jamiyatda nikoh erkak bilan ayol o‘rtasidagi tenglik va o‘zaro xohish asosida tuzilgan erkin ittifoq bo‘lib, maqsadi oila qurish, farzand ko‘rish, ularni jamiyatning munosib kishilari qilib tarbiyalashdan iborat. Nikohlanuvchilarning o‘zaro roziligi nikoh tuzishning muhim shartlaridan biridir.

Nikohni o‘zaro rozilik asosida tuzish sharti uning ixtiyoriylik va tenglik tamoyili asosida vujudga kelganligini ta‘minlash bilan birga, oilaning barqaror va mustahkam bo‘lishiga ham imkoniyat yaratadi. Nikohning erkin tuzilishi uchun berilgan rozilik chinakam bo‘lishi, u qo‘rqitish, zo‘rlash, aldash yoki

nikohlanuvchilarning biri yoxud har ikkisiga ruhan ta'sir etilgan holatda berilgan bo'lmasligi lozim.

Tajribada zo'r lash, qo'rqtish yoki aldash kabi xatti-harakatlar ko'proq tor va huquqiy madaniyatning pastligi oqibatidan kelib chiqadi. Nikohga kiruvchilarning, ko'p hollarda qizlarning roziligini olmay, oldindan fotiha qilish, qalin olish hollari, yoshlarni sevmagan kishilariga turmushga chiqishga majbur qilib, ularning baxtiga zomin bo'lish buning misolidir. Bunday xatti-harakatlar ko'pincha mulohazalari tor, turli xil salbiy qarashlar ongida chuqur o'rnashib qolgan shaxslar orasida uchraydi. Zo'r lash, qo'rqtish, aldash kim tomonidan sodir etilgan bo'lmasin, bari bir, nikohning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'ladi.

Nikohga kirishning o'zaro rozilik asosida bo'lishi shartining buzilishi uning haqiqiy emas deb topilishigagina emas, balki g'ayriqonuniy xatti-harakat sodir etib nikohga kirishga zo'r lagan, aldagan va qo'rqtgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo'ladi.

Bu javobgarlik O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat kodeksi 136-moddasida quyidagicha belgilangan: "Ayolni erga tegishga yoki nikohda yashashni davom ettirishga majbur qilish yoxud ayolning erkiga xilof ravishda u bilan nikohda bo'lish uchun o'g'r lash, shuningdek, ayolning erga tegishiga to'sqinlik qilish- eng kam oylik ish haqining yigirma besh baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan yoki uch yilgacha ozodlikdan mahrum etish bilan jazolanadi."

Agar nikohga kiruvchilardan biri nikohni haqiqiy emas deb topishga asos bo'la olmaydigan boshqa biror holatni (masalan, kasali yoki oldingi turmushdan bolasi borligini) yashirsa, bunday holat nikohni haqiqiy emas deb topishga asos bo'lmasa-da, ammo nikohdan ajratish vaqtida sud tomonidan hisobga olinishi mumkin;

Nikoh tuzishlikning navbatdagি sharti-amaldagi qonunda nikoh yoshining belgilanishi.

"Nikoh yoshi erkaklar uchun o'n sakkiz yosh, ayollar uchun o'n yetti yosh etib belgilanadi.

Uzrli sabablar bo'lganida, alohida hollarda nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko'ra nikoh davlat ruyxatidan o'tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko'pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin". (Oila kodeksining 15-moddasi).

Oila kodeksi loyihasi matbuotda e'lon qilinganida nikoh yoshi masalasi bo'yicha juda ko'p fikr-mulohazalar va takliflar bo'ldi. Asosan nikoh yoshini erkaklar uchun 20 yosh, ayollar uchun qat'iy ravishda 18 yosh etib belgilash to'g'risida takliflar bo'ldi. Sababi: birinchidan, 17-18 yoshdagi yigit va qizlarning ko'pchiligi fiziologik va jismoniy jihatdan to'liq rivojlanib yetilmagan bo'lsalar, tibbiy mutaxassislarning ko'rsatishicha, ikkinchidan, respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida ko'rsatilganidek, bu yoshlar umumiy ta'limdan so'ng 3 yillik akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishlari va ma'lum sohalar bo'yicha bilim, hunar va kasb egallab, ishlab chiqarish jarayoni uchun mutaxassis

bo‘lib chiqishlari kerak. Xuddi 17-18 yoshlik davr o‘g‘il-qizlarining akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o‘qiyotgan vaqtiga to‘g‘ri keladi. Qiziq, 17-18 yoshda turmushga chiqqan qizlar homilador holda akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji partalarida o‘tirib bilim oladilarmi yoki farzand ko‘rish bilan shug‘ullanadilarmi?! Shuningdek, 17-18 yoshdagilar oila qurish uchun ham tayyor emaslar, ma’lum kasb-hunar egallashlari zarur. Mustaqil hayot kechirish uchun tayyorlanishlari kerak.

Bunga yana bir asos shuki, o‘n sakkiz yoshga kirgan yigitlarning oilani boqishi uchun qo‘lida bir hunari bo‘lmasa, bu yoshda u o‘qiyotgan bo‘lsa, u qanday qilib oilasini boqadi. Hayotda xotini-yu, bolalarini ota-onasi boqayotgan yigitlar ko‘p bo‘lsa ham, ammo o‘z oilasini o‘zi mustaqil boqqani ma’qul.

Mutaxassislarning fikricha, mo‘tadil onalik davri 19 yoshdan boshlanadi. Birinchi bola ona 19-26 yoshga to‘lganda tug‘ilsa, maqsadga muvofiqdir. Tibbiyot xulosasi shuki, qizlar faqat 18 yoshdan keyin turmushga chiqishlari lozim. Shundagina barkamol onadan sog‘lom bola tug‘iladi.

Qonunda nikoh yoshining erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yosh etib belgilanishi bu hali mukammal yosh faqat nikoh tuzish uchun bo‘lgan huquq. Necha yoshdan nikohga o‘tishlikni ularning o‘zlari hal qiladilar. Nikoh huquqiy munosabati tabiiy jarayon bo‘lganligi uchun yangi qonun ilgari amalda bo‘lgan nikoh yoshini, ya’ni erkaklar uchun 18 yosh, ayollar uchun 17 yoshni saqlab qoldi.

Oila kodeksida faqat necha yoshdan boshlab nikohga kirish mumkinligi belgilangan, ammo necha yoshdan boshlab nikoh tuzish mumkin emasligi belgilanmagan. Shunga ko‘ra, nikohdan o‘tuvchilarning yoshlaridagi, katta farq nikoh tuzishga monelik qilmaydi. Bizning mamlakatimizda nikohdan o‘tuvchilarning yoshlari o‘rtasidagi katta farq kamayib borayotgani sezilmoqda⁹³

Amaldagi qonunchilikka muvofiq nikoh munosabatida bo‘lgan ayollar bola tarbiyalash huquq va majburiyatlariga ega bo‘ladi, bunday holda ular, garchi voyaga yetmagan (18 yoshga to‘limgan) bo‘lsalar ham, qonun bo‘yicha muomala layoqatiga to‘liq ega bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 22-moddasiga binoan, voyaga yetgunga qadar turmush qurgan shaxs qonuniy asosda nikohdan o‘tgan vaqtdan e’tiboran to‘la hajmda muomala layoqatiga ega bo‘ladi.

Nikoh tuzish natijasida ega bo‘lingan muomala layoqati 18 yoshga to‘lmasdan turib nikohdan ajralgan taqdirda ham to‘la saqlanib qoladi.

Sud nikohni haqiqiy emas deb topganida voyaga yetmagan er (xotin) sud belgilagan paytdan boshlab muomala layoqatini to‘la yo‘qotganligi haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Amaldagi oila qonunlarida belgilangan nikoh yoshiga rioya qilmasdan g‘ayriqonuniy ravishda nikoh munosabatida bo‘lish turli huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday nikoh haqiqiy bo‘limgan nikoh deb topilib,

⁹³ Trud, semya, bo‘t sovetskoy jenhino‘, M., 1990., 38-bet.

oila qonunlarida belgilangan tegishli shaxsiy va mulkiy huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmaydi.

Nikoh tuzishga monelik qiladigan holatlar:

A) Loaqlal bittasi ro‘yxatga olingan boshqa nikohda turgan shaxslar o‘rtasida nikoh tuzishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Bunday holat nikoh tuzishga to‘sinqinlik qiluvchi shart deb hisoblanadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida qayd etilgan qonuniy nikohda bo‘lish nikohga kirishga monelik qilganidek, qonun bilan tan olinadigan diniy nikohlar hamda 1944 yil 8 iyul farmoni asosida sud tomonidan tan olingan nikoh munosabatlari ham bunga monelik qiladi. Shuning uchun keyingi nikohlarni qayd etishda oldingi nikohdan ajralganligini tasdiqlovchi hujjatlar talab etiladi.

Ayrimlar Qur‘oni Karimda erkaklarga to‘rttagacha uylanishga ruxsat berilgan, degan gapni pesh qiladilar. Bu masalada ulamo Muxtorjon hoji Abdulloh Buxoriyning sharhi diqqatga sazovordir.

“Niso” surasining uchinchi oyatida to‘rt nafargacha uylanishga ruxsat bera turib, darhol orqasidan “agar ular o‘rtasida adolat va tenglikni barqaror qilaolmaslikdan qo‘rqsangiz, faqat bitta xotin bilan kifoyalaning”, deyiladi. Yana shu suraning 129-oyatida: “Har qancha urinsangizlar ham xotinlaringiz o‘rtasida adolat qilishga qodir bo‘lmaysizlar”, deb Alloh taolaning o‘zi guvohlik beradi.

Demak, shariatda ko‘p xotinlilikka hyech qanday shart-sharoitsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ruxsat berilgan emas. Ko‘p xotinlilikka qo‘yilgan shartlarni bajarish esa qiyin. Zero, bizning mamlakatda yakka nikohlilik qonun yo‘li bilan qaror topdirilgan.

Respublikada har bir fuqaro faqat yakka nikohda bo‘lishi mumkin. Yakka nikohlik tamoyili bizning jamiyatimizda mavjud bo‘lgan yuksak axloqiy qoidalardan kelib chiqadi. Bunday qoida jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichdagi nikoh-oila munosabatlari talablariga javob beradi. Bu qoidaning bузilishi nikohni haqiqiy emas deb topishdan tashqari, qonunni buzgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortishga ham asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-moddasida quyidagicha belgilangan: ”Ko‘p xotinli bo‘lish, ya‘ni umumiy ro‘zg‘or asosida ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin bo‘lib yashash- eng kam oylik ish haqining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud uch yilgacha ozodlikdan maxrum qilish bilan jazolanadi”.

B) Nikoh tuzishga:

nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida, shuningdek farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o‘rtasida yo‘l qo‘yilmaydi.

Oila kodeksining III bo‘limi “Qon-qarindoshlik va bolalarning nasl-nasabini belgilash” deb nomlangan (57-64-moddalar). U ikki bob, (9-bob “Qarindoshlik, qayin-bo‘yinchilik va quda-andachilik”, 10-bob “Bolalarning nasl-nasabini belgilash”), sakkiz moddadan iborat. Bu bo‘lim oila qonunchiligiga

butunlay yangi bo‘lim bo‘lib kirdi. Uning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi qon-qarindoshlik oila huquqiy munosabatlarining vujudga kelishiga asos bo‘lgani uchun ham qonunchilikda o‘z yechimini topishi lozim edi. Bu vazifa ham bajarildi. Undan tashqari nikohdan o‘tishda uni man etadigan holatlaridan biri nikoh tuzuvchilarning qarindoshligidir. Unga bunday deb nom berishdan maqsad qon-qarindoshlikka to‘g‘ri ilmiy asoslangan tushuncha berish lozim edi, chunki hozirga qadar bu masalada chalkashliklar mavjud. Qonun bo‘yicha kimlarni qarindosh deb ataymiz va ular o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar qanday vujudga keladi, degan masalalar o‘z yechimini topdi. Endilikda bu masala bo‘yicha ham oila qonunchiligiga aniqlik kiritildi.

YAqin qon-qarindoshlik o‘z ichiga to‘g‘ri tutashgan, yonlama, tug‘ishgan va o‘gay qarindoshlar, aka-ukalar bilan opa-singillar tushunchalarini oladi.

To‘g‘ri tutashgan qarindosh bo‘lib, biri boshqasidan dunyoga kelgan shaxslar, ya’ni bobo-ota-o‘g‘il-nevara-evara-chevara-duboralar tushuniladi.

Aka-uka va opa-singillar yonlama qarandosh hisoblanadi. Umumiyl ota-onaga ega bo‘lishlik to‘la qarindosh, ota bir, ona boshqa yoki ona bir ota boshqalar o‘gay qarindosh deb tushuniladi.

Bolalarni emizish tufayli vujudga kelgan sut qarindoshlar, ya’ni ko‘kaldoshlarning ham nikoh tuzishlari maqsadga muvofiq emas. Bu haqda me’yoriy hujjatlarda tegishli qoidalar berilsa, foydadan holi bo‘lmaydi.

YAqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikohni qonun yo‘li bilan taqiqlash axloqiy hamda biologik nuqtai nazarga, tibbiyot fani yutuqlari va xulosalariga asoslanadi.

Boshqa qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish qonun bilan man qilinmaydi. Shuning uchun yon chiziq bo‘yicha qarindosh bo‘lgan, amakivachcha, tog‘avachcha, holavachchalar, ammavachchalar va boshqa uzoq qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzish mumkin. Ammo bu maqsadga muvofiq emas. Chunki qarindoshlik nikohi tufayli odatda jismoniy va aqlan nosog‘lom, ya’ni nimjon, kasalmand, aqli zaif, kar-soqov, ortiq, qo‘sboq, pakana yoki nuqsonli, mayib bolalar tug‘iladi. Ular o‘sishda tengdoshlaridan orqada qoladilar. Bunday oilalardan ko‘pincha yurak, buyrak xastaligi kasalligiga yo‘liqqan bola tug‘ilishi kuzatilmokda. Biologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, nikoh qanchalik begona shaxslar bilan tuzilsa, avlod shuncha sog‘lom bo‘ladi.

Amaldagi oila qonunchiligidagi aka-ukalar va opa-singillar farzandlarining nikohlanishi taqiqlanmagan, vaholanki, hozirgi zamon genetikasi yutug‘i va xulosalariga ko‘ra, bunday nikoh nomaqbuldir. Xo‘s, genetika nima? Gen-irsiyat belgilarini nasldan-naslga o‘tkazuvchi omildir. Inson a’zosining har bir belgisini, ko‘rinishini va xususiyatlarini gen belgilaydi. Ana shu genlar, binobarin, barcha xususiyatlar ota-onadan farzandga o‘tadi. Biror genning o‘zgarishi natijasida kelib chiquvchi va nasldan-naslga o‘tuvchi kasalliklar irsiy kasallik hisoblanadi. Kasal gen kelgusi avlodlarning birida shu xastalikning kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi. Qon-qarindoshlar nikohidan tug‘ilgan bolalarda bu xastalik genetik qonuniyatlar asosida osongina yuzaga chiqadi. Bundan ko‘rinadiki, qarindosh-urug‘lar nikohidan xasta bolalar tug‘ilishi ko‘p bo‘ladi.

Ayni chogda qarindoshlar o'rtasidagi nikoh aholining geografik yashash sharoitiga ham bog'liq. Tog'li va orol joylarda yashovchi, tashqi dunyo bilan aloqasi birmuncha cheklangan ijtimoiy guruhlarning barini, shubhasiz, qon-qarindosh deyish mumkin. Bu yerdagi barcha aholi o'z xohishidan qat'i nazar, zaruratdan kelib chiqqan holda, qon-qarindoshga aylangan. Olib borilgan kuzatishlar qon-qarindoshlik nikohining kelgusi avlodga ta'siri oqibatlarini tasdiqladi. Avvalo, bunday nikohdan tug'ilgan bolalar kasallikka tez chalinadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, AQShda qon-qarindoshlar nikohidan tug'ilgan bolalarning 22,5 foizi, qarindosh bo'limganlar nikohidan tug'ilgan bolalarning esa 16 foizi nobud bo'lgan.

Qarindoshlar o'rtasida tuziladigan nikoh, hatto, farzandsizlikka ham olib kelmoqda. Bular hammasi tibbiyot fanining asosli xulosalaridir.

Akademik K.N.Bochkovning fikriga ko'ra, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohga chek qo'yilsa, aholi o'rtasidagi kasalga chalinish ancha qisqaradi. Chunonchi, ba'zi hollarda, kasalga chalinishni teng yarmiga kamaytirish mumkin.

Umuman, qarindosh-urug'lar nikohi kelgusi avlodlar salomatligiga putur yetkazishi shubhasizdir.

Agar nikoh tuzishga monelik qiladigan hollarga to'la riosa qilinib, oila qurilsa, u mustahkam bo'ladi, kelajak avlod barkamolligiga, qolaversa, kelajagimiz bo'lgan farzandlarimizning sog'lomligini ta'minlashga katta hissa qo'shiladi.

Musulmon huquqi bo'yicha, har xil oilada tug'ilgan bolalarni bir ona emizishi tufayli sut qarindoshligi vujudga keladi.

Tug'ruqxonalarda ona-bola yotadigan alohida xonalar bo'lishligi lozim. Boshqa ayoldan tug'ilgan bolani emizgan ayol o'sha bolaga ikkinchi ona hisoblanadi. Demak, go'dak boshqa onaning sutini emsa, bu bola o'sha sut bergen ayolning farzandi bilan turmush qurishi mumkin emas. Bu ham o'z tug'ishgan ukasi, yo singlisi bilan turmush qurganday bir gap. Hozir ham ba'zilar emizgan ayolni tuqqan onasi yanglig' ko'rib, uni ham "ona" deydi. Qadimda sut emishganlar aro aka-uka, opa-singillik, ya'ni ko'kaldoshlik bo'lib, ular o'zaro turmush qurmaganlar. Shuning uchun bundan buyon ana shunday boshqa ayolning manzili, nasl-nasabi o'sha suti kam onaga rasman yozib berilishi, unga tanishtirib qo'yilishi shart. Bu ma'naviy jihatdangina emas, balki kelajak avlodimizning qon musaffoligiga erishish uchun ham juda zarur. Binobarin, milliy qadriyatlarimizni tiklab, me'yoriy hujjatlarga tegishli o'zgartirish kiritib, bir onani emgan bolalar o'rtasida vujudga kelgan ko'kaldoshlik tufayli ham ularning bir-biri bilan nikohdan o'tishlari man etadigan qoida kiritilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Zotan, bu holat islom shariatida ham qayd etilgan.

Farzandlikka olish munosabatlari ham to'g'ri tutashgan qarindoshlikka tenglashtiriladi. Oil a kodeksining 16-moddasiga binoan farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar hamda ularning avlodlari bir-birlari bilan nikohdan o'tish huquqiga ega emaslar. Chunki farzandlikka oluvchi shaxs ota-onaning o'rnini bosadi, agar ular o'rtasida boshqacha tuyg'u va munosabat bo'lsa, u farzandlikka olish va axloq tabiatiga zid bo'lib chiqadi.

Ma'lumki, har xil oilalarda, har-xil millat vakillaridan tug'ilgan turli jinsdagi bir qancha bolalar farzandlikka olinishi mumkin. Ular bir oilada aka-uka yoki opa-singil bo'lib o'sadilar. Ammo balogatga yetganlaridan so'ng o'zaro nikohdan o'tishlari mumkinmi yoki yo'qmi, degan savol tug'iladi. Bu masalaga amaldagi qonun tegishli javob bermaydi, chunki ular o'rtasida qon-qarindoshlik munosabati yo'q. Shuning uchun ular nikohdan o'tishlari mumkin. Hayotda bunday misollar talaygina. Ko'pgina bollarni o'z bag'riga olib tarbiyalagan oilalar bor. Jumladan, rus, o'zbek, qozoq, qirg'iz, yaxudiy, tatar, maldavan va boshqa millatlarning 15 bolasini o'z bag'riga olib, ularning bir-biriga do'st, mehribon, aka-ukadek qilib o'stirgan oddiy temirchi Shoahmad Shomahmudov va uning rafiqasi Bahri Akromovaning oilasini keltirish mumkin. Ular oilada aka-uka, opa-singildek o'sdilar. Keyinchalik ularning ayrimlari nikoh tuzib, oila ham qurdilar. Bu axloqiy nuqtaiy nazardan maqsadga muvofiq emas. Chunki, agar mobodo oila buzulib qolsa, katta bir oilaga zarar keltiradi. Biologik nuqtaiy nazardan ularning nikohga o'tishlari naslga hyech qanday ta'sir qo'rsatmaydi. Ammo bir xil ijtimoiy ma'naviy sharoitda aka-uka va opa-singil bo'lib o'sganlar, binobarin, ularning o'zaro nikohdan o'tishlari axloq va tarbiya nuqtaiy nazardan maqsadga muvofiq emas. Shuning uchun me'yoriy hujjatlarda tegishli qoidalarni belgilab, farzandlikka olingenlarning o'zaro nikohdan o'tishlari taqiqlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

V) Loaqal bittasi ruhiyat buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar o'rtasida nikoh tuzishga yo'1 qo'yilmaydi (Oila kodeksining 16-moddasi). Chunki bunday shaxslar o'z harakatlarining oqibatiga to'la javob bera olmaydilar va nikoh tuzishga ongli ravishda o'z xohishlarini izhor eta olmaydilar. Bu qoida nikohlanuvchilarning ixtiyoriy va o'z xohishiga ko'ra nikoh tuzish tamoyilidan kelib chiqadi. Amaldagi qonunchilikda bunday tartibning belgilanishi kelajak avlodning sihat-salomatligi to'g'risida davlat g'amxo'rлигining yorqin ifodasıdır. Shaxsni ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi tufayli muomalaga layoqatsiz deb topish fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza topshirgandan so'ng, nikohni qayd etish muddatigacha yuz bergen bo'lsa ham, nikohga o'tishga monelik qiladi.

Agar nikoh qayd etilgandan so'ng er-xotindan biri belgilangan tartibda muoamalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa, nikoh haqiqiy emas deb topilmaydi. Ammo bu holat nikohni ma'muriy tartibda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida nikohdan ajralish uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 230-moddasiga binoan, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlariga atayin yolg'on ma'lumotlar berish yoki tegishli organlarga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan fuqarolik holati dalolatnomalari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etmaslik - fuqarolarga eng kam ish haqining ikkidan bir qismidan bir baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa - bir baravaridan ikki baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

G) Oila kodeksiga yangilik sifatida : "Nikohlanuvchi shaxslarni tabbiy ko'rikdan o'tkazish" (17-modda) qoidasi kirib keldi. Unda e'tirof etilishicha,

“Nikohlanuvchi shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, shuningdek tibbiy-irsiy hamda oilani rejalashtirish masalalari bo‘yicha maslaxat berish nikohlanuvchi shaxslarning roziligi bilan davlat sog‘liqni saqlash tizimi muassasalari tomonidan amalga oshiriladi.

Nikohlanuvchi shaxsni ko‘rikdan o‘tkazish natijalari shifokor siri hisoblanadi va u nikohlanuvchi shaxsga faqat ko‘rikdan o‘tgan shaxsning roziligi bilan bildirishi mumkin”.

Ushbu qoidani kafolatlaydigan qoida moddaning uchinchi qismida berilgan. Unga ko‘ra, ”basharti, nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil cassalligi yoki odam immuniteti taqchilligi virusi (OITS infeksiyasi) borligini boshqasidan yashirgan bo‘lsa, shu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat etishga haqlidir”.

4-§. Nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari

Nikohni qayd etishga huquqi bo‘lgan har bir davlat organi, tuman hokimiyati bo‘limi, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi, nikoh saroylari, baxt uylari, qishloq (ovul) va posyolka kengashining ijroiya hokimiyatida qayd etilgan har bir nikoh qonuniy tuzilgan nikoh hisoblanadi.

Oila kodeksida belgilangan shartlarning buzilishi sud tomonidan ushbu nikohni haqiqiy emas, deb topish uchun asos bo‘lishi mumkin.

Oila kodeksining 14-16-moddalari hamda 17-moddasining uchinchi qismida belgilangan shartlar buzilgan taqdirda, shuningdek soxta nikoh, ya’ni er-xotin yoki ulardan biri oila qurish maqsadini ko‘zlamay tuzgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Oila kodeksida nikohni haqiqiy emas deb topish asoslari haqida mukammal tushuncha berilgan. Quyidagi hollarda qayd etilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi:

- a) nikoh tuzishning ixtiyoriyligi buzilishi;
- b) nikoh yoshiga qo‘yilgan shartga rioya qilmaslik;
- v) yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi;
- g) nikoh nasl-nasab shajarasи bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida tuzilgan bo‘lsa;
- d) muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilgan nikoh;
- ye) nikohga o‘tish vaqtida oila qurish maqsadining soxtaligi;
- j) farzandlikka olgan bilan farzandlikka olingen shaxslar o‘rtasida tuzilgan nikoh;
- z) nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki orttirilgan immunitet taqchilligi sindromi (OITS) yoki (VICH infeksiya) borligini boshqasidan yashirgan bo‘lsa, shu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab etishga haqlidir.

Ayrim holatlarda oila qonunlarining bir qancha shartlarini buzib ham tuzilishi mumkin, bunday hollarda u haqiqiy emas deb topiladi. Masalan, fuqaro oldingi nikohdan ajrashmasdan turib, voyaga yetmagan shaxs bilan nikohdan o‘tgan hollar fikrimizning dalilidir:

a) nikoh tuzishning ixtiyoriyligi buzilishi. Nikoh uni tuzuvchi har bir tomonning erkin, o‘zaro roziligi asosida tuzilishi lozim. Rozilik o‘zga (ota-on, qon-qarindosh, mansabdor shaxs)larni majbur etishi yoki aldashi oqibatida berilgan bo‘lsa, ixtiyoriylik tamoyili buzilgani uchun, bunday nikoh haqiqiy emas, deb topilishi mumkin.⁹⁴

YUqorida ko‘rsatilganidek, nikoh tuzishda nikohga kiruvchilarining o‘zaro roziligi yo‘qligi nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘ladi. Bunda fuqaro (ko‘pincha ayollar) qo‘rqtish yoki zo‘rlash (majburlash), aldash tufayli nikohdan o‘tgan bo‘ladi. Fuqaroning erkiga va ongiga qonunsiz ta’sir etish natijasida u

⁹⁴ O‘zSSR Nikoh va oila kodeksiga sharhlar. T., “O‘zbekiston” 1975, 67-68-betlar.

nikohga o‘tishga majbur bo‘ladi, ammo haqiqatda esa u buni mutlaqo xohlamaydi. Natijada nikoh tuzilishining asosi hisoblangan o‘zaro xohish va rozilik tamoyili buzilgan bo‘ladi. Ko‘rsatilgan asos bo‘yicha bunday nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Qo‘rqitish uchinchi shaxs hamda mansabdor shaxs tomonidan ham bo‘lishi mumkin. Shuningden, Respublika Oliy Sudi Plenumining 1998 yil 11 sentabrdagi qarorida ko‘rsatilishicha: “Agar nikohga kiruvchining nikohni qayd etish vaqtida o‘z harakatlarining mohiyatini tushunmaganligi va ularni idora qila olmaganligi, shu sababli nikohga kirishga haqiqiy rozilagini ifoda eta olmaganligi aniqlansa ham nikoh haqiqiy emas deb topilishi mumkin”.⁹⁵

Respublikada xotin-qizlarni turmushga chiqishga majbur etish yoki, aksincha, o‘zi xohlagan shaxsga turmushga chiqishiga to‘sqinlik qilish hollari hamon uchramoqda.

Eski tuzumdan qolgan mahalliy joylarda shunday holatlarga qarshi kurashish uchun maxsus qonunlarda tegishli qoidalar belgilangan. Bunday holatlar nikohga o‘tishning o‘zaro rozilik shartini buzishga qaratilgan harakat deb tushuniladi.

Ayolni erga tegishga majbur etish yoki uning erga tegishiga to‘sqinlik qilish jinoyat hisoblanadi.

Adashish va aldash ham nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lishi mumkin. Biroq bunday holatlar zo‘rlikka nisbatan kamroq uchraydi. Bu maqsad yo‘lida kuyov yoki kelinning shaxsiy sifatlariga tegishli bo‘lgan holatlar bo‘yicha adashish, xususan, ularning xarakteri, sog‘lig‘i, ma'lumoti, xizmati, mulkiy, oilaviy holatlari yuzasidan beparvolik oqibatida yo‘l qo‘yan xatosi yoki aldash bilan bog‘liq bo‘lsa ham, uning ahamiyati bo‘lmaydi. Muhim tomoni shundaki, yanglishish nikohning o‘zi bo‘yicha bo‘lmay, balki nikoh tuzishning sababi bo‘yicha bo‘ladi. Masalan, kuyov kelinning ko‘z o‘ngida o‘z mavqyeini ko‘tarish uchun o‘zini katta mutaxassis sifatida ko‘rsatishi fikrimizga asos bo‘ladi;

b) nikoh yoshiga qo‘yilgan shartning buzilishi;

Oila kodeksining 51-moddasiga binoan nikoh yoshiga yetmagan shaxs bilan tuzilgan nikoh hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsnинг manfaatlari talab qilgan hollarda haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday nikohni haqiqiy emas deb topishni nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxs, uning ota-onasi yoki homiysi, shuningdek vasiylik va homiylik organi hamda prokuror talab qilishga haqlidir.

Er-xotindan biri nikoh yoshiga yetmaganligi tufayli nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ish, agar er-xotin (ulardan biri) ish sudda ko‘rilayotgan paytda nikoh yoshiga yetmagan bo‘lsa, vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko‘rib chiqiladi.

Ish sudda hal qilinish paytigacha er yoki xotin nikoh yoshiga yetgan bo‘lsa, nikoh faqat uning talabi bilan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

⁹⁵ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlarining to‘plami. 1991-1998.-T.: «Sharq»., 1999, 146-bet.

Nikoh yoshi sharti ko‘pincha fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi xizmatchilari o‘z vazifasini suiista'mol qilishi yoki nikoh tuzuvchilarning o‘zi tomonidan yoshi to‘g‘risida qalbaki hujjat berilishi natijasida buziladi.

Nikoh yoshiga to‘lماqan shaxs bilan tuzilgan nikoh hamma vaqt ham sud tomonidan haqiqiy emas, deb topilmaydi. Hali nikoh yoshiga yetmay nikohga kirgan shaxsning manfaatlari talab qilgan hollardagina sud bunday nikohni haqiqiy emas, deb topishi mumkin;

v) yakka nikohlilik tamoyilining buzilishi ham ushbu nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘lishi mumkin. Bunday asos sud amaliyotida boshqa asoslarga qaraganda ko‘p uchraydi. Ba’zi ma'lumotlarga ko‘ra, haqiqiy emas deb topilgan nikohlar ichida 97-98 foizini yakka nikohlilik tamoyiliga rioya etilmagan hollarda yuzaga kelgan ishlar tashkil etadi⁹⁶. Faqat yakka nikohda bo‘lish, axloq-odob normalari talablariga rioya qilinishi har tomonlama mustahkam oila qurish imkonini beradi. Oilaviy qonunlar nikohlanuvchilardan har birining faqat yakka nikohda bo‘lib, boshqa nikohda bo‘lmasligini talab etadi. Bu talab jamiyatdagi axloq-odob, shakllanayotgan milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalaridan kelib chiqadi. Shuning uchun bu axloqiy qoida qonun darajasiga ko‘tarilib, amaldagi qonunlardan tegishli o‘rin olgan.

Yakka nikohlilik tamoyili buzib tuzilgan nikohni haqiqiy emas, deb topish to‘g‘risidagi ariza birinchi nikohdan ajratilmagan er yoki xotin, shuningdek, ikkinchi nikohdagi tomonlardan birining talabiga asosan ko‘rib chiqiladi. Haqiqiy bo‘lماqan nikohda bo‘lgan shaxsning o‘limidan so‘ng sudga da‘vo bilan mazkur shaxsning vorislari (vafot etganning birinchi nikohdagi farzandlari, uning aka-ukalari, opa-singillari, ota-onalari va boshqalar), shuningdek, o‘lgan shaxsning nikohini haqiqiy emas, deb topishdan manfaatdor bo‘lgan boshqa shaxslar (moliya, ijtimoiy ta'minot organlari) murojaat etishi mumkin. Chunki nikohda bo‘lgan shaxs, agar u haqiqiy nikohda bo‘lsa, o‘ziga pensiya tayinlashni yoki uy-joyga bo‘lgan huquqini belgilashni talab qilishi mumkin.

Yakka nikohlilik tamoyilini to‘la va har tomonlama ta'minlash maqsadida oila qonunlarida bir qator qoidalar belgilangan. Ilgari nikohda bo‘lgan shaxslar qonuniy kuchga kirgan nikohdan ajralish haqidagi sudning hal qiluv qaroridan nusxa yoki nikohni haqiqiy emas, deb topish haqidagi sudning hal qiluv qarorini ko‘rsatgan holdagina yangi nikohni qayd etishlari mumkin;

g) Nikoh nasl-nasab shajarasi bo‘yicha to‘g‘ri tutashgan qarindoshlar o‘rtasida, tug‘ishgan va o‘gay aka-ukalar bilan opa-singillar o‘rtasida tuzilgan bo‘lsa ham haqiqiy emas deb topiladi.

Oila qonunlari bilan man etilgan yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikoh tuzilsa, u haqiqiy emas deb topiladi. Bunday asos bilan nikohni haqiqiy emas deb topish sud amaliyotida juda kam uchraydi. Buni tasdiqlaydigan holat qonunda nikoh tuzish uchun juda cheklangan qarindoshlik bosqichini belgilaydi. Umuman har xil bosqichdagi quda-andachilik esa nikoh tuzish uchun to‘sinq bo‘lmaydi;

⁹⁶ Qarang: Yurkevich N.G. “Brak i yego pravovoye regulirovaniye v SSSR. Avtoref. dok. diss., M., 1967, 24-bet.

d) muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Nikoh tuzuvchilar ruhan sog‘lom, muomala layoqatiga ega bo‘lishlari lozim.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 30-moddasiga binoan ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi oqibatida o‘z harakatlarining ahamiyatini tushuna olmaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan fuqaroni sud qonun hujjatlarida belgilab qo‘ylgan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topishi mumkin va bunday fuqaroga vasiylik belgilanadi.

Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro nomidan bitimlarni uning vasiyi amalga oshiradi.

Bunday ruhiy holat nikohdan o‘tuvchida huquqiy rasmiylashuviga qadar bo‘lishi lozim. Agar bunday holat nikohda turuvchilarda nikoh davrida ro‘y bersa, bu hol nikohni haqiqiy emas deb topish uchun asos emas, balki nikohdan ajralish uchun asos bo‘lib, nikoh ma’muriy tartibda ajratilishi mumkin.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tajribasida shunday hollar ham uchrab turadiki, ba’zan nikohdan o‘tuvchilardan birining to‘la muomala layoqatiga ega emasligi to‘g‘risida gumon qilinib, uni muomalaga layoqatsiz deb tan olganlik to‘g‘risida sudning hal qiluv qarori va, shuningdek, bu shaxsga vasiy yoki homiy tayinlanganligi to‘g‘risida ijroiya hokimiyatning qarori bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatda fuqarolik holatlari dalolatnomalarini yozish organi xodimlari o‘zlarining gumonlari to‘g‘risida sud organlariga xabar berishlari (ularni bu holdan ogoh etishlari va muomalaga layoqatsiz ekanligini belgilash hamda nikohni qayd etishni to‘xtatib turishlari mumkin), bu harakat juda ehtiyyotkorlik bilan amalga oshirilishi, asosli bo‘lмаган shubha bilan nikoh tuzuvchi har ikki shaxs ham ma’nnaviy iztirob chekmasliklari lozim.

Nikohga kiruvchilardan biri ruhiy kasal yoki aqli zaif bo‘lgan holda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilmagan bo‘lsa, nikohning haqiqiy emasligi haqida manfaatdor shaxslar da’vo qilishlari mumkin⁹⁷;

ye) nikohdan o‘tish vaqtida oila qurish maqsadining bo‘lmasligi, ya’ni soxta nikoh, haqiqiy bo‘lмаган nikoh deb topiladi.

Huquqshunos olimlarning ta’rifi bo‘yicha, soxta nikoh qandaydir moddiy manfaatlarni, ya’ni uy-joyli bo‘lish (propiska qilish) va boshqalarni maqsad qilib tuziladi.

Xorijiy mamlakatlarga borib ishslash uchun hujjatlarni rasmiylashtirishda ham qalbaki nikohlar haqidagi guvohnomalarni qo‘llash uchramoqda. Agar mutaxassis uylanmagan bo‘lsa, uzoq muddatga, ya’ni bir necha yilga xorijiy mamlakatlarga borib ishslash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun ham u chet mamlakatda ishlab topgan daromadining 20-25 foizini haqiqiy bo‘lмаган nikohga kirgan ayolga yuborish sharti bilan nikoh bitimi tuzadi.

⁹⁷ O‘z SSR Nikoh va oila kodeksiga sharhlar. T., “O‘zbekiston”, 1975, 67-68-betlar.

Soxta nikoh tuzish jamiyatdagi mayjud axloq-odob qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan harakat ekanligi shubhasiz. Soxta nikohni axloqsiz harakat deb hisoblab, uni yuridik jihatdan tan olmaslik qoida bilan mustahkamlagan.

Agar ish sudda ko‘rilgunga qadar soxta nikoh tuzgan shaxslar amalda oila qursalar, u holda bu nikoh haqiqiy emas deb hisoblanmaydi;

j) farzandlikka olgan bilan farzandlikka olingen shaxslar o‘rtasida tuzilgan nikoh haqiqiy emas deb topiladi.

Farzandlikka olgan bilan farzandlikka olingen o‘rtasida nikoh tuzishni man etish axloq-odob qoidalariidan kelib chiqadi. Chunki ular o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar kelib chiqishi bo‘yicha ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlarga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olish, agar bola amaldagi qonunlarda belgilangan huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaslik maqsadida (soxta farzandlikka olish) yoki qonunda belgilangan shartlarni buzib farzandlikka olingen bo‘lsa, u haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Farzandlikka olingen bolalar o‘zaro nikohga o‘tishlari mumkinmi, degan savolga yangi qonun rad javobini beradi. Demak, ular o‘zaro nikohga o‘tishlari mumkin. Ammo axloq-odob qoidalari yuzasidan qaraganda, ular o‘zaro nikohga o‘tishlari maqsadga muvofiq emas, chunki ular oilada aka-singil bo‘lib o‘sadilar. Shuning uchun ular o‘rtasidagi nikohni man etish lozim. Bu haqda yangi Oila kodeksida tegishli qoida berilmadi, endilikda bu holatni to‘ldirib, m’yoriy hujjatlarda tegishli qoida berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi;

z) nikohlanuvchi shaxslardan biri tanosil kasalligi yoki orttirilgan immunitet tahchilligi sindromi (OITS yoki VICH infeksiya) borligini boshqasidan yashirgan bo‘lsa, shu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topishni talab qilib sudga murojaat etishga haqlidir.

Bu qoida qonunchilikda yangilik hisoblanadi. O‘zida tanosil kasalligi yoki VICH infeksiya borligini boshqasidan yashirgan vaqtida nikohni haqiqiy emas deb topish masalasi bu kasal kimdan yashirilgan bo‘lsa, o‘shaning tashabbusi bilangina ko‘riladi. Bu bilan davlat, birinchidan, kasallikning oldini olib, boshqasini kasallikdan saqlab qolish, ikkinchidan, oila vazifasini bajara olmaydigan shaxs paydo bo‘lishining oldini olish, uchunchidan, keljak avlodni xavfdan saqlash maqsadini qo‘yadi.

5-§. Nikohni haqiqiy emas deb topish tartibi va uning oqibatlari

Nikohni haqiqiy emas deb topish sud tartibida amalga oshiriladi. Bunday munosabatlardan kelib chiqadigan talablarga nisbatan da‘vo muddati joriy qilinmaydi.

Amaldagi qonunlar har bir ishning aniq mazmuni va buzilgan shart, monelik qiladigan hollarning xarakteriga qarab da‘vo qilishi mumkin bo‘lgan shaxslar doirasini belgilaydi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da‘voni shaxsiy yoki jamoat manfaati bo‘lgan shaxs qilishi mumkin. Ular doirasiga nikoh tuzilishi tufayli

huquqi buzilgan er yoki xotin, nikohlanuvchilarning ota-onalari, vasiylik va homiylik organi va prokuror kiradi.

Keltirilgan asoslarga ko‘ra haqiqiy sanalmagan har bir nikohda aniq holatda bu to‘g‘rida da‘vo qiluvchi shaxslar doirasi belgilanadi.

Nikoh tuzish tufayli o‘zaro rozilik shartining buzilishi natijasida majbur etilgan ayolning shaxsiy manfaati buziladi. Shuning uchun majburlash kimga nisbatan qo‘llanilgan bo‘lsa, bu shaxs nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da‘vo qilishi mumkin. Ammo, ushbu holatda jamoat manfaati buzilganligi uchun da‘vo prokuror tomonidagi ham qilinishi mumkin. Nikoh tuzgan ayol nikoh yoshiga yetgan bo‘lsa, uning o‘zi, ota-onasi yoki vasiy (homiy) va prokuror nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da‘vo qilishi mumkin.

Soxta nikoh tuzilganda, uni haqiqiy emas deb topish haqida prokuror yoki er-xotindan biri da‘vo qilishi, oila qurishni maqsad qilmay nikohga o‘tilgan holatda esa aldangan tomon nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida da‘vo qilishi mumkin.

Ruhiy kasal yoki aqli zaif shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi da‘voni muomalaga layoqatsiz shaxsning ota-onasi, vasiylik va homiylik organi yoki prakuror qilishi mumkin. Chunki ularga muomalaga layoqatsiz shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vazifasi yuklatilgan.

Amaldagi qonunlarga asosan, ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi sababli sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxs bilan tuzilgan nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risidagi ishlar vasiylik va homiylik organining ishtirokida ko‘riladi.

Farzandlikka olinganlarning manfaatlari talab qilgan hollarda farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va bekor qilishga yo‘l qo‘yiladi.

Oila kodeksining 155-moddasiga binoan o‘n yoshga to‘lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi.

Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanadi.

Farzandlikka olish haqiqiy emas deb topilganda yoki farzandlikka olish bekor qilinganda, bola sudning hal qiluv qarori bilan ota-onasiga olib beriladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish bo‘yicha ko‘riladigan ish nikohdan ajralishdan ishning ko‘rishi tartibi bo‘yicha ham farq qiladi.

YUqorida aytilganidek, nikohni haqiqiy emas deb topish faqat sudning hal qiluv qarori bilan hal qilinsa, nikohdan ajralish esa sud va ma’muriy tartibda ham hal qilinadi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish to‘g‘risida er-xotinlarning o‘zları (yoki ulardan birortasi), shuningdek bundan manfatdor bo‘lgan shaxslar bir qator asoslarga ko‘ra (birinchi nikohdagi er-xotindan bittasi yoki uning nomidan prokuror va vasiylik organi) da‘vo qilishi mumkin.

Bu belgi bilan nikohni haqiqiy emas deb topish nikohdan ajralishdan farq qiladi, chunki nikohdan ajralish haqida ish faqat er-xotinlarning yoki ulardan birining tashabbusi bilan qo‘zg‘atiladi. Bundan tashqari nikohni haqiqiy emas deb

topish er-xotinning tiriklik vaqtida hamda (nikohdan ajralishdan farq qilib) ularning o'limidan so'ng (ayniqsa, agar da'vening maqsadi meros yoki pensiya olish bo'lsa) yo'l qo'yiladi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish haqida sud chiqargan hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirkach, o'n kun ichida ko'chirma nikoh tuzilganligi ro'yxatga olingan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga yuboriladi.

Nikohni tuzishdagi amaldagi oila qonunchiligidagi belgilangan shartlar buzilgan va monelik qiladigan holatlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday nikoh ajralish yo'li bilan tugatilgandan keyin ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Chunki haqiqiy bo'limgan nikoh oqibatlari ajralish yo'li bilan tugatilgan nikoh oqibatlaridan bir qatar masalalarda farq qiladi. Nikoh haqiqiy emas deb topilganda uning kuchi tugallanadi, deb aytish to'g'ri bo'lmaydi. Bu ibora davlat tomonidan tan olingan huquq bilan tartibga solingenan nikoh ittifoqiga nisbatan o'rinnlidir. Haqiqiy bo'limgan nikoh qonunni buzib tuzilgan nikoh hisoblanib, uning natijasida bir qator huquqiy oqibatlar kelib chiqishi mumkin.

Amaldagi qonunlar nikohni haqiqiy emas deb topishning aniq huquqiy oqibatlarini belgilaydi.

Oila kodeksining 55-moddasiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilgan nikoh tuzilgan vaqtidan boshlab haqiqiy emas deb hisoblanadi.

Nikohni haqiqiy emas deb topish oqibati shaxsiy va mulkiy huquqlardan iborat bo'ladi.

Insofli er (xotin) nikoh haqiqiy emas deb topilganda, nikoh tuzish davlat ro'yxatiga olingan vaqtida tanlagan familiyasini saqlab qolishga haqlidir.

Nikohi haqiqiy emas deb topilgan shaxslarning mulkiy huquqiy munosabatlari Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Shunday qilib, vujudga kelgan ba'zi bir mulkiy munosabatlari er yoki xotindan biri insofli bo'lganda u to'la bekor qilinmay, faqat o'zining ikki taraflama majbur etuvchi xarakterini yo'qotadi. Ular insofli er yoki xotinning huquqi bo'lib qolib, aybdorda esa majburiyat bo'lib qoladi.

Oila kodeksi 56-moddasining 3-bandiga binoan nikohning haqiqiy emas deb topilishi shunday nikohdan tug'ilgan yoki nikoh haqiqiy emas deb topilgan kundan keyin uch yuz kun ichida tug'ilgan bolalarning huquqlariga ta'sir etmaydi.

Haqiqiy bo'limgan nikohning vujudga kelmagan nikohdan farqini bilmox lozim.

Nikoh tuzish uchun belgilangan tartib buzilib, nikoh qayd etilsa, bunday nikoh vujudga kelmagan nikoh hisoblanadi hamda uning vujudga kelmaganligi va haqiqiy emasligi sud tomonidan belgilanadi. Ariza berilgandan so'ng bir oylik muddatga rioya qilmaslik, nikohni rasmiylashtirish huquqi bo'limgan shaxs tomonidan nikohni rasmiylashtirish va boshqalar. U tuzilgan vaqtidan boshlab nikoh tuzuvchilarda hyech qanday huquq va majburiyatlarni vujudga keltirmaydi. Masalan, nikoh tuzuvchi er-xotindan bittasining ishtirokisiz, ariza bergandan so'ng bir oylik muddatga rioya qilmaslik, nikohni rasmiylashtirishga huquqi bo'limgan shaxs tomonidan nikohni qayd etish va boshqalar.

VII Mavzu. Er va xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari

1-§. Er va xotinning huquq va majburiyatlarining vujudga kelishi

Er-xotin o‘rtasidagi munosabat qanchalik barqaror bo‘lsa, oila ham shunchalik mustahkam bo‘ladi, bolalarni tarbiyalash ishi to‘g‘ri olib boriladi. Binobarin, mamlakatimizda insonparvar, demokratik huquqiy davlatni qurishga o‘tish davrida nikoh munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan huquqiy normalarning ahamiyati tobora oshib borayotgani tabiiydir.

Nikoh fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organida ro‘yxatdan o‘tkazilgan vaqtidan boshlab nikoh tuzuvchilar er-xotin hisoblanadilar va shu paytdan boshlab ular o‘rtasida er-xotinlik huquq va majburiyatları vujudga keladi. Endi ular o‘rtasidagi munosabatlar axloq-odob qoidalari bilangina emas, balki qonunlar, huquqiy qoidalari bilan ham tartibga solinadi. Bunda xotin-qizlar siyosiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo‘lganlaridek, oilada ham barcha shaxsiy va mulkiy masalalarda erkaklar bilan teng huquqlardan foydalanadilar va bab-baravar majburiatlarga egadirlar. Bu qoida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan. Er-xotinning qayd etilgan nikohi natijasida vujudga kelgan huquq va majburiyatları ikki xil-shaxsiy va mulkiy bo‘ladi. Shaxsiy huquqlarning ko‘pi er-xotinning nikoh tufayli yuzaga keladigan huquqi kabi, nikohga o‘tgunga qadar ham ularga tegishli bo‘ladi. Masalan, familiya tanlash huquqi, bolalar tarbiyasi va oila-turmush masalalarini hal qilish, mashg‘ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari shular jumlasidandir. Bunday holatlarda ularning mehnat va fuqarolik huquqi muomala layoqatining elementi bo‘lib, oila huquqi sohasiga kirmaydi. Nikoh qayd etilgan paytdan boshlab shaxsiy huquqlar er va xotindan har birining subyektiv oila huquqini tashkil etadi hamda faqat oilaviy-huquqiy munosabatda namoyon bo‘ladi. Demak, u, faqat shu ma’noda oilaga oid qonun hujjatlari bilan himoya qilinadi. Er-xotinning har biriga tegishli bo‘lgan shaxsiy huquq va majburiyatlar faqat oila huquqi bilangina emas, balki huquqning boshqa sohalari bilan ham tartibga solinadi.

Fuqarolarning sha'ni va qadr qimmati O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 20-moddasiga muvofiq qo‘riqlanadi.

Oilaviy munosabatlarda er-xotining shaxsiy huquqlari mulkiy huquqlariga nisbatan ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, ularning hajmi, mazmuni, xarakteri er va xotinning oilaviy huquqiy munosabatlarda qatnashuvchi sifatidagi huquqiy holatini belgilab beradi.

2-§. Oilada er va xotinning teng huquqliligi

Bizning jamiyatimizda ular ayol bilan erkakning oilaviy munosabatlarda teng huquqliligi belgilangan. Bu tamoyil to‘la amalga oshiriladi va moddiy ta‘minlangan. Er-xotin mulkiy huquqqa tegishli bo‘lmagan shaxsiy huquqlariga oid barcha masalalarni birgalikda hal qiladilar. Ular oilada hamma shaxsiy huquqlarda tengdirlar.

Amaldagi qonunlar turmushga chiqqan ayolni muomala layoqatida hyech qanday cheklamaydi, uni eriga bo‘ysundirib, qaram qilib ham qo‘ymaydi. Barcha huquqiy munosabatlarda er-xotin huquqning teng subyekti hisoblanib, ularga babbavar huquqlar beriladi va tegishli majburiyatlar ham yuklanadi. O‘zbekistonda er va xotin rasmiy jihatdangina emas, balki oilada ham teng huquqqa egadir. Oila huquqiga asosan er-xotin umumiy xo‘jalik ishlarini birgalikda, o‘zaro hamjihatlik asosida olib boradilar. Ular bir-birlariga ma’naviy yordam berib, ko‘makdosh bo‘lib yashaydilar, hamma masalalarni bamaslahat hal qiladilar. Biroq er-xotindan birining shaxsiy huquqini amalga oshirishga muntazam halaqit berish (masalan, arning yoki xotinning mashg‘ulot turi, kasb tanlashiga halal yetkazish), shaxsiy huquqlarni amalga oshirishni suiiste'mol qilish, oila manfaatlariga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar nikohdan ajralishga olib kelishi mumkin.

3-§. Er va xotinning familiyasi

Familiya tanlash huquqi er-xotining muhim shaxsiy huquqlaridan hisoblanadi.

Oil a kodeksini 20-moddasiga binoan, “Nikoh tuzish vaqtida er va xotin o‘z xohishi bilan eri yoki xotinining familiyasini umumiy familiya qilib tanlaydi yoki ularning har biri nikohgacha bo‘lgan o‘z familiyasini saqlab qoladi.

Er va xotindan birining o‘z familiyasini o‘zgartirishi boshqasining ham familiyasi o‘zgarishiga olib kelmaydi”.

Keyinchalik familiyani o‘zgartirishga faqat umumiy asoslarda, qonunda belgilangan hollarda yo‘l qo‘yiladi.

Agar nikohni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqtida nikohga o‘tuvchilar o‘zlarining nikohga qadar bo‘lgan familiyalarida qolgan bo‘lsalar, keyinchalik esa ular eri yoki xotinining familiyasiga o‘tishni xohlasalar, bu masala qonunda belgilangan tartibda- fuqarolarning familiyasi, ismi va otasining ismini o‘zgartirish tartibida hal qilinadi⁹⁸.

Nikohga o‘tuvchilarga ularning familiya tanlash huquqlarini tushuntirib berish nikohni qayd etuvchi mansabdor shaxsning majburiyati hisoblanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi tarkibiga kirgan davlatlar qonunchilik tajribasida er-xotinlar qo‘sh familiyada, ya’ni er va xotinning familiyasida bo‘lishi ham bor. Biroq qo‘sh familiya uncha tushunarli bo‘lmaganligi va noqulayligi, bunday familiyani, ayniqsa tug‘ilish, nikoh, o‘limni qayd etish vaqtida yozish qiyinligi, buning ustiga qo‘sh familiya ommalashmaganligini hisobga olib, bu tajribadan foydalanish maqsadga muvofiq emas degan fikrga kelindi⁹⁹.

Demak, respublika hududida nikohni qayd etuvchi fuqarolar er-xotinning qo‘sh familiyasini umumiy familiya qilib tanlab olmaydilar, chunki, amaldagi qonunda bunday qoida mavjud emas.

⁹⁸ “Xalq so‘zi”, 1991 yil 16 iyul.

⁹⁹ Muhamedov R. Oilada er-xotinning huquqiy munosabatlari., T., 1975., 97-bet.

4-§. Er va xotinning bolalar tarbiyasi va oila turmushi masalalarini hal qilishi

Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning boshqa masalalarini er-xotin tomonidan birgalikda hal qilinadi. Er-xotin nikohdan o'tar ekan, oila quvonchi va tashvishlarini birga tortishga, va oila baxt-saodati uchun birgalikda mehnat qilishga ahdlashadilar.

Er-xotin o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdir. Oilaviy turmushning hamma masalalari, - umuman, oila manfaatlari va, ayniqsa, voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini nazarga olgan holda, er-xotin tomonidan o'zaro rozilik asosida birgalikda hal etiladi.

Amaldagi qonun hujjatlarida homilador ayol hamda kasal er yoki xotinning manfaatlarini qo'riqlash va ta'minlashga alohida e'tibor beriladi.

Bolalar tarbiyasi va oilaviy turmushning ayrim masalalari hal qilishda rozilik bo'lmasa, er-xotindan har biri yoki ularning ikkalasi birgalikda vujudga kelgan nizoni hal qilish uchun tegishli davlat organiga murojaat etish huquqiga egadirlar. Vujudga kelgan nizoning qaysi organ tomonidan hal qilinishi qonunda belgilangan. Nizoning xarakteriga qarab, bunday organlar tarkibiga sud, vasiylilik va homiylik organi kiradi.

Er-xotin o'rtasida bolalar tarbiyasiga oid nizolar, bolalarga familiya yoki ism berish masalasidagi kelishmovchilik vasiylilik va homiylik organi tomonidan hal qilinadi.

Respublika sudlari ota-onalar o'rtasidagi bolalarga doir nizolarni to'g'ri hal qilishga amaldagi oila qonunlari bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi plenumining 1998 yil 11 sentabrda chiqargan "Bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo'llash amaliyoti to'g'isida"gi 23-sonli qarori¹⁰⁰ dasturiy ko'rgazmasiga asoslanishi lozim. Bu hujjat bolalarning tarbiyasi bilan bog'liq nizolarning sudlar tomonidan to'g'ri hal etilishini, ota-onalar va bolalar huquqlarining muhofazasini, ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalashdagi mas'uliyatlari oshirilishini ta'minlashga imkoniyat tug'diradi, ota-onalarning bolalari manfaatlariga zid kelishi mumkin bo'lgan xattiharakatlardan foydalanishlariga barham beradi, voyaga yetmaganlarning qonunbuzarliklari oldini olish choralaridan hisoblanadi.

5-§. Er va xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joy tanlash huquqlari

"Er-va xotinning har biri mashg'ulot turi, kasb va turish hamda yashash joyini tanlashda erklidir".

Oila kodeksining 22-moddasida belgilab qo'yilgan mazkur qoida er-xotinning birgalikda oilaviy masalalarni hal qilishdagi huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Oilada mashg'ulot turi, kasb tanlash masalalari kelishilgan holda hal qilinadi. Ammo bu masalalarni uzil-kesil hal qilish huquqi er-xotinning har biriga tegishli bo'ladi.

¹⁰⁰ O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumi qarorlarining to'plami. 1991-1998. T.: «Sharq», 1999., 110-127-betlar.

Er-xotin o'rtasidagi, ulardan birining huquqi va sha'nini kamsitadigan xattiharakatlar huquqiy ahamiyatga ega bo'lmaydi. Er-xotindan har biri qiziqishi, xislati, ijodiy qobiliyati, jismoniy rivojlanishiga qarab, o'ziga mos keladigan faoliyat turini tanlaydi. Er yoki xotin tanlagan kasb uni qanoatlantirib, oila ta'minoti uchun mablag' topishga xizmat qilishi lozim. Er-xotindan birining tekinxo'rlik bilan kun kechirishi, oilaning moddiy ta'minotida o'z mehnati bilan ishtirok etmasligi ham nikohdan ajralish uchun asos bo'lishi mumkin.

Er-xotinning erkin kasb tanlash huquqi qonun bilan mustahkamlangan. Bu er-xotin o'z kasbi masalalarini (o'quv yurtida va kurslarda o'qishi, to'garaklarda ishtirok etishi va boshqalar) mustaqil ravishda hal qilishni anglatadi. Bu masalalar voyaga yetmagan bolalar manfaatlarini hisobga olib hal qilinadi.

Er-xotinning birga yashashi bolalarni tarbiyalash, mustahkam oila qurish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Qonun har bir er-xotinga qayerda yashashni erkin hal qilish huquqini berib, bir yo'la ularni rag'batlantiradi. Qonunchilik bunday maqsadlarga ko'maklashib, ulardan birortasi asosiy ish joyidan ko'chadigan bo'lsa, yo'l puli to'lash, o'quv yurtini tamomlagan mutaxassislarni ishga taqsimlashda ularni yashab turgan joyida ishda qoldirish va boshqa masalalarni hal etish tartibini belgilaydi.

Nikohda bo'lish aslo er-xotinning birga turish majburiyatini vujudga keltirmaydi. Undan tashqari, er-xotindan birortasining, ikkinchi tomon uchun ham, - agar u bunga rozi bo'lmasa, - shunday huquqiy oqibatni vujudga keltirmaydi.

Er-xotinning turar joyiga qarab, ularning voyaga yetmagan farzandlari turar joylari belgilanadi.

VIII Mavzu. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatları

1-§. Er va xotinning umumiyl mulki

Er va xotinning oilaviy munosabatlarda teng huquqliligi va bab-baravar majburiyatlarga ega ekanligi mulkiy munosabatlarda ham o‘z ifodasini topgan.

Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlariga iqtisodiy mazmundagi masalalar kiradi. Er-xotinning birgalikdagi umumiyl mulkiga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatları, er-xotinning har birini alohida xususiy mulkiga bo‘lgan huquq va majburiyatları, o‘zaro moddiy ta‘minotdagi aliment huquq va majburiyatları shular jumlasidandir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lishi, uning bozor iqtisodiga o‘tishi, tadbirkorlik faoliyatiga keng o‘rin berilishi bu masalada ham amaldagi oila qonunchiligiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini taqozo etdi. Chunki qonun bugungi kun talablariga to‘la javob berishi lozim.

Oila kodeksining 23-moddasiga binoan “Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri, shuningdek nikoh qayd etilgunga qadar, bo‘lajak er-xotinning umumiyl mablag‘lari hisobiga olingan mol-mulkleri, agar qonun yoki nikoh shartnomasida boshqacha hol ko‘rsatilmagan bo‘lsa, ularning birgalikdagi umumiyl mulki hisoblanadi.

Er va xotinning nikoh davomida orttirgan mol-mulkleri jumlasiga (er va xotinning umumiyl mol-mulkiga) er va xotin har birining mehnat faoliyatidan, tadbirkorlik faoliyatidan va intellektual faoliyat natijalaridan orttirgan daromadlari, ular tomonidan olingan pensiyalar, nafaqalar, shuningdek maxsus maqsadga mo‘ljallanmagan boshqa pul to‘lovlari (moddiy yordam summasi, mayib bo‘lish yoki salomatligiga boshqacha zarar yetkazish oqibatida mehnat qobiliyatini yo‘qotganlik munosabati bilan yetkazilgan zararni qoplash tarzida to‘langan summalar va boshqalar) kiradi. Er va xotinning umumiyl daromadlari hisobiga olingan ko‘char va ko‘chmas ashyolar, qimmatli qog‘ozlari, paylari, omonatlari, kredit muassasalariga yoki boshqa tijorat tashkilotlariga kiritilgan kapitaldagi ulushlari hamda er va xotinning nikoh davomida orttirgan boshqa har qanday mol-mulkleri, ular er yoki xotindan birining nomiga rasmiy lashtirilgan yoxud pul mablag‘lari kimning nomiga yoki er va xotinning qaysi biri tomonidan kiritilgan bo‘lishidan qat‘i nazar ular ham er va xotinning umumiyl mol-mulkı hisoblanadi.

Er va xotindan biri uy-ro‘zg‘or ishlarini yuritish, bolalarni parvarish qilish bilan band bo‘lgan yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra mustaqil ish haqi va boshqa daromadga ega bo‘lmagan taqdirda ham er va xotin umumiyl mol-mulkka nisbatan teng huquqqa ega bo‘ladi”.

Er-xotindan har birining sovg‘a sifatida nikoh tuzishdan keyin olgan mulkleri, jumladan, to‘y munosabati bilan yoki to‘ydan keyin olgan sovg‘alari, agar ular umumiyl foydalanish buyumlaridan iborat bo‘lsa, er-xotinning birgalikdagi umumiyl mulki tarkibiga kiradi.

Nikohni tegishli tartibda qayd ettirmasdan turib er-xotin bo‘lib yashash ularning mulkini birgalikdagi umumiyl mulk deb topish uchun asos bo‘lmaydi.

Nikohni qayd ettirmagan holda bir oila bo‘lib yashagan shaxslarning mulkiy munosabatlari fuqarolik qonunlari normalari bilan tartibga solinadi.

1944 yil 8 iyulga qadar er-xotin bo‘lib yashaganlarning orttirgan mulklariga nisbatan bo‘lgan munosabatlar bu qoidadan mustasnodir.

Er-xotinning tekinga olgan mulklari, jumladan, to‘y munosabati bilan olgan sovg‘alar (to‘ydan keyin o‘tkaziladigan marosimlardan olgan sovg‘alari), agar ular umumiyl foydalanish buyumlaridan iborat bo‘lsa, er-xotinning birgalikdagi umumiyl mulki tarkibiga kiradi.

Agar er-xotinning har biriga tegishli bo‘lgan mulkiga nikohlari davomida shu mulkning qiymatidan ancha oshiq mablag‘ sarflanganligi (qayta ta’mirlash, qo‘sishimcha qurilish qilish, qayta o‘zgartirish va h.k.) aniqlansa, bu mulk er-xotinning birgalikdagi umumiyl mulki deb topilishi mumkin.

Fermer xo‘jaligi va dehqon xo‘jaligi a’zolarining birgalikdagi mulki bo‘lgan mol-mulkka nisbatan er va xotinning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish huquqlari fermer xo‘jaligi va dehqon xo‘jaligi to‘g‘risidagi qonunlarda belgilanadi.

Fermer xo‘jaligi va dehqon xo‘jaligining mol-mulkini bo‘lish O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 223 va 225-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar asosida amalga oshiriladi.

Er va xotinning majburiyatları bo‘yicha haq undirish faqat uning mol-mulkiga qaratilishi mumkin.

Er va xotinning umumiyl mol-mulki hisobidan o‘rtadagi voyaga yetmagan bolalar nomiga qo‘yilgan omonatlar o‘sha bolalarga tegishli hisoblanib, er-xotinning umumiyl mol-mulkini bo‘lish paytida e’tiborga olinmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining “Sudlar tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko‘rishda qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida” gi 1998 yil 11 sentabrdagi 22-son qarorida¹⁰¹ ko‘rsatishicha, “Er va xotinning umumiyl mol-mulkini bo‘lishda hamda ularning shu mol-mulkdagi ulushlarini aniqlashda, agar er va xotin o‘rtasidagi nikoh shartnomasida boshqacha hol nazarda tutilmagan bo‘lsa, er va xotinning ulushlari teng hisoblanadi.

Sud voyaga yetmagan bolalarning manfaatini yoki er-xotindan birining e’tiborga sazovor manfaatlarini hisobga olib, jumladan, agar er yoki xotin uzsiz sabablarga ko‘ra daromad olmagan bo‘lsa yoki er va xotinning umumiyl mol-mulkini oila manfaatlariga zarar yetkazgan holda sarflagan bo‘lsa, er va xotinning umumiyl mol-mulkidagi ulushlari tengligidan chekinishga haqlidir”.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 210-moddasiga muvofiq, sud mol-mulkni natura tarzida undirish to‘g‘risida chiqargan hal qiluv qarorida, agar hal qiluv qarorini ijro etish vaqtida mazkur mulk naqd bo‘lmasa, javobgardan undirib olinishi lozim bo‘lgan mulk qiymatini ko‘rsatadi.

¹⁰¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarining to‘plami. 1991-1998., T.: «Sharq», 1999. 142-bet.

2-§. Er va xotinning har birining xususiy mulki

Oila kodeksining 25-moddasiga muvofiq er va xotinning nikohga qadar o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulki, shuningdek ulardan har birining nikoh davomida hadya, meros tariqasida yoki boshqa bepul bitimlar asosida olgan mol-mulki ulardan har birining o‘zining xususiy mulki hisoblanadi.

Nikoh davomida er va xotinning umumiy mulki yoki ulardan har birining mol-mulki yoki er va xotindan birining mehnati hisobiga mol-mulkning qiymati ancha oshishiga olib kelgan mablag‘lar (kapital ta'mirlash, qayta qurish, qayta jihozlash va boshqalar) qo‘shilgani aniqlansa, er yoki xotindan har birining mol-mulki ularning birgalikdagi mulki deb topilishi mumkin”.

Er yoki xotindan faqat bittasiga tegishli bo‘lgan va u tomonidan tasarruf etiladigan mulk xususiy mulk hisoblanadi.

Xususiy mulkka quyidagilar kiradi:

er yoki xotinning nikohga qadar o‘zlariga tegishli bo‘lgan mulki (masalan: uy, uy jihozlari, omonat kassasiga qo‘yilgan pul, qimmatbaho qog‘ozlar va boshqalar);

nikoh davomida hadya yoki meros tariqasida olgan mulklari;

to‘y sovg‘alari, agar ular er yoki xotindan birining shaxsiy foydalanishi uchun mo‘ljallangan bo‘lsa (qimmatbaho va serhasham buyumlar bundan mustasno);

er yoki xotin tomonidan olingen Davlat mukofotlari va sovg‘alar (masalan, oltin soat, mototsikl, mashina va boshqalar);

er-xotinning nikoh tuzishga qadar olgan hadyalari (kelinning sepi va hokazolar), bu buyumlardan turmushda birgalikda foydalanishdan qat‘i nazar, ularning birgalikdagi umumiy mulki tarkibiga kirmaydi;

er-xotinning biriga nikohga qadar tegishli bo‘lgan yoki u nikoh davomida hadya yoxud meros tarzida olgan ko‘chmas mol-mulk, jumladan, uy-joy nikoh davomida er-xotindan birining yoki ikkalasining mablag‘lari hisobiga kapital ravishda ta'mirlanganligi yoki qayta qurilganligi sud tomonidan aniqlangan taqdirdagina er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki deb hisoblanishi mumkin.

3-§. Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lish

Er va xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishda avvalo er-xotinning har biriga tegishli bo‘lgan xususiy mulk belgilab olinadi. Keyinchalik esa umumiy mulordan qaysilari er-xotindan qaysi biriga tegishli ekanligi aniqlanadi. Shunday hollarda, ular o‘rtasida mulk teng hissada bo‘linsa, er-xotindan bittasiga qimmati boshqasiga tegishli bo‘lgan mulordan oshiqroq ashyo berilsa, ikkinchi tomonaga farqi doirasida tegishli pul summasi berilishi lozim. Qonun sudni masalani bunday asosda hal qilishga majbur etmaydi. Pul summasini undirib berish masalasini ko‘rayotganda sud ishning aniq sharoitiga qarab (er-xotin har birining moddiy va boshqa oilaviy holatlarini inobatga olib) hal qiladi. Bunday holatda er-xotindan bittasiga birgalikdagi umumiy mulk tarkibiga kirgan uyning qismi uchun pul to‘lash belgilansa, u egallagan xonani bo‘shatib berishi lozim.

Mulkdor o‘z mulkiga nisbatan egallash, foydalanish va tasarruf qilish huquqlariga ega. Agar er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki nikohdan ajralish vaqtida bo‘linmagan bo‘lsa, bunda er-xotindan biri amalda faqat mulkka nisbatan egalikdan mahrum bo‘lmasdan, undan foydalana olmasligi ham mumkin. Shunday qilib, ajralish er-xotinlarga yoki ulardan biriga ularning qonuniy huquqini amalga oshirishga muqarrar ravishda ta’sir qilishi mumkin. Bu to‘g‘rida u bilganligi uchun, er-xotinlarga umumiy mulk huquqi asosida tegishli bo‘lgan mulkni bo‘lish uchun belgilangan uch yillik da’vo muddati nikoh tugagan vaqtdan, ya’ni ajralish haqida sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan so‘ng hisoblanishi lozim.

4-§. Er va xotinning shaxsiy va umumiy qarzlariga javobgarligi

Er-xotindan birining qarzi uchun haq uning o‘z xususiy mulkidan, er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki bo‘lganida esa unga tegishli bo‘lgan hissadan undirilishi mumkin.

Umumiy qarz er-xotinning ikkalasi yoki ulardan bittasi (ikkinchini tomon bilan kelishilmagan bo‘lsa-da), yoki butun oila manfaatiga qaratilgan bo‘ladi.

Shaxsiy qarzlar esa bunday belgilarga ega bo‘lmaydi. Qarzlar bo‘yicha javobgarlik er-xotinning umumiy mulkini bo‘lishda, undan tashqari ham bo‘lishi mumkin.

Er-xotinning voyaga yetmagan bolalari harakatlari tufayli zarar ko‘rgan tomonning talabi er-xotinning mulkidan haq undirishning alohida turi hisoblanadi. Ota-onalarning moddiy javobgarlik masalasi fuqarolik qonun hujjatlari normalari asosida hal qilinadi.¹⁰²

Keltirilgan zararni er-xotindan bittasini xususiy mulkidan, shuningdek ularning birgalikdagi umumiy mulkidan undirish mumkin. Masalan, agar er-xotin qayd etilgan nikohda bo‘lib, alohida yashayotgan bo‘lsalar, ularning voyaga yetmagan bolalari moddiy zarar keltirsa, bu holat ulardan birining aybi bilan bevosita bog‘liq bo‘lsa, uning xususiy mulkidan yoki unga tegishli umumiy mulkidan haq undirish mumkin. Biroq er-xotinning nikohdan ajralib alohida yashashi yoki ota-onalarning bolalardan alohida yashashi er-xotinning yoki ulardan birining voyaga yetmagan o‘z bolalari keltirgan zararni to‘lashdan ozod qilish uchun asos bo‘lmaydi.

Agar nizo chiqsa, sud bola keltirgan zarar uchun ota-onaning har ikkalasini ham javobgar qilib, yetkazilgan moddiy zararni ularga to‘latishi mumkin. Aksariyat hollarda esa bola keltirgan zarar uchun bola bilan birga yashaydigan ota yoki ona javobgar hisoblanadi. Er-xotinning birgalikdagi umumiy mulki hisoblangan mulkidan haq undirishga, ulardan bittasi tomonidan sodir qilingan jinoyat tufayli keltirilgan zararni undirishga, agar bu mulk jinoyat sodir qilish yo‘li bilan topilgan mablag‘ga olinganligi aniqlansa va bu jinoyat sodir

¹⁰² Kuznetsova L.G, Shevchenko YA.N. “Grajdansko-pravovoye polojeniye nesovershennoletnix”, “Yuridicheskaya literatura”. M., 1969, 109, 122-125-betlar.

qilishda ayblangan er yoki xotinning aybdorligi jinoyat ishi bo'yicha sudning hukmi bilan aniqlangan bo'lsa, yo'l qo'yiladi.

Zararni undirish to'g'risidagi da'veni ko'rayotgan sud er-xotindan har biri keltirgan zararning aniq miqdorini belgilash masalasini hal qiladi.

Sud bunday ishlarni ko'rishda, avvalo, er-xotinning birgalikdagi umumiyl mulkdagi tegishli qismini aniqlab, qarzdorga tegishli bo'lган mulkni belgilaydi. Shundan so'ng, agar bunga yetarli asos bo'lsa, ikkinchi tomonga tegishli mulklar xatdan chiqariladi.

IX Mavzu. Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi

1-§. Nikoh shartnomasi tushunchasi

Oila kodeksida er-xotinlarning mulkiy huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalarda ham bir qator o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Avvalo, bu o‘zgarishlar, yangiliklar mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi tamoyillarda ifoda etiladi.

Er-xotinning qonuniy tartibdagi mulki ularning qonun hujjatlarida belgilangan imperativ normalar bilan tartibga solingan mulkidir.

Imperativ normalar bilan tartibga solinadigan, er-xotinning kelishuvi bilan o‘zgartirib bo‘lmaydigan ularning mol-mulkining qonuniy tartibi bilan birga ularning dispozitiv normalar bilan tartibga solinadigan mol-mulkining shartnomaviy tushunchasi ham mavjud.

Yangi Kodeksga er-xotinlarning qonuniy mulkidan tashqari II bo‘lim 6-bobni 29-36-moddalarida belgilangan “Er va xotin mol-mulkining shartnomaviy tartibi” ham kirib keldi. Bu qoidani qonunchilikka kirib kelishining sababi bozor iqtisodiyotini yanada chuqurlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va xususiy mulkchilik mavjudligi bilan bog‘liq.

Nikoh shartnomasi deb, nikohlanuvchi shaxslarning yoki er va xotinning nikohda bo‘lgan davrida va (yoki) er va xotin nikohdan ajratilgan taqdirda ularning mulkiy huquq va majburiyatlarini belgilovchi kelishuviga aytiladi.

Yangi Oila kodeksi loyihasini tayyorlashda er-xotin mulkining qaysi biri to‘g‘ri degan masala tug‘ildi. Shunda hyech qanday shubhasiz birgalikdagi umumiyligini eng maqbul deb topildi.

Er-xotinning qonuniy mulk tartibining mavjudligi er-xotinning nikoh shartnomasini tuzishlari shart emasligini anglatadi. Statistika ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, hatto nikoh shartnomasi anchadan beri mavjud bo‘lgan davlatlarda ham nikoh shartnomasini ko‘pchilik aholi tuzayotgani yo‘q.

Barcha fuqarolar uchun bir xil huquq va erkinliklarni ifodalab bergan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi nikoh shartnomasining asosi hisoblanadi. Uning birdan-bir sharti, uni amalga oshirishning kafolati boshqa shaxslarning huquq va erkinliklari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Er-xotinning birgalikdagi umumiyligini mol-mulkiga shartnomaviy munosabatlar tatbiq etilishi umumiyligini tartibda O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 216-moddasi 1-bandida belgilangan. Oila huquqining normalari esa ularni har taraflama kengaytirib bergan- nikoh shartnomasining huquqiy tabiat; uni tuzish shakli; nikoh shartnomasining mazmuni; uni o‘zgartirish, tasarruf etish, haqiqiy emas deb topish asoslardan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 353 -moddasi 1-bandiga asosan “Ikki yoki bir necha shaxsning fuqarolik huquqlari va burchlarini vujudga keltirish, o‘zgartirish yoki bekor qilish haqidagi kelishuvi shartnoma deyiladi”. Umumiyligini ko‘rinishda bunday ta’rif nikoh shartnomasiga ham tegishlidir. Ammo bu shartnomaning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

Shunday qilib Nikoh shartnomasining shakliga tegishli hisoblangan o‘zaro bog‘langan ikki taraf ham: o‘z huquqidan o‘z xohishi bo‘yicha erkin tasarruf etish huquqi; er va xotinning har birining mulkiy huquqlarining buzilishini bartaraf etish; mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinning mulkiy huquqi buzilishini bartaraf etish; er-xotinning mulkiy huquqini ta‘minlab, ma'lum barqarorlikni saqlab qolish; nafaqat jismoniy shaxsning, xatto davlatning ham mulkiy manfaati kafolatilanishiga rioya qilishga imkon beradi.

Nikoh shartnomasining o‘ziga xos xususiyati nafaqat uning shaklida, hatto ichki mazmunida ham ifodalangan. Ular Oila kodeksining 31-moddasida keltirilgan umumiyligini qoidalar bilan belgilangan, er-xotin qonun bilan belgilangan er-xotinning birgalikdagi mulki tartibini o‘zgartirib, uning o‘rniga er-xotin shartnomasi tartibini belgilash huquqiga egadirlar.

Nikoh shartnomasi Oila kodeksining 31-moddasi 5-bandiga binoan “Er-xotinning huquq layoqati va muomala layoqatini, ularning o‘z huquqlarini himoya qilish uchun sudga murojaat qilish huquqlarini cheklashni, er-xotin o‘rtasidagi shaxsiy nomulkiy munosabatlarni, er-xotinning bolalarga nisbatan bo‘lgan huquq va majburiyatlarini tartibga solishni, mehnatga layoqatsiz ta‘minot olishga muhtoj er yoki xotinning huquqini cheklovchi qoidalarni, er va xotindan birini o‘ta noqulay holatga solib qo‘yuvchi yoxud oila to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining normalariga zid keluvchi boshqa shartlarni nazarda tuta olmaydi”. Aks holda, birinchidan, er-xotindan bittasining huquqini cheklashga, ikkinchidan, Oila kodeksi 1-moddasi talablari buzilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Nikoh shartnomasini tuzish yoki tuzmaslik er-xotinning o‘zlariga tegishlidir. Agar ular nikoh shartnomasini tuzmasalar, u holda mulkiy huquqiy munosabatlari qonuniy tartibda belgilangan huquqiy normalar bilan tartibga solinadi.

Er-xotinning birgalikdagi mol-mulki ilgarigidek ko‘pchilik er-xotinlarning manfaatlariga javob beradi. Keyingi vaqtarda muhim iqtisodiy o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga qaramay ayollarning daromadlari erkaklarning daromadlariga nisbatan kamroqdir, chunki ularning ko‘proq vaqtini oilada uy-ro‘zg‘or ishlari va bolalar tarbiyasiga ketadi.

Er-xotinning birgalikdagi umumiyligini nikoh davrida topilgan mulk tashkil etadi. Nikoh davrida topilgan hamma mulkni er-xotinning birgalikdagi umumiyligini deb hisoblasa bo‘ladi.

Yangi qonunchilik er-xotinning alohida ajratilgan mulkiga nafaqat ularni nikohgacha bo‘lgan mulkini, ya’ni hadya yoki meros asosida olgan mulkini, shu bilan birga haqsiz bitimlar asosida vujudga kelgan mulkini ham kiritadi. Bu turdagisi mulklar doirasiga birinchi navbatda haqsiz ravishda er-xotindan bittasi tomonidan xususiy lashtirish asosida olingan kvartira ham kiradi.

Shartnomaning yetakchilik roli va mulkiy munosabatlarning yangi tamoyillari huquqiy jihatdan O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilab qo‘yilgan.

Nikoh shartnomasi fuqarolik shartnomasining alohida turi sifatida ko‘rilishi lozim, chunki unda er-xotinning mol-mulki huquqiy tabiatini belgilash va o‘zgartirishni nazarda tutadi. Nikoh shartnomasining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u kompleks xarakterga ega ekanligi, o‘zida nafaqat er-xotinning mol-mulkini vujudga keltirish yoki uning huquqiy tartibini o‘zgartirish, shu bilan birga er-xotinning bir-biriga moddiy ta'minot berishini ham tartibga solishni belgilab berishi mumkin.

2-§. Nikoh shartnomasini tuzish

“Nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olinguniga qadar ham, shuningdek nikoh davrida ham tuzilishi mumkin.

Nikoh davlat ro‘yxatiga olingunga qadar tuzilgan nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olingen kundan boshlab kuchga kiradi” (Oila kodeksining 30-moddasi).

Agar nikoh shartnomasi nikoh davlat ro‘yxatiga olingunga qadar tuzilgan bo‘lsa, bunday nikoh shartnomasi kechiktirib bajariladigan shartli bitim hisoblanadi. U faqat nikoh tuzilgandan so‘ng kuchga kiradi.

Nikoh shartnomasini uning subyektlari faqat er-xotin bo‘lganligi munosabati bilan, ularning nikohga kirishi bilan bog‘lamoq darkor. Agar shaxs nikoh yoshiga to‘lмаган bo‘lsa, u ota-onasi yoki homiysining roziligidiz nikoh shartnomasini tuzaolmaydi. Voyaga yetmagan er yoki xotin nikoh tuzishi bilan to‘la muomala layoqatiga ega bo‘lib, mustaqil nikoh shartnomasini tuzishi mumkin. Nikoh shartnomasini tuzish uchun er-xotin muomala layoqatiga ega bo‘lishlari lozim. Agar er-xotindan birontasi muomala layoqatiga ega bo‘lmasa, u holda uning nomidan nikoh shartnomasini uning homiysi tuzadi. Uzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 31-moddasiga binoan fuqaroning muomala layoqatini cheklash nikoh shartnomasini tuzishga ham ta’sir ko‘rsatadi. Chunki muomala layoqati cheklangan shaxs faqat mayda maishiy bitimlarni tuzish huquqiga ega.

3-§. Nikoh shartnomasini mazmuni

Nikoh shartnomasi mazmunining asosiy elementi er-xotin mulkinining huquqiy tartibini belgilashdir. Nikoh shartnomasi bilan belgilangan bunday tartib er-xotin mulkinining shartnomaviy tartibi deb ataladi.

Nikoh shartnomasi tartibini belgilashda er-xotinlarga juda keng huquqlar beriladi.

Nikoh shartnomasi er-xotinlar bir-birlarini moddiy ta‘minlash yoki biri ikkinchisini moddiy ta‘minlashini ko‘rsatish huquqiga ega. Shartnomada belgilangan shartlar aliment majburiyatining umumiy qoidalariga mos kelmog‘i kerak. Xusan, muomalaga layoqatsiz er yoki xotinning huquqlari buzilmasligi lozim. Ammo nikoh shartnomasida qonun bo‘yicha aliment olish huquqiga ega bo‘lмаган er yoki xotinga aliment to‘lash belgilanishi mumkin. Birinchi navbatda bu o‘z xohishlari bilan, oila manfaatini o‘ylab ishi yoki o‘qishini qoldirgan er-xotinlarga taalluqli bo‘ladi.

Nikoh shartnomasida nazarda tutilgan huquq va majburiyatlar muayyan muddat bilan cheklanishi mumkin (Oila kodeksining 31-moddasining, 4-band). Masalan, ularning mulki bir yil davomida bo‘lingan, bu muddat o‘tishi bilan umumiy bo‘lib qolishi to‘g‘risida kelishib olishlari mumkin, Er-xotinning nikoh shartnomasi bilan belgilangan huquq va majburiyatlari muayyan shart-sharoitning vujudga kelishi yoxud kelmasligiga ham bog‘liq qilib qo‘yilishi mumkin. Bu shartlar kechiktirish hamda bekor qilish shartlari bilan ham tuzilishi mumkin. Masalan, er-xotin shartnoma tartibiga ko‘ra mol-mulkining alohidaligini belgilab, agar oilada bola tug‘ilsa, umumiy tartibda hal bo‘lishini ko‘rsatishlari mumkin. Yoki er-xotindan bittasi o‘qishi tamom bo‘lishiga qadar ikkinchisi tomonidan moddiy ta‘minlanish shartini belgilash bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin. Har qanday fuqarolik huquqiy bitimlarida haqiqiy bo‘lishi uchun qanday shartlar belgilansa, nikoh shartnomasida ham shunday shartlar qo‘yilishi mumkin. Subyektlar muomala layoqatiga ega bo‘lib, ularning xohishi erkin ifodalanishi lozim.

Shuningdek, nikoh shartnomasi er-xotinlarning shaxsiy nomulkiy munosabatlarini tartibga sola olmaydi. Bu masala shu bilan bog‘liqliki, nikoh shartnomasiga faqat shunday huquq va majburiyatlari kiritilishi mumkin, ular bajarilmagan holda ularning bajarilishi majburiy ravishda amalga oshiriladi. YUqorida bir necha bor ta‘kidlab o‘tganimizdek, faqat shaxsiy xarakterga ega bo‘lgan majburiyatlar majburiy ravishda amalga oshirilishi mumkin emas.

Er-xotinlar o‘z shaxsiy munosabatlarini kelishish asosida hal qilishlari mumkin, ammo bu kelishish huquqiy xarakterga ega bo‘lmaydi.

Shuningdek, nikoh shartnomasi mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinning aliment olish huquqini cheklashga qaratilgan shartni belgilay olmaydi.

Nikoh shartnomasida tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan yana quyidagi maxsus cheklash mavjud: nikoh shartnomasi er-xotindan bittasini og‘ir noqulay ahvolga solib qo‘yishi mumkin emas. Aks holda bu bitim baxsli bitim bo‘lib, huquqi buzilgan er yoki xotinning da‘vosiga ko‘ra haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday maxsus asos kiritilishining zaruriyati shu bilan bog‘liqliki, nikoh shartnomasi taraflarning shaxsiy munosabatlari bilan bog‘liq.

Nikoh shartnomasi oila qonun hujjatlarining boshlanish asoslariga qaramaqarshi bo‘lmasligi lozim. Qonunning bu qoidasi sud tomonidan ko‘rilishiga keng ko‘lamda yo‘l ochib beradi. Bunday hujjatlarda oila qonunchiligining asosiy boshlamasi, Oila kodeksining 1-moddasiga muvofiq, oilaning davlat tomonidan himoya qilinishi, oilada er-xotinning tengligi, oilada mehnatga layoqatsiz oila a‘zolari huquqlarini himoya qilishda ularga ustunlik berishdan iborat. Nikoh shartnomasida bu boshlanishlardan birontasining buzilishi manfaatdor tomonidan nikohni haqiqiy emas deb topish masalasini qo‘yishi mumkin. Oilani davlat tomonidan himoya kilish tamoyili buzilishi nikoh shartnomasi shartlarini haqiqiy emas deb topish, nikohdan ajralishni rag‘batlantirish, masalan, nikohdan ajralishda er-xotindan bittasiga mulkiy manfaatdorlikni berish, er-xotinlar tengligi

tamoyili buzilishligi ulardan birining og‘ir noqulay sharoitga tushirib qo‘yilishida ifodalanishi mumkin.

4-§. Nikoh shartnomasini o‘zgartirish va bekor qilish

Nikoh shartnomasi er-xotinning o‘zaro roziligi bilan istalgan vaqtida o‘zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin. Bunday o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi kelishuv yozma shaklda bo‘lishi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Nikoh shartnomasini bajarishdan bir tomonlama bosh tortishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Agar nikoh shartnomasi bekor qilingan bo‘lmasa, u holda u nikoh tugatilishiga qadar amalda bo‘ladi. Nikoh shartnomasi er-xotindan birining talabi bilan Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluv qarori bilan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Oila kodeksi 32-moddasining 3-qismiga binoan “nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno”.

5-§. Nikoh shartnomasini haqiqiy emas deb topish

Nikoh shartnomasi har qanday bitimga o‘xshab sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikoh shartnomasi fuqarolik qonunchiligidan nazarda tutilgan asoslar va tartib bo‘yicha to‘la yoki qisman haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar nikoh shartnomasi oila yoki fuqarolik qonunlari normalarini buzib tuzilsa, u holda bu shartnomaning mazmuni buzilib, qonunga qarshi tuzilgan hisoblanadi.

Biroq O‘zbekiston qonunchiligi bilan nikoh shartnomasi instituti kiritilgach, er-xotinlar o‘rtasida sud nizolari ko‘payadi, degan fikrga borish noto‘g‘ri. Aksincha, mazkur shartnoma ko‘pchilik masalalar taraflarning o‘zaro kelishuvi asosida hal qilinib, sud muhokamasiga bormaslikka imkoniyat yaratadi.

Bunday turdagи shartnomani tuzish amaliyoti ma'lum asosda vujudga kelishi tufayli nikoh shartnomasi er-xotindan bittasining yoki uchinchi shaxslarning huquqlarini buzish hollari so‘zsiz kamayishiga olib keladi, chunki mazkur shartnoma har qaysi er-xotin uni tuzishni (o‘zi uchun) ma’qul deb topsa, unga mulkiy huquqiy tartibni belgilash imkoniyatini yaratadi.

Nikoh haqiqiy emas deb topilsa, beixtiyor ravishda nikoh shartnomasi ham haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Nikohning mavjudligi nikoh shartnomasining elementi hisoblanadi. shuning uchun nikoh haqiqiy emas deb topilganda u tuzilgan vaqtidan boshlab bekor qilinib, nikoh shartnomasi ham tuzilgan vaqtidan boshlab o‘zining yuridik kuchini yo‘qotganligini bildiradi.

Nikoh shartnomasini tuzuvchi qayd etilgan nikohda turuvchilar deb hisoblanadi. ularning kelishuvi nikoh shartnomasi hisoblanmaydi, chunki,

qonunchilik yuridik rasmiylashtirilmagan amaldagi nikoh munosabatlariga huquqiy oqibat bermaydi.

Nikoh shartnomasi albatta yozma shaklda tuzilishi va notarial tartibda tasdiqlanishi lozim (Oila kodeksining 30-moddasining 3-bandı). Qonun bilan belgilangan tartibda rioya qilmaslik bunday shartnomani haqiqiy emas deb topish uchun asos bo‘ladi. Shaklga nisbatan bunday talablarni belgilash nikoh shartnomasining er-xotinga, shuningdek uchinchi shaxslarga nisbatan ham alohida ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu shartnoma qoida tariqasida uzoq muddat amalda bo‘ladi va mulkiy huquq va majburiyatlarni kelajak vaqtga qarab belgilaydi. Shuning uchun bunday huquqlarni aniq va qat’iy belgilash unga notarial shakl berish tufayli erishiladi.

X Mavzu. Nikohning tugatilishi

1-§. Er va xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb e'lon qilishi oqibatida nikohni tugatilishi

Oila nikoh, qon-qarindoshlik, ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni unga joylashtirish asosida vujudga keladi.

Asosan oilani nikoh vujudga keltiradi va u bir umr yashashni maqsad qilib tuziladi. Bu ahdonmani tuzishdan asosiy maqsad tabiiy biologik ehtiyojni qondirish, naslni davom ettirish va oila qurishdan iborat.

Afsuski, hayotda hamma vaqt ham shunday bo'lavermaydi. Turmushda sodir bo'ladigan bir qator hodisalar, yuridik faktlar nikohning tugatilishiga asos bo'ladi.

Nikohning tugatilishi deganda, ma'lum yuridik faktlar tufayli er-xotin o'rtasida vujudga kelgan nikoh huquqiy munosabatlarining tugallanishi tushuniladi.

Nikoh huquqiy munosabatiga qanday yuridik faktlar ta'sir etishiga qarab nikoh:

- a) er-xotindan birining vafoti yoki sud ulardan birini vafot etgan deb, e'lon qilishi oqibatida;
- b) "er-xotindan biri yoki har ikkalasining arizasiga muvofiq nikohdan ajratish yo'li bilan, shuningdek sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan er yoki xotinning vasiysi bergen arizaga muvofiq tugatilishi mumkin" (Oila kodeksining 37-moddasi).

Vafot etish yuridik fakt bo'lib, er-xotin o'rtasidagi nikoh munosabatini tugallaydi. Sudning hal qiluv qaroriga asosan er-xotindan birining vafot etgan deb, e'lon qilinishi o'z huquqiy oqibati bo'yicha o'limga tenglashtiriladi. Shuning uchun vafot etgan deb e'lon etilgan shaxs bilan uning eri yoki xotini o'rtasidagi nikoh ham tugallanadi.

Er-xotindan biri vafot etgan yoki sud tartibida vafot etgan deb e'lon qilingan hollarda ular o'rtasidagi nikoh huquqiy munosabati tugallanadi. Bunday holda tirik bo'lgan tomon yangi nikohga o'tish huquqiga ega. Fuqaroni qonunda belgilangan tartibda vafot etgan deb e'lon qilish uni vafot etgan, degan ehtimolga asoslanadi. Ba'zi hollarda bu fuqaro tirik bo'lishi ham ehtimoldan holi emas.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 37-moddasiga binoan, "Vafot etgan deb e'lon qilingan fuqaro qaytib kelgan yoki uning qayerda turganligi ma'lum bo'lgan taqdirda, uni vafot etgan deb e'lon qilish haqidagi qaror sud tomonidan bekor qilinadi". Shunday holatni hisobga olib, qonunchilikda bo'lgan kamchilikni to'ldirib, yangi Oila kodeksining 48-moddasida "Sud tomonidan vafot etgan deb e'lon qilingan yoki bedarak yo'qolgan deb topilgan er (xotin) qaytib kelgan va tegishli sud qarorlari bekor qilingan hollarda, nikoh er-xotinning birgalikdagi arizasiga ko'ra fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organi tomonidan tiklanishi mumkin.

Agar er (xotin) yangi nikohga kirgan bo'lsa, nikohni tiklash mumkin emas".

Nikohdan ajralish yuqorida keltirilgan ikki asosdan farq qilib, faqat er-xotinning hayotligida ro'y beradi.

2-§. Nikohdan ajralish uchun asoslar

Bizning jamiyatda nikoh bir umrga tuzilgan ahdnama hisoblanadi.

Ma'lum holatlarda, agar oila amalda buzilgan, uni tiklash uchun asos yo'q deb topilsa, u ajralish asosida tugatiladi. Nikohdan ajralish er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni kelajak vaqt uchun tugatishga asos bo'ladi. Bunday ajralish nikohni haqiqiy emas deb topishdan farq qiladi. Nikohni haqiqiy emas deb topishda nikoh vujudga kelgan vaqtdan boshlab huquqiy munosabatlar tugallanadi. Biroq nikohdan ajralish bilan hamma huquqiy munosabatlar qonunda belgilangan shartlar (Oila kodeksining 15-bobidagi “Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatları” 117-121-moddalar)ning mavjudligi tufayli tugallanmaydi..

Oila kodeksida nikohdan ajralish uchun aniq asoslar ko'rsatilmagan va buni ko'rsatish mumkin ham emas, chunki er yoki xotin keltirgan bir asos ayrim hollarda nikohdan ajratish uchun yetarli bo'lishi mumkin, alohida holatlarda esa ajratish uchun asos bo'lmasligi ham mumkin. Shuning uchun sud amaliyotini hisobga olib Oila kodeksi amalda bo'lgan qoidani saqlab qolib, uni quyidagicha belgiladi: “Agar sud er va xotinning bundan buyon birgalikda yashashiga va oilani saqlab qolishga imkoniyat yo'q deb topsa, ularni nikohdan ajratadi”(Oila kodeksining 41-moddasi).

Sud amaliyotini o'rganish natijasida nikohdan ajralish uchun er-xotinlar quyidagi asoslarni keltirganliklarini aniqladik:

- er-xotindan bittasining doimiy ravishda spirtli ichimlik ichib, oilada janjal chiqarishi;
- er-xotinlik munosabatiga hiyonat qilish;
- oilada bola tug'ilmasligi;
- oilaviy ishlarga qarindoshlarning aralashib janjal chiqarishi (ayniqsa, qaynona-kelin mojarolari) va boshqalar.

3-§. Sud tartibida nikohdan ajratish

Oila kodeksi nikohdan ajralishning asosiga qarab undan ajralish tartibini belgiladi. Nikohdan sud va ma'muriy tartibda, ya'ni fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organida ajratiladi.

Hozirgi vaqtida jamiyatda oilaning ahamiyati o'sayotganligini, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi o'rnini hisobga olib, sudlar tuzilgan oilalarni saqlab qolish oilaviy munosabatlarni mustahkamlash, voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi rolini oshirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan sudlar ixtisoslashuvining joriy etilishi, ya'ni umumiy yurisdiksiyali sudlarning fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rib chiqadigan sudlarga ajratilishi sud tizimini isloh qilishdagi jiddiy qadam bo'ldi. Bu albatta, fuqarolarning huquq va erkinliklari

himoyasi kafolatlanishini yanada kuchaytirdi. Sudlarning ixtisoslashuvi hozirdanoq o‘z samarasini bera boshladi.

Nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlar sud tomonidan Oila va Fuqarolik protsessual kodekslarida da‘vo ishlarini hal qilish uchun belgilangan tartibda ko‘riladi.

Aksariyat ko‘pchilik ishlar sudlar tomonidan amaldagi qonunlar va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Pelenumining 1998 yil 11 sentabrdagi 22-sonli “Sudlar tomonidan nikohdan ajratish haqidagi ishlarni ko‘rishda qonunlarni qo‘llash amaliyoti to‘g‘risida”gi¹⁰³ qarorining dasturiy ko‘rsatmalariga amal qilingan holda to‘g‘ri hal etilmoqda.

Nikohdan ajralish to‘g‘risidagi da‘vo er-xotin yashab turgan joydagi tuman (shahar) sudida qo‘zg‘atiladi. Agar er-xotin alohida yashasa, da‘vo javobgar er yoki xotinning turgan joyidagi sudda qo‘zg‘atiladi, uning turadigan joyi noma'lum bo‘lsa, nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ariza javobgar oxirgi yashab turgan joydagi sudga topshiriladi.

Arizada nikohdan ajralish uchun asos ko‘rsatilishi kerak. Ajralishni keltirib chiqqargan sabablarni batafsil keltirish lozim. Ariza berish bilan bir vaqtida davlat boji to‘lanishi kerak. Nikohdan ajralish ishlari ochiq sud majlisida ko‘riladi. Ajralish to‘g‘risidagi ish er-xotinning arizasiga muvofiq, zarur hollarda sudning ajrimiga asosan yopiq sud majlisida ko‘rlishi ham mumkin.

Sud tajribasini o‘rganish ayrim hollarda da‘vo arizalarini qabul qilish, ishlarni sudda ko‘rish uchun tayyorlash tartibini belgilovchi qonunlar talablari bajarilmayotganligi, voyaga yetmagan farzandlari va mulkiy nizolari bo‘lmagan taqdirda nikohdan sudsiz ajralish tartibi mavjudligi taraflarga tushuntirilmayotir. Ba’zi sudlar bunday nizolarni hal qilishda shoshma-shosharlikka va e’tiborsizlikka yo‘l qo‘ymoqdalar, er-xotinlarni yarashtirish choralarini ko‘rmayotirlar.

Nikohdan ajralish ishlarini ko‘rishda, sud o‘z faoliyatini er- xotinni yarashtirishga va oilaviy vaziyatni sog‘lomlashtirish choralarini ko‘rishga qaratishi lozim.

1992 yilda Toshkent shahar Sobir Rahimov tuman sudiga nikohdan ajralish da‘vosi bo‘yicha 639 ta fuqaro murojaat etgan. Sudlar olib borgan katta tarbiyaviy ishlar tufayli shulardan 115 ta oila tiklanib, ularni yarashtirishga erishilgan.¹⁰⁴ Ishni sudda ko‘rishning boisi ham shunda.

Oila kodeksining 40-moddasiga binoan sud ishning ko‘rlishini keyinga qoldirib, er-xotinga yarashish uchun olti oyga muhlat tayinlashga haqli.

Sud yarashtirish uchun berilgan muddatni, er-xotinni yarashtirish maqsadida, zarur holatlarda, ajrim nuxxalarini ular yashaydigan joydagi xotin-qizlar qo‘mitalariga, o‘zini-o‘zi boshqaruv organi - mahalla oqsaqollari kengashiga, ular

¹⁰³ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenum qarorlarining to‘plami, 1991-1998. -T.: «Sharq», 1999.-127-148-betlar.

¹⁰⁴ “Oila va jamiyat”, 1993, 19-son.

huzuridagi yarashtirish komissiyalariga muhokama qilish va yarashtirish uchun yuborishi mumkin.

Ishni ko‘rish boshqa vaqtga qoldirilayotgan muhlat er-xotinning o‘zaro munosabatlarini va ularning yashab ketish imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilanishi lozim.

Oilani saqlab qolish manfaati yuzasidan sud ishni ko‘rishni ikkinchi marta qoldirishga va er-xotinning yarashishi uchun qonunda ko‘rsatilgan olti oygacha bo‘lgan muhlatni belgilashga haqli.

Aniq holatlarni hisobga olgan holda sud, er-xotinning yoki ulardan birining arizasiga ko‘ra, ularga yarashishlari uchun berilgan muhlatni o‘zgartirishga va bu muhlat o‘tgunga qadar ishni ko‘rishga haqli.

Yarashish uchun muhlat berish haqidagi ajrim, ish holatlari tekshirilganidan va sudga murojaat qilishga olib kelgan haqiqiy asoslar aniqlanganidan keyin chiqariladi.

Fuqarolik protsessual kodeksi 237-moddasiga binoan, ajrimlar sud tomonidan alohida xonada (maslahatxonada) chiqariladi.

Ammo akademik H.Rahmonqulov juda asosli ravishda ta'kidlab o‘tganidek, har bir kishining oilaviy yoki shaxsiy ishlari boshqalarning manfaatlariga dahl etmasa, aralashuvga yo‘l qo‘yilmaydi. Chunki Oila kodeksining 1-moddasida ta'kidlab o‘tilganidek.... biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslikdan, oila a'zolari o‘z huquqlarini to‘sinqiniksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iborat. Lekin, afsuski, turg‘unlik yillarda oilaviy ishlarga davlat va jamoat tashkilotlari orqali xuda-behuda aralashuv, er yoki xotinga tazyiq o‘tkazish hollariga yo‘l qo‘yilgan. Shu sababli ham shoir E.Vohidovning quyidagi kinoyasida jon bor:

Ko‘nglim orzu qilar tanho osoyish,
Mening ham birgina xohishim bo‘lsin.
Aqalli yorimni bag‘rimga bosish,
Davlat ishi emas, o‘z ishim bo‘lsin.

Shaxsiy va oilaviy ishlarda mustaqillik har qanday axloqiy choralarni inkor etish, o‘z ko‘ngil ko‘chasiga qarab ish ko‘rish emas. Bu xatti-harakatlarni qonun, odob-axloq doirasida erkinlik bilan sodir etishdir¹⁰⁵.

Nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rishda sudlar ajralishning haqiqiy sabablarini aniqlab, o‘zining butun faoliyatini oilani saqlab qolishga va uni mustahkamlashga, onalik va bolalik manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora va tadbirlarni ko‘rishi lozim. Nikohdan ajratish haqida da'vo qo‘zg‘atishga er-xotindan birining spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilishi sabab bo‘lgan bo‘lsa, sudlar surunkali ichkilikbozlik kasaliga duchor bo‘lgan shaxsni majburiy davolashga yuborish chorasini ko‘rishlari kerak.

¹⁰⁵ H. Rahmonqulov. Fuqarolik: huquqlar, erkinliklar, burchlar. T., ”O‘zbekiston” 1991, 58-bet.

Agar er yoki xotin tomonidan keltirilgan asoslar yetarli bo‘lmasa, u holda sudlar nikohdan ajralish da'vosini rad etish to‘g‘risida hal qiluv qarorini chiqaradilar.

Amaliyotda qonuniy rasmiylashtirilgan nikohning oltitadan bittasi nikohdan ajralishi bilan tugallanmoqda.

Respublika bo‘yicha o‘rta hisobda har yili sudlar tomonidan 25 mingdan ortiq nikohdan ajratish ishlari ko‘rilmoxda.

Sudga asosan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar nikohdan ajralish da'vosi bilan murojaat etmoqdalar. Ajralayotgan er-xotinlarning nikohda yashashining o‘rtacha ko‘rsatkichi besh yildan o‘n yilgachadir. Eng achinarli tomoni shundaki, nikohdan ajralish da'vosi bilan ko‘proq ayollar sudga murojaat etmoqdalar.

Sud amaliyotini o‘rganish sud faoliyatida sudga taalluqli qonun talablari hamma vaqt ham to‘la bajarilmayotganligini ko‘rsatmoqda.

Ish fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ko‘rilishi lozim bo‘lsa ham, ayrim hollarda ish sudga olinib, asossiz hal qilish hollari hamon uchrab turibdi. Sud jarayonida nikohdan ajralishning haqiqiy sababi hamma vaqt ham da'vo arizasida keltirilgan sabab bilan mos kelmayotir. Shuning uchun sudning asosiy vazifasi nikohdan ajralishning haqiqiy sababini aniqlashdir. Shundagina ish bo‘yicha asosli adolatli hal qiluv qarorini chiqarish mumkin. Bunday toifadagi ishlarni ko‘rishda ko‘pchilik sudlar oilaning daxlsizligiga, milliy xususiyatlarga yetarli e’tibor bermayotirlar.

Ayrim hollarda nikohdan ajralish haqidagi arizalar sndlarda qisqa muddatda ko‘rilib, er-xotinni yarashtirish choralarini yetarli asosda ko‘rilmasdan, oilaning buzilish sabablari atroflicha o‘rganilmasdan hal etilmoqda.

Sudlar chiqargan ayrim hal qiluv qarorlari juda qisqa yozilib, da‘vogarlar tomonidan keltirilgan asoslar atroflicha tahlil qilinmayotir.

Qonunlar nikohdan ajralishning sud tartibida bo‘lishini umumiyl qoida tariqasida belgilab, sudga er-xotinlarni yarashtirish choralarini ko‘rish majburiyatini yuklaydi.

Ba’zi hollarda fuqarolarning o‘z shaxsiy huquqlarini noto‘g‘ri amalgalashirishlari, jamoat, davlat manfaatlari, yuksak axloq normalari va bolalar manfaatlarining buzilishiga sabab bo‘lishi ham mumkin. Bunday hollarda davlat huquqiy norma vositasi bilan kishilarning oilaviy munosabatlarini ma'lum darajada tartibga solish va nizoli masalalarni sud tomonidan hal qilish tartibini belgilash bilan mustahkamlashga harakat qiladi”.¹⁰⁶

Quyidagi hollarda nikohdan ajratish sud tartibida ko‘riladi:

- er-xotindan biri nikohdan ajralishga rozi bo‘lmasa;
- ular o‘rtasida voyaga yetmagan umumiyl bolalari bo‘lib, ularni kimda qoldirish va ta’minoti uchun aliment undirish to‘g‘risida nizo bo‘lsa;
- er-xotin o‘rtasida mehnatga layoqatsiz, muhetoj er yoki xotinga aliment undirish va uning miqdori haqida masala tug‘ilsa;

¹⁰⁶ Ayubov T.. Nikoh, qonun va ahloq. T., 1979, 115-bet.

- birgalikda umumiy mulkni bo‘lish bo‘yicha nizo bo‘lsa.

Sud hukmi bilan uch yildan kam bo‘lgan muddatga ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar bilan nikohdan ajratish haqidagi ishlar sudlovga tegishliligi bo‘yicha umumiy qoidalarga rioya qilgan holda ko‘rilishini sudlar nazarda tutmog‘i lozim. Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar bilan nikohdan ajratish haqidagi da‘vo ariza, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 145-maddasiga ko‘ra, sudning ish yuritishiga qabul qilinadigan bo‘lsa, bunda uning hukm qilinguniga qadar oxirgi yashash joyidan kelib chiqish lozim bo‘ladi. Fuqarolik protsessual kodeksining 241-moddasasi 11-qismiga binoan uch yildan kam bo‘lgan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan shaxslar bilan nikohdan ajratish haqidagi ishlar, da‘vogarning xohishiga qarab, u yashaydigan joyda ko‘riladi. Uch yildan kam bo‘lmagan muddatga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan va Oila kodeksining 44-moddasida ko‘rsatilgan boshqa nizolari bo‘lmagan shaxslar bilan nikohdan ajratish Oila kodeksining 43-moddasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oila kodeksining 39-moddasiga muvofiq er xotini homiladorligi vaqtida va bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida xotinining roziligesiz nikohdan ajratish to‘g‘risida ish qo‘zg‘atishga haqli emas.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1998 yil 11 sentabrdagi 22-son qarorida ko‘rsatilishicha, “Bolaning otasi deb qayd etilmagan hollarda ham er bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida xotinining roziligesiz nikohdan ajralish to‘g‘risida da‘vo qo‘zg‘atishga haqli emas. Ushbu qoida bola o‘lik tug‘ilgan yoki 1 yoshgacha yashamay, vafot etgan hollarda ham tatbiq qilinishi lozim. Nikohdan ajralish to‘g‘risidagi ishni qo‘zg‘atish uchun xotinining roziligi bo‘lmasa, sud eridan da‘vo arizasini qabul qilishni rad etadi, agar qabul qilingan bo‘lsa, ish yurgizishni tugatadi. Xotin sudda ish qo‘zg‘atishdan oldin erining arizasi bo‘yicha nikohdan ajralishga rozilik berib, ishni ko‘rishda unga qarshilik bildirsa ham ishni yurgizishni tugatish lozim bo‘ladi. Ko‘rsatilgan holatlar xotinning o‘zi nikohdan ajratish masalasini qo‘yishiga to‘sinqlik qilmaydi”.¹⁰⁷ Bu ko‘rgazmadan ko‘zlangan asosiy maqsad ona va bolaning sihat-salomatlagini muhofaza qilishdir. Shuning uchun ayolning boshqa erkakdan homilador bo‘lishi va undan bola tug‘ilishi ham erkakka bu xotindan ajralish uchun da‘vo qilishga to‘siq bo‘lishi mumkin. So‘zsiz, bunday holatda er otalik to‘g‘risida hamma vaqt da‘vo qilishi mumkin. Agar xotin homiladorlik vaqtida yoki bola tug‘ilganidan keyin bir yil mobaynida bunday da‘voga rozi bo‘lsa, shunday huquq erga ham tegishli bo‘ladi. Xotin homiladorlik vaqtida yoki bola tug‘ilganidan so‘ng bir yil mobaynida ernenikohdan ajralish to‘g‘risidagi da‘vosiga xotinning roziligin olishning bir qancha usullari mavjuddir. Bu - nikohdan ajralish uchun birgalikda ariza berish, ernenik arizasiga uning rozi bo‘lishi va, nihoyat, bunday arizaning xotin tomonidan berilishidir.

¹⁰⁷ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenum qarorlarining to‘plami. 1991-1998.-T: «Sharq», 1999. 130-bet.

Nikohdan ajralish ishini qo‘zg‘atishda xotini rozi bo‘lmasa, sud da’vo arizani qabul qilishni rad etishi, agar ariza qabul qilingan bo‘lsa, ish to‘xtatilishi lozim. Kassatsiya tartibida ishni ko‘rish vaqtida ham ayolning homiladorligi va nikohdan ajralish uchun rozi emasligi ma'lum bo‘lsa, u vaqtda ish to‘xtatiladi. Shu bilan birga xotin farzand ko‘rgandan so‘ng va bola bir yoshga to‘lgandan keyin er yana nikohdan ajralish to‘g‘risida da’vo bilan murojaat etishga haqli. Ish bo‘yicha mavjud bo‘lgan harakatni tugatish unga to‘siq bo‘lolmaydi.

Mamlakatimizda sud islohotlarini amalga oshirib sudsarni ikki turdag'i ishlarni ko‘radigan sudsarga bo‘linishi ya'ni jinoyat ishlarini, fuqarolik ishlarini ko‘radigan sudsarga bo‘linishi juda to‘g‘ri ish bo‘ldi.

Endilikda, oilaviy nizolar bo‘yicha maxsus ixtisoslashgan sudsar tashkil etilishini hayotning o‘zi talab qilmoqda. Nikohdan ajralish, aliment undirish, ota-onalik huquqidan mahrum etish ishlari bo‘yicha statistika ma'lumotlariga ko‘ra, agar oilada bolalar bo‘lsa, u holda bu ishlar maxsus ixtisoslashgan sudsar tomonidan ko‘riliши maqsadga muvofiq. Chunki, ma'lum bo‘lishicha, bunday holatlarda ota-onalardan ham ko‘proq bolalar iztirob chekmoqdalar. Amaldagi qonun esa ularning huquq va manfaatlarini to‘la himoya eta olmayapti.

Ko‘pincha nikohdan ajralish ishlari asos yetarli bo‘lмаган hollarda ham paydo bo‘lmoqda (o‘zaro haqoratlash, shubhalanish va boshqalar). Sud amaliyotini umumlashtirish natijasida oilaviy nizolarni ko‘radigan sudsarni alohida ajratish lozim, deb topilmoqda. Ularga yordam sifatida xotin-qizlar qo‘mitasi, mualliflar va ruhshunoslarni jalb etish maqsadga muvofiq. Natijada oila huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan har bir nizoni ko‘rib chiqishda faqat yuridik normalarni tatbiq etishga e'tibor berish bilan cheklanib qolmay har bir ish ko‘rib chiqilayotganda nizoning kelib chiqishi sabablarini atroflicha aniqlashga erishmoq lozim..

Mustaqil respublikada oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni ko‘radigan Oila sudsari tashkil etilishi lozim. Ular ma'lum hayot tajribasiga ega bo‘lgan, nikohdan ajralish ishlarini ko‘rishga ma'naviy huquqi bo‘lgan katta yoshdagi shaxslardan tashkil topishi kerak¹⁰⁸.

Nikohdan ajralish ko‘pincha shu nikohdan tug‘ilgan voyaga yetmagan bolalarning jinoyat yo‘liga kirib ketayotganligiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun bolani dunyoga keltirib, unga mehr-muhabbatni ravo ko‘rmay tashlab ketayotgan ota-onalarga nisbatan huquqiy tadbir va choralar ko‘riliши lozim.

Oilaning jamiyatdagi mavqyei oshayotganligini, kelajak avlodni sog‘lom tarbiyalashdagi ahamiyatini e'tiborga olgan holda sudsarning oilaviy munosabatlarni mustahkamlashdagi, voyaga yetmagan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishdagi o‘rmi va mas’uliyatini oshirish maqsadida bir qator amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqmoq maqsadga muvofiqdir.

¹⁰⁸ Otaxo‘jayev F.M. Nikoh va ajralish, T., 1991, 74-bet, “Halq so‘zi” 1991 yil 19 iyul.

4-§. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida nikohdan ajratish

Amaldagi oila qonunchiligi nikohdan ajralishning sud tartibi bilan birga ma'muriy tartibini, ya'ni fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organida nikohdan ajratish tartibini belgilaydi.

Oila kodeksining 42-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan bolalari bo'limgan er-xotin nikohdan ajralishga o'zaro rozi bo'lsalar, ular nikohdan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida ajratiladi.

Er-xotin o'rtasida mehnatga layoqatsiz, muhtoj er yoki xotinga moddiy ta'minot berish to'g'risida yoki ularning birmalikdagi umumiylar mol mulkni bo'lish to'g'risida nizo chiqqan taqdirda er-xotin yoki ulardan biri nikohdan ajratish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojat etishga haqli.

Nikohdan ajralish ariza beruvchilarining yashash joyidagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga ariza berilgan kundan boshlab uch oy muddat o'tgach qayd etiladi.

Oila kodeksining 43-moddasiga muvofiq, agar er-xotindan biri:

- sud tomonidan bedarak yo'qolgan deb topilgan bo'lsa;
- sud tomonidan ruhiyati buzilishi (ruhiy kasalligi yoki aqli zaifligi) sababli muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo'lsa;
- sodir qilgan jinoyati uchun uch yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilingan bo'lsa, o'rtada voyaga yetmagan bolalari borligidan qat'i nazar, er-xotindan birining arizasiga ko'ra ular fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajratiladi.

Agar bolalar haqida, er-xotinning birmalikdagi umumiylar mol-mulkini bo'lish haqida yoki yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er (xotin)ga ta'minot berish uchun mablag' to'lash haqida nizo mavjud bo'lsa, ular nikohdan sud tartibida ajratiladi.

Bunda quyidagi hujjatlar taqdim etiladi;
er(xotin)ning bedarak yo'qolgan deb topilganligi yoki muomalaga layoqatsizligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori;

er (xotin) uch yildan kam bo'limgan muddatga ozodlikdan mahrum qilinganligi to'g'risida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmidan ko'chirma, shuningdek sudlangan er (xotin)ning o'rtadagi bolalari va mol-mulki yuzasidan nizosi yo'qligi to'g'risidagi tilxat.

Nikohdan ajralishga er-xotinning o'zaro roziligi ularning har ikkalasi tomonidan berilgan yoki har biri mustaqil bergen arizalarida ifodalanishi mumkin.

FHDYO organlari nikohdan ajralish uchun asos bo'lgan haqiqiy sabablarni aniqlash bilan, hatto bu sabablar er-xotin tomonidan sanab o'tilgan bo'lsa ham, shug'ullanmaydi.

Nikohdan ajralish to'g'risidagi arizani qabul qilgan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari ajralish to'g'risida ariza bergen kundan uch oy o'tgandan keyin ajralishni rasmiylashtirib, ularga nikohdan ajralish to'g'risida guvohnoma beradi. Uch oylik muddatni belgilashda ham xuddi sudda er-xotinning

yarashib ketishi uchun berilgan muddatdan ko‘zda tutilgan maqsad bo‘ladi. Shu davr mobaynida er-xotin o‘z xatti-harakatlarini yana bir o‘ylab ko‘rib, uning to‘g‘ri-noto‘g‘riligini aniqlab olish mumkin.

Bu uchta asos bo‘yicha nikohdan ajratish osonlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi, chunki bunda ajralish uchun ikkinchi tomonning roziligi talab etilmaydi va er-xotinda voyaga yetmagan bolalar bor-yo‘qligi FHDYoga murojaat uchun to‘siq bo‘lmaydi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 113-moddasiga binoan nikohdan ajratishni qayd etishda er va xotinning o‘zaro kelishuviga ko‘ra, ularning biridan yoki ikkalasidan belgilangan tartibda davlat boji undiriladi.

Suddan farqli o‘laroq, FHDYO organlari nikohdan ajraluvchilarning moddiy va oilaviy ahvoliga qarab davlat boji miqdorini kamaytira olmaydilar yoki uni to‘lash majburiyatidan ozod etolmaydilar. Nikohdan ajraluvchi shaxslarning o‘zlaribu summani to‘lashlari lozim.

Ajralishni rasmiylashtirish va er-xotinga nikohdan ajralish to‘g‘risidagi guvohnoma ariza bergen kundan boshlab uch oy o‘tgandan keyin beriladi. Shu vaqtdan boshlab nikohi tugallangan er-xotin yangi nikohga o‘tish huquqiga ega.

5-§. Nikohdan ajralishning huquqiy oqibatlari

Nikohdan ajralish bir qator huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Nikohlanuvchilar nikohga kirish vaqtida o‘z familiyasini o‘zgartirgan er (xotin) nikohdan ajratilgandan keyin ham shu familiyada qolishga haqli yoxud uning xohishiga binoan sud tomonidan nikohdan ajratish to‘g‘risidagi hal qiluv qarorini chiqarayotganda unga nikohgacha bo‘lgan familiyasi qaytarilishi mumkin (Oila kodeksining 46-moddasi).

Oila kodeksining 44-moddasiga binoan, nikohdan sud tartibida ajratilayotganda er va xotin voyaga yetmagan bolalar kim bilan yashashi, bolalarga va (yoki) mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj er yoki xotinga ta‘minot berish uchun mablag‘ to‘lash tartibi, bu mablag‘ning miqdori yoxud er-xotinning umumiy mol-mulkini bo‘lishga doir kelishuvni ko‘rib chiqish uchun sudga taqdim qilishlari mumkin.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan masalalar bo‘yicha er va xotin o‘rtasida kelishuv bo‘lmagan taqdirda, shuningdek, ushbu kelishuv bolalar yoki er-xotindan birining manfaatlariga zid ekanligi aniqlangan taqdirda sud:

nikohdan ajratilgandan keyin voyaga yetmagan bolalar ota-onasining qaysi biri bilan yashashini aniqlashi;

voyaga yetmagan bolalarga ta‘minot berish uchun ota-onaning qaysi biridan va qancha miqdorda aliment undirilishini aniqlashi;

er va xotinning (ulardan birining) talabiga ko‘ra ularning birligidagi mulki bo‘lgan mol-mulkni bo‘lishi;

er (xotin)dan ta‘minot olishga haqli bo‘lgan xotin (er)ning talabiga ko‘ra ana shu ta‘minot miqdorini belgilashi shart.

Oila kodeksi 44-moddasining oxirgi bandida o‘z ifodasini topgan, mahalliy urf-odat va an'analardan kelib chiqqan muhim yangiliklardan biri nikohdan ajratish ishi ko‘rib chiqilayotganda to‘yni o‘tkazishga ketgan sarf-harajatlarni undirish haqidagi talablar qondirilmaydi.

Yangi qonunda sud er-xotinning har ikkalasi yoki ulardan biri to‘laydigan davlat boji miqdorini belgilashi lozim. Agar sud bu bojni er-xotinning har ikkalasidan undirish lozim deb topsa, ularning har biri to‘laydigan boj miqdorini belgilaydi.

Sud ularning har birining moddiy ahvolini, oilaning barbod bo‘lishidagi aybi darajasini va boshqa muayyan holatlarni, jumladan, voyaga yetmagan bolalarning er-xotindan qaysi biri bilan yashash uchun qolayotganligini hisobga oladi.

YUqorida ko‘rsatilgan nizolar, nikohdan ajralish jarayonida er-xotindan bittasi yoki ikkalasining talabiga muvofiq sudning tashabbusiga asosan, agar buni voyaga yetmagan bolalarning yoki mehnatga layoqatsiz er yoki xotinning manfaatlarini muhofaza qilish taqazo etsa, ko‘riladi.

Biroq, bu nizolar sud nikohdan ajralish to‘g‘risida hal qiluv qarorini chiqargan holdagina ko‘riladi. Agar sud nikohdan ajralishni rad etsa, ko‘rsatilgan nizolar mustaqil ish tartibida ko‘riliishi lozim.

Taraflarning xohishiga binoan sanab o‘tilgan talablarning har biri, agar nikohdan ajralish to‘g‘risidagi da'vo sud tomonidan qanoatlantirilsa, u mustaqil masala sifatida ko‘riliishi mumkin.

Oila kodeksiga nikohdan ajratilganda nikohning tugatilishi vaqt masalasiga muhim yangilik kiritdi. Endilikda nikohdan sudda ajratilganda, sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab nikoh tugatiladi. O‘n kun ichida sud nikoh tuzilganligi ro‘yxatga olingan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga ushbu qarordan ko‘chirma yuborishi shart.

Nikohdan ajralish er-xotinning shaxsiy, shuningdek, mulkiy huquqiy munosabatlarining kelajak vaqt uchun tugallanganligini anglatadi. Nikoh faqat oila huquqi bilangina tartibga solinadigan huquqiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydi. Nikoh tuzilishi bilan ma'lum yuridik faktlarning mavjudligi tufayli fuqarolik, mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan huquqiy munosabatlar vujudga keladi. Nikohdan ajralish o‘z munosabatlarining tugallanishiga qaratilgandir.

III BO'LIM

OILA

XI-Mavzu. Ota-onalar va bolalarning shaxsiy huquq va majburiyatlari

1-§. Bolaning nasl-nasabini belgilash

Ota-onsa va bolalarning bir-biriga nisbatan huquq va majburiyatları bolaning nasl-nasabiga qarab belgilanadi.

Ota-onsa va bolalar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni kelib chiqishiga asos bo'lib bolaning otadan paydo bo'lganligi va onadan tug'ilganlik yuridik fakti qonun bilan belgilangan tartibda bo'lishligi lozim.

Oila kodeksining 60-moddasiga binoan, bolaning shu onadan tug'ilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organi tomonidan, bola tibbiy muassasaning hujjatlariga asosan agar, bola tibbiy muassasada tug'ilmagan holda boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Agar bola tibbiy muassasadadan tashqari joyda tug'ilgan bo'lsa, u holda bu yuridik fakt guvohlar ko'rgazmalari va boshqa dalillar bilan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining vafoti, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan so'ng uch yuz kun ichida tug'ilgan bolasi nikohda tug'ilgan bola hisoblanadi.

Bola bilan uni onasi o'rtasida huquqiy munosabat uni qonuniy nikohda bo'lgan yoki bo'lmaslididan qat'i nazar tug'ilish faktiga asoslanadi.

Bolaning otadan bunyod bo'lganligini belgilash anchagina murakkab.

Agar bola qayd etilgan nikohda tug'ilgan bo'lsa, onasi bilan nikohda bo'lgan shaxs uni otasi degan ehtimolga asoslaniladi. Bu shaxsni otaligi ehtimollikka asoslanib, ushbu faktini isbotlash shart emas.

FHDYO organi tomonidan berilgan bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma unda ko'rsatilgan ota-onadan bolaning paydo bo'lganligini isbotlovchi hujjat bo'lib hisoblanadi.

Agar nikoh tuggagandan keyin uch yuz kun ichida tug'ilsa va bu davrda ayol yangi nikohda kirgan bo'lsa, bola yangi nikohda tug'ilgan bo'lib hisoblanadi. bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasb-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega.

Bolaning huquqiy otasi, otalikni o'z xohishi bilan tan olishligi mumkin, agar u buni inkor etsa, u holda otalik sud tartibida belgilanadi.

Otalikni tan olish fakti alohida sud tartibida belgilanadi. Manfaatdor shaxs otalikni tan olish maqsadida ariza bilan sudga murojaat etishi mumkin. Manfaatdor shaxslar bolaning onasi, uning vasiysi (homiysi), voyaga yetgandan so'ng bolaning o'zi hamda prokuror hisoblanadi. ariza boshqa manfaatdor shaxslar tomonidan ham berilishi mumkin.

Otalikni tan olish faktini belgilash to'g'risidagi ishda muayyan faktini belgilash unda qanday maqsadlar uchun zarur ekanligi arizada ko'rsatilishi lozim. Qoida bo'yicha otalikni tan olish fakti boquvchisini yo'qotgan vaqtida unga pensiya tayinlash, meros olish, ya'ni mulkiy huquqlarni amalga oshirish maqsadida belgilanadi.

Sudning otalikni tan olish to‘g‘risidagi ajrimiga asosan bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomaga yozuviga ota to‘g‘risidagi ma'lumot yozilib, bolaga tug‘ilganlik to‘g‘risida guvohnoma beriladi.

2-§. Ota-onaning arizasi bo‘yicha bolaning nasl-nasabini belgilash

Amaldagi qonunlarga asosan ayrim hollarda ota-onalar o‘zaro yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan nikohda bo‘lmalar, u holda qonun bilan belgilangan tartibda o‘z huquq va majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajara olishlari mumkin.

Oila kodeksi 61-moddasining 1-qismiga muvofiq bolaning onasi bilan nikohda bo‘lmagan shaxsning otaligi o‘zining bolaning otasi deb tan olgan shaxs va onaning fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga birgalikda topshirgan arizasiga binoan belgilanadi.

Otalikni tan olish bolaning onasi bilan nikoh tuzish vaqtida ham bo‘lishi mumkin. Bunday holatda otalikni qayd etishga faqat uning roziligi bo‘lgandagina yo‘l qo‘yiladi. Bolaning ota-onasini boshqa shaxslar bilan nikohda bo‘lishi otalikni ixtiyoriylik tan olish uchun to‘sinq bo‘lmaydi.

Nikohdan tashqari tug‘ilgan bolaga nisbatan faqatgina muomala layoqatiga ega bo‘lgan fuqaro tomonidan emas, voyaga yetmagan shaxs tomonidan ham otalikni tan olish mumkin. Ammo bu to‘g‘risida qonunda aniq qoida belgilanmagan. Qonun oldiga qo‘yilgan maqsad voyaga yetmaganlarning otaligi va onaligini belgilab, favqulodda hollarda ularga nikoh tuzish uchun yo‘l qo‘yib, alohida holatlarda ularga nikoh yoshini kamaytirish uchun imkon yaratishdan iborat. Biroq yoshi 17 yoshdan kam bo‘lmagan shaxsning otaligi tan olinishi mumkin, chunki nikoh yoshi kamaytirilganda shunga to‘g‘ri keladi. Otalikni tan olish qat‘iy bo‘lib hisoblanadi. U to‘g‘risida nizolashishga faqat sud tartibida yo‘l qo‘yiladi.

Otalikni tan olishlik ota va bola o‘rtasida, shuningdek bolaning ota tomonidan qarindoshlari bilan huquqiy munosabatni keltirib chiqaradi.

Otalikni ixtiyoriy tan olishlikda faqat otaning roziligi yetarli emas. Odatda buning uchun ona ham o‘z roziligini bildirsa, ota va bola o‘rtasida huquqiy munosabat vujudga keladi.

Oila kodeksi 61-moddasining 3-bandiga asosan, bolaning otasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsa, vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan otalikni belgilash to‘g‘risidagi arizani uning nomidan homiysi berishi mumkin.

Otalikni belgilash to‘g‘risidagi ariza bolaning tug‘ilganligini qayd etish vaqtida, shuningdek bola tug‘ilganligi qayd etilgandan keyin ham berilishi mumkin. Agar er-xotin bola tug‘ilgandan so‘ng otalikni belgilash to‘g‘risida birgalikda ariza berishining imkonи bo‘lmay qolishi yoki mushkul bo‘lishni ko‘rsatuvchi asoslar mavjud bo‘lsa, tug‘ilajak bolaning o‘zaro nikohda bo‘lmagan

ota-onasi shunday arizani ona homiladorlik vaqtida ham fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga berishga haqli.

Otalikni belgilash rad etilganda, o‘zini bolaning otasi deb tan olgan shaxs sudga shikoyat qilishi mumkin.

3-§. Otalikni sud tartibida belgilash

Otalik hamma vaqt ham ixtiyoriy ravishda belgilanavermaydi. Nikohsiz tug‘ilgan bolaning otasi undan voz kechib, otalikni qayd etishni inkor etadigan hollarda ham bo‘ladi. Bunday holatda bolalar manfaatini himoya qilib, sud tartibida otalikni belgilashga yo‘l qo‘yiladi. Oila kodeksining 62-moddasiga binoan otalikni sud tartibida belgilash ota-onadan birining yoki bolaning vasiysi (homiysi)ning yoxud bola kimning qaramog‘ida bo‘lsa, shu shaxsning arizasiga, shuningdek bola voyaga yetganidan keyin uning o‘zi bergan arizasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Otalikni belgilash bilan bog‘liq masalalar da‘vo ishini yuritish tartibida ko‘riladi. Sud otalikni belgilash vaqtida javobgarning bolaning otasi ekanligini aniq tasdiqllovchi dalillarga asoslanadi.

Otalikni belgilashda sudlar amaldagi qonunlar bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Oliy Sudining 2001 yil 1 iyundagi "Otalikni belgilash haqidagi ishlarni ko‘rishda sudlar tomonidan qonunlarning tatbiq etilishi to‘g‘risida"¹⁰⁹ chiqargan Plenum qaroriga assosan to‘g‘ri hal qilmoqdalar.

Qarorda ko‘rsatilishicha, "Otalikni belgilash, otalik fakti va otalikni tan olganlik fakti tushunchalarini sud amaliyotida farqlash olish zarur.

Otalikni sud tartibida belgilash - 1968 yilning 1 oktabridan keyin tug‘ilgan bolalarga nisbatan otasi deb taxmin qilinayotgan shaxs hayot bo‘lgandagina yo‘l qo‘yilishi tushuniladi va bunday talablar da‘vo yuritish tartibida hal etiladi.

Otalik faktini belgilash - 1968 yilning 1 oktabridan keyin tug‘ilgan bolalarga nisbatan bolaning otasi, deb taxmin qilinadigan shaxs vafot etgan taqdirda manfaatdor shaxsning arizasi bilan qo‘zg‘atilgan ish tushuniladi va bunday talab alohida ish yurituv tartibida ko‘riladi. Mazkur faktini belgilash jarayonida manfaatdor shaxslar o‘rtasida nizo (meros, boquvchisini yo‘qotganlik hollarida) kelib chiqsa, u holda ariza sudda ko‘rilmasdan qoldiriladi va manfaatdor shaxslarga umumiy asoslarda da‘vo qo‘zg‘atish huquqlari tushuntiriladi.

Bunday fakt aniq ish holatlarini inobatga olgan holda bolaning onasi homilador bo‘lgan davrda o‘zini tug‘ilajak farzandining otasi deb tan olgan shaxs vafotidan so‘ng tug‘ilgan bolaga nisbatan ham belgilanishi mumkin.

Otalikni tan olganlik fakti - 1968 yilning 1 oktabrigacha tug‘ilgan bolalarga nisbatan bolaning otasi deb taxmin qilinadigan shaxs vafot etgan taqdirdagina manfaatdor shaxsning arizasiga binoan qo‘zg‘atilgan ish tushuniladi

¹⁰⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001 yil 1 iyundagi qarorlari. -T., 2001, 30-38 b.

va bunday ariza alohida ish yuritish tartibida ko‘riladi. Bunday bolalarga nisbatan otalik sud tartibida belgilashga yo‘l qo‘yilmaydi¹¹⁰.

Oila kodeksining 62-moddasiga muvofiq bunday dalillarga quyidagilar kiradi: bolaning onasi bola tug‘ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro‘zg‘or yuritganligi yoki ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta‘minlab turganliklarini, yoki javobgarning otalikni tan olganligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillar.

Amaldagi qonunda sanab o‘tilgan holatlar erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatda amaliy oilaviy munosabatni nazarga olmasdan, faqat asosida qonuniy oila qurishga qaratilgan maqsad bo‘lishligini qo‘riqlaydi.

Shu bilan birga otalikni belgilashda sanab o‘tilgan barcha holatlarning birgalikda bo‘lishi talab etilmaydi, balki ulardan faqat birortasi bo‘lsa ham kifoya.

A) Bolaning onasi bola tug‘ilishiga qadar javobgar bilan birga yashaganligi va umumiy ro‘zg‘or yuritganligi. Ushbu holatda bolaning ota-onasi doimo birga turganligi e‘tiborga olinib, qoida bo‘yicha onaning homiladorlik davrida umumiy-ro‘zg‘or ishlarini birgalikda olib borganliklari nazarda tutilib, birgalikdagi daromadlar va harajatlar, uy-ro‘zg‘or buyumlarini olishlik, turmushda o‘zaro yordam va boshqalar tushuniladi (ba‘zi vaqtida ular bir turar joyda yashamasliklari ham mumkin). Masalan, talabalar yoki yosh xodimlar har xil yotoqxonalarda yoki xonalarda yashasalarda katta bo‘lmagan umumiy "uy xo‘jaligiga" ega bo‘lishlari mumkin. Muhimi shundaki, bolaning onasi va javobgar o‘rtasidagi oilaviy-maishiy aloqalar bola tug‘ilganiga qadar, aniqrog‘i ona homilador bo‘lishi davrida bo‘lishi lozim. agar bu aloqalar bola paydo bo‘lguniga qadar tugagan bo‘lsa, ular otalikni o‘rnatish uchun asos bo‘la olmaydi.

B) Ular bolani birgalikda tarbiyalaganliklari yoxud ta‘minlab turganliklari. Agar birinchi shart ikki zarur fakt - birga yashash va umumiy ro‘zg‘or yuritishning qo‘shilishidan tarkib topgan bo‘lsa, ikkinchi shart esa faqat bolani birgalikda tarbiyalaganlik yoxud ta‘minlab turganlik holatlarini o‘z ichiga oladi. Bolani tarbiyalash uni ta‘minlash bilan birga bo‘lmasligi ham mumkin. Bu faqat otasi tomonidan bo‘lmasdan (u oliy o‘quv yurtida o‘qiydi), onasi tomonidan ham bo‘lishi mumkin, masalan, agar onani va uning bolasini ota-onasi ta‘minlab turgan bo‘lsa (buva va buvi). Otalikni belgilash nizosini ko‘rishda sud uchun otani bolani tarbiyalashda ishtirok etganligi yetarlidir. Teng asosda faqat ta‘minotni berishlik (tarbiyalashda ishtirok etmasa ham) otalikni belgilash uchun yetarlidir. Biroq bolaning onasi uchun berilgan har qanday moddiy yordam ha otalikni isbotlash uchun tegishli asos bo‘la olmaydi (moddiy yordam bolaning onasi bilan samimiy munosabatda bo‘lgan do‘stining xotirasi uchun berilgan yordam ham bo‘lishi mumkin. Moddiy jihatdan ta‘minlab yurgan shaxs bola o‘ziniki ekanligini bilishi va bolaning otasi sifatida harakat qilishi lozim. Ta‘minot berayotgan shaxs bola o‘z farzandi va u ota sifatida harakat qilayotganligini bilishi lozim).

¹¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2001 yil 1 iyundagi qarorlari. -T., 2001, 32 b.

Qoida bo'yicha ta'minot deganda bolaning doimiy ta'minoti uchun vaqtiga bilan berib turilgan moddiy yordam tushuniladi.

Otalikni sud tartibida belgilash huquqi da'vo muddati bilan o'tib ketmaydi, shuning uchun qancha vaqt o'tmaslik, bu to'g'risida da'vo qilish mumkin.

V) Javobgarning otalikni tan olganligini aniq tasdiqlovchi boshqa dalillarni e'tiborga olish.

Bu asosning oldingilaridan farqi shundan iboratki, javobgar otalikni rad etsa ham, otalikni tasdiqlovchi obyektiv faktlar mavjud bo'ladi. Javobgar tomonidan otalikni tan olishlik subyektiv (ya'ni ongli va erkli) holat bo'lib, ma'lum harakatlarda ifodalanadi: so'zlab berish, xatlar va hujjatlarda bunda ehtimol qilinayotgan ota o'z bolasi ekanligini tan oladi. Bunday tan olishlik onaning homiladorlik davrida, shuningdek bola tug'ilgandan keyin ham bo'lishi mumkin. Uning qarindosh-urug'lar, do'starlar, qo'ni-qo'shnilar, birga ishlovchilar va mansabdor shaxslar bilan bo'lgan suhbatlarda bolaning otasi ekanligini tan olishi javobgar tomonidan otalikni tan oluvchi dalil bo'lib hisoblanadi.

Otalikni belgilash ishlari da'vo ishini yurgizish va alohida tartibda ko'rildi.

Ishda ishtirok etish uchun ariza beruvchi, bolaning onasi yoki uning vasiysi va manfaatlar fuqarolar hamda tashkilotlar jalb etilishi mumkin. O'lganning xatini va qarindosh-urug'lari manfaatdor shaxslar bo'lib hisoblanadi.

4-§. O'zaro nikohda bo'lmagan shaxslardan tug'ilgan bolalarning huquq va majburiyatları

Amaldagi oila kodeksining 61 va 62-moddalarida nazarda tutilgan tartibda otalik belgilanganda bolalar ota-onasi va ularning qarindoshlariga nisbatan o'zaro nikohda bo'lgan shaxslardan tug'ilgan bolalar bilan teng huquq va majburiyatlariga ega bo'ladi.

Nikohsiz tug'ilgan bolalarning huquqlari bilan nikohda tug'ilgan bolalarning huquqlarini tenglashtirishga intilish qonunchilik siyosatining eng to'g'ri va demokratik yo'nalishitidir. Biroq ijtimoiy taraqqiyot sharoitidagi tabiiy sabablar oqibatida bunday bolalarning barcha huquq va majburiyatlarning to'la tengligini ta'minlash imkoniyati deyarli yo'q¹¹¹.

Maxsus huquqiy adabiyotlarda to'g'ri ta'kidlab o'tilganidek yolg'iz ayoldan tug'ilgan bolalarning huquqiy holati birgina alohida xususiyatga ega: bunday bolalar faqat onaning qarindoshlari sirasiga kiradilar, ota va uning qarindoshlariga nisbatan esa, hyech qanday huquq va majburiyatlarga ega bo'lmaydilar.

Nikohda bo'lgan va sun'iy homila hosil qilish yoki embrionni ko'chirishga yozma rozilik bergen shaxslarda shu usullarni qo'llashi natijasida bola tug'ilsa, tug'ilish to'g'risidagi yozuvlar daftariga ular shu bolaning ota-onasi deb yozilganda bir qator muammolar yuzaga keladi.

Me'yoriy hujjatlarda hayotdan kelib chiqadigan savollarga javob berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

¹¹¹ O'zbekiston Respublikasining oila kodeksiga sharhlar. -T., "Adolat", 2000. 125 b.

XII Mavzu. Voyaga yetmagan bolalarining shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari

1-§. Bolaning oiladagi huquqiy holati

Insoniyat tarixini ma'lumot berishicha, bolalar oilada tug'ilganlar va yashaganlar va tarbiyani birinchi navbatda ota-onalaridan va boshqa oila a'zolaridan olganlar. Jamoat tarbiyasini qo'ni-qo'shnilaridan, mahalla aholisi va qarindosh-urug'lardan olganlar.

1917 yil davlat to'ntarishidan so'ng Rossiyada shuningdek, Turkistonda "bolalarining Oliy vasiysi" deb oila tarbiyasini o'rniga birinchi bo'lib "jamoat tarbiyasi" e'lon qilindi.

Shuning uchun oilada bola tarbiyasi muammolari yetarli vujudga kelmadi. Shu bilan birga ota-onasiz qolgan bolalarni jamoat muassasalariga joylashtirish masalasi juda muhim masala bo'lib qoldi.

Bolalarga bo'lgan munosabatni boshqacha talqin etish ko'proq Yevropa davlatlarida paydo bo'ldi va ular o'z ifodasini 1989 yil 20 noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44-sessiyasida qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"¹¹²da o'z ifodasini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992 yil 9 dekabrida "Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya"ga qo'shilish haqida qaror qabul qildi.

Bu qarorda bolalar alohida g'amxo'rlik va himoya huquqiga ega ekanligi e'tirof etildi.

Shunga ham alohida e'tibor berish kerakki, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomida e'lon qilingan tamoyillarga muvofiq jamiyatning barcha a'zolarini qadr-qimmatini, teng va daxlsiz huquqlarini e'tirof etish inson erkinliklarini ta'minlashning asosi ekanligini e'tiborga olinganligi ham qayd etilgan. Bunday tarixiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan Konvensiyaga qo'shilish O'zbekiston Respublikasining Mustaqillikka erishganligining sharofatidir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 46-moddasida belgilangan xotin-qizlar va erkaklar teng huquqligi, oilani jamiyat va davlat muhofazasida bo'lishi to'g'risida davlat g'amxo'rligi Respublikaning Fuqarolik, Oila, Mehnat va Jinoyat kodekslarida, Sog'liqni saqlash, Davlat pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunlarda o'z ifodasini topgan. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida xotin-qizlarning mehnat qilish, uning uchun haq olish, dam olish kabi huquqiy munosabatlarini amalga oshirishdagi keng imtiyozlari berilishi bilan birga ularni hayotga tatbiq qilinishi ham kafolatlangan.

Bolalar deyilganda amaldagi kodekslarda quyidagi iboralar ishlataladi: "bola", "go'dak", "emizadigan bola", "kichik yoshdagi bola", "o'spirin" (14 yoshdan 18 yoshgacha), "voyaga yetmagan bolalar" (18 yoshga to'lmagan).

¹¹² O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993 yil, 1-son, 41-modda.

Sharqda bolalar tarbiyasida oila tarbiyasi, ota-onalar tarbiyasi birinchi bo‘lib turgan.

Bolalarning jamiyatdagi o‘rni va holati ota-onasining maqomi bilan belgilangan. Jamoat tarbiyasi bu ikkinchi o‘rinda bo‘lgan.

2-§. Voyaga yetmagan bolalarning shaxsiy huquqlari

Voyaga yetmagan bolalar deyilganda o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan bolalar tushuniladi. Amaldagi qonunlar bilan belgilangan Bolalarning huquqlari ularni tug‘ilishi bilan vujudga keladi. Ularning muomala layoqati Fuqarolik kodeksini 22-moddasi va Oila kodeksini tegishli moddalari bilan belgilanadi.

Fuqaroning o‘z harakatlari bilan fuqarolik huquqlariga ega bo‘lish va ularni amalga oshirish o‘zi uchun fuqarolik burchlarini vujudga keltirish va ularni bajarish layoqati (muomala layoqati) u voyaga yetgach, ya’ni o‘n sakkiz yoshga to‘lgach to‘la hajmda vujudga keladi.

Bolalar huquqi deyilganda Oila kodeksi Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasida" ifodalangan terminlardan foydalangan. Qonunchilikda foydalilanilgan "bolalarning shaxsiy huquqlari" yig‘ilgan xarakterga ega bo‘lib har xil mazmunni ifodalaydigan bir xil bo‘lmagan maqsadlarni nazarda tutadi. Voyaga yetmaganlarning shaxsiy huquqlari birinchi darajadagi va mustaqil quyidagi shaxsiy huquqlarga bo‘lish mumkin: oilada yashash va tarbiyalanish huquqi; ota-onasi va boshqa qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqi; o‘zini himoya qilishga bo‘lgan huquqi; o‘z fikrini erkin ifoda eutish huquqi; ism, ota ismi va familiya olish huquqi.

Sanab o‘tilgan huquqlarni har biri bolaga davlat tomonidan berilgan bo‘lib, oilada tarbiyalanishi, o‘zini himoya qilish mumkin. Oila kodeksi bu huquqlarni 11-bobda belgilab, davlat o‘z navbatida birinchidan, ularni ahamiyatini ko‘rsatadi, ikkinchidan ularni amalga oshirishligini kafolatlaydi. Ammo shuni bilmoq kerakki voyaga yetmaganlarning har qanday shaxsiy huquqlari o‘z mazmuniga ega bo‘lib kodeksning tegishli moddalarida aniq ifodalangan.

Oila kodeksining 65-moddasida belgilangan bolani yashash va tarbiyalanish huquqi avvalo bola o‘z ota-onasi bilan birga yashashligi mumkin ekanligini anglatadi.

Fuqarolik kodeksining 21-moddasiga binoan o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlarning (kichik yoshdagi bolalarning) yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning qonuniy vakillari ota-onalari, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari yashaydigan joy voyaga yetmaganlar yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning yashash joyi hisoblanadi. Tabiiy, ulardan katta bo‘lgan yoshdagi voyaga yetmagan bolalar ham ular bilan yashaydilar.

Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi o‘z ota-onasini bilish huquqi bilan mustahkam bog‘liqdir. Bu haqda "Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya"ni 7-moddasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilanadi. Haqiqatda biroq

qo'shimcha sharti bilan "agar bu mumkin bo'lsa" bunday holat voyaga yetmagan bolaning huquqi sud tartibida otalik belgilanayotgan vaqtda nazarga olinadi.

Oila kodeksi 66-moddasining birinchi qismiga binoan bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ota-onasining nikohdan ajralish, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bunga ta'sir etmaydi.

Ota va ona alohida yashayotgan bo'lsalar u holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega.

Ota-onsa turli davlatlarda yashayotgan bo'lsalar ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

Oila kodeksi 66-moddasining 3-qismida favqulodda vaziyatlarda tushib qolgan bolani uchrashish huquqini amalgalashish muammosi masalasiga alohida to'xtab o'tiladi. Oila kodeksi ularga qarab turish, qamoqqa olish, hibsga olish, davlat mussasasida bo'lish va boshqa hollarni nazarda tutadi. Bu sanab o'tilgan hollar mutloq bo'lib hisoblanmaydi. Har qanday holatda ham bu favqulotdagi holatlar voyaga yetmaganni tashqi dunyodan, oiladan, ota-onadan, yaqin qarindoshlardan ajratilganligi bilan bog'liqdir. Ular bilan uchrashish unga berilgan bu huquq nafaqat o'z mazmuni bo'yicha insonparvarlik shu bilan birga tarbiyalash, zarur hollarda esa qayta tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 37-moddasi voyaga yetmagan mahkumlarga yaqin qarindoshlari bilan har oyda bir marta muddati uch soatgacha bo'lган qisqa muddatli uchrashuv imkoniyatini beradi.

Oila kodeksining 67-moddasiga binoan bola o'z huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish huquqiga ega.

Bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar), amaldagi qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bola qonunga muvofiq to'la muomala layoqatiga ega deb e'tirof etilsa, u o'z huquqi va majburiyatlarini, shu jumladan himoyaga bo'lган huquqini mustaqil amalgalashishga haqlidir.

Bolani himoyaga bo'lган huquqini belgilab, Oila kodeksi yanada kengroq yangilikni olib kirdi.

Endilikda voyaga yetmagan bola ota-onsa (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) tomonidan qilinadigan suiiste'molliklardan himoyalanish huquqiga ega.

Ma'lumki, har qanday fuqaroning huquqi shu bilan birga voyaga yetmagan bolalarning huquqi sud tartibida himoya qilinadi.

Oila kodeksining 68-moddasi bolaning o'z fikrini ifoda etish huquqini belgilaydi; bu huquqni harakat doirasini aniqlaydi; qanday holatlarda voyaga yetmaganlarning fikri hisobga olinadi.

Oila kodeksining 69-moddasiga binoan, bola ism, ota ismi va familiya olish huquqiga ega.

Bolaga ism ota-onaning kelishuviga binoan, ota ismi esa otasining ismiga ko'ra beriladi.

Bolaning familiyasi ota-onaning familiyasiga qarab belgilanadi. Ota-onsa turli familiyalarda bo‘lsalar ota-onaning kelishuviga binoan bolaga otasining yoki onasining familiyasi beriladi. Ota-onaning xohishiga ko‘ra, bolaga ota yoki ona tomonidan milliy an’analarga ko‘ra boboning ismi bo‘yicha familiya berilishi mumkin. Ota-onsa o‘rtasida bolaning ismi va (yoki) familiyasi bo‘yicha kelishuv bo‘limganda, kelib chiqqan nizo vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

3-§. Voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlari

Voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlari ilgari amalda bo‘lgan qonunlarda o‘zining ifodasini topmagan edi. Endilikda ular Oila kodeksini 90-moddasida o‘zining tegishli o‘rniga ega bo‘ldi. Bu holat yana bir bor bolaga nisbatan unga huquqni subyekti sifatida keng huquqlar belgilanganligini anglatadi.

Amaldagi qonun voyaga yetmagan bolalarning mulkiy huquqlarini to‘plovchi tushuncha xarakteriga ega ekanligini inobatga olib ularni har biriga alohida e’tibor beradi.

Oilal kodeksini 90-moddasiga binoan voyaga yetmagan bolalar o‘z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta’milot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta’miloti uchun olingan mablag‘, pensiya, aliment uning otasi yoki onasi tasarrufida bo‘lib, bolaning ta’miloti, tarbiyasi va ta’lim olishi uchun sarflanishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkini tasarruf etishga doir vakolatlar amalga oshirilayotganda fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar qo‘llaniladi.

Bulardan tashqari bolalar quyidagi mulk huquqiga ega: sovg‘a tariqasida olingan mulkka. Bu an'anaviy va juda ko‘p tarqalgan mulk olishlikni usuli bo‘lib hisoblanadi. Bunday mulk nafaqat qarindoshlardan shuningdek boshqa jismoniy shaxslar hatto yuridik shaxslardan ham olingan mulk bo‘lishi mumkin.

Fuqarolik kodeksi tomonidan belgilangan meros tartibida olingan mulklar. U qonun yoki vasiyatnomaga tartibida olinishidan qat’iy nazar; ulardan olingan daromadlar.

Fuqarolik kodeksini 29-moddasiga binoan, o‘n to‘rt yoshga to‘limgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar) uchun bitimlarni, ushbu moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilganlardan tashqari, ularning nomidan faqat ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylari tuzishlari mumkin.

Olti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar: mayda maishiy bitimlar; tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan, notarial tasdiqlanishi yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlar; qonuniy vakil yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan muayyan maqsad yoki erkin tasarruf etish uchun berilgan mablag‘larni tasarruf etish borasidagi bitimlar.

Kichik yoshdagi bolaning bitimlari bo‘yicha, shu jumladan o‘zi mustaqil tuzgan bitimlar bo‘yicha uning ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiysi,

agar ular majburiyatning buzilishida o‘zlarining ayblari yo‘qligini isbotlay olmasalar, mulkiy javobgar bo‘ladilar. Ushbu shaxslar qonunga muvofiq kichik yoshdagi bolalar yetkazgan zarar uchun ham javobgar bo‘ladilar.

4-§. Voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini 45-moddasiga binoan voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir.

Har bir shaxsga shu bilan birga voyaga yetmagan bolalarni o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga quyidagini nazarga olish lozimki, voyaga yetmagan bolalar o‘zlarini jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘ra hamma vaqt ham u yoki boshqa hayotiy vaziyatni to‘g‘ri baholay olmaydilar.

Shuning uchun Oila kodeksi 67-moddasini 2-qismiga binoan, bolaning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi (ularning o‘rnini boquvchi shaxslar) amalga oshiradilar.

XIII Mavzu. Ota-onaning shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari

1-§. Ota-onsa huquq va majburiyatharining tengligi

Oila kodeksini 71-moddasi ota-onaning o‘z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga ega ekanligini belgilaydi (ota-onalik huquqlari).

Ota-onalik huquqlari bolalarning kelib chiqishlariga asoslanib, tegishli qonun bilan belgilangan tartibda bola tug‘ilganligi FHDYO organida yozilishiga asoslanadi.

Agar ota-onalar bolalari bilan birga yashasalar u holda qoida asosida ota-onalarining huquqlarini amalga oshirish masalalari er-xotinlarining ikkalasi bilan hal qilinadi (masalan, bolani o‘qish joyini tanlash va boshqalar).

2-§. Voyaga yetmagan ota-onaning huquqlari

Oila kodeksi birinchi marotaba ota-onalik huquqlarini voyaga yetmagan ota-onalarga berilishini belgilaydi. Unda boshqa yangiliklar to‘g‘risida so‘z yuritilib, ota-onalarning huquqiy maqomini yuqori ko‘tarib ularning o‘z bolalariga nisbatan huquq va majburiyatlarini aniqladi.

Voyaga yetmagan ota-onsa o‘z bolasi bilan birga yashash va uning tarbiyasida ishtirok etish huquqiga ega.

O‘zaro nikohda bo‘lmagan voyaga yetmagan ota-onsa ulardan bola tug‘ilganda hamda ularning onaligi va (yoki) otaligi belgilanganda o‘n olti yoshga to‘lishlari bilan ota-onalik huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar. Voyaga yetmagan ota-onsa bilan birgalikda tarbiyalash uchun bolaga

vasiy tayinlanishi mumkin. Bolaning vasiysi bilan voyaga yetmagan ota-onalarning o'rtasida kelib chiqadigan kelishmovchiliklar vasiylik va homiylik organi tomonidan hal etiladi.

Voyaga yetmagan ota-onalarning o'z otaligi va onaligini umumiy asoslarda e'tirof etish yoki unga e'tiroz bildirish huquqiga ega.

3-§. Ota-onaning bolalarga ta'lif -tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlari

Oila kodeksini 73-moddasi ota-onalarni o'z bolalarini tarbiyalash huquqlarini belgilaydi. Shu bilan birga ushbu moddada o'z bolalarini tarbiyalash majburiyati ham aniqlangan.

Shunday qilib, ota-onalik huquqlari biryo'la bolalarini tarbiyalash majburiyati ham bo'lib hisoblanadi.

Bu haqda Konstitutsiyaning 64-moddasida shunday deyiladi: ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. ota-onalarning o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'ligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va ahloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari lozim.

Ota-onalarning o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustunlik huquqiga ega.

Ota-onalarning qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lif olishini ta'minlashi kerak.

4-§. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ota-onaning huquq va majburiyatlari

Oila kodeksining 74-moddasi ota-onalarga bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilishni ularni zimmasiga yuklaydi.

Ota-onalar o'z bolalarining qonuniy vakillaridir. Ularning har biri shundan foydalanadi.

Ota-onalarning vakillari bo'lganligi uchun har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Buning uchun bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma yoki pasortini ko'rsatishi yetarli, chunki bundan bolaning huquqiy otasi yoki onasi ekanligi bilinib turadi.

Nikohsiz tug'ilgan bolaning huquqini himoya qilish, qoida asosada ona tomonidan amalga oshiriladi. Bunday bolani huquqini himoya qilish amaldagi otaga agar ota-onalarning o'z otaligini o'z xohishi bilan tan olsa yoki otalik sud tartibida belgilangan bo'lsa unga yuklatiladi.

Bolaning yoshi kattalashib borgan sari fuqarolik muomala layoqati ham kengayib boradi. Shuning uchun masalan, Fuqarolik kodeksini 27, 29-moddalarida

o'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan, shuningdek o'n to'rt yoshga to'limgan voyaga yetmaganlar (kichik yoshdagi bolalar)ni muomala layoqatini aniq belgilab beradi.

Bularni hisobga olib o'n to'rt yoshga to'limgan voyaga yetmaganlar uchun fuqarolik-huquqiy bitimlarni (FKning 28-moddasi 2-qismida ko'rsatilgan hollardan tashqari ular nomidan faqat ularni ota-onalar, ya'ni o'z bolalarining qonuniy vakili sifatida qatnashadilar.

O'n to'rt yoshga to'limgan voyaga yetmaganlarning fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan harakatlari haqiqiy emas deb topiladi. Biroq agar bitim kichik yoshdagi bolalar manfaatini ko'zlab tuzilgan bo'lsa, uni ota-onasi, farzandlikka olganlari yoki vasiyning talabi bo'yicha u sud yo'li bilan haqiqiy deb topiladi. 14 yoshga to'lgan bolalar uchun fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ota-onalar o'z bolalarining homiyilari sifatida qatnashadilar (FKning 32-moddasiga qarang).

Voyaga yetmagan bolani o'n sakkiz yoshga to'lishi yoki uni nikoh tuzishi va boshqa hollarda voyaga yetganni to'la muomalaga ega bo'lishi alohida qarorsiz voyaga yetmagan ustidan bo'lgan homiylikni tugatadi.

5-§. Ota-onalik huquqini amalga oshirish

O'z bolalariga nisbatan (Oila kodeksini 75-78-moddalariga qarang) ota-onalarga keng huquqlarni berib umumiy qoida bo'yicha davlat ularni amalga oshirish jarayoniga aralashmaydi. Biroq bunda davlat o'z shartlarini qo'yadi. Asosiy e'tibor ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas (Oila kodeksini 75-moddasining 1-bandı).

Amaldagi qonunchilikka asosan ota-onalik huquqini amalga oshirishda ota-onalarning jismoniy va ruhiy sog'ligiga, ahloqiy kamolotiga zarar yetkazmasliklari lozim. Bolalarni tarbiyalash usullarini mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollik, insoniy qadr-qimmatini kansituvchi harakatlardan, bolalarni haqoratlash yoki ekspluatatsiya qilishdan holi bo'lishlarini ta'kidlaydi.

Agar ota-onalar o'zlarining ota-onalik huquqlarini bolalarning huquq va manfaatlariga qarshi qaratib amalga oshirsalar buning uchun ularning javobgarligi qonun tomonidan belgilangan tartibda vujudga keladi. Javobgarlik fuqarolik-huquqiy, jinoiy, ma'muriy bo'lishligi mumkin. Bunda aniq ota-onaning o'z bolasiga nisbatan qanday huquqni buzganligiga ya'ni jinoiy nojo'ya ish va boshqa turdag'i huquq buzilishiga bog'liq bo'ladi.

Ota yoki ona tomonidan voyaga yetmagan bolani tilamchilikka, spirtli ichimliklar iste'mol qilishga, giyohvandlik yoki psixotrop hisoblanmagan, lekin kishining aql-idrokiga ta'sir qiladigan vosita va moddalarni iste'mol etishga jalg qilish, shunday harakatlar uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan sodir etilgan bo'lsa jinoiy oqibatni keltirib chiqaradi (Jinoyat kodeksi 127-moddasini 1-bandı).

Ota-onalarning javobgarligi oila qonunchiligi normalari asosida ham vujudga kelishligi mumkin. Ma'lum shartlarni mavjud bo'lishligi ota-onani ota-

onalik huquqidan mahrum etishi uchun asos bo‘lishligi mumkin (Oila kodeksini 79-moddasiga qarang).

Oila kodeksi 75-moddasini 4-bandiga muvofiq, bolalarning ta’lim-tarbiyasiga talluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqadi va ularning fikrini hisobga olgan holda ota-onan tomonidan o‘zaro kelishuv asosida hal etiladi. Agar ota-onan o‘rtasida kelishmovchiliklar mavjud bo‘lsa, ular (ulardan biri) bu kelishmovchiliklarni hal qilish uchun vasiylik va homiylik organiga yoki sudga murojaat qilishga haqlidir.

Ota-onalik huquqlarini muvaffaqiyatlama amalga oshirish uchun bolalar o‘zlarini ota-onalari yoki ulardan biri bilan yashashliklari maqsadga muvofiq. Agar ota-onalar alohida yashasalar bolaning yashash joyi ota-onalarni kelishuvi bilan hal qilinadi. Agar ota-onalar o‘rtasida kelishuv bo‘lmasa u holda nizo bolalar manfaatlaridan kelib chiqib, ularning fikrini hisobga olgan holda hal etiladi. Bunda sud, bolaning ota-onadan, aka-uka, opa-singillaridan qaysi biriga bog‘lanib qolganligini, bolaning yoshini, ota-onasining ahloqiy va boshqa shaxsiy fazilatlarini, ota-onanining har biri bilan bola o‘rtasidagi munosabatlarni, bolani tarbiyalash va uning kamoloti uchun shart-sharoitlar (ota-onasining mashg‘ulot turi, ish tartibi, moddiy hamda oilaviy ahvoli va boshqalar) yaratish imkoniyatini hisobga oladi.

6-§. Boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning ota-onalik huquqini amalga oshirishi

Oila kodeksini 76-moddasida boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning ota-onalik huquqini amalga oshirish asosiy tamoyillari mustahkamlangan. Boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko‘rishishi, uning tarbiyasida ishtirok etish va ta’lim olish masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega.

Bunda bola bilan yashayotgan ota (ona) bolaning ona (ota)si bilan ko‘rishihsiga, agar bunday ko‘rishihs bolaning jismoniy va ruhiy holatiga, ahloqiy kamolotiga zarar keltirmasa, qarshilik qilmasligi kerak.

Ota (ona) tomonidan ko‘rishihslikni baholash albatta mezoni har qil bo‘lishi mumkin. Biroq har qanday holatda ham bolaning huquq va manfaatlari ishonchli himoya qilinishi lozim. Alohida yashayotgan bolaning ko‘rishihsligi bolaga jiddiy ta’sir etib shundan so‘ng asabiylashib, jirtaki qo‘pol bo‘lish hollari ham kam emas. Shu asosda ruhiy kasallik rivojlanish hollari bo‘lishi mumkin.

Ota-onan boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida yozma ravishda kelishuv tuzishga haqlidir. Agar ota-onan kelisha olmasalar, nizo ota-onan (yoki ulardan biri)ning talabiga binoan sud tomonidan vasiylik va homiylik organi ishtirokida hal qilinadi.

Bolaning ota-onani bittasi bilan alohida yashashligi sud majlisidan holi, o‘qituvchisi, sinf rahbari ishtirokida bolaga savol berish orqali aniqlanadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki 10 yoshdan oshgan bolani xohishini olmasdan sudning chiqargan hal qiluv qarorini bajarish murakkab. Masalan, A.Petrova N.Sidorovaga da’vo bilan murojaat etib, nikohdan ajrashgandan so‘ng

10 va 11 yoshdagи bolalarini uni tarbiyasiga olib o‘ziga olib berishni so‘raydi. Da‘vo qanoatlantiriladi. Biroq bu hal qiluv qarorini bajarish imkonи bo‘lmadi, chunki bolalar otasidan ketishlikni xohlamadilar¹¹³. Shuning uchun bolalar otasida qoldiriladi.

7-§. Ota-onalik huquqidан mahrum qilish

Oila kodeksining 79-moddasiga binoan, ota-onा o‘zlarining ota-onalik majburiyatlarini bajarmasalar u holda ular ota-onalik huquqidан mahrum etiladilar. Ota-onalik huquqidан mahrum etishlik so‘nggi chora bo‘lib hisoblanadi. Ota-onalik huquqidан mahrum qilish ularga ta’sir qiladigan hamma chora-tadbirlar tegishli natija bermaganidan so‘ng qo‘llaniladi.

Oila kodeksini 79-moddasida sanab o‘tilgan ota-onalik huquqidан mahrum qilish asoslari yangi oila qonunchiligidа ularning doirasi yanada kengaydi.

Ota-onা (ulardan biri) quyidagi hollarda: ota-onalik majburiyatlarini bajarishdan bosh tortsa, shu jumladan aliment to‘lashdan bo‘yin tovlasa; uzsiz sabablarga ko‘ra o‘z bolasini tug‘riqxona yoki boshqa davolash muassasasi va shunga o‘xhash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortsa; ota-onalik huquqini suiiste’mol qilsa, bolalarga nisbatan shafqatsiz muomalada bo‘lsa, jumladan jismoniy kuch ishlatsa yoki ruhiy ta’sir ko‘rsatsa; muttasil ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mutbalo bo‘lgan bo‘lsa № o‘z bolalarining hayoti va sog‘lig‘iga yoxud eri (xotini)ning hayoti yoki sog‘lig‘iga qarshi qasddan jinoyat sodir qilgan bo‘lsa, ota-onalik huquqidан mahrum qilinishi mumkin.

Amaldagi Oila kodeksining 80-moddasi ota-onalik huquqidан mahrum qilish tartibini belgilaydi.

Ota-onalik huquqidан mahrum qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Respublika sudlari tomonidan 2000 yilda 330 ta fuqarolik ishlari ko‘rilgan bo‘lib, shulardan 310 tasi bo‘yicha hal qiluv qaror qabul qilingan, 20 tasi bo‘yicha sud ajrimlari bilan ishlar harakatdan tugatilgan... ko‘rilgan ishlarning 97,2 foizida prokuror, 95,7 foizida vasiylik va homiylik organi ishtirok etgan¹¹⁴.

Ota-onalik huquqidан mahrum qilish to‘g‘risidagi ishlar ota (ona)ning (ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning) prokurorning, shuningdek voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyati yuklatilgan organ yoki muassasalarning (vasiylik va homiylik organi, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar, yetim bolalar va ota-onा qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar muassasalari hamda boshqa muassasalarining) da‘vosiga binoan ko‘riladi.

Ota-onalik huquqidан mahrum qilish to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda bolaning ta‘minoti uchun ota-onalik huquqidан mahrum qilingan ota-onadan (ularning biridan) aliment undirish masalasini hal qiladi.

¹¹³ Bulleten Verxovnogo Suda RSFSR. 1973. №5, s.5.

¹¹⁴ O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokururasining 2001 yil 1-yarim ish rejasining 4 bo‘lim 4-bandiga asosan mamlakat miqyosida ota-onalik huquqidан mahrum qilish ishlarini.... umumlashtirish materiallari 2001 yil 2 may. - T., 1-bet.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi umumlashtirish jarayonida qonun talabiga zid ravishda ota-onalik huquqidan mahrum qilingan shaxslardan aliment undirish masalasi hal etilmay qolishi, voyaga yetmagan bolalarining huquqlarini himoya qilmaslik hollari ham aniqlandi.

Jumladan, Toshkent shahar M.Ulug‘bek tuman sudi tomonidan tuman prokurori da‘vosi bilan javobgar A.Shkilevichning bir nafar farzandiga otalik huquqidan mahrum qilish haqida 2000 yilda hal qiluv qarori qabul qilinganda, javobgardan aliment undirish masalasi hal etilmagan.

Shuningdek, Toshkent viloyati Oxangaron shahar sudi tomonidan 2000 yil 8 noyabrda shahar prokurorining javobgar L.Brandelesga nisbatan onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi da‘vo arizasi qanoatlantirilgan, ammo javobgardan aliment undirish masalasi hal etilmagan.

Shu kabi javobgarlardan bolalar ta‘minoti uchun aliment undirmaslik holatini Surxondaryo viloyati Termiz tuman sudi tomonidan 2000 yil 30 dekabrda ko‘rilgan da‘vogar Termiz tuman prokurori javobgar I.Gaybullayevaga nisbatan onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi fuqarolik ishida ham ko‘rish mumkin¹¹⁵.

Agar sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishlarni ko‘rishda ota-onsa (ulardan biri)ning harakatida jinoyat alomatlari mavjudligini aniqlasa, bu haqda prokurorga xabar berishi lozim.

Sud ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin uch kun ichida ushbu qarorning ko‘chirmasini bolaning tug‘ilganligi davlat tomonidan ro‘yxatga olingan fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organiga yuborishi shart.

XIV Mavzu. Ota-onsa hamda bolalarining mulkiy huquq va majburiyatları

1-§. Ota-onsa va bolalarining mulkiy huquq va majburiyatları

Ilgari amalda bo‘lgan O‘zbekiston SSRning Nikoh va oila koyedksida (1969 yil 1 oktabr) bolalarining mulkiy huquqlari to‘g‘risida tegishli normalar yo‘q edi. Bolalarining mulkka bo‘lgan huquqlarini himoya qilishda ayrim murakkab qiyinchiliklarni vujudga kelardi. Faqat yangi Oila kodeksini qabul qilinishi bilan bu muammo oila qonunchiligidagi o‘zining ijobiy yechimini topdi.

Ota-onsa hamda bolalarining mulkiy huquq va majburiyatları amaldagi Oila kodeksining 13-bobi, 90-95-moddalari bilan tartibga solinadi. Bu qoidalar oila qonunchiligidagi yangilik bo‘lib hisoblanadi.

Oila kodeksining 90-moddasiga binoan ota-onsa hayotligida bolalar ularning mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega emas.

Ota-onsa ham voyaga yetmagan bolalarining mol-mulkiga nisbatan mulkdor bo‘lish huquqiga ega emas.

¹¹⁵ O‘ning Bosh prokuraturasi 2001 yil 1-yarim ish rejasining 4 bo‘lim 4-bandiga asosan mamlakat miqyosida ota-onalik huquqidan mahrum qilish ishlarini... umumlashtirish materiallari 2001 yil 2 may. -T., 5-bet.

Ota-onalarning ular o‘rtasidagi umumiy mol-mulkka bo‘lgan mulk huquqi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi 18-bobi 216-227-moddalari bilan tartibga solinadi.

Avvalgi kodeksda umumiy ikki xil: hissalarga bo‘linadigan (hissalik mulk) yoki hissalarga bo‘linmaydigan (birgalikdagi mulk) deb ajratilgan edi (128-moddasining 2-qismi). Yangi kodeksda bunday ajratish saqlab qolindi. Lekin "hissa" - "ulush" degan atama bilan almashtirildi.

Umumiy mulk tushunchasi faqat atamani o‘zgartirish bilan cheklanmadi, mulk egalarining tarkibiy qismi, uning vujudga kelish asoslari, unga nisbatan egalik qilish, undan foydalanish, uni tasarruf qilish huquqlarini belgilashga qaratilgan yangi qoidalar bilan to‘ldirildi.

Voyaga yetmagan bolalar o‘z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega. Voyaga yetmagan bolalar ta'minoti uchun olingan mablag‘, pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo‘lib, bolaning ta'minoti, tarbiyasi va ta'lif olish uchun sarflanishi kerak.

Voyaga yetmagan bolalarning mol-mulkini tasarruf etishga doir vakolatlar amalga oshirilayotganda fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan qoidalar qo‘llaniladi.

Voyaga yetmagan bolalar o‘z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish, fan, adabiyot, san'at bobidagi asarlari, ixtirolari yoxud o‘z intellektual faoliyat samaralarini, shuningdek, qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa mualliflik huquqini amalga oshirish, qonunga muvofiq kredit muassasalariga omonatlar qo‘yish va ularni tasarruf etish hamda qonunda belgilangan (FKning 29-moddasi 2-qismi) mayda maishiy bitimalarni tuzishni mustaqil amalga oshirishlari mumkin¹¹⁶.

2-§. Ota-onalarning alohida mol-mulki

Oila kodeksini 91-moddasiga binoan, ota-onalarning alohida-alohida mulki bo‘lishi mumkin va birga yashab turganda ular bir-birlarining roziligi bilan bunday mulkka egalik qilishlari va undan foydalanishlari mumkin.

Bolalar mulkdorlik huquqiga ega. Bu holat bolaga bo‘lgan e'tibor uni huquqining mustaqil subyekti ekanligini anglatadi.

Voyaga yetmagan bolalarning mulkka bo‘lgan huquqlari yig‘ma xarakterga ega bo‘lgan huquqlar bo‘lib, ularni har biriga Oila kodeksida alohida e'tibor beriladi. Bularni ichida birinchi navbatda har bir voyaga yetmagan bolalar o‘z ota-onasidan va boshqa shaxslardan qonunda nazarda tutilgan miqdorda va tartibda ta'minot olish huquqiga ega ekanligi yotadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 64-moddasiga binoan, ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

¹¹⁶ O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. -T., "Adolat", 2000. 183-bet.

Bunday huquqlarni berilishi bolalarni muhim hayotiy ehtiyoji (oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy va boshqalar) birinchi navbatda ot-onalari, oilasi yoki uni o‘rnini bosuvchi oila a’zolari tomonidan bajariladi.

Oilada bolalarga ta’midot berishlikni bir qancha manbalari mavjud. Ularga voyaga yetmagan bolalarni normal hayotiy ehtiyojini qondirish uchun ota-onasini, farzandlikka oluvchilarga ish haqini ma’lum qismini qaratishi; ularga tegishli bo‘lgan alimentlar, agar ota-onalar (ulardan biri) uni moddiy ta’midotidan xabar olmasa; qonun yo‘li bilan bolalarga tegishli bo‘lgan pensiyalar, har xil nafaqalar undiriladi.

Voyaga yetmagan bolalar ta’minati uchun olingan mablag‘, pensiya, nafaqa uning otasi yoki onasi tasarrufida bo‘lib, bolaning ta’minati, tarbiyasi va ta’lim olishi uchun sarflanishi kerak.

Quyidagi asoslar bolalarning mol-mulkka huquqlarini kelib chiqishga asos bo‘lishligi mumkin : mayda maishiy bitimlar tuzish, kichik tadbirdorlik yuritish; hadya shartnomasini tuzish; ish haqidan; stipendiyasidan; fan, san’at va adabiyot bo‘yicha qo‘lga kiritilgan yutuqlari va ixtiro yaratgan bo‘lsa, undan foydalanishdan tushgan daromaddan; merosdan; banklarga qo‘yilgan omonatlardan mol-mulk orttirish mumkin.

Voyaga yetmagan bolalar o‘zlariga tegishli bo‘lgan mol-mulkni o‘zlar tasarruf qilolmasliklari mumkin. Bunday hollarda ularga ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari yordam beradilar. Demak, ota-onalar oilada bolalarini mulkdorlik his-tuyg‘usi asosida tarbiyalashlari lozim. mulkdor o‘z mol-mulkidan foydalanayotganda boshqalarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi, o‘zining ustunlik mavqyeini suiiste’mol qilmasligi, fuqaroning hayoti va sog‘lig‘iga, atrof-tabiiy muhatga zarar yetkazmasligi kerak.

3-§. Ota-onva bolalarning umumiyl mulki

Amaldagi Oila kodeksini 92-moddasiga binoan, ota-onva o‘n to‘rt yoshga to‘lgan voyaga yetmagan bolalar o‘rtasida qonunda belgilangan tartibda umumiyl mulk huquqi vujudga kelishi mumkin.

Ota-onva voyaga yetmagan bolalar umumiyl mulkni vujudga keltirish to‘g‘orisida kelishuv tuzishlari mumkin.

Ota-onva voyaga yetmagan bolalarning umumiyl mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqi fuqarolik qonun hujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oilada ota-onva bolalarning birga yashaganligi turmush tarzi tufayli ular o‘rtasida umumiyl mulk bo‘lishligi mumkin.

Umumiyl mulk huquqi faqat o‘n to‘rt yoshga to‘lgan voyaga yetmagan bolalar bilan ota-onalari o‘rtasida tuzilgan bitim yoki kelishuv asosida vujudga keladi.

Umumiyl mulk bo‘yicha bolalar va ota-onalar o‘rtasida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan munosabatlar Fuqarolik kodeksining 216-227-moddalarida nazarda tutilgan qoidalar asosida tartibga solinadi.

Olti yoshdan o'n to'rt yoshgacha bo'lgan kichik yoshdagi bolalar quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqlidirlar:

- 1) mayda maishiy bitimlar;
- 2) tekin manfaat ko'rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro'yxatidan o'tkazishni talab qilmaydigan bitimlar;

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar ota-onalari, farzandlikka oluvchilar va homiylarning roziligesiz quyidagilarni mustaqil ravishda amalga oshirishga haqli:

- 1) o'z ish haqi, stipendiyasi va boshqa daromadlarini tasarruf etish; F
- 2) fan, adabiyot va san'at asarining, ixtironing yoxud o'z intellektual faoliyatining qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa natijasi muallifi huquqini amalga oshirish;
- 3) qonunga muvofiq, kredit muassasalariga omonatlar qo'yish va ularni tasarruf etish;

ota-onalari bilan bolalar o'rtasidagi mol-mulk mulkdorlardan har birining mulkiy huquqiga ko'ra, ularning lushi aniqlanib qo'yilgan bo'lishi yoki bunday ulushlar aniqlanmay qo'yilgan bo'lishi mumkin.

4-§. Bolalarning oiladagi xususiy mulki

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasiga asosan, har bir shaxs mulkdor bo'lish huquqiga ega. Shaxsning mulkdorlik huquqi cheklanmaydi, unga mutloq huquq sifatida beriladi. Bu huquq shaxsning yoshi bilan cheklanmaydi. Ko'pchilik qatori voyaga yetmagan bolalar ham xususiy mulk egasi bo'lishlari mumkin.

Mamlakatimizda barcha fuqarolarga amaldagi qonunlar bilan man etilmagan har qanday shartnomalarni tuzish huquqi berilgan. Ota-onalar ham o'z bolalari bilan shunday shartnomalar tuzishlari mumkin. Hayotda ota-onalar bilan bolalar o'rtasida ko'pincha hadya shartnomasi tuziladi.

Bola o'ziga tegishli bo'lgan mulkdan olgan daromadiga ham mulkdor bo'lishi mumkin.

O'n olti yoshga to'lgan voyaga yetmagan bolalar mehnat shartnomasi bo'yicha ishlab yoki ota-onasi, farzandlikka oluvchilar yoxud homiysining roziligidagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib xususiy mulk orttirishlari mumkin.

Bola privatizatsiya tufayli olgan uyg'a, kvartiraga (ularni qismiga) xususiy mulkdor bo'lishi mumkin. Privatizatsiya tufayli berilgan uylar nafaqat voyaga yetgan bolalarga shuningdek, oila a'zolari hisoblangan 14 yoshdan 18 yoshga to'limgan voyaga yetmagan bolalarga ham o'tishi mumkin. Agar uyda faqat voyaga yetmagan bolalar yashasalar u holda vasiylik va homiylik organlari ularni bolalarni nomiga hujjatlashtirib berishga yordam beradilar.

Voyaga yetmagan bolalarning kundalik ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan shaxsiy foydalanishdagi buyumlari, kiyim-bosh, poyabzal, ishlab

chiqarish qurol va aslahalari, o‘quv anjomlar va boshqalar ularning xususiy mulki hisoblanadi.

5-§. Voyaga yetmagan bolalarning xususiy mulkini boshqarish va tasarruf etish

Fuqarolik qonunchiligi bolalarga o‘z mulkidan mustaqil ravishda tasarruf etish huquqini beradi. Bolalarning bu imkoniyatlari ularning yoshiga ham Fuqarolik kodeksining tegishli moddalari bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtida ayrim voyaga yetmagan bolalar muruvvat uylarida istiqomat vaqtlarida ularning nomlariga jamg‘arma banklariga pul mablag‘lari qo‘yish an'anaga aylanib bormoqda. Ularning bu mablag‘larini muhofaza qilish, ularni boshqarish va tasarruf etish masalalari vasiylik va homiylik organlari tomonidan hal qilinishi lozim.

Voyaga yetmagan bolalar nomiga ota-onalari va boshqa shaxslar tomonidan qo‘yilgan mablag‘larni boshqarish va tasarruf etish Fuqarolik kodeksi qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Voyaga yetmagan bolalar nomiga qo‘yilgan pul mablag‘lari, bolalar o‘n to‘rt yoshga kirgunga qadar ularning ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillari tomonidan tasarruf etilishi mumkin. Ular o‘n to‘rt yoshga to‘lgandan keyin esa, faqat o‘zleri tomonidan ota-onalari yoki boshqa qonuniy vakillarning roziligi bilan tasarruf etilishi mumkin.

Kichik yoshdagи bolalar (14 yoshga to‘lmagan voyaga yetmaganlar) olti yoshdan o‘n to‘rt yoshgacha bo‘lganlar: mayda maishiy bitimlar tuzish, tekin manfaat ko‘rishga qaratilgan, notarial tasdiqlashni yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni talab qilmaydigan bitimlarni tuzishlari mumkin.

Mayda maishiy bitimlar tushunchasi aniq bo‘lmasligi ham mumkin, chunki ularning har gal ayniqla bizning davrimizda ashyoni qadri va uning bahosi tez o‘zgarib turmoqda. So‘zsiz har bir oilada bolani moddiy ta‘minlash darajasi o‘zgarishi tufayli uni qondirish ham o‘zgarib bormoqda. Uni belgilashda ota-onaning madaniyati, oila pedagogikasi va ularni maqsadi oxirgi o‘rinda turmaydi. Shuning uchun kundalik hayotda mayda maishiy bitimlar tushunchasi kam uchramoqda.

Ota-onalari va voyaga yetmagan bolalar o‘rtasida kelib chiqqan mulkiy nizolar sud tomonidan umumiy asoslarda hal qilinadi.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan kichik yoshdagи voyaga yetmagan bolalar o‘z huquqlarini sudda himoya qila olmaydilar. Ularning ota-onalari esa, nizo munosabati bilan ishda taraf sifatida ishtirok etganliklari tufayli, voyaga yetmagan bolalarning qonuniy vakili sifatida ishtirok eta olmaydilar. Shuning uchun, kichik yoshdagи bolalarning mulkiy huquqlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari tomonidan qonuniy vakil sifatida amalga oshiriladi.

XV Mavzu. Aliment majburiyatları

1-§. Aliment majburiyatlarining umumiy qoidalari

Alimentlar - (lotincha alimentum - "oziq-ovqat", "nafaqa", "ta'minot", "boqish uchun mablag'lar" - degan ma'nolarni anglatadi) bir shaxsning ikkinchi shaxsga majburan to'laydigan moddiy narsasi.

Aliment majburiyatları oila a'zolari o'rtasida sodir bo'ladi.

Amaldagi qonunchilikda bir tomonda davlat ikkinchi tomonda jismoniy shaxs ishtirok etsa yoki ijtimoiy huquqiy munosabatlar sodir bo'lsa, u holda "nafaqa" so'zi ishlatiladi. Agar oilaviy huquqiy munosabat bo'lib unda oila a'zolari ishtirok etsalar u holda "aliment" so'zi ishlatiladi.

Aliment majburiyatları mulkiy huquqiy munosabatlar dirasiga kirib shu bilan birga o'zining ba'zi bir maxsus belgilariga va xususiyatlariga ham ega. Aliment majburiyatining fuqarolik huquqidagi majburiyatdan farq qiladigan tomonlari ham bor¹¹⁷.

Bu belgilar quyidagilardan iborat: aliment majburiyatlarini kelib chiqish asoslari birinchidan qonunda imperativ asosda belgilangan (qon-qarindoshlik, mehnatga layoqatsizlik, mehtojlik) ikkinchidan, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv; aliment majburiyatları shaxsiy xarakterga ega. U majbur bo'lganning, shuningdek talab qiluvchi shaxsning vafoti tufayli tugallanadi, meros bo'yicha boshqa shaxslarga o'tmaydi. Ularga talab qilishni boshqalarga o'tkazish va qarz qoidasi tatbiq etilmaydi: aliment majburiyatları bepuldir. Agar xatolikka yo'l qo'yib undirilgan bo'lsa ham qaytarilmaydi. Yolg'on ma'lumotlarga va qalbaki hujjalarga asoslangan hollar bundan mustasnodir; aliment majburiyatları davomli bo'ladi. Aliment kelajak vaqt uchun olinib da'vo qilingan kundan boshlab har oyda undiriladi. Bolalar uchun aliment ular voyaga yetgunlariga qadar undirilishi mumkin.

Amaldagi qonunda aliment majburiyatlarida bar qator yangi qoidalari belgilangan.

Yangi oila qonuni aliment undirishni uch tartibini belgilaydi: 1. Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv tuzish (17-bob, 130-134-moddalar), Alimentni ixtiyoriy to'lash (18-bob, 135-modda), alimentni sud tartibida undirish (18-bob, 136-modda).

Amaldagi qonunchilik bu uch tartib o'rtasidagi farqlarni aniq belgilab beradi. aliment to'lash to'g'risidagi kelishish mavjud bo'lganida sud tartibida aliment undirishga yo'l qo'yilmaydi.

Aliment majburiyati bu shunday huquqiy munosabatni ular qonunda belgilangan yuridik faktlar sodir bo'lganida sodir bo'ladi.

Taraflar o'zaro kelishganda yoki sudning hal qiluv qarori mavjud bo'lganida bir xil oila a'zolari boshqa oila a'zolariga to'lashga majbur bo'ladi so'nggisi esa uni talab etish huquqiga ega bo'ladi.

¹¹⁷ Qarang: A.I.Pergament. Alimentnie obyazatelstva po sovetskому pravu. Avtoreferat kandidatskoy dissertatsii. - M., 1951g.

Jamiyatda aliment to‘g‘risidagi tushunchalar bar qator o‘zgarib turdi. Sovet davrining 20 yillarida alimentlar "Ijtimoiy ta'minotining yasama, sun'iysi"¹¹⁸, - degan tushuncha mavjud edi. Ijtimoiy ta'minotning rivojlanishi bilan aliment majburiyatini asta-sekin yo‘q bo‘lib ketishiga olib keladi degan nazariya mavjud edi. Keyinchalik bu nazariya o‘z o‘rnini yo‘qotdi. Biroq aliment majburiyati bilan ijtimoiy ta'minotni rivojlanish tizimi o‘rtasida so‘zsiz bog‘lanish bor, chunki ular umumiy bir maqsadni u ham bo‘lsa voyaga yetmagan muhtoj shaxslarga moddiy ta'minot berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Bizning mamlakatda oldingidek boshqa mamlakatlarga nisbatan qaraganda moddiy ta'minot beruvchilar doirasi keng. Bu ko‘pchilik holatlarda davlat hamma muhtoj, mehnatga layoqatsiz shaxslarga ijtimoiy ta'minot hisobidan zarur mablag‘lar bilan bog‘liq ekanligini bildiradi.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv, sud yo‘li bilan aliment undirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar o‘rtasida ham (Oila kodeksi 18-bobi 131-moddasiga binoan), bunday huquqqa ega bo‘lmanalar o‘rtasida ham tuzilishi mumkin, chunki bu holatda aliment to‘lash majburiyatini ixtiyoriy ravishda o‘z zammasiga olish to‘g‘risida gap boradi. Masalan, Oila kodeksining 16-bobiga ko‘ra, uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanuvchi mehnatga layoqatli er yoki xotinga, amaldagi xotin yoki er, vasiy, homiy va ularning homiyligidagilar, amaki-tog‘alar, amma xolalar va jiyanlar hamda qonun bilan sud tartibida aliment talab qilinish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar doirasiga kiritilmagan boshqa shaxslar tomonidan aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishlari mumkin.

Oila kodeksining 130-moddasiga binoan aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzish uchun muomalaga layoqatli bo‘lish talab etilmaydi.

14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar hamda sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar nomidan kelishuv ularning qonuniy vakillari (voyaga yetmaganlarning ota-onalari, vasiylari, homiyllari) tomonidan tuziladi. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar hamda muomala layoqatliligi sud tartibida cheklangan shaxslar o‘z qonuniy vakillarining roziligi bilan aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzadilar.

Oila kodeksining 131-moddasida kelishuvni yozma ravishda tuzish va uni notarial tarzda tasdiqlash shartligi belgilangan Notarial tartibda tasdiqlanmagan aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv haqiqiy hisoblanmaydi. Biroq aliment to‘lash to‘g‘risida (oddiy yozma shaklda) kelishuv tuzgan tomonlardan biri amalda uni ijro etishga kirishgan bo‘lsa-yu, ikkinchi tomon uni notarial tasdiqlashdan bo‘yin tovlayotgan bo‘lsa, Fuqarolik kodeksining 12-moddasiga muvofiq kelishuv sud tartibida haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunday holatda keyinchalik kelishuvni notarial tasdiqlash talab etilmaydi.

Notarial tasdiqlangan kelishuv o‘z ijro kuchiga ko‘ra ijro varaqasiga tenglashtiriladi. Bu esa aliment ushlab qolish uchun boshqa hujjalarni ko‘rsatish talab qilinmasligini bildiradi. Notarial tasdiqlangan kelishuvni jo‘natish, hisobga

¹¹⁸ Gayxberg A.G. Brachnoye, semeynoye, opekunskoye pravo sovetskix respublik. -M., 1920, s.62.

olish va saqlashga nisbatan ijro varaqalarini jo‘natish, hisobga olish va saqlash qoidalari qo‘llaniladi.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi Fuqarolik kodeksining 150-moddasida belgilangan da‘vo qo‘zg‘atish muddati doirasida e’tiborsiz qoldirilishi ham, rad etilishi ham mumkin.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvning tomonlarning o‘zaro kelishuvlariga binoan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi yozma ravishda amalga oshirilib notarial tasdiqlanishi zarur.

Oila kodeksining 16-bobiga binoan aliment kelishuvlarini quyidagilar tuzishlari mumkin:

A) ota-onalar o‘zlarining voyaga yetmagan bolalarini ta‘minlash to‘g‘risida. Agar aliment 14 yoshga to‘lman bolalarga beriladigan bo‘lsa, u holda kelishuv aliment to‘lovchi ota yoki ona bilan ona yoki ota o‘rtasida tuziladi, bunda ikkinchi tomon sifatida farzandlikka oluvchi ota yoki onasi, vasiysi yoki farzandlikka oluvchisining roziligi bilan kelishuv tuzadilar;

B) ota-onalar yordamiga muhtoj, mehnatga layoqatsiz voyaga yetgan farzandlarini ta‘minlash to‘g‘risida Ota-onalar bunday kelishuvni o‘zlarining mehnatga yaroqli, voyaga yetgan farzandlari bilan ham tuzishlari mumkin;

V) mehnatga layoqatli farzandlari o‘zlarining mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onalarini ta‘minlash to‘g‘risida. Bunday holatda kelishuv voyaga yetgan har bir farzand bilan ota va onaning har biri o‘rtasida, tomonlardan biri muomalaga layoqatsiz bo‘lgan hollarda esa uning qonuniy vakili o‘rtasida tuziladi. Bunday bitim ota-onalar mehnatga layoqatsizligi va muhtojligidan qat’iy nazar tuzilishi mumkin;

G) er-xotindan biri mehnatga layoqatsiz, muhtoj bo‘lgan hollarda, masalan, xotin homiladorligi davrida hamda umumiylar farzand tug‘ilganidan keyin uch yil davomida yoki er yoxud xotin nogiron umumiylar farzandni parvarish qilayotganida u 18 yoshga to‘lginicha yo bo‘lmasa 1-guruh nogironi bo‘lgan umumiylar farzandni parvarish qilayotganida er-xotinlar aliment kelishivi tuzishlari mumkin. Bitimda, aliment oluvchi er yoki xotin mehnatga layoqatsizligi yoki muhtojligidan qat’iy nazar, ulardan birini ta‘minlash nazarda tutilishi mumkin;

D) sobiq er-xotinlar, nikoh mavjudligi davrida ham, ular nikohdan ajralganidan keyin. Ular sobiq er yoki xotin mehnatga layoqatsizligidan yoki muhtojligidan qat’iy nazar, bunday kelishuvni tuzishlari mumkin;

YE) shunday bitim tuzishlari mumkin bo‘lgan aka-ukalar va opa-singillar;

J) bobolar va buvilar. Ular nabiralari bilan o‘zlarini ta‘minlash to‘g‘risida kelishuv tuzishlari mumkin;

Z) bobolari va buvilarini ta‘minlash to‘g‘risida kelishuv tuzish huquqiga ega nabiralar;

I) voyaga yetgan amaldagi tarbiyalanuvchilar. Ular o‘zlarining sobiq amaldagi tarbiyachilarini ta‘minlash to‘g‘risida kelishuv tuzish huquqiga egadirlar;

K) voyaga yetgan asrandi o‘g‘illar va qizlar. Ular o‘gay otalari yoki o‘gay onalarini ta‘minlash to‘g‘risida kelishuv tuzishlari mumkin.

Oila kodeksining 145-moddasida xorijiy davlatga doimiy istiqomat qilish uchun jo'nab ketayotgan shaxs bilan aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzish mumkinligi nazarda tutilgan. Bu kelishuvda tomonlar aliment olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarni ta'minlashning har qanaqa usulini ko'zda tutishga haqlidirlar.

Kelishuvga muvofiq voyaga yetmagan bolalar uchun belgilanadigan aliment miqdori ular sud tartibida undirganda olish mumkin bo'lgan aliment miqdoridan kam bo'lmasligi kerak. Bu miqdor Oila kodeksining 99-moddasi bilan belgilab qo'yilgan va bir bola uchun ish haqi va (yoki) boshqa daromadning 4/1 qismini, ikki bola uchun 1/3 qismini va uchta hamda undan ortiq bola uchun 1/2 qismini tashkil qiladi.

Alimentlar aliment to'lashga majbur shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan hissada muntazam (har oyda, har chorakda va shu kabi) to'lanadigan qat'iy pul miqdorida mulk berish yo'li bilan, shuningdek bo'lakchi usullarda to'lanishi mumkin. Kelishuvda to'lashning turli usullarini aralash qo'llanish nazarda tutilishi mumkin;

Aliment miqdorini indekslash tartibi:

Indekslashning eng keng tarqalgan usuli-aliment miqdorini eng kam ish haqiga yoki chet el valutasiga bog'liq qilib qo'yish.

Kelishuv, tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan, istalgan paytda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bu ish ham kelishuv tuzilgan tartibda amalga oshirilishi kerak.

Tomonlarning moddiy yoki oilaviy ahvoli jiddiy ravishda o'zgargan hamda aliment kelishuvini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risida kelishuvga erishilmagan holatlarda manfaatdor tomon ushbu kelishuvni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi da'vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Aliment kelishuvidagi tomonlardan biri, odatda, mehnatga layoqatsiz, muhtoj shaxs bo'lib, uning manfaatlarini qattiq himoya qilish talab etiladi. Shu munosabat bilan Oila kodeksi aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvni, uni o'zgartirishning Fuqarolik kodeksining 383-moddasida belgilangan umumiy tartibiga qaraganda ancha ixcham tartib bo'lib, sud nazorati ostida o'zgartirishni nazarda tutadi.

2-§. Ota-onalarning bolalarining aliment huquq va majburiyatları

Ota-onalarning bolalarining aliment huquqi va majburiyatları aliment majburiyatlarini birinchi toifasiga kiradi. Ota-onalar va bolalar boshqa qarindoshlari bo'lish bo'lmasliklaridan qat'iy nazar bir-birlariga moddiy ta'minot berishga majburlar.

Ota-onalarni voyaga yetmaganlarga aliment to'lash majburiyatni asosi bo'lib, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi qon-qarindoshlik va voyaga yetmagan bolalarни mavjud bo'lishligi. Ishlashligi yoki ishlamasligidan qat'iy nazar 18 yoshga to'limgan bolalar voyaga yetmagan bola bo'lib hisoblanadilar.

Oila kodeksini 96-moddasiga binoan ota-onan voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart.

Voyaga yetmagan bolalariga ta'minotberish majburiyatni ixtiyoriy ravishda bajarmagan ota (ona) dan sudning hal qiluv qaroriga asosan aliment undiriladi.

Agar voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berish hamda haqida ota-onan o'rtasida kelishuv bo'lmasa, ularning ta'minoti uchun aliment sud tomonidan ota-onan har oydagisi ish haqi va (yoki) boshqa daromadining bir bola uchun to'rtdan bir qismi; ikki bola uchun uchdan bir qismi; uch va undan ortiq bola uchun yarmisi miqdorida undiriladi. Bu to'lovlarning miqdori taraflarning moddiy yoki oilaviy ahvolini va boshqa e'tiborga loyiq holatlarni hisobga olgan holda sud tomonidan kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi mumkin. Har bir bola uchun undiriladigan aliment miqdori qonun hujjatlari bilan belgilangan eng kam ish haqini uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi kerak (Oila kodeksining 99-moddasi).

3-§. Bolalarining ta'minoti uchun aliment undirish

Amaldagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 64-moddasiga muvofiq ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga mujburdirlar.

Oila kodeksini 96-moddasiga binoan, ota-onan voyaga yetmagan bolalariga to'ular 18 yoshga to'lgunga qadar aliment to'lashlari shart. ushbu modda ota-onan faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatangina ta'minot berish majburiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, o'z bolalarini moddiy jihatdan ta'minlash majburiyatini anglatada. Bu majburiyat bolani iste'moli uchun oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, har xil o'yinchoqlar, jismoniy tarbiya ishlari bilan shug'ullanayotgan vaqtida kerak bo'lgan buyumlar, o'quv qurollarini olish uchun sarflanadi.

Amaldagi qonunda voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz shaxslarni moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 122-moddasiga binoan, moddiy yordamga muhtoj bo'lgan voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsi shaxsni moddiy ta'minlashdan bo'yin tov lash, ya'ni ularni moddiy jihatdan ta'minlash uchun sudning har qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo'lgan mablag'ni jami bo'lib uch oydan ortiq muddat mobaynida to'lamaslik, - eng kam oylik ish haqining ellik barobarigacha miqdorda earima yoki uch yilgacha ahloq tuzatish ishlari yoxud olti oygacha qamoq bilan jazolanadi.

Ota-onan voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz yordamga muhtoj bolalariga nisbatan tegishli majburiyatlar Oila kodeksining 100-moddasida belgilab qo'yilgan.

Voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to'lash ota-onanining majburiyatidir. To'lanadigan aliment miqdori taraflarning moddiy va oilaviy ahvolini hisobga olib qat'iy summada belgilanadi. bunday aliment oyma-oy to'lanadi.

Amaldagi qonunda voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bolalariga aliment to‘lashdan bosh tortgan ota-onaning javobgarligi belgilangan.

4-§. Bolalarni o‘z ota-onalari uchun aliment to‘lash majburiyatlari

Oila kodeksining 109-moddasiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart.

Qonun bilan mustahkamlangan, mehnatga layoqatli voyaga yetgan bolalarning o‘z ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilish majburiyati, birinchi navbatda, bolalarning ma'naviy burchi va vazifasi hisoblanadi. Mamalakatimizda o‘zbek xalqida ota-onalarga g‘amxo‘rlik qilish bolalarni muqaddas burchi hisoblanadi. bu majburiyatni bolalar o‘z xohishlari bilan bajarib kelmoqdalar.

Moddiy yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onaga foydasiga aliment undirilishi vaqtida ota-onaning ham, bolalarning ham moddiy, oilaviy sharoitlari, shuningdek taraflarning e'tiborga loyiq barcha holatlari hisobga olinishi lozim.

Yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz ota-onaga aliment to‘lash to‘g‘risidagi da'vo oiladagi barcha mehnatga layoqatli voyaga yetgan bolalarga nisbatan qo‘zg‘atilishi mumkin.

5-§. Ota-onalar va bolalarning yordamchi harajatlarda ishtirok etishlari

Oila kodeksining 111-moddasiga binoan, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onasining kasalligiga va boshqa uzrli sabablarga ko‘ra qilinadigan qo‘srimcha harajatlarda ishtirok etishlari shart. Bu qoida qonunchilikda yangilikdir. Har bir voyaga yetgan bolaning zimmasiga yuklatiladigan qo‘srimcha harajatlarni qoplash summasini belgilashda ularning moddiy sharoitlari hisobga olinadi.

6-§. Nizo sudda hal etilgunga qadar aliment undirish

Umuman amaldagi qonunlarga ko‘ra, aliment sudga murojaat qilingan kundan boshlab sudning hal qiluv qarori bilan undiriladi. Ammo Oila kodeksining 112-moddasiga binoan, aliment undirish to‘g‘risidagi nizo uzil-kesil hal etilgunga qadar sudya shu nizo bo‘yicha undan belgilangan miqdorda vaqtincha aliment undirish to‘g‘risida ajrim chiqarishi mumkin. Bunda moddiy ta'minot uni miqdori, sudning ajrimi bilan, ta'minot berishi gumon qilinayotgan shaxsdan ma'lum summada undirilishi mumkin.

XVI Mavzu. Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari

1-§. Er-xotin o‘rtasidagi aliment majburiyatlari

Er-xotinning aliment huquq va majburiyatlari, ya'ni bir-birlariga moddiy ta'minot berish majburiyatlari mulkiy huquq va majburiyatlar turlaridan biri hisoblanadi. Bu masala bo'yicha jinsiy holat hyech qanday imtiyoz belgilamaydi.

Er-xotinlar va sobiq er-xotinlarning aliment majburiyatlari Oila kodeksining 15-bob, 117-121-moddalari bilan tartibga solinadi.

Agar er va xotin xohlasalar, Oila kodeksining 31-moddasiga muvofiq nikoh shartnomasida o'zaro moddiy ta'minot berish bo'yicha huquq va majburiyatlar belgilashi yoki aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishlari mumkin (Oila kodeksini 130-moddasi).

Oila kodeksining 117-moddasida er-xotinning bir-biriga moddiy ta'minot berish majburiyatlari belgilangan. Unga muvofiq, "Er-xotin bir-biriga moddiy yordam berishi shart. Bunday yordam berishdan bosh tortilgan taqdirda, yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz er yoki xotin, shuningdek xotin homiladorlik davrida va o'rtada bola tug'ilgan kundan boshlab uch yil davomida, o'rtadagi nogiron bola o'n sakkiz yoshga to'lguncha yoki bolalikdan 1-guruh nogironi bo'lgan o'rtasidagi bolaga qaragan yordamga muhtoj er (xotin) yordam berishga qodir bo'lgan xotin (er)dan sud tartibida ta'minot (aliment) olish huquqiga ega".

Er yoki xotinga beriladigan ta'minot mablag'inining miqdori sud tomonidan ta'minot to'lovchining va oluvchining moddiy va oilaviy ahvolini hisobga olgan holda, har oyda to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi. Biroq bu summa qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi lozim.

Er yoki xotinga aliment, agar umuman yashashi uchun mablag'i bo'lmasganda, shuningdek mablag'i bo'lsa ham, muhtoj bo'lsa tayinlanishi mumkin.

Ushbu turdag'i nizolarni ko'rishda sud quyidagi holatlarni aniqlashi lozim, chunonchi: muhtoj (er (xotin)ning yashashi uchun mablag'ga ega yoki ega emasligini va bu mablag' uning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli yoki yetarli emasligini; er (xotin)ning bolalari va boshqa boqimandalari bor yo'qligini; muhtoj er (xotin)ning voyaga yetmagan bolalaridan moddiy yordam olish yoki olmasligini va shu kabi boshqa holatlarni aniqlaydi.

Aliment to'lovchi yoki oluvchi er yoki xotinning moddiy va oilaviy ahvolidagi o'zgarish ularning hayotiga katta ta'sir etishi mumkin. Bu esa manfaatdor er yoki xotinga sudga murojaat etib aliment miqdorini o'zgartirish yoki uni kamaytirishni talab qilish huquqini beradi.

Er yoki xotinni ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish yoxud bu majburiyatni ma'lum muddat bilan cheklash sudning hal qiluv qaroriga asosan yo'l qo'yiladi. Sud hal qiluv qarorini chiqarishda: nikohda qisqa vaqt turgan bo'lsalar; o'ziga nafaqa talab qilayotgan er yoki xotin oilada o'zini nomunosib tutgan bo'lsa; agar yordamga muhtoj er yoki xotin spirtli ichimliklar, narkotik moddalarni suiiste'mol qilish yoki qasddan jinoyat sodir etib, uch yildan kam bo'lmasganda muddatga sud tomonidan hukm qilingan bo'lsa, bunday holatlarni nazarga olish mumkin. Er yoki xotinni ta'minot berishdan ozod etish yoki bu majburiyatni

muddat bilan cheklash uchun yuqorida keltirilgan shartlardan bittasi bo‘lishi lozim. Ammo bunday holatlar mavjud bo‘lganda ham har bir vaziyatda sud ishning aniq holatiga qarab da‘voni qondirishi yoki uni rad etishi mumkin.

Masalan, nikohda bo‘lish muddatining uzoq yoki qisqaligiga qarab sud tomonidan hal qilinadi. Er yoki xotinning oilada o‘zini nomunosib tutganligini aniqlash ham sudga tegishlidir. Ammo boshqa tomon bu sharoitni isbotlashi lozim. Shu maqsadda hujjatlar (masalan, sud yoki boshqa organlarning qarorlari, tavsiyanomalari va boshqalar)dan foydalanish mumkin. Shuningdek, er yoki xotinning nomunosib hulqini tasdiqlaydigan faktlar va boshqa isbotlar talab etiladi. Qonun nomunosib hulq-atvorni faqat nikoh davridagi hayot bilan bog‘lamaydi. Nikohdan o‘tgunga qadar va nikohdan keyin ham mehnatga layoqatsiz yoki muhtojlik vujudga kelishi mumkin.

Er yoki xotinning moddiy ta'minot bo‘yicha nafaqa olish yoki berish majburiyati, aliment undirish uchun zarur bo‘lgan sharoitlar tugashi bilan; er yoki xotinning mehnat qobiliyati tiklanishi (agar mehnatga layoqatsizlik nogironlik tufayli sodir bo‘lgan bo‘lsa); muhtojlik tugashi (masalan, davlatdan pul yordami olish, pensiya, meros olish hamda boshqa manbalardan yashash uchun mablag‘ olish tufayli aliment olayotgan tomonning katta pul yutug‘ini olishi) bilan, shuningdek, aliment to‘lovchi tomonning ta'minot berish imkoniyati bo‘lmay qolishi bilan tugaydi.

Nikohdan ajralib aliment olayotgan shaxsning yangi nikohga o‘tishi ham aliment to‘lashning tugashiga asos bo‘ladi. Chunki nikoh tuzish munosabati bilan u ikkinchi tomonga moddiy ta'minot berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

2-§. Sobiq er-xotinlar o‘rtasidagi aliment majburiyatlar

Amaldagi Oila kodeksining 118-moddasiga muvofiq, yetarli mablag‘ga ega bo‘lgan sobiq er (xotin)dan:

Sobiq xotin homiladorlik davrida va o‘rtada bola tug‘ilgan kundan boshlab uch yil davomida;

O‘rtadagi nogiron bola o‘n sakkiz yoshga to‘lguncha yoki bolalikdan 1 guruh nogironi bo‘lgan bolaga qaragan yordamga muhtoj sobiq er (xotin);

Nikohdan ajralgan paytdan boshlab besh yil ichida pensiya yoshiga yetgan yordamga muhtoj xotin (er), agar er-xotin uzoq vaqt nikohda turishgan bo‘lsa, sud tartibida aliment talab qilish huquqiga egadir.

Nikohdan ajralgandan keyin sobiq er yoki xotinga to‘lanadigan aliment miqdori va uni to‘lash tartibi sobiq er-xotin o‘rtasidagi kelishuv bilan belgilanishi mumkin.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o‘tilayotganini hisobga olib, er-xotin (sobiq er-xotin) o‘rtasida aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv mavjud bo‘lмаган hollarda er yoki xotinga (sobiq er yoki xotinga) sud tartibida undirib beriladigan aliment miqdori sud tomonidan er yoki xotinning (sobiq er yoki xotinning) moddiy va oilaviy ahvolini hamda taraflarning e’tiborga loyiq boshqa manfaatlarini

e'tiborga olib, har oyda pul bilan to'lanadigan qat'iy summada belgilanadi, biroq bu summa qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqining uchdan bir qismidan kam bo'lmasligi lozim.

Oila kodeksini 120-moddasiga muvofiq, er va xotinni bir - birlariga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilish yoki bu majburiyatni muayyan muddat bilan cheklash hollarini belgilab beradi.

Sud quyidagi hollarda:

Agar er-xotin nikohda qisqa vaqt mobaynida bo'lgan bo'lsa;

Agar o'z ta'minoti uchun mablag' to'lanishini talab qilayotgan er yoki xotinning noloyiq hulq atvori tufayli nikohdan ajratilgan bo'lsa;

Agar yordamga muhtoj er yoki xotinning mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi uning spirtli ichimliklarni, giyohvandlik vositalarini, psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishi yoki qasddan jinoyat sodir etishi oqibatida yuz bergen bo'lsa, er (xotin)ni yordamga muhtoj mehnatga layoqatsiz holat (er)ga ta'minot berish majburiyatidan ozod qilishi yoxud bu majburiyatni muayyan muddat bilan cheklab qo'yishi mumkin.

Amaldagi qonunda nikohning qisqa vaqt davom etganligi er yoki xotinni ta'minot berishdan ozod etish uchun sabab bo'lishi mumkin deb ko'rsatilgan. Ammo moddiy ta'minot berishni talab qilish huquqini beradigan nikohning davomiylig muddati belgilanmagan. Bu masala har bir fuqarolik ishida sud tomonidan hal etiladi. Tajribada esa, qoida tariqasida, 5 yilgacha bo'lgan davr qisqa davom etgan nikoh hisoblanadi.

Farzandlarni tarbiyalash va ularga ta'minot berish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi vazifalarini bajarmaslik, shuningdek spirtli ichimliklarni, giyohvand moddalarni suiiste'mol qilish er (xotin) ning oiladagi noloyiq hulq-atvoriga misol bo'la oladi.

Oila kodeksini 146-moddasiga muvofiq, sud ulardan har birining talabiga ko'ra alimentning belgilangan miqdorini o'zgartirishga yoki aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsni aliment to'lashdan ozod qilishga haqli.

Amaldagi qonunchilikda sud tartibida undiriladigan aliment va uni to'lash majburiyatining bekor bo'lishi asoslarining ro'yxati berilgan: bola voyaga yetganda yoki voyaga yetmasdan turib to'la muomala layoqatiga ega bo'lganda; foydasiga aliment undirilayotgan bola farzandlikka olinganda; sud aliment oluvchining mehnatga layoqati tiklangan yoki uni yordamga muhtoj bo'lmay qolgan deb topganda; mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj aliment oluvchi sobiq er yoki xotin yangi nikohga kirganda; aliment oluvchi yoki aliment to'lashi shart bo'lgan shaxs vafot etganda tugatiladi.

Umuman olganda, er-xotin o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunlar ular o'rtasidagi mulkiy munosabatlarni barqaror bo'lishiga, oilani mustahkamlashga xizmat qiladi. Er-xotin o'rtasida vujudga keladigan nizolarni to'g'ri hal qilish alohida ahamiyatga egadir. Bu nizolar sudlar tomonidan adolatli asosda hal qilinishi lozim.

XVII Mavzu. Qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatlari

1-§. Bobo va buvining o‘z nevaralariga aliment to‘lash majburiyati

Amaldagi Oila kodeksining 123-moddasiga binoan, ota-onasi yo‘q bo‘lgan yoki ulardan ta‘minot ololmaydigan voyaga yetmagan nevaralariga ta‘minot berish majburiyati yetarli mablag‘ga ega bo‘lgan bobo va buvi zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Bobo va buvi nabiralaribidan ularga moddiy ta‘minot to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishlari mumkin. Bunday kelishuvga Oila kodeksini 17-bobini qoidalari tatbiq etiladi. Kelishuv tuzilgan taqdirda, aliment miqdori, shartlari va to‘lash tartibi belgilanadi.

Bobo va buvining aliment majburiyatlari aliment to‘lovchilarning ikkinchi navbatdagagi a’zolariga kirib, agar ular aliment to‘lovchilarning birinchi navbatdagilaridan, ota-onasidan ta‘minot olomaydigan bo‘lsa ularga yuklatiladi.

Agar voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj nevaralarning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) va voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo‘lmasa yoxud ulardan ta‘minot uchun mablag‘ ololmasa, ularga nisbatan ham bu majburiyat bobo va buvining zimmasiga yuklatilishi mumkin. Nabiralarga aliment undirish uchun ikkala ota-onsa tomonidagi bobo va buvisini jalb etishlik mumkin. Ularga undiriladigan alimentning miqdori sud tomonidan aliment undirilayotgan shaxsning va aliment olayotgan shaxsning moddiy va oilaviy ahvolini hisobga olib, har oyda pul bilan to‘lanadigan qat‘iy summada belgilanadi.

2-§. Nevaralarni bobo va buvilariga aliment to‘lash majburiyati

Amaldagi Oila kodeksini 124-moddasiga muvofiq, o‘zlarining voyaga yetgan bolalaridan yoxud eri yoki xotinidan (sobiq eri yoki xotinidan) ta‘minot ololmaydigan mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bobo va buviga ta‘minot berish majburiyati yetarli mablag‘ga ega bo‘lgan voyaga yetgan mehnatga layoqatli nevaralar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Bobo va buvilarni nevaralar bilan yaqin qon-qarindoshlik munosabatlarini hisobga olib ular o‘rtasidagi aliment majburiyatlarini belgilaydi. Ko‘pinchi o‘zbek oilalarida nabiralar dastlabki tarbiyani va moddiy ta‘minotni o‘zlarining bobo va buvilaridan oladilar va ular bilan mustahkam bog‘langan bo‘ladilar. Ularni bola tarbiyasidagi tajribalari as qotadi. Bobo va buvilar nabiralarini hatto ota-onalarini o‘rinlarini bosadilar.

Bobo va buvilarga aliment to‘lashlik majburiyati yetarli mablag‘ga ega bo‘lgan voyaga yetgan mehnatga layoqatli nevaralar zimmasiga yuklatiladi. Ilgari amalda bo‘lgan nikoh va oila kodeksining 112-moddasiga muvofiq nevaralarning voyaga yetishidan qat‘iy nazar moddiy ta‘minot undirilishi mumkin edi. Yangi Oila

kodeksini qabul qilinishi munosabati bilan bunday majburiyat faqat voyaga yetgan nevaralar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Nabiralarning aliment majburiyatları shu turdagı huquqiy munosabatlarni ikkinchi navbatiga kiradi. Bobo yoki buvi faqat birinchi navbatdagi aliment majburiyatdagi shaxslardan: o‘zlarining voyaga yetgan bolalaridan, er-xotinlar va sobiq er-xotinlardan undira olmasalar u holda ulardan undiriladi.

Bobo va buvi uchun undiriladigan moddiy ta'minot nabiralarni moddiy holatini pasaytirib qo‘ymasligi lozim.

Aliment to‘lovchi nabiralardan biriga da'vo qilinganda da'volar boshqa aliment to‘lovchi nabiralarni, shuningdek boshqa ikkinchi navbatdagi aliment to‘lovchilarni ham hisobga olishi lozim.

Bobo va buvi bilan nabiralar o‘rtasida aliment to‘lash to‘g‘risida o‘zaro kelishuv bo‘lmagan taqdirda bobo va buvi foydasiga nabiralardan aliment undirish sud tartibida qonun asosida hal qilinadi.

3-§. Aka-uka va opa-singillarning aliment majburiyati

Amaldagi Oila kodeksining 125-moddasiga binoan, ota-onasi yo‘q bo‘lgan yoki ulardan ta'minot ololmaydigan voyaga yetmagan aka-uka va opa-singillariga ta'minot berish majburiyati yetarli mablag‘ga ega bo‘lgan aka-uka va opa-singillar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Aka-uka va opa-singillar aliment to‘lash to‘g‘risidagi o‘zaro kelishuv tuzishlari mumkin. Bunday kelishuvga Oila kodeksining 17-bobi qoidalari tatbiq etiladi. Kelishuvni shartlari, tartibi va alimentning miqdori bu kelishuv bilan belgilanadi.

Kelishuv bo‘lmasa aliment voyaga yetgan mehnatga layoqatli aka-uka va opa-singillardan faqat aliment undirish huquqiga ega bo‘lgan voyaga yetmagan muhtoj va voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz muhtoj aka-ukalar va opa-singillarda saqlanadi. Aliment undirishga to‘la va to‘la bo‘lmagan aka-uka va opa-singillar ega bo‘lganlar.

Ilgari amalda bo‘lgan nikoh va oila kodeksida aka-uka va opa-singillarning voyaga yetmagan yoki mehnatga layoqatsiz voyaga yetgan aka-uka va opa-singillarga ta'minot berish majburiyati yuklatilgan edi.

Yangi qonunni qabul qilish munosabati bilan endilikda faqat mehnatga layoqatli aka-uka va opa-singillarga yuklatilinadi.

4-§. Doimiy tarbiyada bo‘lganlarning o‘z tarbiyachilariga aliment berish majburiyati

Oila kodeksini 126-moddasiga binoan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo‘lmagan yoxud ulardan ta'minot uchun mablag‘ ololmaydigan, amalda ularni tarbiyalaganlarga ta'minot berish majburiyati ularning doimiy

tarbiyasi va ta'minotida bo'lgan shaxslar zimmasiga yuklatilishi mumkin. Bunday majburiyat vasiylikda (homiylilikda) turgan shaxslar zimmasiga yuklatilmaydi.

Doimiy tarbiyalovchi bu vasiy (homiylilik) yoki shartnoma asosida bolalarni tarbiyaga olmagan (patronat) bo'lmasdan balki begona voyaga yetmagan bolalarni o'z tarbiyasiga va ta'minotiga olgan shaxslardir. Ular bolaning qarindoshlari, shuningdek boshqa begona shaxslar bo'lishi mumkin. Nikoh va Oila kodeksini (116-moddasi) voyaga yetmagan bolalarni doimiy tarbiyalash va ta'minlash uchun olgan shaxslar keyinchalik ularni tarbiyalash va ta'minlashdan bosh tortsalar va bolalarning ota-onasi bo'lmasa yoki ular o'z ota-onalaridan ta'minot uchun yetarli mablag' ololmasalar, bunday bolalarga ta'minot berish majburiyati ularni doimiy tarbiyalash va ta'minlash bunday majburiyatni faqat mehnatga layoqatli doimiy tarbiyada bo'lganlarga yuklaydi.

Mehnatga layoqatli doimiy tarbiyada bo'lganlardan doimiy tarbiyaga olganlarga undiriladigan aliment tartibi va uni hajmi taraflarning yozma kelishuv bilan belgilanadi (Oila kodeksining 130-moddasi).

Doimiy tarbiyada bo'lganlarning o'z tarbiyachilariga ta'minot berish to'g'risida kelishuv bo'lmasa voyaga yetgan doimiy tarbiyada bo'lganlardan sud tartibida undiriladi. Doimiy tarbiyada bo'lganlarning o'z tarbiyachilariga ta'minot berish majburiyati uchun aliment undirish uchun asos bo'lib, qarindoshlik yoki qayin-bo'yinchilik bo'lmasdan yuridik fakt hisoblanib, bola farzandlikka olinmasdan vasiylik (homiylilik) rasmiylashtirilmasdan, bolani oilaga tarbiyaga olish (patronat) bo'lmasdan balki bolani tarbiyalash va ta'minlashga olishdir.

Sud tarbiyada bo'lganlarni, agar ular tarbiyachilarning tarbiyasi va ta'minotida besh yildan kam turgan bo'lsa qonunda ko'rsatilgan majburiyatdan ozod qilishga haqli.

Tarbiyanuvchini aliment to'lashdan ozod qilish sudning majburiyati bo'lmasdan balki huquqidir. Shuning uchun sud ishni ko'rishda hamma holatlarni hisobga olib uni hal qiladi.

5-§. O'gay ota va o'gay onaning o'gay o'g'il va o'gay qizlariga aliment berish majburiyati

Oila kodeksini 127-moddasiga binoan, o'gay ota va o'gay onaning tarbiyasida yoki tarbiyasida yoki ta'minotida bo'lgan voyaga yetmagan o'gay o'g'il va o'gay qizlarning ota-onasi yo'q bo'lsa yoxud o'z ota-onasidan yetarli mablag' ololmayotgan bo'lsa, ularga ta'minot berish majburiyati o'gay ota va o'gay ona zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Bu aliment majburiyati qon-qarindoshlik munosabatiga asoslangan bo'lmay, o'gay ota va o'gay ona tomonidan o'gay bolalarni tarbiyalaganlik yoki ta'minlaganlik yuridik faktiga asosan kelib chiqadi.

O'gay bolalarga o'gay ota yoki o'gay ona tomonidan tarbiya va ta'minot berilganlik yuridik fakti ularning bir oilada birga yashaganliklari bilan

tasdiqlanishi mumkin. Aliment majburiyatini belgilash uchun o‘gay ota va o‘gay ona bilan birga o‘gay bolalarning uzoq vaqt birga yashagan bo‘lishlari shart emas.

O‘gay ota va o‘gay ona bilan o‘gay bolalar o‘rtasidagi aliment majburiyati ta‘minot berish uchun majbur bo‘lgan boshqa qarindoshlar bo‘lmagan holda vujudga keladi.

Xususan, voyaga yetmagan o‘gay bolalarga ta‘minot berish majburiyatini o‘gay ota va o‘gay onaga yuklash uchun bolaning o‘z ota-onalari bo‘lmasisligi yoki u ota-onalaridan ta‘minot uchun yetarli ta‘minot olomasligi lozim.

Voyaga yetgan yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz o‘gay o‘g‘il va o‘gay qizlarning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) va voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo‘lmasa yoxud ulardan ta‘minot uchun yetarli mablag‘ ololmasa, o‘gay ota va o‘gay onaning zimmasiga ularga nisbatan ham aliment majburiyatini yuklatilishi mumkin.

O‘gay ota va o‘gay onaning voyaga yetgan mehnatga layoqatsiz ta‘minotga muhtoj o‘gay o‘g‘il va o‘gay qizlarni ixtiyoriy ravishda moddiy ta‘minlashga rozi bo‘lishi ular o‘rtasda tuzilgan shartnomaga asosida amalga oshiriladi.

6-§. O‘gay o‘g‘il va o‘gay qizlarning o‘gay ota va o‘gay onaga aliment berish majburiyati

Oila kodeksini 128-moddasiga binoan, mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘gay ota va o‘gay onaning ota-onasi, eri yoki xotini (sobiq eri yoki xotini) yoki voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo‘lmasa yoxud ulardan ta‘minot uchun mablag‘ ololmasa, ularga ta‘minot berish majburiyati o‘gay o‘g‘il va o‘gay qizlar zimmasiga yuklatilishi mumkin.

O‘gay bolalarning o‘gay ota, o‘gay onaga aliment berish majburiyati belgilangan bo‘lib, u o‘z mazmuni bilan amaldagi Oila kodeksining 127-moddasida belgilangan bolalarning o‘z ota-onasiga ta‘minot berish majburiyatlariga o‘xshaydi.

O‘gay bolalarda o‘gay ota-onaga aliment to‘lash majburiyatining kelib chiqishi uchun birinchidan - o‘gay ota va o‘gay onaning o‘z ota-onasi, eri yo-

ki xotini (sobiq eri yoki xotini) hamda voyaga yetgan mehnatga layoqatli bolalari bo‘lmasligi yoxud ulardan qandaydir sabablarga ko‘ra ta‘minot uchun mablag‘ olishlari mumkin bo‘lmasligi, ikkinchidan, ta‘minot talab qiluvchi o‘gay ota, o‘gay ona mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj bo‘lishi shart.

Aliment to‘lovchi bolalarning o‘zi voyaga yetgan mehnatga layoqatli va ta‘minot berish imkoniyatga ega bo‘lishlari shart. Bu talablar ham aliment majburiyatini belgilashda zaruriy shart bo‘lib hisoblanadi.

Quyidagi hollarda sudga o‘gay o‘g‘il va o‘gay qizni mehnatga layoqatsiz yordamga muhtoj o‘gay ota va o‘gay onaga ta‘minot berish majburiyatidan ozod qilish huquqi berilgan. Bular jumlasiga o‘gay o‘g‘il va o‘gay qizning tarbiyasi va ta‘minoti uncha uzoq davom etmagan (ya’ni, 5 yildan kam muddatni tashkil etgan) bo‘lishi, shuningdek o‘gay ota va o‘gay ona o‘gay o‘g‘li va o‘gay qizini

tarbiyalash yoki unga ta'minot berish borasidagi o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi kiradi.

XVIII Mavzu. Alimentlarni to‘lash va undirish tartibi

1-§. Alimentni to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzish

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv Oila kodeksini 130-134-moddalari bilan tartibga solinadi. Bu qoidalar oila qonunchiligi tajribasida birinchi bo‘lib yangilik hisoblanadi.

Avvalgi Nikoh va oila kodeksiga binoan, aliment to‘lash bo‘yicha ota-onalar hamda bolalarning qarindoshlari hamda boshqa shaxslarning huquq va majburiyatlari qonun bilan belgilangan.

Oila kodeksining 130-moddasiga muvofiq, aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv (aliment miqdori, shartlari va to‘lash tartibi) aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs bilan aliment oluvchi o‘rtasida tuziladi. Agar aliment oluvchi muomalaga layoqatsiz bo‘lsa, kelishuv uning qonuniy vakili bilan tuziladi.

14 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlar hamda sud tartibida muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar nomidan kelishuv ularning qonuniy vakillari (voyaga yetmaganlarning ota-onalari, vasiylari, homiyлari) tomonidan tuziladi. 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyage yetmaganlar hamda muomalaga layoqatli sud tartibida cheklangan shaxslar o‘z qonuniy vakillarining roziligi bilan aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzadilar.

Kelishuvni yozma ravishda tuzish va uni notarial tarzda tasdiqlash sharti belgilangan. Notarial tartibda tasdiqlanmagan aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuv haqiqiy hisoblanmaydi.

Notarial tasdiqlangan kelishuv o‘z ijro kuchiga ko‘ra ijro varaqasiga tenglashtiriladi. Bu aliment ushlab qolish uchun boshqa hujjatlarni ko‘rsatish talab qilinmasligini bildiradi. Notarial tasdiq-langan kelishuvni jo‘natish, hisobga olish va saqlashga nisbatan ijro varaqalarini jo‘natish, hisobga olish va saqlash qoidalari qo‘llaniladi.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvni tuzish, ijro etish, bekor qilish va haqiqiy emas deb topish fuqarolik kodeksi bilan tartibga solinadi.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvlar Fuqarolik kodeksining 150-moddasida belgilangan da'vo qo‘zg‘atish muddati doirasida e'tiborsiz qoldirilishi ham, rad etilishi ham mumkin.

Aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvning tomonlarning o‘zaro kelishuvlariga binoan o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi yozma ravishda amalga oshirilib, notarial tasdiqlanishi zarur.

Oila kodeksining 16-bobiga binoan aliment kelishuvlarini quyidagilar tuzishi mumkin:

A) ota-onalar o‘zlarining voyaga yetmagan bolalarini ta'minlash to‘g‘risida. Agar aliment 14 yoshga to‘lmagan bolalarga beriladigan bo‘lsa, u holda kelishuv aliment to‘lovchi ota yoki ona bilan, ona yoki ota qatnashishi mumkin. 14 yoshga

to‘lgan bolalar o‘z otasi yoki onasi, vasiysi yoki farzandlikka oluvchisining roziligi bilan kelishuv tuzadilar;

B) ota-onalar yordamga muhtoj, mehnatga layoqatsiz voyaga yetgan farzandlarini ta'minlash to‘g‘risida. Ota-onalar bunday kelishuvni o‘zlarining mehnatga yaroqli, voyaga yetgan farzandlari bilan ham tuzishlari mumkin;

V) mehnatga layoqatli farzandlar o‘zlarining mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onalarini ta'minlash to‘g‘risida. Bunday holatda kelishuv voyaga yetgan har bir farzand bilan ota va onaning har biri o‘rtasida, tomonlardan biri muomalaga layoqatsiz bo‘lgan hollarda esa - uning qonuniy vakili o‘rtasida tuziladi. Bunday bitim ota-onalar mehnatga layoqatsizligi va muhtojligidan qat’iy nazar tuzishi mumkin;

G) er-xotindan biri mehnatga layoqatsiz, muhtoj bo‘lgan hollarda, masalan, xotini homiladorligi davrida hamda umumiy farzand tug‘ilganidan keyin uch yil davomida yoki er yoxud xotin nogiron umumiy farzandni parvarish qilayotganida u yo8 yoshga to‘lgunicha yo bo‘lmasa 1-guruh nogironi bo‘lgan umumiy farzandni parvarish qilayotganida er-xotinlar aliment kelishuvi tuzishi mumkin. Bitimda, aliment oluvchi er yoki xotin mehnatga layoqatsizligidan yoki muhtojligidan qat’iy nazar, bunday kelishuvni tuzishlari mumkin;

YE) shunday bitim tuzishlari mumkin bo‘lgan aka-ukalar va opa-singillar;

J) bobolar va buvilar. Ular nabiralari bilan o‘zlarini ta'minlash to‘g‘risida kelishuv tuzishlari mumkin;

Z) bobolari va buvilarini ta'minlash to‘g‘risida kelishuv tuzish huquqiga ega nabiralar;

I) voyaga yetgan amaldagi tarbiyalanuvchilar ular o‘zlarining sobiq amaldagi tarbiyachilarini ta'minlash to‘g‘risida kelishuv tuzish huquqiga egadir;

K) voyaga yetgan asrandi o‘g‘illar va qizlar. Ular o‘gay otalari yoki o‘gay otalari va o‘gay onalarini ta'minlash to‘g‘risida kelishuv tuzishlari mumkin.

L) o‘gay ota va o‘gay onaning o‘gay o‘g‘il va o‘gay qizlariga, shuningdek o‘gay o‘g‘il va o‘gay qizlarning o‘gay ota va o‘gay onaga ta'minot to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzishlari mumkin.

Oila kodeksining 145-moddasida xorijiy davlatga doimiy istiqomat qilishi uchun jo‘nab ketayotgan shaxs bilan aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv tuzish mumkinligi nazarda tutilgan. Bu kelishuvda tomonlar aliment olish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarni ta'minlashning har qanaqa usulini ko‘zda tutishga haqlidirlar.

Aliment miqdori va uni to‘lash usuli va tartibi

Kelishuvga muvofiq voyaga yetmagan bolalar uchun belgilanadigan aliment miqdori ular sud tartibida undirganda olishi mumkin bo‘lgan aliment miqdoridan kam bo‘imasligi kerak. Bu miqdor Oila kodeksining 99-moddasi bilan belgilab qo‘yilgan va bir bola uchun ish haqi va (yoki) boshqa daromadning 1/4 qismini, ikki bola uchun 1/3 qismini va uchta hamda undan ortiq bola uchun 1/2 qismini tashkil qiladi.

Alimentlar aliment to‘lashga majbur shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadiga nisbatan hissada muntazam (har oyda, har chorakda va shu kabi)

to‘lanadigan qat’iy pul miqdorida mulk berish yo‘li bilan, shuningdek bo‘lakcha usullarda to‘lanishi mumkin. Kelishuvda to‘lashning turli usullarini aralash qo‘llanish nazarda tutilishi mumkin.

Aliment miqdorini indekslash tartibi

Indekslashning eng keng tarqalgan usuli-aliment miqdorini eng kam ish haqiga yoki chet el valutasiga bog‘liq qilib qo‘yish.

Aliment kelishuvini o‘zgartirish va bekor qilish tartibi

Kelishuv, tomonlarning o‘zaro kelishuviga binoan, istalgan paytda o‘zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Bu ish ham, kelishuv tuzilgan tartibda amalga oshirilishi kerak.

Tomonlarning moddiy yoki oilaviy ahvoli jiddiy ravishda o‘zgargan hamda aliment kelishuvini o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risida kelishuvga erishilmagan holatlarda manfaatdor tomon ushbu kelishuvni o‘zgartirish yoki bekor qilish to‘g‘risidagi da‘vo bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Aliment kelishuvidagi tomonlardan biri, odatda, mehnatga layoqatsiz, muhtoj shaxs bo‘lib, uning manfaatlarini qattiq himoya qilish talab etiladi. Shu munosabat bilan Oila kodeksi aliment to‘lash to‘g‘risidagi kelishuvni, uni o‘zgartirishning Fuqarolik kodeksining 383-moddasida belgilangan umumiyyatiga qaraganda ancha ixcham tartib bo‘lgan sud nazorati ostida o‘zgartirishni nazarda tutadi.

2-§. Alimentni ixtiyoriy to‘lash

Oila kodeksining 135-moddasiga binoan, aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxs alimentni ixtiyoriy ravishda shaxsan yoki o‘z arizasiga muvofiq ishlab turgan joyida yoxud pensiya, nafaqa, stipendiya va boshqa turdag‘i mablag‘ olayotgan joyida to‘lanadi.

Amaldagi oila qonunchiligidagi aliment bo‘yicha nizo bo‘limgan hollarda, uni ixtiyoriy ravishda to‘lashning umumiyyatini belgilangan

Aliment to‘lashning bu tartibi birchi marta SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1967 yil 21 iyuldagagi "Bolalarni boqish uchun aliment to‘lash va undirish tartibini yaxshilash to‘g‘risida"gi Farmonda belgilangan edi¹¹⁹. Bu Farmonda aliment to‘lashdan bosh tortgani uchun pasortiga belgi (yoziб) chorasi birinchi marotaba belgilangan.

Qonunga asosan ixtiyoriy tartibda mablag‘, bolalar bilan bir qatorda, qonun bilan belgilangan hollarda er-xotindan biriga, ota-onalarga, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlarga ham berilishi mumkin. Qonun voyaga yetmagan bolalarning manfaatlarini alohida himoya qiladi.

Aliment to‘lovchining arizasiga muvofiq ish joyidagi yoxud u pensiya, nafaqa, stipendiya olayotgan joydagisi ma’muriyat orqali to‘lanishi mumkin.

¹¹⁹ SSSR Oliy Sovetining Vedemostlari, 1967 yil, 30-son, 418-modda.

Ixtiyoriy tartibda to‘lanayotgan aliment nafaqat bolalarga, er-xotinlarga shuningdek qarindoshlar va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları bo‘lib hisoblanadi.

Alimentning ixtiyoriy ravishda to‘lab turilishi aliment undiruvchini xohlagan vaqtida aliment undirish haqida ariza bilan sudga murojaat qilish huquqidан mahrum etmaydi.

3-§. Alimentni sud tartibida undirish

Oila kodeksini 96-129-moddalarida belgilangan, oila a'zolarining va boshqa shaxslarning aliment majburiyatları to‘g‘risida aliment to‘lash to‘g‘risida kelishuv bo‘lmasa u holda aliment to‘lash to‘g‘risida sudga da'vo bilan murojaat etishlik mumkin.

Oila kodeksining 136-moddasida alimentni sud tartibida undirishga oid qoidalar berilgan.

Aliment olish huquqiga ega bo‘lgan shaxs, aliment talab qilish huquqi vujudga kelganidan so‘ng qancha muddat o‘tganidan qat’iy nazar, xohlagan vaqtida aliment undirish to‘g‘risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqlidir.

Aliment da'vo taqdim etilgan kundan boshlab undiriladi.

Aliment undirishni sud tartibi aliment talab etish huquqiga ega bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar manfaati va boshqa oila a'zolarining huquqlarini himoya qiluvchi kafolat bo‘lib hisoblanadi.

Aliment undirish haqida huquq qachon vujudga kelganidan va undan keyin qancha muddat o‘tgan bo‘lishidan qat’iy nazar aliment olishga haqli bo‘lgan shaxs yoki uning vakili xohlagan vaqtida sudga murojaat qilishga haqlidir. Ushbu holda sud qonunda nazarda tutilgan sabablarni inobatga olgan holda, aliment to‘lash talab qilingan vaqtidan avval o‘tgan uch yil vaqt uchun ham aliment undirib berishi mumkin. Biroq uning uchun ikkita shart mavjud bo‘lishligi lozim, ya'ni:

A) da'vogar aliment undirish uchun barcha choralarini ko‘rishga qaramay, javobgar uni to‘lashdan bosh tortsa;

B) da'vogar oilani saqlab qolish maqsadida yoki boshqa uzrli sabablar bilan o‘z vaqtida da'vo taqdim qilmaganligi aniqlansa.

4-§. Aliment qarzini undirish

Oila kodeksini 139-moddasiga binoan, aliment qarzi aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning ish haqi va (yoki) boshqa daromadidan undiriladi. Ish haqi va (yoki) boshqa daromad yetarli bo‘limganda, aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning banklar va boshqa kredit tashkilotlaridagi hisobvaraqlarida turgan pul mablag‘idan, tijorat va tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlarga shartnoma asosida o‘tkazilgan pul mablag‘idan undiriladi, mulk huquqining o‘tishiga olib keluvchi shartnomalar bundan mustasno.

Ma'lumki, avvalgi Nikoh va oila kodeksiga muvofiq aliment undirish uni to'lashga mas'ul bo'lgan shaxsning ish haqi (daromadi)dan undiriladi.

Bu qoida bozor iqtisodiyotiga o'tishida zamon talablariga javob bermay qoldi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 53-moddasiga muvofiq, bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarining huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligining, barcha mulk shakllarining teng huquqlilagini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Aliment qarzi aliment to'lashga majbur shaxsning hamma daromadidan undiriladi. Ammo undirish tartibi birmuncha o'zgardi.

Oila kodeksining aliment undirishga qaratilgan tartibi Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda hamda Fuqarolik protsessual kodeksida belgilangan tartib va navbat asosida amalga oshiriladi.

Dastlab aliment xodimning asosiy ish joyida oladigan maoshidan, keyin uning banklari yoki boshqa kredit muassasalaridagi mablag'laridan undiriladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv yoki ijro varaqasi asosida o'tgan davrdagi aliment qarzi ijro yoki aliment to'lash to'g'risidagi keliuv aliment undirish uchun taqdim qilingunga qadar o'tgan uch yildan ortiq bo'limgan muddat uchun undiriladi.

Amaldagi qonun undan ortiq uchun ham istisno tariqasida aliment undirilishi mumkinligini belgilaydi.

Alimentlar ijro varaqasi yoki aliment to'lash to'g'risidagi notarial tartibda tasdiqlangan kelishuv bo'yicha aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning aybi bilan undirilmagan bo'lsa qonunda ko'rsatilgan uch yillik muddatdan qat'iy nazar, o'tgan barcha vaqt uchun undiriladi.

5-§. Alimentni o'z vaqtida to'lanmaganlik uchun javobgarlik

Oila kodeksining 142-moddasiga muvofiq aliment to'lash to'g'risidagi kelishuvga muvofiq aliment to'lashi shart bo'lgan shaxsning aybi bilan qarz vujudga kelgan bo'lsa, aybdor shaxs ushbu kelishuvda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv tuzuvchi taraflar mustaqil ravishda alimentni tegishli ravishda bajarmaganlik uchun javobgarlik belgilashlari mumkin. Agar kelishuvda aliment to'lash to'g'risida tegishli ravishda bajarmaganligi to'g'risida javobgarlik belgilangan bo'lmasa u holda amaldagi qonunlar asosida hal qilinadi.

Aliment majburiyatini bajarmaganligi uchun belshgilangan javobgarlik javobgarni o'z vaqtida alimentni bajarishlik va uni to'xtab qolishligi bilan bog'liq holatlarni tezlashtiradi. Alimentni o'z vaqtida bajarmaslik uchun javobgarlik Fuqarolik kodeksini 24-bobi qoidalari bilan tartibga solinadi. Keltirilgan zararni

va neustoykani to‘lashlik uchun asos bo‘lib aliment to‘lovchini aybli ahloqi hisoblanadi. Qarz paydo bo‘lishida uni aybi bo‘lmasa bunday tadbirlar qo‘llanilmaydi.

Sudning hal qiluv qaroriga ko‘ra aliment to‘lashi shart bo‘lgan shaxsning aybi bilan qarz vujudga kelgan bo‘lsa, aybdor shaxs kechiktirilgan har bir kun uchun to‘lanmay qolgan aliment summasining o‘ndan bir foizi miqdorida aliment oluvchiga neustoyka to‘laydi (Oila kodeksining 142-moddasi 2-qismi).

XIX Mavzu. Ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlash va joylashtirish

1-§. Ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni huquq va manfaatlarini himoya qilish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasining 2-qismiga binoan, davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarning vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o‘qitishni ta‘minlaydi, bolalarga bag‘ishlangan hayriya faoliyatlarni rag‘batlantiradi.

Oila kodeksini maxsus 6-bo‘limi ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllariga bag‘ishlangan. 19-bob, 148-150-moddalar.

Oila kodeksining 148-moddasiga muvofiq, ota-onalik vafot etganda, ota-onalik huquqidan mahrum etilganda, ularning ota-onalik huquqi cheklanganda, ular muomalaga layoqatsiz deb topilganda, kasal bo‘lganda, uzoq muddat bo‘limganda, ota-onalik bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlaganda, shu jumladan ona tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o‘xshash boshqa muassasalardagi bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lgan boshqa hollarda bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

2001 yil mamlakatimizda "Onalar va bolalar yili" deb e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi ishlar yuzasidan sud-prokuror amaliyoti hamda mazkur huquqlardan mahrum qilingan shaxslarning farzandlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ahvoli umumlashtirildi.

Ota-onalik huquqidan mahrum qilish ishlari Oila kodeksi 80-moddasining talablariga binoan vasiylik va homiylik organi ishtirokida ko‘rilishi lozim.

2000 yilda Respublikamizda sudlar tomonidan ko‘rilgan 330 ta fuqarolik ishlarining 14 tasida vasiylik va homiylik organlari ishtirok etmaganlar.

Oila kodeksining 148-moddasida nazarda tutilgan holatlar yuz berganda vasiylik va homiylik organlarida bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish majburiyati vujudga keladi. Ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va majburiyatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlarining ham huquqi va majburiyatidir. Chunki bu huquq va majburiyatlarini amalga oshirish vakolti davlat tomonidan vasiylik va homiylik organlariga berilgan. Shuning uchun ham bolaning ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lganlik fakti qachon ro‘y

berganligi va bu faktning mavjudligini nimalar tasdiqlashini bilish muhim ahamiyatga egadir¹²⁰.

Ma'muriy organlar faoliyatida ota-onalik huquqidan mahrum qilish haqidagi qonuniy kuchga kirgan sud qarorlari o'z vaqtida ijroga qaratilsada vasiylik va homiylik organlari o'z vazifalariga sovuqqonlik bilan qarab, qarorlar ijrosini o'z vaqtida bajarmaslik holatlari hamon uchrab turmoqda.

Jumladan, Toshkent viloyati Chirchiq shahar sudining 1998 yil 24 iyundagi hal qiluv qarori bilan Bagautdinova G. onalik huquqidan mahrum qilingan. Lekin shahar hokimining 1993 yilda tug'ilgan voyaga yetmagan Ruslan Bagautdinovni bolalar uyiga joylashtirish to'g'risidagi qarori 1999 yil 26 martda, ya'ni 8 oydan keyin qabul qilingan va u bir oydan keyin bolalar uyiga joylashtirilgan. Natijada bola 9 oy ahloqi yaxshi bo'lмаган onasi bilan birga yashagan.

Shu kabi, 1986 yilda tug'ilgan Leonid Dobrenkonning onasi 2000 yil 2 fevralda onalik huquqidan mahrum qilingan. Chirchiq shahar hokimining qarori 2000 yil 19 aprelda chiqarilgan, Bolalar uyiga yo'llanma esa 9 oydan keyin, ya'ni 2001 yil 15 yanvarda olingan. Ushbu holat bo'yicha vasiylik va homiylik organi hodimlarining sovuqqonligi va bolalar taqdiriga befarqligi oqibatida bola 11 oy davomida huquqidan mahrum qilingan onasi bilan yashashi davom etgan.

Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar sudining 2000 yil 31 iyuldagagi hal qiluv qarori bilan J. Sapayeva onalik huquqidan mahrum etilgan. Uning farzandi, 1991 yilda tug'ilgan Aziz Sapayevni, mehribonlik uyiga joylashtirish haqida hokim qarori chiqarilishi uchun 6 oy vaqt ketgan (2000 yil 12 dekabrda). Bu davr ichida bola xulqi yaxshi bo'lмаган onasi tarbiyasida bo'lgan.

Ota-onasidan mahrum bo'lган bolalarning uy-joylari ular voyaga yetgunga qadar saqlanishi lozim bo'lsada, lekin ayrim hollarda bunday bolalarning uy-joylari sotilishga yoki ularning boshqa moddiy va ijtimoiy huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmoqda. Bu esa, o'z navbatida vasiylik va homiylik organlari tomonidan Oila kodeksining 182-moddasiga binoan vasiy va homiyalar o'z vazifalarini bajarishlari ustidan nazorat yetarli darajada o'rnatilmaganligidan dalolat beradi.

2-§. Ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish

Oila kodeksini 149-moddasi vasiylik va homiylik organlari tomonidan ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni aniqlash va hisobga olish tartibini belgilaydi.

Ota-onsa qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni aniqlash va hisobga olish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to'g'risida Nizom"da belgilab qo'yilgan.

¹²⁰ O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. -T., "Adolat", 2000, 282-bet.

Ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiylik organlari zimmasiga yuklatiladi.

Oila kodeksini 149-moddasini 3-qismiga binoan quyidagilar ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar haqida vasiylik va homiylik organlariga xabar berishga majburlar:

Maktabgacha tarbiya muassasasining mansabдор shaxslari;

Umumta’lim muassasalarining mansabдор shaxslari;

Davolash muassasalarining mansabдор shaxslari;

Aholini ijtimoiy himoyalash muassasalarining mansabдор shaxslari;

Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari (fuqarolar yig‘ini, mahalla qo‘mitalari va boshqalar)ning mansabдор shaxslari;

-qarovsiz qolgan bolaning yaqin qarindoshlari;

-fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish bo‘limlari (FHDYO) ning mansabдор shaxslari (agar shaxsning o‘lganligini yoki o‘lgan deb e’lon qilinganligini qayd etishda bolaning qarovsiz qolganligi ma'lum bo‘lib qolsa);

-sud ota-onalik huquqidagi mahrum qilish yoki ota-onalik huquqini cheklash, muomalaga layoqatsiz deb topish haqida va bolaning ota-onasining qaramog‘idan mahrum qilinishiga sabab bo‘lgan holatlar haqida hal qiluv qarori chiqarganda;

-o‘z faoliyati turiga muvofiq oila va bolalar bilan bog‘liq boshqa muassasalarining mansabдор shaxslari;

-shunday bolalar haqida ma'lumotga ega bo‘lgan boshqa mansabдор shaxslar va fuqarolar.

O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi Nizomning 7-bandiga binoan Oila kodeksi va boshqa qonun hujjatlariga binoan vasiylik va homiylik organlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradilar:

A) ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni aniqlaydilar, ularni hisobga oladi va ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan har bir holatidan kelib chiqib, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydilar (Oila kodeksini 149-moddasi)

B) bola manfaatlari uchun zarur hollarda unga vasiy yoki homiy tayinlaydilar (Oila kodeksini 177, 179-moddalari);

Vaqtinchalik bolalarni joylashtirish ularni qarindosh-urug‘lariga yoki bolalarga yaqin bo‘lgan shaxslarga berishdan iborat. O‘zbek oilalarida bolalar tog‘asi, ammasi, amakisi va xolasiga beriladi. Qadimdan mahalliy xalqlarda yetim bolalar yaqin qarindoshlari tarbiyasida qoldirilgan. Ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni qarindosh-urug‘larida qoldirish maqsadga muvofiq bo‘lib hisoblanib bolalar yaqin kishilaridan uzoqlashib ketmagan. Bolalar yaqin qarindoshlarida qoldirilsa ota-onasidan ajralib qolganliklarini unchalik sezmaydilar. Agarda bolalarni bunday shaxslarga berishlikni iloji bo‘lmasa unday holatda ular bolalar muassasalariga joylashtirilgan. Bunday joylashtirishdan asosiy maqsad bolalarga oila tarbiyasini berishdan iborat. Bolalarni oilada tarbiyalashning ustunligini ko‘rsatadi.

Ota-onalarni homiyligidan mahrum bo‘lgan bolalar, tarbiyalanish uchun oilaga joylashtiriladigan bolalar albatta hisobga olinishi kerak.

Hisobga olishni bunday tartibi bolalar manfaatlarini har taraflama himoya qilishga qaratilingan. Undan maqsad bunday bolalar to‘g‘risidagi ma'lumotnomani markazlashtirilgan va hammabop bo‘lib har bir bola osonlikcha joylashtirilishi uchun imkoniyatga ega bo‘lib o‘ziga tegishli sharoitlar bo‘lishi kerak. Biryo‘li bolalarni bunday qayd etish tizimi ularni oilaga tarbiyalash uchun berishda suiiste'mol qilishlikka yo‘l qo‘ymaslikdan iborat.

Oilaga bolalarni tarbiyalash uchun berishda dastlabki ma'lumotnomani birinchi navbatda ularni davolash va tarbiyalash muassasalarining rahbarlariga topshiriladi. Qoida asosida birinchi navbatda ularga bolalarni tarbiyaga berish to‘g‘risida u nima bilan bog‘liq ekanligi to‘g‘risida xabar beriladi. Masalan, bolani ota-onasining vafot etishi ushbu muassasadon bolani olib ketishlikni rad etish, ota-onalarni ota-onalik huquqidan mahrum etish. Yetti kun ichida bunday bolalar to‘g‘risida vasiylik organlariga bunday bola oilaga tarbiyaga berish to‘g‘risida bolalar muassasalarini rahbarlariga ma'lum bo‘lganligi to‘g‘risida xabar berishlari lozim.

Ota-onasiz qolgan bolalar to‘g‘risida birinchi hisob bolalar yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi. Vasiylik va homiylik organlari bir oy davomida bolalarni oilaga joylashtirish ma'lum bo‘lgandan so‘ng xabar beriladi.

3-§. Ota-onalarni joylashtirishda qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish

Oila kodeksini 150-moddasiga, ota-onalarni joylashtirishda qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar oila (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi, bunday imkoniyat bo‘limganda esa, yetim bolalar yoxud ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tayinlangan muassasalar (tarbiya, davolash, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xhash boshqa muassasalar)ga tarbiyaga berilishi lozim.

Ota-onalarni joylashtirishda qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllari har xildir.

Amaldagi oila qonunchiligi bolalarni joylashtirishda ularni oilaga tarbiyaga olinishini ta'minlovchi shakllarga (farzandlikka olinishi, vasiylik, homiylik belgilanishi yoki tutingan oila)ga berilishi lozim.

Bolani oilada yashashi va tarbiyalanishi uning "Bola huquqi to‘g‘risida"gi Konvensiyada va Oila qonunchiligidagi nazarda tutilgan eng muhim huquqlaridandir. Bu holatda, odatda bolaning o‘z ota-onasi oilasida yashashi va tarbiyalanishi tushuniladi.

Bolalarni joylashtirishda uni etnik kelib chiqishi, ma'lum din va madaniyatga tegishli ekanligi, ona tili, tarbiyalash va ma'lum olishda izchillik holati hisobga olinishi kerak.

Oila kodeksini 150-moddasini 2-qismiga binoan, ... oilaga yoki muassasalarga tarbiyalash uchun joylashtirish masalasi hal bo‘lguniga qadar vasiylik (homiylilik) majburiyatlarini bajarish vaqtincha vasiylik va homiylilik organlari zimmasiga yuklatiladi.

XX Mavzu. Farzandlikka olish

1-§. Farzandlikka olish tushunchasi

Farzandlikka olish Oila kodeksini 20-bobi, 151-172-moddalari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 19 apreldagi 171-son qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarga oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risida Nizom" bilan tartibga solinadi.

Farzandlikka olish munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy normalar ota-onasi bo‘lman yoki har xil sabablarga ko‘ra ular tarbiyasidan mahrum bo‘lib qolgan bolalarga oilaviy tarbiyani ta‘minlab, bolalar huquq va manfaatlarini qo‘riqlashga qaratilingandir.

Farzandlikka olish huquqiy dalolatnomasi bo‘lib, bunga asosan farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinuvchilar o‘rtasida ota-onalar bilan bolalar o‘rtasidagi kabi huquqiy munosabatlarni vujudga keltiradi.

Farzandlikka olish tufayli bolalar yangi ota-onalarga va boshqa qarindosh-urug‘larga ega bo‘lib o‘zlarining ota-onalari va qarindosh-urug‘lari bilan huquqiy munosabatni tugallaydi.

Farzandlikka olish bu huquqiy munosabatni vujudga keltiruvchi va bekor qiluvchi akt bo‘lib hisoblanadi.

Oila kodeksini 151-moddasini 1-qismiga binoan, farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va ularning manfaatlarinigina qo‘llab yo‘l qo‘yiladi.

O‘zining belgilangan maqsadi bo‘yicha farzandlikka olish instituti juda insonparvar institutdir. U o‘z ota-onalaridan mahrum bo‘lgan yoki ayrim sabablarga ko‘ra ota-onsa tarbiyasini olaolmaydigan bolalarga normal oilaviy tarbiyani ta‘minlashga qaratilgandir. Farzandlikka olish tufayli ota-onasini yo‘qotgan bola boshqa oilaga joylashtirilib, unga oilaviy tarbiya beriladi. Farzandlikka olinuvchilar farzandlikka oliuvchilar tufayli hamma masalalarda ota-onasini o‘rnini bosadigan shaxslarga ega bo‘ladilar.

Farzandlikka olish tufayli bolalari bo‘lman shaxslar otalik va onalikdan iborat bo‘lgan tabiiy ehtiyojlarini qondiradilar. Farzandlikka olish ayniqsa Ikkinchiji jahon urushi yillarida juda ko‘p tarqalgan bo‘lib, fuqarolar ota-onasidan yetim qolgan bolalarni o‘z bag‘rilariga olib ularga nisbatan mehribonlik qiladilar.

O‘zbekistondagi ko‘pgina bolalarni o‘z bag‘riga olib tarbiyalagan oilalar juda ko‘p. Jumladan, rus, o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, yahudiy, tatar, moldavan va boshqa millatlarning 14 bolasini o‘z bag‘riga olib, ularni bir-biriga do‘s, mehribon, aka-ukadek qilib o‘stirgan oddiy temirchi Shomahmud Shomaxmudov

va uning rafiqasi Bahri Akramovaning vatanparvarligi juda yuksakdir. Vatan va xalq oldidagi bu oljanob ishlari uchun ular davlat tomonidan yuksak rag'batlantirildi. Toshkent shahri Xalqlar do'stligi maydonida ularga haykal o'rnatildi. Bunday mehribon ota-onalar jamiyatimizning fahridir¹²¹.

Farzandlikka olish - bu o'zganing farzandini o'z farzandiga tenglashtirib olishdir. Farzandlikka oluvchilar bilan farzandlikka olinganlar o'rtasida tuqqan ota-onalar bilan bolalar o'rtasidagi kabi huquqiy munosabatlar vujudga keladi.

Farzandlikka olish farzandlikka oluvchi (va uning qarindoshlari) hamda farzandlikka olinganlar (va ularning bo'lg'usi avlodlari) o'rtasida qonunda ota-onalar bilan bolalarga nisbatan belgilangan qonun hujjatlarida maxsus ko'rsatilgan yoki ko'rsatilmaganligidan qat'iy nazar, barcha shaxsiy va mulkiy huquq hamda majburiyatlarni vujudga keltiradi.

Farzandlikka olish juda qadimiy huquqiy institut bo'lib, hozirgi zamon huquq tizimida o'z ifodasini topgan, ota-onalar vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni oilaga joylashtirishdan iborat.

2-§. Farzandlikka olish shartlari va tartibi

Farzandlikka olish shartlari deyilganda, farzandlikka olish uchun qonun bilan belgilangan shaxslarning roziliklari tushuniladi. Ular doirasiga quyidagilar kiradi: a) bolaning ota-onasi yoki ularning o'rnnini bosadigan shaxslarning roziligi, b) o'n yoshga to'lgan bolani o'zining roziligi; v) agar er-xotindan bittasi tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa farzandlikka olayotganni eri yoki xotini.

Bu shartlarni mohiyati nimalardan iborat. Bu shartlar mazmunini nimalarning anglatadi.

Oila kodeksini 159-moddasiga binoan, bolani farzandlikka olish uchun farzandlikka olinayotgan bola ota-onasining roziligi talab etiladi.

Ota-onaning bolaning farzandlikka olinishiga roziligi yozma shaklda bayon etilishi kerak.

Oila qonuniga ko'ra quyidagi hollarda ota-onaning rozilgisiz farzandlikka olishga yo'l qo'yiladi;

 Ota-onaning kimligi noma'lum bo'lsa;

 Ota-ona ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bo'lsa;

 Ota-ona muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan deb topilgan yoki vafot etgan deb e'lon qilingan bo'lsa;

 Ota-ona bir yildan ortiq muddat davomida bolalar yoki davolash muassasalaridagi bolalardan uzrli sabablarsiz xabar olmagan bo'lsa.

Farzandlikka olishni navbatdagi sharti bo'lib, o'n yoshga to'lgan bolani farzandlikka olish uchun uning roziligi talab qilinadi.

¹²¹ F.Otaxo'jayev. Oila va qonun. -T., 1983y, 29-bet.

Farzandlikka olish uchun bolaning roziligi vasiylik va homiylik organi tomonidan aniqlanadi (Oila kodeksini 155-moddasi).

Farzandlikka olishda bolani farzandlikka olishga bo‘lgan munosabatini aniqlash muhim ahamiyatga ega bo‘lib uni huquq va manfaatlarini qo‘riqlashga qaratilingan.

10 yoshga to‘lish bilan bola bo‘layotgan ishga o‘z erkini ongli ravishda izhor qilishligi mumkin. Bu maqsadlarni nazarda tutib vasiylik va homiylik organlari tushunarli asosda farzandlikka olishni mohiyatini va undan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlarni: bola va farzandlikka oluvchilar o‘rtasidagi huquqiy munosabatlar, ularning qarindoshlari, ota-onalari (aka-ukalari, pasangillari va bobo-buvilari) o‘rtasidagi munosabatlarni tugallanishi); familiya, ota ismini, ota-onalar to‘g‘risidagi boshqa ma'lumotlarni o‘zgartirishdan iborat.

Farzandlikka oluvchini shaxsiyati to‘g‘risida bola shaxsan xabardor bo‘lishligi kerak.

Oila kodeksini 156-moddasiga muvofiq agar bola farzandlikka oluvchilarning oilasida tarbiyalanayotgan bo‘lsa va ularni o‘z ota-onasi deb e’tirof etsa, farzandlikka olish farzandlikka olinayotgan bolaning roziligesiz amalgaga oshirilishi mumkin.

Bu qoida bolani kutilmagan his-tuyg‘u va ruhiy ta’sirlardan xoli qilib, farzandlikka olinayotganni tug‘ishgan o‘g‘il (qiz) sifatida o‘sayotganligiga ta’sir etadi.

Agar bola er-xotinning har ikkalasi tomonidan farzandlikka olinmayotgan bo‘lsa, bunga xotin (er)ning roziligi talab etiladi (Oila kodeksini 157-moddasi 1-bandi). Ko‘pincha amaliyotda er-xotinlarni ikkalovlari tomonidan bolalar farzandlikka olinadi.

O‘zbekiston Respublikasida farzandlikka olish ma’muriy tartibda belgilanadi. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni xohlagan shaxslarning arizasiga va vasiylik va homiylik organlari tavsiyasiga ko‘ra tuman, shahar hokimi qarori bilan amalgaga oshiriladi.

Oila kodeksini 163-moddasiga binoan tuman, shahar hokimining farzandlikka olishni rad etganligi ustidan farzandlikka olish haqidagi ariza bergen shaxs sud tartibida shikoyat qilishi mumkin.

Farzandlikka olishni istovchi shaxslar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

Farzandlikka oluvchilarning ismi, familiyasi, otasining ismi, yashash joyi, nikohda qachondan berib turganligi, ularning birga yoki alohida yashashi, agar farzandlari bo‘lsa ularning soni va yoshlari farzandlikka olinadigan bolaning familiyasi, ismi, otasiing ismi, yoshi va jinsi ko‘rsatilgan arizasi;

Shaxsini tasdiqlovchi hujjat;

Nikoh tuzilganligi (nikohdan ajralganlik) haqidagi guvohnomaning nusxasi;

Oila a’zolari ko‘rsatilgan qoida turar joydan ma'lumotnomasi;

Ish joyidan ish haqi ko‘rsatilgan ma'lumotnomasi;

Farzandlikka olishni istovchi shaxsning sog‘lig‘i to‘g‘risida tabbiy maslahat komissiyasining xulosasi, psixiatriya, narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari dispanverining ma'lumotnomasi.

Farzandlikka olish to‘g‘risidagi tuman, shahar hokimining qarori chiqarilganidan keyin o‘n kun ichida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari farzandlikka olinayotganlarning tug‘ilishi qayd etilgan daftarga zarur o‘zgartirishlar kiritilishi lozim.

Farzandlikka oluvchilar bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi yozuvlar daftariga uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug‘ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo‘lmagan farq bilan o‘zgartiriladi.

3-§. Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish

Oila kodeksini 168-moddasida farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishga asos bo‘ladigan holatlarning tugallangan ro‘yxati berilgan.

Farzandlikka olish quyidagi hollarda haqiqiy emas deb topiladi, agar:

Farzandlikka olish qalbaki hujjatlar asosida rasmiylashtirilgan bo‘lsa;

Farzandlikka olish soxta bo‘lsa;

Voyaga yetgan shaxs farzandlikka olingen bo‘lsa;

Farzandlikka oluvchi Oila kodeksining 152-moddasiga muvofiq farzandlikka olish huquqiga ega bo‘lmagan bo‘lsa;

Me'yoriy hujjatda farzandlikka olishni istovchi shaxslar tomonidan taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar ro‘yxati berilgan. Shu ro‘yxatda ko‘rsatilgan hujjatlardan birining farzandlikka oluvchi tomonidan qalbakilashtirilganligi aniqlanishining o‘zi belgilangan tartibda farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topishni so‘rab sudga murojaat qilishga asos bo‘ladi.

Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish masalasini ishning barcha holatlarini hisobga olgan va bola manfaatlaridan kelib chiqqan holda sud hal qiladi¹²².

4-§. Farzandlikka olishni bekor qilish

Oila kodeksini 169-moddasida farzandlikka olishni bekor qilish asoslari beriladi.

Farzandlikka olishni bekor qilishni asoslari quyidagilardan iborat:

Farzandlikka oluvchilar o‘z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo‘lsalar;

Ota-onalik huquqini suiiste'mol qilayotgan bo‘lsalar;

¹²² O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. -T., "Adolat", 2000, 316 b.

Farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo‘lsalar;

Muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan bo‘lsalar bekor qilinishi lozim.

Farzandlikka olinuvchining hulq-atvori farzandlikka oluvchilarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazayotgan, ularning hayoti va sog‘lig‘iga xavf solayotgan bo‘lsa, farzandlikka olinuvchi voyaga yetganidankeyin farzandlikka olish bekor qilinishiga yo‘l qo‘yiladi.

Sud boshqa asoslarga ko‘ra ham bolaning manfaatlaridan kelib chiqib, uning fikrini hisobga olgan holda farzandlikka olishni bekor qilishga haqlidir.

Farzandlikka olishni bekor qilish biryo‘li huquqni bekor qilish va huqujni tiklovchi yuridik fakt bo‘lib hisoblanadi.

Farzandlikka olishni bekor qilishda farzandlikka olishdagi butun huquqiy oqibatlarni kelajak vaqt uchun tugallatadi. Agar bu bolalar manfaatiga mos kelsa bir vaqtda uning huquqiy aloqilari ota-onalari va boshqa qon-qarindoshlari bilan ham tiklanadi.

Farzandlikka olishni bekor qilish faqat sud tartibida amalga oshiriladi. Farzandlikka olishni bekor qilishni mezoni bo‘lib shu bekor qilishlik bolalar manfaatiga qaratilishi bilan belgilanadi.

Umumiyl qoida bo‘yicha farzandlikka olishni bekor qilish bola to‘la muomala layoqatiga to‘lishiga qadar sodir bo‘ladi. Bu esa ularni muomala layoqatiga to‘lishi bilan ota-onalarni huquq va majburiyatlarining tugallanishi bilan bog‘liq bo‘lib farzandlikka olishni bekor qilish uchun ham zaruriyat qolmaydi.

Farzandlikka olishni bekor qilish farzandlikka olinganni farzandlikka oliuvchilarni va farzandlikka olinganlarni ota-onalarini roziligi mavjud bo‘lganida yo‘l qo‘yilishi mumkin.

Agar farzandlikka olinuvchini ota-onasi ota-onalik huquqididan mahrum etilgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan bo‘lsalar ularni roziligini olmasdan farzandlikka olishlik bekor qilinadi.

Agar farzandlikka olish farzandlikka olinuvchilarni ota-onalarini rozilgisiz yoki majburlash yo‘li bilan olingan bo‘lsa bolalarni ota-onalarini farzandlikka olishni bekor qilishlikni talab etishlari mumkin.

Odatda ko‘pincha farzandlikka notinch bo‘lgan oilalardan bolalar beriladi. Ko‘pincha farzandlikka olish bekor qilinganda bola vaqtincha vasiylik va homiylik organlariga topshiriladi.

Farzandlikka olish bekor qilinganda sud farzandlikka olgandan bola manfaati uchun aliment undiriladi. Bu masalani hal qilishda sud bиринчи navbatda bola manfaatlarini hisobga oladi. Agar bolani holati aliment olishlikni talab etsa u holda farzandlikka oluvchidan aliment undiriladi. Aliment undirishlik o‘zining huquqiy tabiatи bo‘yicha javobgarlik chorasi bo‘lmасдан balki uning birdan bir maqsada bolaning ta’mинотидир. Agar bola manfaati aliment undirishlikni talab etsa u holda farzandlikka oliuvchidan aliment undiriladi.

Agar bola o‘zining ota-onasiga qaytarilsa, agar bola ishlasa yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanib o‘zini o‘zi ta’minlasa u holda aliment undirilmaydi.

Farzandlikka olish bekor qilinganda bola farzandlikka olinganda unga berilgan yangi ism, familiya va ota ismini o‘zgartirgan oy-kunlar va bolani tug‘ilgan joyi. Agar bolani manfaati talab etsa u holda sud bolani ismi, familiyasi va ota ismini saqlab qolish huquqiga ega. Bu holat bolani tug‘ilgan joyi va oy kuniga ham tegishlidir. Bolani familiyasi va ota ismini saqlab qolish to‘g‘risidagi farzandlikka oluvchini fikri ahamiyatga ega emas. 10 yoshga to‘lgan bolani ismi, familiyasi va ota ismini o‘zgartirish uni rozilgisiz mumkin emas. Bu masala bo‘yicha qonunda to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lmasa ham bu holat uni to‘g‘ilish joyiga ham tegishlidir.

Oila kodeksini 170-moddasiga ko‘ra farzandlikka olishni bekor qilishni talab qilishni talab etish huquqiga ega bo‘lganlar doirasiga farzandlikka olinganning ota-onasi, prokuror, vasiylik va homiylik organlari, voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar, shuningdek o‘n olti yoshga to‘lgan farzandlikka olingen bola kiradi.

Farzandlikka olishni haqiqiy emas deb topish va farzandlikka olishni bekor qilish sud tartibida amalga oshiriladi.

Sud tomonidan farzandlikka olish haqiqiy emas deb topilganda yoki farzandlikka olish bekor qilinganda farzandlikka olish bekor qilinganda farzandlikka olinuvchi bola bilan farzandlikka oluvchilarining (farzandlikka oluvchilarining qarindoshlari) o‘zaro huquq va majburiyatlar tugatiladi hamda bola bilan uning ota-onasi (ota-onaning qarindoshlari) o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar tiklanadi.

XXI Mavzu. Voyaga yetmagan bolalar uchun vasiy va homiy tayinlash

1-§. Vasiylik va homiylikning maqsadi

Hayotda baxtsiz tasodif va har xil sabablar tufayli ota-oni tarbiyasidan va uni ta’minotidan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalarni oilaviy tarbiyaga yaqin bo‘lgan tarbiyani ta’minlaydigan vositalardan biri vasiylik va homiylikdir.

Vasiylik va homiylikning asosiy maqsadi ota-oni qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga joylashtirish shakllaridan biridir.

Vasiylik va homiylik masalalari fuqarolik va oila qonunlarining tegishli moddalari bilan tartibga solinadi. Vasiylik va homiylik masalalariga Oila kodeksida va me’yoriy hujjat “Nizom”da keng o‘rin berilgan.

Oila kodeksini 175-moddasiga binoan vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish o‘n sakkiz yoshga to‘lmagan shaxslarga nisbatan - xalq ta’limi bo‘limlariga, sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar nisbatan - sog‘liqni saqlash bo‘limlariga, sog‘ligining yomonligi sababli homiy tayinlanishiga muhtoj muomalaga layoqatlari

shaxslarga nisbatan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo‘limlariga yuklatiladi.

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida Nizom"ning 4-bandiga ko‘ra, vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish mahalliy hokimiyat organlarining qaysi bo‘limlari tomonidan amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Qonun bu masalani hal qilishda vasiy yoki homiy tayinlashning maqsad va vazifalaridan kelib chiqadi.

Vasiylik va homiylik Oila kodeksining XXI bobi, 179-199-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 12 apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risida Nizom" bilan huquqiy tartibga solinadi.

Oila kodeksini 173-moddasiga binoan vasiylik va hmoiylik ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ta’minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta’lim berish, shuningdek bunday bolalarning shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlarni himoya qilish uchun belgilanadi.

Vasiylik 14 yoshga to‘lmagan bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi hollarda belgilanadi:

 Ota-onasi vafot etgan bo‘lsa;

 Ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda;

 Ota-onasi kasal bo‘lganda;

 Ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

 Ota-onasi 6 oydan ortiq muddat bo‘lmagan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo‘lsa;

 Ota-onasi bedarak yo‘qolganda;

 Ota-onasi bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarni himoya qilishdan bo‘yin tovlaganda, shu jumladan ota-onalik tarbiya, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o‘xhash muassasalardan bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek boshqa zarur hollarda.

2-§. Vasiylik va homiylikni belgilovchi organlar

Amaldagi qonunlarga muvofiq vasiylik va homiylik vasiy va homiy tayinlashga muhtoj bo‘lgan shaxs yashayotgan joyda belgilanadi. Yashash joyi deyilganda voyaga yetgan shaxsnинг doimiy ro‘yxatdan o‘tgan turar joyi tushuniladi. Voyaga yetmaganlarning yashash joyi ularning ota-onalari yashaydigan joy hisoblanadi.

Vasiylik va homiylik tuman yoki shahar hokimining qarori bilan belgilanadi.

Hokimning vasiy yoki homiy tayinlash to‘g‘risidagi qarori O‘zbekiston Respublikasining butun hududida haqiqiy hisoblanib, barcha yuridik hamda jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Amaldagi Oila kodeksini 176-moddasida vasiylik va homiylik belgilanadigan shaxslar ko'rsatilgan. Ilgari amalda bo'lган Nikoh va oila kodeksining 169-moddasida vasiylik o'n besh yoshga to'lмаган bolalarga nisbatan belgilanishi nazarda tutilgan bo'lsa, yangi Oila kodeksiga ko'ra o'n to'rt yoshga to'lмаган voyaga yetmaganlarga nisbatan belgilanadi.

Vasiy o'zining vasiyligida shaxsning nafaqat mulkiy, balki shaxsiy nomulkiy huquq va manfaatlarini ham himoya qiladi.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lган voyaga yetmaganlarga nisbatan homiy tayinlanadi.

3-§. Vasiylik va homiylik vazifalarini amalga oshirish

Fuqarolik kodeksini 32-moddasiga binoan vasiylik va homiylik muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga to'liq layoqati bo'lмаган fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun belgilanadi. Voyaga yetmaganlarga vasiylik va homiylik ularni tarbiyalash maqsadida ham belgilanadi. Vasiylar va homiylarning bunga tegishli huquq va burchlari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Vasiylar va homiylar o'z himoyalaridagi shaxsning huquq va manfaatlarini har qanday shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudlarda ham maxsus vakolatsiz himoya qiladilar.

Voyaga yetmagan bolalarga vasiy va hmoiy belgilanganda uning oldiga qo'yilgan maqsad ularga oilaviy tarbiyani ta'minlash, ular bolalar bilan bir oilada yashashlari lozim.

Vasiylik yoki homiylikdagi shaxslarning mol-mulkini boshqarish vasiylik va homiylik organlarining tavsiyasiga asosan mol-mulk joylashgan hududda o'rnatiladi.

Vasiylik va homiylikdagi shaxslarning mol-mulkini boshqarish, ularga tegishli mol-mulkni boshqalarga o'tkazish, vasiylik va homiylikdagi shaxslarga tegishli pul va boshqa qimmatli bo'yumlarni saqlash, mol-mulkni boshqarish va saqlash bilan bog'liq bo'lган boshqa harakatlarni bajarish tartibi va shartlari, shuningdek vasiylik va homiylikdagi shaxslarning mol-mulkini boshqarish va saqlash bo'yicha vasiy va homiylarning hisobot berish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Vasiy va homiy o'z vasiyligi yoki homiyligidagi shaxsga ta'minot berishga majbur emas.

Vasiylik va homiylik ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lган bolalarni ta'minlash, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, shuningdek, ularning shaxsiy va mulkiy huquqlari va manfaatlarini himoyalash maqsadida belgilanadi.

Vasiy 14 yoshga to'lмаган bolalarga va sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarga, homiylik esa 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lган voyaga yetmaganlarga va sud tomonidan muomala layoqati cheklangan shaxslarga nisbatan quyidagi hollarda belgilanadi:

Ota-onasi vafot etgan bo'lsa;

Ota-onasi sud qarori bilan ota-onalik huquqidan mahrum etilganida yoki ularning ota-onalik huquqi cheklanganda;

Ota-onasi kasal bo‘lganda;

Ota-onasi sud qarori bilan muomalaga layoqatsiz deb topilganda;

Ota-onasi 6 oyodan ortiq muddat bo‘limgan hollarda, agar bu bolalarning manfaatlari uchun zarur bo‘lsa;

Ota-onasi bedarak yo‘qolganda;

Ota-onasi bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlaganda, shu jumladan, ota-ona tarbiya, davolash muassasalari, aholini ijtimoiy himoyalash muassasalari va shunga o‘xshash muassasalardan bolasini olishdan bosh tortganda, shuningdek boshqa zarur hollarda.

4-§. Vasiy va homiyning huquq hamda majburiyatları

Oila kodeksini 181-moddasiga binoan vasiylar o‘z qaramog‘idagi shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar va ular nomidan hamda ularning manfaatlarini ko‘zlab barcha zarur bitimlarni tuzadilar.

Homiylar o‘z qaramog‘idagi shaxslarga ular o‘z huquqlarini amalga oshirishida va majburiyatlarini bajarishida ko‘maklashadilar, shuningdek ularning huquqlari uchinchi shaxslar tomonidan suiiste'mol etilishidan himoya qiladilar.

Vasiylar va homiylar vasiylik va homiylikdagi shaxslarning huquq va manfaatlarini barcha muassasalarda, shu jumladan, sudda ham alohida ishonchnomasiz himoya qiladi.

Vasiy va homiy:

Turar joyi o‘zgarganligi to‘g‘risida vasiylik va homiylik organini xabardor qilishi;

Vasiyligi va homiyligidagi bolalarni tarbiyalashi, ularning ta'minoti, salomatligi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va ahloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilishi, shuningdek ularning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi;

O‘z qaramog‘idagi voyaga yetmagan bolalar bilan barcha yashashi shart. 16 yoshga to‘igan homiylikdagi bolaning o‘z homiysidan alohida yashashiga basharti bu uning tarbiyasiga hamda huquq va manfaatlarining himoya qilinishiga salbiy ta'sir qilmasa, vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan yo‘l qo‘yiladi.

Vasiy va homiy quyidagi vazifalarni bajarish huquqiga ega: vasiyligi va homiyligidagi bolaning fikri, shuningdek, vasiylik va homiylik organining tavsiyalarini hisobga olgan holda bolani tarbiyalash usullarini mustaqil ravishda belgilashga;

Vasiyligi yoki homiyligidagi bolani qonuniy asoslar bo‘lmadan turib, o‘z qaramog‘ida saqlab turgan har qanday shaxslardan, shu jumladan, bolaning yaqin qarindoshlaridan sud tartibida qaytarib berishni talab qilishga haqlidirlar.

Vasiy va homiy huquqlarining amalga oshirilishi hamda majburiyatlarining bajarilishini vasiylik va homiylik organlari nazorat qiladi.

Vasiy yoki homiy o‘z zimmasiga qonun bilan yuklangan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganida vasiylik va homiylik organlari tavsiyasiga ko‘ra tuman (shahar) hokimi vasiy yoki homiyni bu majburiyatlarni bajarishdan chetlatadi.

Vasiy yoki homiy majburiyatlarni sifatli bajarmaganida bu majburiyatlarni bajarishdan chetlanish masalasi sudga tegishli bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki sud nizoli masalaniadolatli hal qilib o‘z faoliyatida faqat qonunga asoslanib hal qiladi.

Homiylidagi shaxs yoki va vasiy vafot etganda;

Voyaga yetmaganlarga nisbatan - ular 14 yoshga to‘lganda yoki ular ota-onasi tarbiyasiga qaytarilganda;

Qonunda belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz deb topilganlar uchun - ularning muomala layoqati sud tomonidan tiklangan hollarda.

Homiylidagi shaxs yoki va vasiy vafot etganda;

Homiylidagi shaxs voyaga yetganda;

Homiylidagi shaxs ota-onasiga qaytarilganda;

Homiylidagi shaxs nikohga kirganda;

Voyaga yetmagan shaxs to‘la muomalaga layoqatli deb e’lon qilinganda (emansipatsiya);

Fuqaroning muomala layoqatini cheklash haqidagi sudning hal qiluv qarori bekor qilinganda;

Homiylidagi voyaga yetgan shaxsning sog‘lig‘i yaxshilanganligi tufayli u mustaqil ravishda o‘z huquqlarini amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish mumkin bo‘lganda.

XXII Mavzu. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat)

1-§. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) tushunchasi va tartibi

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat), Oila kodeksini 22-bobi, 194-200-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 19 apreldagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risidagi Nizomi"ni ikkinchi bo‘limi bilan huquqiy tartibga solinadi.

Oila kodeksini 194-moddasiga binoan ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish ixtiyoriy bo‘lib, u vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar o‘rtasida tuzilgan maxsus shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

O‘n yoshga to‘lgan bolalarni ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin.

Bolani oilaga tarbiyaga berish shartnomasi vasiylik va homiylik organi va tutingan ota va ona bilan tuziladi.

Bolaning oilaga tarbiyaga olish ularga oilada oilaviy tarbiyani olish uchun imkoniyat berib, qonun unga so'zsiz afzallik beradi.

Vasiylik va homiylik organi bolalarni tarbiyaga olishni istovchilarning oilaviy sharoiti, moddiy ta'minoti ahvolini o'r ganib chiqadi va ularni hisobga oladi.

Oilaga bolani tarbiyaga olish shartnoma asosida amalga oshiriladi. Shartnoma esa vasiylik va homiylik organlari va bolani oilaga olmoqchi bo'lган tutingan ota-onalar (er-xotinlar, alohida fuqarolar bo'lishi mumkin).

Oilaga bolalarni tarbiyaga olish uchun shartnomada ko'rsatilgan voyaga yetmagan bolalar bo'lishligi lozim. Vasiy (homiy)lar tutingan ota-onalardan farq qilib vasiylik va homiylik organlari bilan shartnoma munosabatlarida bo'ladilar.

Oilaga bolalarni tarbiyaga olish odatiy bolalar uyidan farq qilib unda bolalarning kam sonligi bilan farq qiladi. Bu esa unda jamoat tarbiyasidan farq qilib oilaviy tarbiyani ta'minlaydi. Bu esa ota-onalar uchun bolalar bilan bevosita munosabatda bo'lishligi uchun imkon yaratadi. Qonun bilan bolalarni oilada eng kam soni ko'rsatilmagan. Shuning uchun uni soni bir boladan iborat bo'lishi mumkin. Qoida bo'yicha bolalarni soni 8 boladan oshmasligi kerak.

Oilaga bolani tarbiyalash uchun olish vasiylikdan farq qilib, tutingan ota-onalar vasiylik va homiylik organlari bilan shartnoma munosabatlarida bo'lib o'zlarini majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun haq oladilar. Bolalar va tutingan onalar o'rtasida vasiylikka olinganlar va vasiy va homiylargacha nisbatan yaqinroq munosabatlarda bo'ladilar.

2-§. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv va uning mazmuni

Oila kodeksini 195-moddasiga binoan bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-ona o'rtasida tuziladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvda bolalarni ta'minlash, tarbiyalash va ularga ta'lif berish, tarbiyaga olgan tutingan ota-onaning huquq va majburiyatlar, vasiylik va homiylik organlarining bolalarni tarbiyaga olgan oilaga nisbatan majburiyatlar, shuningdek bunday kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlari ko'rsatiladi.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olayotgan tutingan ota-onalar albatta voyaga yetgan va muomalaga layoqatli bo'lishlari kerak. Oilaga bola olayotgan ota-onalarga ota-onalik huquqi ularni nikohda bo'lган shuningdek yolg'iz fuqarolarga beriladi. Farzandlikka oluvchilarни shaxsiyatidan nimani talab etilsa, tutingan ota-onalar shaxsiyatidan ham shularni talab etadi. Ota-onalik huquqidан mahrum etilganlar yoki ota-onalik huquqlari cheklanganlar; vasiylik va homiylik majburiyatidan ozod etilganlar; ilgari farzandlikka olib ayblari farzandlikka olishdan chetlatilganlar; sog'liqlari tufayli bolalarga tarbiya beraolmaydiganlar; tutingan ota-ona bo'laolmaydilar. Tutingan ota-onalar bilan vasiylik va homiylik

organlari shartnoma tuzish vaqtida ularni ma'naviy qiyofalari, moddiy-maishiy sharoitlari, yoshi va boshqa sharoitlarini hisobga oladi.

Bolalar yoshlaridan qat'iy nazar shartnoma tuzish vaqtida ishtirok etmaydilar. Tutingan oilalarga ota-onalik homiyligidan mahrum etilgan bolalar qabul qilinadi. Agar aka-ukalar, opa-singillar bir oilada tarbiyalangan bo'lsalar ularni ajratish maqsadga muvofiq emas. Faqat bolalarni manfaati talab etsa shundagina unga yo'l qo'yilishi mumkin. Ko'pincha bunday aka-uka, opa-singillarni ajratishlik ularni biri kasal bo'lib bola qabul qilib olayotgan oilaga xavf tug'dirsa.

Shartnomada ko'rsatiladigan majburiyatlardan biri vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-onalar o'rtasidagi bolani oilaga olish muddati, tarbiyalash, ta'lif berish va ularni moddiy ta'minlash shuningdek, vasiylik va homiylik organini bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) oldidagi majburiyati.

Bolalarni oilaga tarbiyaga berishda vasiylik va homiylik organlari ularni bir yo'li kiyim-bosh va poyabzal bilan ta'minlaydilar.

Vasiylik va homiylik organlari bolani oilaga tarbiyaga olgan tutingan ota-onaga qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda har oyda nafaqa to'lab turadi.

Kelishuv muddatidan oldin quyidagi sabablar bo'lganda tutingan ota-onaning tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin:

Kasalligi;

Oilaviy yoki mulkiy mavqyeining o'zgarishi;

Bolalar bilan o'zaro bir-birini tushunmaslik va boshqalar.

Vasiylik va homiylik organining tashabbusi bilan yoki bolalar ota-onalarga qaytarilgan yoxud ular farzandlikka olinganda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

3-§. Oilaga tarbiyaga olingen bolalarning huquqlari

Oila kodeksini 197-moddasiga muvofiq oilaga tarbiyaga olingen bolalar quyidagi huquqlarga ega:

O'zlariga tegishli bo'lgan aliment shuningdek, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to'lovlarini olish;

Uy-joyga bo'lgan mulk huquqi yoki uy joylardan foydalanish;

Qolgan hujjatlariga muvofiq uy-joy olish huquqlarini saqlab qoladilar.

Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, ota-onasi va qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ham egadirlar.

Bolaning manfaatiga dahldor har qanday masala oilada hal qilinayotganida bola o'z fikrini bildirishga haqli.

Ushbu moddada oilaga tarbiyaga beriladigan bolalar (patronat_ ro'yxati berilgan. Bular birinchi navbatda ota-onalik homiyligidagi butunlay mahrum bo'lgan yoki muddati belgilanmagan uzoq muddatli bolalardir.

Bolalarni oilaga tarbiyaga olgan ota-onalar o'rtasidagi nizolar vasiylik va homiylik organlari, zarur holatlarda esa sud tomonidan ko'rildi.

Oila kodeksini 200-moddasiga binoan vasiylik va homiylik organlari oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning tur mush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib boradilar.

4-§.Tutingan ota-onalarning huquq va majburiyatları

Oila kodeksini 198-moddasiga binoan, voyaga yetgan har ikki jinsdagি shaxslar tutingan ota-ona bo‘lishlari mumkin.

Quyidagi shaxslar tutingan ota-ona bo‘laolmaydilar:

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

Sud tomonidan ota-onalik huquqidан mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan shaxslar;

Qonun bilan o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatni lozim darajada bajarmaganligi uchun vasiylik yoki homiylik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;

Farzandlikka bola olgan lekin keyinchalik o‘z zimmalariga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlagan yoki ularni lozim darajada bajarmaganligi uchun sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilingan shaxslar;

Qasddan qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilingan shaxslar;

Sog‘ligining holatiga ko‘ra bolani tarbiyalash majburiyatini bajara olmaydigan shaxslar.

Amaldagi oila qonunchiligiga muvofiq, tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Tutingan ota-ona tarbiyaga olingan bolaga nisbatan vasiylik huquq va majburiyatlariga egadir.

Ushbu moddada tutingan ota-ona oilasiga tarbiyaga olingan bolaning qonuniy vakili hisoblani, unga nisbatan vasiylik huquq va majburiyatlariga egadir. Tutingan ota-ona oilaga tarbiyaga olingan bolaning huquq va majburiyatlarini har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo‘lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz himoya qiladi¹²³.

XXIII Mavzu. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solish.

O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida tuzilgan nikohlarni e’tirof etish

Fuqarolik-shaxsning huquqiy maqomi sifatida qator belgilarga ega. U birinchidan, shaxsning ma'lum bir davlatga mansubligini bildiradi. Ikkinchidan, bu

¹²³ O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlari, -T., "Adolat", 2000, -365b.

mansublik davlat bilan o'sha shaxs, fuqaro o'rtasidagi siyosiy-huquqiy bog'liqlikni, aloqani bildiradi.

SSSRni parchalanib ketishligi uning hududida bir qator mustaqil davlatlarni vujudga kelishligi, aholini ko'chishini kuchayishi tufayli ko'pgina chet el fuqarosi bilan bog'langan oilaviy munosabatlarni vujudga kelishligiga olib keldi.

Xalqaro xususiy huquqda chet el elementi bilan ishtirok etgan munosabatlar deyilganda, unda chet el fuqarosi ishtirok etgan bo'ladi. Masalan, chet el fuqarosi tomonidan bolani farzandlikka olish. Chet el elementi bilan bog'liq holat yana shunday bo'lishligi mumkin, agar yuridik faktga asoslangan huquqiy munosabatni vujudga keltiradigan, o'zgartiradigan yoki uni bekor qiladigan holat chet el hududida sodir bo'lsa. Oilaviy munosabatlarda chet el elementi paydo bo'lsa ularni huquqiy tartibga solishda qaysi mamlakatni huquqi tatbiq etilib va tartibga solishda qaysi organ vakolatli bo'lib masala hal qilinadi. Bu muammolarni hammasi xalqaro xususiy huquq sohasiga tegishli bo'ladi.

O'zbekistonni yopiq jamiyatdan ochiq jamiyatga o'tishligi tufayli xalqaro aloqalar kengayib boradi. Bizning mamlakatga chet davlatlardan turistlar, shuningdek talabalar, ishbilarmon odamlar (bankirlar, tadbirkorlar va boshqalar)ni kelishligi. Ilgari yo'qotilgan shaxsiy aloqada bo'lgan qarindoshlar o'rtasidagi aloqalarni tiklash uchun imkoniyat yaratildi. O'z navbatida bizning fuqarolarni chet mamlakatlarga borishligi u yerda yashashligi kam uchraydigan holat bo'lmasdan tez-tez uchraydigan holat bo'lib qoldi.

Demak, Oila kodeksini 234-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar uning hududida oilaviy munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlardan foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar.

Fuqarolikka oid qoidalar Xalqaro shartnomalarda ham ko'zda tutiladi. Umumiy qoidaga ko'ra, basharti, O'zbekiston Respublikasi tomonidan imzolangan xalqaro shartnomada mamlakatimiz qonunlaridan boshqacha qoida belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq xalqaro shartnomadagi qoida qo'llaniladi.

1-§. Nikohdan ajratish

Mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar o'rtasidagi, shuningdek chet el fuqarolari o'rtasidagi nikohdan ajratish O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksi qoidalari asosida amalga oshiriladi.

Ikki chet el fuqarosi nikohdan O'zbekistonda ajrashgan bo'lsa, uni tan olish yoki olmaslik masalasi tegishli davlatning qoidalari va fuqarolik protsessual qonunlariga rioya qilingan holda ko'rilib ajratilgan bo'lsa, u haqiqiy deb hisoblanadi. Ammo nikohni ajratishga yo'l qo'ygan davlatlarning normalari (ya'ni, kollizion normalar) bu masalaga turlichay yondoshadi. Bunday hollarda nikohdan

ajratish fuqarolikka ega bo‘lgan shaxslar davlatining yoki shaxslar doimo yashab turgan davlatning qonunlariga itoat etadi.

Nikohdan ajratish ishlari xalqaro shartnomaga asosan tartibga solinsa (Oila kodeksining 9-moddasi), bunday ishga nisbatan shartnomada er-xotin fuqarolikka mansub bo‘lgan tegishli davlatning qonunlari tatbiq etilishi shart. Masalan, Sankt-Peterburgda yashab turuvchi O‘zbekiston fuqarosi (da‘vosi bo‘yicha) Samarqandda yashab turuvchi O‘zbekiston fuqarosi bilan nikohdan ajralar ekan, sud da‘vogar yashab turgan joy - Rossiya qonunini emas, balki O‘zbekiston qonunini qo‘llashi shart.

Oila kodeksining 236-moddasining 3-qismiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga binoan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida nikohdan ajralish mumkin bo‘lgan hollarda bunday nikohdan ajralish O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalarida yoki konsullik muassasalarida amalga oshirilishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda qayd etilgan nikohdan ajratish haqidagi qarorning O‘zbekistonda tan olinishi ushbu qaror O‘zbekiston sudining yoki fuqarolik holati dalolatnomalari organining qarori yuridik kuchga ega deb tan olinadi. Nikohdan ajratish haqidagi chet el davlatida qabul qilingan qaror er-xotinni nikohdan ajrashgan deb hisoblash uchun asos bo‘ladi.

2-§. Farzandlikka olish

Oila kodeksining 237-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘limgan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishda ham amaldagi kodeks 151-167-moddalarining talablariga rioya qilinishi lozim.

Mazkur qoidada O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan bolani yoki chet el davlati fuqarosi bo‘lgan bolani O‘zbekiston hududida, shuningdek, O‘zbekiston fuqarosi bo‘lgan bolani chet elda farzandlikka olish masalalariga oid qoidalar nazarda tutiladi.

Hayotda farzandlikka olingan bolaning chet elga olib ketilishi hollari hamon uchrab turmoqda. Bunday holda bolaning farzandlikka olinganligini isbotlovchi aniq dalillar talab qilinadi.

Chet el oila huquqi normalarining mazmunini aniqlash. Oila kodeksini 238-moddasiga muvofiq sud yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organi va boshqa ma’muriy organlar chet el oila huquqining normalarini qo‘llashda mazkur normalarning mazmunini ularning tegishli chet el davlatida rasmiy sharhlanishi va amaliyotda qo‘llanishiga muvofiq tarzda aniqlaydi.